


Саъдулла ИСКАНДАРОВ

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН М Е Ё М О Р И

Президент
Шавкат Мирзиёевнинг
сиёсий портретиغا чизгилар



УЎК: 323(092) (575.1)
КБК: 66.4(5Ў)
И 79

Искандаров, Саъдулла

И 79 Янги Ўзбекистон меъмори (Президент Шавкат Мирзиёевнинг сиёсий портретига чизгилар) [Матн] : публицистик нашр / С. Искандаров. – Тошкент: «Yangi kitob», 2022. – 384 б.

ISBN 978-9943-7774-4-6

Тарихдан маълумки, улкан шахслар, сиёсат арбоблари, айниқса давлат бошлиқлари фаолияти ҳақида ёзиш, ҳолисона фикр юритиши масъулиятини зиммага олишга ҳар ким ҳам журъат қилолмайди. Бунинг учун муаллифда, аввало, Худо берган юксак салоҳият, чўнг илмий заковат, катта ҳаётий тажриба, теран иқтисодий-сиёсий тафаккур ҳамда кенг миқёсли мустақил фикрлаш хусусияти бўлиши керак. Ундан ташқари тадқиқот мавзуси ҳақида етарлича мукамал тасаввурга эга, ўз қаҳрамонини яқиндан ва ҳар томонлама ўрганган бўлиши талаб этилади.

Таниқли олим, узоқ йиллик бошқарув тажрибасига эга раҳбар, фаол жамоат арбоби, кўплаб ажойиб олимлару йирик сиёсатчилар, халқ хўжалиги ишлаб чиқариши етакчиларининг мўътабар устози, академик Саъдулла Искандаров ана шу ҳақиқатларни яхши билади ва мавзу салмогини теран ҳис этган ҳолда қалам тебратади. Асарни диққат билан ўқисангиз, шунга комил ишонч ҳосил қиласиз.

Ушбу асар кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

ISBN 978-9943-7774-4-6

© Саъдулла Искандаров.
«Янги Ўзбекистон меъмори».
© «Yangi kitob» МЧЖ, 2022.

МУАЛЛИФДАН

Муҳтарам китобхон!

Ушбу рисолаи ёзиш учун қўлимга қалам олишдан олдин атрофлича ўйладим, муфассал мулоҳаза юритдим. Яширмайман: аввало ушбу мавзуда қалам тебратишга маънан ҳаққим борми, деган андиша ва истиҳолани енгишга тўғри келди. Шу боис аввало, таниқли ҳамкасб олимлар, етук ижодкор дўстларим билан дилдан суҳбатлашиб, фикрларини сўрадим, маслаҳатларини олдим. Билдирилган мулоҳазаларни атрофлича таҳлил этиб, шундай хулосага келдимки, агар холис назар билан илмийлик талабларига қатъий риоя эта олсам, ёлғондан, хушомадгўйлик замирида қандайдир тамалар яширинган сохта маддоҳликдан ҳазар қилган ҳолда дадил ва рўйирост мушоҳада юритсамгина, талабчан ва нозик дидли китобхонни мақсадим самимийлигига ишонтиришим мумкин. Бошқача айтганда, бу иш кенг ва теран илмий муносабат билан биргаликда оддий инсоний ҳис-туйғулар мусаффолигини, мутлақо беғаразликни талаб этаркан.

Аллоҳга ҳамду санолар бўлсинки, бу ҳаётда ҳамиша юзим ёруғ. Умрим давомида нимагаки эришган бўлсам, аввало, ўз иқтидорим, билим ва тафаккуримга, тинимсиз машаққатли меҳнатимга ва айнан ана шу хусусиятларим туфайли менга ўз назарларини солган мўътабар устозлар, садоқатли дўстларнинг беғараз мададига таянганман.

Бас, шундай экан, миллий қадриятлар азизу муқаддас бўлган, «оталар сўзи – ақлнинг кўзи» дея қаралувчи ҳикматли юртнинг бир оқсоқоли сифатида мана шу анчайин нозик мавзуда қалам тебратишга жазм этишим мумкин, деган фикрга келдим. Ушбу журъатимни қўллаб-қувватловчи, тасдиқловчи ва янада мустаҳкамловчи бошқа бир қатор жиҳатлар ҳам борки, улар ҳақида ҳам йўл-йўлакай албатта тўхталиб ўтаман.

Бирор масъулиятли ишга жазм этиш, шубҳасиз, масаланинг бир тарафи. Аҳамияти ундан кам бўлмаган, аслида моҳиятан ҳар қандай яхши ният ва эзгу истақдан анча баландда ва олдинда турувчи, керак бўлса, бу борадаги ҳал қилувчи жиҳат – шу ишни кўнгилдагидек уддалай оламанми, бунга ижодий ва илмий иқтидорим, тафаккурим қудрати етадими деган истиҳола ва андишадир.

Шу боисдан ҳам ушбу рисолани ёзишга ўтиришдан олдин муайян назарий тайёргарлик босқичини ўтаганимни ҳам айтишга бурчлиман. Яъни шу йўналишдаги ва шунга яқин, шунингдек, қайсидир даражада бевосита алоқадор кўплаб тарихий-илмий манбаларни қараб чиқишга тўғри келди.

Бундан мақсад шу эдики, узоқ ўтмиш ва яқин тарихдаги кўплаб воқеа-ҳодисаларни тасаввурим кўзгусидан ўтказдим ва синчиклаб таҳлил этишга, муқоясалар асосида одилона баҳолашга ҳаракат қилдим. Шу мавзудаги анча йиллар бурун ўқилган анчагина китобларни диққат билан такроран кўздан кечирдим. Шарқ тафаккури алломалари Абу Райҳон Берунийдан Абу Наср Форобийгача, Абулқосим Фирдавсийдан Низомий Ганжавийгача, Ҳисрав Деҳлавийдан Абдурахмон Жомий ва Низомиддин Мир Алишер Навоийгача, Конфуцийдан Лао Цзигача, Европа олиму сиёсатчилари, чунончи, Арасту ва Плутархдан бошлаб Никколо Макиавеллию Шарль Морис Талейрангача, Арнольд Тойнбидан

Збигнев Бзежинскийгача ғойибона суҳбатлашиб, улар томонидан шахснинг тарихдаги ўрни борасида билдирилган фикрлар, илгари сурилган ғоялар, башоратлар, мулоҳазаларни қайтадан, янада кенгроқ ва чуқурроқ холисона таҳлил этишга ҳаракат қилдим. Ёритилмоқчи бўлаётган мавзуга кўҳна тарихдан, бугунги замондан мисоллар, муқояса ва муқобалалар қидирдим. Зотан, буюк алломаларимиз уқтирганларки, биз кечаги кунимизни қанчалик яхши билсак, бугунги кун моҳиятини шунчалик шоён англаймиз, келажак сари ташлайдиган қадамларимиз шунчалик дадил ва ишончли бўлади.

Алқисса, мақсадимни очиқ айтиш палласи келди: орзуга айб йўқ, дейдилар. Камина озод ва мустақил мамлакатнинг бахтли, ўз тақдиридан рози бир кекса олими сифатида Янги Ўзбекистонда кейинги олти йил мобайнида юз берган ва юз бераётган мислсиз тарихий ўзгаришлардан астойдил севиниб, ҳаяжонланиб, тўлқинланиб ва илҳомланиб, мана шу оламшумул эврилишларнинг амалга ошишида чинакам фидойилик кўрсатаётган мамлакатимиз халқи ва унга донишмандона ва моҳирона йўлбошчилик қилаётган давлатимиз раҳбарининг беназир заковати, битмас-туганмас ғайрат-шижоати ҳақида ўзимнинг холисона фикрларимни баён этиш ниятини дилимга тугдим. Бинобарин, муҳтарам китобхон юқоридаги изоҳларимни инобатга олган ҳолда, ушбу эзгу ниятимни тўғри тушунади, фикрларим, кўз қарашларим билан атрофлича танишиб, таҳлил қилиб, ўзининг холис баҳосини беради деган умиддаман.

Албатта, мен сиёсатшунос, файласуф, иқтисодчи ёки тарихчи эмасман. Шу боис айрим мутахассисларга замонавий жамиятшунослик фанлари нуқтаи назаридан ушбу рисолам анчайин жўн ва ҳаваскорлик уринишидан иборат бўлиб кўриниши мумкин. Шундай бўлса, ушбу соҳаларнинг казо-казолари холислигим ва

самимиятим эвазига бу қусуримни маъзур тутарлар, деб ўйлайман. Ундан ташқари бу мушоҳадалар амалдаги давлат раҳбаридан кўрилган бир марҳамати олийга азбаройи жавоб тариқасидаги миннатдорлик ҳамда келгусидаги ҳиммату мурувватлардан умидворлик туйғуси билан ҳам боғлиқ эмаслигини яна бир карра таъкидлаб ўтиб кетаман. Зотан, тамагирликка асосланган маддоҳлик ва хушомадгўйликдан ҳар бир бандани Худонинг ўзи асрасин. Қўлимни кўксимга қўйиб айтай, саксон йилдан зиёд онгли ҳаётим давомида бунга муҳтож бўлмадим ва Худо хоҳласа, умримнинг охиригача шундай бўлиб қолажак.

Келинг, энди менга журъат бағишлаган ўта муҳим жиҳатлардан бирини айтай: бугунги олий раҳбаримизнинг кишини беҳад севинчли ҳайрат ва беғараз ҳавасга солувчи ижтимоий-сиёсий фаолияти, ҳаёт йўли ҳақида қалам тебратишга жазм этишимнинг ўта оддий ва айна пайтда жуда муҳим бир сабаби бор. Тақдир тақозосими ёки Яратганнинг иродасими, каминага мана шу инсоннинг мустақил ҳаёт йўлидаги дастлабки қадамларида бирга ишлаш, унинг севинчу ташвишларига бевосита гувоҳ бўлиш, айрим чигал масалаларни биргаликда, маслаҳатлашиб ҳал қилиш, хуллас, ҳамкору ҳамроз бўлиш насиб этган. Мана шу жиҳатнинг ўзи ҳам китоб мутолаасига киришаётган кишида туғилиши мумкин бўлган муайян саволларга жавоб берса, кўп нарсага ойдинлик киритса ажаб эмас.

Гапнинг индаллоси шуки, мен ўзим узоқ йиллардан буён яхши биладиган, руҳан яқин бир инсон тўғрисида юрагимдан ўтган ҳис-туйғу ва кечинмаларни чин юракдан самимий ўртоқлашмоқчиман, холос. Зеро...

Унинг навқирон йилларидаги курашчан қиёфаси, ўз кучига ишончи, устозларга нисбатан покиза ҳавас, улардек баркамол ва обрўли инсон бўлиш иштиёқи ва хайрли мақсад билан порлаган

кўзлари, мукаммал илм олиш, сиёсат жабҳасига дадил интилиш асосида етук арбоб, улкан шахс бўлиб шаклланиш жараёнлари хотирам ойнасида худди бугунгидай ёрқин акс этиб турибди. Унинг ўқиш ва ишлашни сидқидилдан яхши кўриши, бу борада бир дақиқа ҳам тиним билмаслиги, ана шу тиниб-тинчимасликдан завқу ҳаловат ҳис этиши, шу билан биргаликда зийраклиги, доимо сергаклиги, дўстлари, устозларига нисбатан самимий ҳурмат-эътибори, меҳр-оқибатлилиги ўша дамлардаёқ уни яқиндан билган, ҳатто эндигина танишган ҳар қандай киши қалбида беихтиёр теран бир хайрихоҳлик ва унинг камолига беғараз тилак-истаклар уйғотарди. Гапнинг пўсткалласини айтадиган бўлсам, у аввал бошданоқ айрим отасининг пули, қавми-қариндош ва таниш-билишлар ёрдамида «карьера» қилувчи, ҳозирги таъбирга кўра «мажор» деган истилоҳ билан ифодаланувчи эркатой ёшлардан мутлақо фарқли ўлароқ, ўз кучи, шу жумлани яна бир карра такрорлайман, ўз кучию тиришқоқлиги билан ва ҳаётдан эрта кетган волидаи муҳтарамаси руҳи, бир умр узоқ тоғли қишлоқдаги хастахонада машаққатли шифокорлик касбини шарафлаб яшаган падари бузруквори орзу-умидлари, устозлари дуоси, садоқатли дўстлари, ҳамкасбларининг эзгу тилаклари, беғараз мададу кўмаklarига таянган ҳолда улғайди.

Аллоҳ ҳукмидаги олий ҳақиқат мавжудлигини, унга биноан оддий бир қишлоқ йигити, меҳнаткаш зиёли оиланинг фарзанди ҳам ўз заҳмати, мустаҳкам иродаси, куч-ғайрати билан ҳаётда, илму риёзатда, сиёсатда мана шундай юксак рутбаларга эришиши мумкинлигини мен айнан унинг мисолида кўрдим. Бу йўлдаги машаққатли синовлардан нақадар қийинчиликлар ва сабот-матонат билан ўтганига тирик гувоҳман.

Одатда мустақил ҳаёт остонасида турган ёки унда ўзининг илк қадамларини ташлаётган йигит-қизлар, Ватан боғининг навраста

ниҳоллари ўлароқ, мамлакат тарихида ўчмас из қолдирган тарихий шахсларнинг ибратли ҳаёт йўли, шунингдек, ўзларига замондош бўлган улкан сиймолар фаолиятига алоҳида қизиқиш билан қарайдилар, улардан улгу, яъни ибрат, намуна ва илҳом олишга ҳаракат қиладилар.

Бас, шундай экан, бу каби ибратли ва шарафли фаолият хусусида ўз билганларим, кузатганларимни, чиқарган шахсий хулосаларимни бугунги авлод, айниқса ёшларга сўзлаб бермасам бўлмас, кекса бир зиёли олим, анча-мунча шогирдларнинг устози сифатида бунга маънан ҳаққим бор, буни замондошларим, қолаверса, келажак авлод вакиллари тўғри қабул қиладилар, деб ўйлайман.

Шу ўринда ҳазрати Алишер Навоийнинг қуйидаги машҳур байтини эсга келтиришни жоиз топдим:

*«Хунарни асрабон неткумдир охир,
Олиб тупроққами кетгумдир охир».*

Бинобарин, рисоламда бугунги тарихий давр кўзгусидаги бир улуғ инсон, улкан шахс, таниқли давлат арбоби ҳақидаги ожизона, лекин холисона таассурот ва тасаввурларимни баён этишга жазм қилдим. Унинг шарафли фаолиятини ибрат қилиб кўрсатган ҳолда ёш авлод, ўғил-қизларим, неварачевараларга қаратилган катта ҳаёт тажрибасига асосланган панду насиҳатларим, уларнинг порлоқ келажаги, бахт-иқболи йўлидаги эзгу тилак ҳамда дуоларимни ҳам билдиражакман.

Яна бир мулоҳаза шундан иборатки, Янги Ўзбекистон ҳақида жонажон Ватанимизнинг кечаги куни, қолаверса, ўтмишини анчайин кенг ва теран билган оқсоқоллар сўзлайдиган ҳикоятлар, улар асосида ҳосил қилинадиган таассуротларнинг алоҳида

қиммати бор. Зеро, кексалар ўзлари бевосита гувоҳ бўлган кечмиш воқеа-ҳодисалар ва бугун юз бераётган маҳобатли эврилишларни ўзаро қиёслаб, ақл-идрок кўзгусидан ўтказиб, виждонан баҳолаш имконига эга ҳисобланадилар.

Юқорида таъкидлаганимдек, камина кимёгар олимман. Бутун умрим, илмий ҳамда амалий фаолиятимни мана шу соҳага бағишладим. Аввало мактаб партасиданоқ шу сеҳрли ва мўъжизакор, Парвардигор инояти ва инсон заковатининг тинимсиз машаққатли меҳнати ҳосиласи бўлган ҳайратомуз кашфиётларга тўла илмий ва илоҳий фан оламига кўнгил қўйдим ва бу ҳавас бир умрлик қайноқ муҳаббатга, мустаҳкам эътиқодга, мухтасар айтганда, ҳаётим мазмунига айланди. Доно халқимизнинг дарахт бир жойда кўкаради, деган нақлига амал қилиб, шу йўлда тинимсиз риёзату машаққатлар чекиб, фан номзоди, фан доктори, профессор, академик бўлдим. Давр тақозосига кўра, анча муддат илмий изланишларни педагогик ҳамда ташкилотчилик фаолияти, жамоатчилик ишлари билан қўшиб олиб боришимга тўғри келди, бир нечта олий таълим ҳамда илмий-тадқиқот даргоҳларида раҳбарлик лавозимларида ишладим, талабаларга дарс бердим. Навқирон фаслимда табаррук устозлардан ўрганган билим ва кўникмаларимни ёш авлодга янги давр талабига кўра янада бойитилган, илмий ҳамда амалий жиҳатдан асосланган, замонавий шаклларда етказишга, уларнинг таълим-тарбияси янада мукамал бўлишига муносиб ҳисса қўшишга интилдим. Шунинг асносида устозлик мартабасига эришиш, анча-мунча шогирдлар етиштириш бахтига муяссар бўлдим. Маълум даражада раҳбарлик тажрибасини қўлга киритдим. Бу жараёнда жуда кўплаб инсонлар билан ҳамкорликда бақамти ишлаганим, уларнинг салоҳият-иқтидори, билими ва тажрибасини, амалий фаолиятини бевосита кузатиш, ўрганиш, қўлланиш, шу асосда тегишли ва

ҳамиша адолатли хулосалар чиқаришга, ҳаққоний баҳолашга интилиш имкониятига эга бўлганимни ҳаётда қўлга киритган энг бебаҳо маънавий-ахлоқий бойлигим, деб ҳисоблайман ва буни ҳамиша фахр билан таъкидлайман. Яна шуни ғурур билан таъкидлайманки, ўз илмий тадқиқотларим ҳамда уларни ҳаётга, ишлаб чиқаришга татбиқ этиш борасидаги амалий фаолиятимни давом эттиряпман.

Бинобарин, бисотимдаги мустаҳкам ҳаётий тамал ва олтмиш йиллик илмий-амалий меҳнат тажрибасига таянган ҳолда, олимлик ва мураббийлик нуқтаи назари билан ўз ҳаётий кузатишларимни баён этишим ҳеч кимни таассуфлантирмас.

Аслини олганда, ҳар бир онгли инсон, айниқса зиёли киши ўзи яшаётган жамият ҳаёти, унда амалга оширилаётган ишлар, мамлакат раҳбарияти олиб бораётган ички ва ташқи сиёсат ҳақидаги холис фикрларини билдириши шарт, бу – унинг ватандошлик бурчи деб ҳисоблайман. Иккинчи тарафдан, ҳар қандай давлату мамлакатнинг олий маснаду мартабаларга эга раҳбарлари ҳам ҳамиша ўз фаолиятлари ҳақидаги энг оддий, айна пайтда холис ва беғараз мулоҳазаларга бефарқ қарамайдилар, уларнинг эътиборга лойиқ жиҳатларини инобатга оладилар. Буни ўзларининг бурчи, вазифаси деб биладилар. Нафсиламрини айтганда, бу жамият тараққиётининг, ҳар бир мамлакатдаги осойишталик, аҳиллик ва фаровон ҳаётнинг муҳим шартларидан биридир. Элу юрт сардорлари ва раият бир-бирларининг аҳвол-руҳияси, кайфиятидан, фикр-ўйларидан, севинч-ташвишларидан мунтазам хабардор ҳолда яқдил, ҳамфикр яшаши ҳамиша ижтимоий барқарорлик, иқтисодий ривож бардавомлигига хизмат қилган. Кўхна тарихимизда бунга мисоллар кўп.

Хуллас, мана шу фикрлар жисмимга шижоат, ижодимга илҳом бағишлади десам, муболаға ёки баландпарвоз гап бўлмас.

Шунга қарамасдан, ушбу рисолада мазкур мавзунини тўлақонли даражада кенг ва чуқур таҳлил этишга даъво қилмаслигимни яна бир карра айтиб ўтишим шарт. Бу – кекса олимнинг, меҳнат фахрийсининг бугунги авлод вакиллари, айниқса ёшлар билан ғойибона дилдан суҳбатлашиш асносида ўзи маълум даражада яқиндан билган улкан давлат арбобининг Инсон, Шахс, Олим, Раҳбар сифатида шаклланиш жараёнини ҳаёт заҳматларию ҳикматлари кўзгуси орқали кўрсатишга баҳоли қудрат уриниши, холос.

Истагим – Янги Ўзбекистоннинг асосий таянчи бўлган бугунги етук ва навқирон бўғинлар шу мушоҳадалар орқали ўзларига озгина бўлса-да, зарур сабоқ ва хулосалар чиқарсинлар, қалбларидаги орзу-умидлар рўёбининг аниқ дастуриламалларини белгилаб олсинлар. Шунинг англасинларки, ҳаётда, илму риёзатда, иқтисоду сиёсатда энг юксак чўққиларга фақат ва фақат пок орзу-ниятлар, тинимсиз меҳнат, қунт билан ўқиш-ўрганиш, қатъият ва дадил олға интилиш, баъзида мардонавор курашлар орқалигина эришиш мумкин. «Ғалабанинг ўзи келмайди, дўстим!» дея хитоб қилган эди ўз давру замонида буюк шоирларимиздан бири. Ана шу жанговар шиор ҳали-ҳануз ўз долзарб аҳамиятини йўқотган эмас.

Бас, шундай экан, ушбу рисола мамлакатимиздаги кўп миллионли ўсмирлару ёшларни, талабаларни, айниқса, илм-фанга, сиёсату иқтисодга, тадбиркорликка қизиқувчи, мухтасар айтганда, етук зиёли, ўз юртининг таниқли инсонлари бўлиб етишишни қалбига туккан ўғил-қизларимизни бефарқ қолдирмайди, деган фикрдаман.

Албатта, ушбу мавзуда ўзимиздаги ва, қолаверса, хориждаги нуфузли сиёсатшунос олим ва мутахассислар ҳар жиҳатдан мукамал фундаментал асарлар яратмоқдалар ва келгусида ҳам яратажакларига шак-шубҳа йўқ. Уларга ижодий илҳому

ҳар томонлама ростгўйлик ва холислик тилаган ҳолда қалам тебратишга киришаман. Эҳтимолки, улар ўз асарларида мана шу беғараз ва самимий мушоҳадалардан ҳам истифода этарлар.

Умуман, ушбу рисола уни мутолаа этишни лозим кўрган кишиларда озгина бўлса-да, эзгу таассурот қолдирса, ўзимни бахтли деб ҳисоблар эдим. Айрим ўринларда такрорларга, кучлироқ ташбеҳлар, керагидан ортиқ таърифу таҳсинларга йўл қўйган бўлсам, бунини кексалик ҳаяжони натижаси сифатида қабул қилишингизни сўрайман.

Биринчи боб

ЗАКОВАТ ВА ШИЖОАТ, ЖУРЪАТ ВА ҚАТЪИЯТ

Бугун «Янги Ўзбекистон» деган атама нафақат мамлакатимиз ичкарасида, балки бутун дунёда кенг қўлланилмоқда. Бу истилоҳни сиёсатчилар ва давлат арбоблари, олимлару ижодкорлар, журналистлару блогерлар, қолаверса, оддий туристлар ва саёҳатчилар тилидан деярли ҳар куни кўп марталаб эшитиш мумкин.

Менинг тушунишимча, одатда «янги» деган сифат муайян давлатга нисбатан ишлатилганда ушбу мамлакатда юз берган туб ўзгаришлар, чунончи, ундаги инқилобий ўзгаришлар туйғайли эндигина шакллана бошлаган ижтимоий-иқтисодий формациядан бошлаб, кишилар турмуши ва тафаккуридаги теран ҳамда кенг миқёсли эврилишларни ифодалайди. Шу маънода олиб қарайдиган бўлсак, 1991 йилда ўз мустақиллигини қўлга киритган Ўзбекистонга татбиқан бу сўз кам истифода этилган. Зеро, улкан коммунистик салтанат таркибидан ажралиб чиқиб, суверен давлат сифатида ўзининг илк қадамларини қўя бошлаган она Ватанимиз учун тубдан янгиланиш, ифодали қилиб айтганда, ҳам шаклан, ҳам мазмунан том маънодаги янги давлатга, эркин ва фаровон фуқаролик жамиятига эврилиш ҳали орзу эди. Салкам

юз йиллик мустамлака асоратларини дафъатан бартараф этиш ва дабдурустдан: мана биз янги давлат, янги жамият қурдик, дейиш кулгили бўлар ва бунга ҳеч ким ишонмасди ҳам.

Ўтган ўттиз йил давомида бу орзу рўёби йўлида қатъият билан олға интилдик. Шак-шубҳасиз, ўз истиқлолини қўлга киритган, ўзининг миллий давлатчилиги, ўз Конституцияси, Давлат мадҳияси, Гербию Байроғига эга бўлган буюк халқ қудрати жўш урди, унинг жаҳду шиддати чин маънода оламни маҳлиё айлади. Зеро, бошқача бўлиши мумкин ҳам эмасди. Аждодлари буюк кашфиётлари билан жаҳонни лол этган, давлатчилик, илму фан бобида шонли тарихга эга бўлган эл-юртимиз фарзандлари улуғ анъаналарни шараф билан давом эттиришдек тарихий имкониятдан зўр кўтаринкилик, фахр-ифтихор туйғуси билан унумли фойдаланишлари шарт ва зарур эди. Бироқ...

Юзага келган тарихий имкониятдан қанчалик унумли фойдалана олдик? Бу саволнинг жавоби осон ва оддий эмас. Тараққиётимиз суръатларини таҳлил этиш, танқидий баҳолаш асносида бунга яққол ишонч ҳосил қилинмоқда. Мамлакатимиз Президентининг маъруза ва нутқларини тинглаган, мақолалари, китобларини ўқиган киши кўп нарсани ўрганади, кўп масалаларни тафаккур кўзгусидан ўтказиб, қайта баҳолашга, янгича хулосалар чиқаришга жазм этади. Албатта...

Ўттиз йиллик тарихимиз давомида амалга оширилган ишлар, чекилган заҳмату риёзатлар ҳақида том-том китоблар ёзилган. Бинобарин, бу ҳақда муфассал тўхталиб ўтирмоқчи эмасман. Мени ҳаяжонлантирадиган, қалбимни завқу шавққа тўлдирадиган ва қўлга қалам олишга ундайдиган ҳол – янги даврнинг ўзига хос шиддати, бунёдкорлик ишлари суръатининг йил, ой, кун, соат сайин ошиб, миқёслари кенгайиб бораётгани билан боғлиқдир. Ушбу янги давр, менинг назаримда, янги ҳаёт, янги тарих, янги тараққиёт босқичи

муқаддимаси сифатида ҳозирданоқ теран таҳлилларга, холисона ва ҳаққоний эътирофларга муносиб бўлиб кўринади. Бунинг аҳамияти жуда катта деб ўйлайман. Шунинг учун ҳам...

Камина беш-олти йил давомида шиддат билан шаклланган ва ўз мақоми, ҳусну жамоли, халқаро майдондаги ўрни ва ролини мантиқан тарихий ҳақиқатга айлантираётган Янги Ўзбекистон ҳақидаги баҳоли қудрат таассуротларим ва мушоҳадаларимни баён этмоқчиман.

Мамлакатни тубдан янгилаш, мухтасар ва аниқ қилиб айтганда, Янги Ўзбекистонни яратиш борасидаги илк бора давлатимиз раҳбари томонидан илгари сурилган ва халқимиз томонидан катта хурсандчилик билан маъқулланган, жаҳон афкор оммаси холисона эътироф этган ғояни бошда чет эллардаги ва, ҳатто ўзимиздаги анча-мунча одамлар истехзоли табассум билан кутиб олишгани сир эмас. Сабаби, улар бу ғоя замирида қандай юксак, айна пайтда реал марралар мужассам эканлиги, уларни забт этиш учун қандай омилларга таянилиши ҳақида етарлича тасаввурга эга эмасдилар. Шу боис бу ҳам жаҳон сиёсат майдонида вақт-вақти билан ўртага ташлаб туриладиган баландпарвоз, популистик шиорлардан бири, деб ўйладилар ва янглишганликларини тез фурсатда тушундилар.

Зеро, жаҳондаги соғлом фикрловчи кенг жамоатчилик бу борада ўзининг холис ва ҳаққоний фикрларини баён этди, илгари сурилатган ғоя донишмандона, белгиланаётган улуғвор вазифалар ижроси реал ва ҳаётий эканлигини эътироф қилди.

«Евроњьюс» ахборот агентлиги томонидан маълум қилинишича, Испания матбуоти «Ўзбекистонда тадрижий инқилоб бошланмоқда», деб ёзган, Америка газеталарининг гувоҳлик беришига кўра, АҚШ раҳбарияти «Ўзбекистонда янги давр бошланаётганлиги»ни башорат этишган».

Чиндан ҳам ҳар қандай мамлакат аҳли ўз олдига буюк мақсадлар, улкан марраларни қўяр экан, аввало, улар қанақадир бўшлиқда вужудга келиши ва фақат эзгу орзу-ниятни ифодалаш билан чекланмаслиги шарт. Яъни бу мақсадлар тарихий тамал ва асосларга эга бўлиши, ҳозирги даврдаги мавжуд имконият ҳамда ресурсларга, энг муҳими, бутун мамлакат аҳлининг фаол, кўтаринкилик билан қўллаб-қувватлашига таянилиши талаб этилади.

Президентимиз томонидан азал-азалдан донишманд алломалар ўлкаси бўлмиш Ўзбекистонда «Учинчи ренессанс» пойдеворини яратиш борасидаги ташаббуснинг ўртага ташланиши ана шу ўта муҳим саволу шартларга муносиб жавоб бўлди. Яъни, тарихан Шарқда Уйғониш даврларининг ватани бўлмиш, дунёга Беруний, Хоразмий, Фарғоний, Имом Бухорий, Термизий, Форобий, Абу Али ибн Сино, Мирзо Улуғбек сингари даҳоларни етиштириб берган мамлакат ўз шиддатли тараққиётининг бугунги босқичида ўз олдига мана шундай оламшумул даражадаги сарбаланд марралар қўйишга тўласинча ҳақлидир.

Иккинчидан, ўз тарихида бир неча асрлик инқироз, тушкунлик, сиёсий тарқоқлик ва бошбошдоқлик, мустамлака ва қатағонлар асоратларини бошдан кечирган ва ниҳоят ўз мустақил давлатини тузиб, уни ўз авонида, ўз миллий қадриятлари асосида ривожлантириш имконига эга бўлган озод ва ор-ғурурли элнинг шаҳди, азму иродаси, орзу-интилишлари Ўзбекистон учун энг баланд, энг чўнг чўққиларни кўзлаш ҳуқуқини бера олиши айни ҳақиқатга айланганди.

Бир пайтлар ўз мустақиллигини қўлга киритган аксар постсовет республикалар сингари биз ҳам: «Ўзбекистон – улкан имкониятлар мамлакати!» дея ҳайқаришни яхши кўрар эдик. Аслида ҳам шундай дейишга етарлича асослар бор эди. Мамлакатимиздаги Аллоҳ инъом этган қулай иқлиму об-ҳаво шароитлари, ер ости ва ер усти

бойликлари, ноёб маъдану қазилмалар, минглаб йиллик тажрибага ва энг муҳими камёб заковату нодир меҳнатсеварлик қобилиятига эга донишманд халқимиз билан нисбатан қисқа фурсатда жаҳондаги энг мутараққий давлатлар қаторига чиқишимиз мумкин эди. Аммо...

Айрим таҳлилчиларнинг ҳаққоний эътирозларига кўра, дастлабки чорак аср давомида республикамиз ўзидаги мавжуд имкониятлардан етарли фойдалана олмагани бор гап. Бироқ дилга таскин берадиган бир жиҳат борки, ана шу имкониятлар тўласинча бой берилмади, салоҳият ва куч-қудрат кўлдан чиқарилмади. Ҳайтовур, аксарият бўлаги сақланиб қолди. Ва ана шу мавжуд қисми ва жаҳон майдонида фан-техника тараққиёти туфайли кун сайин пайдо бўлаётган янги имкониятлар мамлакатимиз иқтисодий ва ижтимоий тараққиётда катта сакрашлар қилиши мумкинлигини яққол намоён этаётган эди.

Президент бунга ўз вақтида илғади ва ўз вақтида катта журъат ва дадиллик билан улуғвор ғояларни илгари сурди, жуда баланд, айна пайтда реал марраларни белгилаб берди. Бу эса жуда муҳим. Юксак, асосли ғоянинг ўртага ташланиши, мураккаб вазифанинг ўз вақту фуржасида олға сурилиши, амалий ҳаракатларнинг пайсалга солмасдан тезкорлик ва ҳозиржавоблик билан ташкил этилиши – муваффақиятнинг бошланишидир. Шу ўринда талабалик йилларимда эшитган ва бир умр хотирамга ўрнашган иккита немис мақолини келтиришни истар эдим. Уларнинг биринчиси: «айле – мит вайле», ўрисларнинг «тише едешь – дальше будешь» иборасига оҳангдош бўлиб, ўзбекчасига тахминан «қимирлаган – қир ошар», дея таржима қилиниши мумкин. Иккинчиси эса, хотирам панд бермаса, «фриш гевакт ист ҳалб гевоне» дея талаффуз этилар, ўрисчага «смелость – города берёт», деб ўгирилар, ўзбекча содда таржимаси: «жасурлик – шаҳарларни забт этади» эл тилидаги

муқобили эса чамаси, «ўйчининг ўйи битгунча, таваккалчининг иши битади» ёки «кўз – кўрқоқ, қўл – ботир», бўларди. Лекин...

Давлатимиз раҳбарининг Янги Ўзбекистонни яратиш йўлидаги азму иродаси ҳақида гапирар эканмиз, бу зинҳор-базинҳор оддий таваккалчилик эмаслигини яна бир карра таъкидлаб ўтишимга тўғри келади. Уни навқирон йилларида яқиндан билганим, раҳбарлик рутбасидаги илк қадамларига бевосита гувоҳ эканим ва уларни таҳлил қилиш ва баҳолаш имконига эга бўлганим учун шундай деяпман.

Менинг назаримда, мана шу улкан орзу – Янги Ўзбекистонни бунёд этиш ғояси унинг қалбида бир лаҳза, соат ёки кунда дабдурустдан пайдо бўлган эмас. Йиллар давомида, мамлакатни қадам-бақадам кезиш, мавжуд муаммоларни юрагидан ўтказиш ва уларга ечим излаш асносида шаклланиб, такомиллашиб борган ва пировардида яхлит, мукамал тарзда намоён бўлароқ юзага чиқди ва элимизнинг барча ақл-идрокли инсонлари юрагида акс-садо берди, бутун халқимиз томонидан катта хурсандчилик, шахду шижоат билан кутиб олинди. Ҳолбуки...

Ўтмиш сабоқларидан яхши маълум, ҳокимият тепасига келган айрим янги раҳбарлар ўз фаолиятини мамлакатдаги мавжуд аҳволни хаспўшлаш мақсадида кечаги кунни танқид қилиш, қоралаш билан бошлаган. Бу билан гўёки вақтдан ютишга, тараққиёт ғилдираklarининг суст ҳаракатини изоҳлашга, ўзидан эртами-кечми муқаррар сўраладиган ҳисобот муддатини имкон қадар ортга суришга уринган. Кечагина соясига салом бериб юрган ўз ўтмишдошини ошкора ёмонлаш ва бадном этиш, унинг сафдошларини қатағон қилишгача бориб етган йўлбошчиларни кўрдик. Ана шундай воқеалардан иккитасини мисол тариқасида эслаб ўтсам ноўрин бўлмаса керак.

Ўшанда эндигина мактабни битказиб, мустақил ҳаётга қадам қўяётган ёш йигит эдим ва бу фавқулодда воқеа тасаввуримда ўта мураккаб таассурот ва ўчмас из қолдирган.

Собиқ СССРда 1956 йил апрелда бўлиб ўтган ва шахсга сиғинишни қоралашга бағишланган машҳур XX қурултойи ва пленуми, унда КПСС Марказий Қўмитаси биринчи котиби Никита Сергеевич Хрущёв қилган шов-шувли маъруза бутун мамлакатни гўёки бир зарб билан ағдар-тўнтар қилиб юборди. Кунни кеча ер юзининг бешдан бир қисмини эгаллаган бепоён мамлакатнинг бутун халқи бут каби сиғинган «доҳий» Сталин номи аёвсиз қораланди. Мўмиёланган ва Ленин жасади билан ёнма-ён эъозланиб, ҳар кунни минг-минг кишилар томонидан зиёрат қилиниб келган лоши мавзолейдан чиқарилиб, қора ер бағрига топширилди.

Йигирманчи, ўттизинчи, эллагинчи йиллар қатағонлари қурбонлари ҳаққи ҳурмати, аксар зиёлилар қаторида камина ҳам бугун ўшанда ижтимоий адолат нуқтаи назаридан иш тутилгани, ўта қаттиққўл ҳукмдорга нисбатан тарихнинг ўзи шундай ҳукм чиқарганини тасдиқлайман, албатта. Аммо...

СССРда яшовчи аксар ёшлар каби Сталинни «улуғ доҳий» деб билган, эндигина институтга киришга тайёрланаётган мендек ўсмир йигит бу ҳолатдан буткул саросимага тушиб, иккиланиб қолгандим. Энди нима бўлади, ҳаёт қаёққа қараб ўзгаради, оталаримизнинг жонфидоликлари туфайли тунов кунгина қўлга киритилган тинчликнинг тақдири нима кечади, оддий халқнинг қийинчилик билан бўлса-да аста-секин изга тушаётган турмуши яна издан чиқиб кетмайдими, яна йўқчилигу қаҳатчилик бошланмайдими каби хавотиру иштибоҳлар ёпирилиб келганди кўнглимга.

Мен ўша кезларда ўзимнинг, яъни биргина навқирон йигитнинг табиий таассуротларини келтиряпман, холос. Чуқурроқ ва кенгроқ олиб қаралса, ўшанда миллионлар юрагидан ўтган туйғуларни ифодалашга ҳаракат қилинса, ўша даврда улкан бир мамлакатни ларзага солган даҳшатли бир кескин эврилиш содир бўлган. Кечагина осмону фалақда бўлган улкан бир қадрият дабдурустдан оёқлар остида топтала бошланганди. Бу эса...

Нафақат кишилар қалби, тасаввури, балки бутун мамлакатнинг ижтимоий ҳаёти, тараққиётида қаттиқ силкинишни, маълум маънода қандайдир бошбошдоқлик, тушкунликни вужудга келтирган ва бу юқоридан ҳарчанд хаспўшланмасин, аста-секин яққол сезила бошлаган эди. Олтмишинчи йиллар бошида бутун мамлакатда нон танқислиги, айрим жойларда, ҳатто очарчилик юз бергани шунинг касри эди.

Фикри ожизимча, ўшанда Совет Иттифоқи коммунистик партияси раҳбарияти мамлакатдаги ҳукмрон мафкура мазмун-моҳиятида ҳаддан ортиқ кескин ўзгариш ясашга уриниб, катта хатога йўл қўйганди. Албатта, сталинизмнинг мудҳиш моҳиятини заррача бўлса-да оқлаш фикридан мутлақо йироқман. Унинг аянчли оқибатларига бир кунмас-бир кун албатта ҳаққоний баҳо берилиши керак эди. Фақат бу даражада шошқалоқлик ва юзакичилик билан эмас. Доно Шарқда «мусулмончилик аста-секин», «етти ўлчаб, бир кес» деган бир қарашда ўта оддий, бироқ мазмуни жудаям чуқур нақллар бор. Уларни унутмаган киши камроқ хато қилади.

Оқибат шу бўлдики, сталинизмни шоша-пиша ўта кескин қоралаб, унинг ўрнини ундан афзалроқ, қудратлироқ янги мафкура билан тўлдиролмаган Никита Хрущёвнинг ўзи ҳам сафдошлари фитнасининг қурбони бўлди. Лавозимидан олиб ташланиб, «волонтарист, авантюрист», дея қораланди. Мамлакат ҳаётида унинг даврида бошланган «эрувгарчилик» секинлашиб қолди.

Ундан кейин келган раҳбарлар Сталиннинг аввалги мақому рутбасини қайта тикламаган, ошкора шарафламаган бўлсалар-да, собиқ «доҳий»нинг суратлари аста-секин оддий кишиларнинг хонадонларида, машиналарининг салонларида пайдо бўла бошлади. Шу тариқа дунё саҳнасида ажабтовур бир тарихий ҳақиқат пайдо бўлди: марҳум ҳукмдорларни қоралаш, мавзолейлару мақбараларни вайрон этиш, ҳайкалларни йиқитиш мушкул иш эмас. Қийини – инсонлар қалбига ўрнатилган «ёдгорлик»ларга муносабат масаласи. Чинакам ишонч асосига қуриладими ёхуд зўравонлик билан сингдириладими, эътиқодни ўзгартириш, айниқса, руҳиятдаги кўрқувни, қарамлик ва мутеликни йўқотиш жудаям мушкул. Бунга баъзан асрлар талаб этилса, баъзида мутлақо имконсиз ҳаракат бўлиб чиқади. Энг одил ҳакам – вақт, дейдилар. Унинг ҳукми олдида тарих ҳам ожиздир. Бинобарин оқил арбоблар бундай бефойда иш билан шуғулланмасликни маъқул кўрадилар. Аксинча ўз қадамларини кечаги кун тажриба ва хатоларини шошқалоқлик қилмасдан чуқур, ҳар томонлама таҳлил этган ҳолда, аниқ режа ва мақсадлар билан ташлашни мақсадга мувофиқ, деб биладилар.

Иккинчи мисол ўтган асрларнинг саксонинчи йилларидан ва бевосита Ўзбекистон ҳаётига доир. Майда тафсилотларга берилмасдан гапнинг индаллосини айтаман: Ўзбекистонга салкам ўттиз йил раҳбарлик қилган улуғ арбоб, ҳассос ижодкор Шароф Рашидов шахсининг вафотидан сўнг қораланиши, бир ҳовуч мансабпараст амалдору аламзадаларни ҳисобга олмаганда, бутун ўзбек халқи томонидан қаҳр-ғазаб билан қарши олинди.

Дарвоқе, шу ерда мансабпарастлару аламзадалар ҳақида икки оғиз шахсий мулоҳазалар билдириб ўтишга жазм этаман. Чунки ҳаётим ва фаолиятимда шу тоифадаги кимсаларга ҳам озми-кўпми дуч келдим. Улар ҳамиша бўлганлар, ҳозир ҳам бор ва келгусида

ҳам бўлажак. Улар ҳукмдорлар авжи баланд чоғлар оёқлари остида ўралашадилар, маддоҳлик, лаганбардорлик, тилёғламалик билан ўз муродларини ҳосил қилиб, мансабларга миниб, унвону мукофотларга эришиб юрадилар. Ҳукмдорнинг оёғи тойса ёхуд бандаликни бажо келтирса (не ажабки, ҳар қандай буюк раҳнамо, мустабид подшоҳ, ҳоқону фиръавнлар ҳам Олий ҳақиқат қошида сизу биз каби ожиз бандалардир), бас, шу заҳоти юз ўгирадилар. Керак бўлса, аёвсиз қоралайдилар, сотадилар. Унинг даврида хору зор бўлганликлари ҳақида шармандаларча қасамлар ичадилар. Ўзларини янги олампаҳо оёқлари тагига ташлайдилар. Кечаги қасидаю мадҳияларни янги замонга мослаб қайта ишлайдилар. Янги давлат раҳбарининг шону шавкатини шарафлаб янги мадҳияю қасидалар битила бошлайди. Шу боисдан ҳам азал-азалдан кўҳна шарқ алломалари, буюк машойихлар доно ҳукмдорларни маддоҳу хушомадгўйлардан йироқ тутишга даъват этиб келганлар.

Худди биринчи мисолда айтиб ўтганимдек, кўп йиллик раҳбар фаолиятининг кескин қораланиши бутун Ўзбекистон халқининг кайфиятига, ўз-ўзини баҳолаш туйғусига ўта салбий таъсир қилди, ҳатто айтиш мумкинки, ғурурини поймол қилди, ор-номусига тегди. Шунинг учун ҳам орадан, мана, деярли қирқ йил ўтганига, ҳақ ўз ўрнида қарор топганига, халқимизнинг суюкли фарзанди Шароф Рашидов хотираси элимизда муносиб даражада ардоқланаётганига қарамай ўша воқеалар халқимиз томонидан жудаям оғриқли эсланади. Нечоғлик бағри кенг, кечиримли эл эканимизга қарамасдан, ўша ишлар бошида турган кишиларни афв этишимиз ниҳоятда қийин бўлмоқда.

Худди шу адолатли ҳақиқат мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан теран англани, яъни Шароф Рашидов таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан унинг хотирасига бўлган муносабат ҳам тамоман янгича моҳият

касб этгани халқимизни чуқур мамнун этди, десам, фикримга кўпчилик қўшилса керак. Айниқса у туғилиб ўсган туман, таҳсил кўрган Самарқанд дорилфунуни Шароф Рашидовнинг табаррук номи билан аталиши – тарихий адолатнинг қарор топишидир. Эндиликда бу беназир ва буюк сиймо, минглаб, ўн, юз минглаб ўзбек зиёлиларининг ғамхўру меҳрибон, айна пайтда талабчан устози том маънода элимиз фахр-ифтихорига айланди. Гапнинг индаллосини айтадиган бўлсам, давлатимизнинг бугунги раҳбари, мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев ҳам ўзининг сиёсат майдони сари илк қадамларини қўяётган кезларда ана шу табаррук сиймонинг оқ фотиҳасини олганига шахсан гувоҳман. Бу ҳақда кейинги бобларда муфассалроқ тўхталиб ўтишни ният қилганим учун ҳозир гапни мухтасар этиб, мулоҳазаларим давомига қайтаман.

Бу мисоллар асосидаги мушоҳадалар ҳамда фикр-мулоҳазаларимдан келиб чиқадиган хулосам шуки, Янги Ўзбекистон Президенти ўз йўлбошчилик фаолиятини кечаги кунларни кескин қоралашдан эмас, аввало чуқур ва ҳар тарафлама таҳлил қилишдан, хато ва камчиликларни доно халқимизнинг кўзига тик қараб, мардона айтиш билан бирга, уларни бартараф этишнинг энг мақбул йўлларини эл билан маслаҳатлашган ҳолда аниқлашдан, белгилашдан бошлагани, айна пайтда ўз қалбида узоқ йиллар давомида асраб-авайлаб келган улуғвор орзулар рўёби сари дадил ҳаракатларни тезкорлик билан ташкиллаштиришга киришгани элу давлатимизнинг энг катта ютуқларидан бири бўлганлигини эътироф этиш, керак бўлса, такрор-такрор таъкидлашдан иборатдир.

Кўп йиллик илмий-амалий, раҳбарлик фаолиятим давомида кўплаб мамлакатларга иш юзасидан хизмат сафарларига ёхуд дам олишу истироҳатларга боришимга тўғри келган. Ана шундай

саёҳатларнинг бири чоғида уммонда сузиб кетаётган улкан танкерларни кўрган эдим. Айтишларича, бир йўла бир неча юз минг тонналаб нефть ташувчи бундай кемалар ўз йўналишини ақалли бир неча сантиметрга ўзгартириши учун вақт ҳамда масофа керак бўларкан. Бу муқоясадан мақсад шуки, худди шундай улкан давлат кемаси йўналишини белгилашнинг ўзи осон эмас ва уни салгина бўлса-да ўзгартириш, суръатини тезлаштиришга жазм қилиш эса дарёдан катта донишмандлик ва беназир жасорат талаб этиши айна ҳақиқат. Шубҳасиз, Янги Ўзбекистонни яратиш ғоясини ишлаб чиқиш чоғида унинг ижодкор меъмори бу ҳақиқатни қатъиян ҳисобга олди.

Жаҳон сиёсатшунослиги тарихи шундан гувоҳ беради: давлат раҳбари сифатидаги илк қадамлариданоқ юксак ва кенг миқёсли заковат билан аниқ, узоқни кўзловчи эзгу мақсадлар асосида иш тутиш, мудом маррани баланд олиш, мислсиз даражадаги машаққатли, бироқ реал вазифалар белгилаш журъати ҳамда улар ижроси йўлидаги метин қатъият, битмас-туганмас жисмоний шижоат сингари фазилатлар, туғма ноёб истеъдод ва нодир салоҳиятга эга, халқона қилиб айтилса, Худо назарига тушган камдан-кам арбобларга хос белгидир. Бундай улкан шахслар ана шу фазилатларни навраста болалик чоғларидаёқ намоён этадилар. Уларда бир қарашда зоҳиран сезилмайдиган, аммо зийрак ва синчи кишилар, чунончи, доно устозлар сергаклик билан илғаб оладиган, ботиний ўзига хослик, тенгқурларига ўхшамайдиган креатив, яъни ижодкорлик ва ташаббускорлик, етакчилик хусусиятлари яширин мавжуд бўлади. Ўсмирлик пайтларида улар куртак ёзади. Ёшлик даврларида ўзининг илк ғунчаларини оча бошлайди.

Донишманд Шарқ жамиятшунослиги, фалсафаси асосларини

ўрганиш ва Европа сиёсатшунослиги асосларидан хабардор бўлиш асносида ана шу ҳақда муайян тасаввурга эга эканлигим боис камина олтмиш йилдан зиёд устоз ва мураббийлик фаолиятим давомида шогирдларим орасидан худди шундай хусусиятлар соҳибларини қидириб келганман. Не бахтки, эзгу ниятларим йўлдош ўлароқ, шундай истагимга муяссар бўлдим. Бинобарин...

Ижодий фикрлаш мудом янги ва янги марралар сари олға интилиш, замонавий, мухтасар истилоҳ билан ифодалаганда, креативлик хусусиятига эга бўлган ушбу серғайрат инсоннинг ҳаёт йўлининг энг серзавқ навқирон фаслига, шиддаткор ёшлик паллаларига маълум даражада дахлдор бир мураббий сифатида унинг давлат бошлиғи сифатидаги дастлабки қадамларини синчиклаб кузатиш мен учун ҳамишагидан кўра ҳам қизиқарли эди. Зеро, бу қизиқиш менда бундан қирқ йиллар аввал у билан танишиб илк бор суҳбатлашган чоғимизда туғилган ва турли вазиятлар, шарт-шароитлар тақозосига кўра, йиллар сайин тобора кучайиб борган. Насиб этса, бу ҳақда кейинги бобларда муфассал тўхталаман. Ҳозир эса дастлабки қадамлар ва унгача бўлган ўта мураккаб, машаққатли босқич борасидаги мулоҳазаларимни давом эттирай.

Рости гап, Бош Вазир сифатидаги ўн уч йиллик фаолияти давомида, ундан аввал бир туман ва икки вилоят ҳокими бўлган кезларда аҳоли уни телевизор экранида деярли кўрмаган. Бунинг сабаби, аввало, унинг камтарлиги, яъни ўз фаолиятини кўз-кўз қилиш истагидан йироқлиги, шунингдек, оз гапириб кўпроқ иш қилишни афзал билиши билан боғлиқ, албатта. Шу йилларда уни гоҳ яқиндан, гоҳ узоқроқдан туриб, шахсан кузатиб борганман. Бундан ташқари ўша кезлар у билан бирга бақамти ишлаган сафдошларидан анча-мунчасини шахсан танийман ва яхши биламан ҳамда кўп марталаб шу ҳақда дилдан суҳбатлашганман.

Суҳбатдошларнинг ҳар бири унинг нечоғлик ўзини қийнаб, фидокорона ишлагани ҳақида ҳайратланиб, қизиқарли далилли воқеалар билан гапиришган, кўплаб аниқ-равшан мисоллар келтиришган. У замонларда республиканинг энг олий раҳбаридан бошқа бирор амалдорнинг матбуотда кўриниши, фикр-мулоҳаза юритиши номаъқул ҳол ҳисобланган. Шунинг учун ҳам халқ аксар амалдорларни танимас ва уларнинг машаққатли кундалик фаолияти ҳақида тузук-қуруқ тасаввурга эга эмасди. Ҳозир бунинг сабабларини таҳлил қилиб ўтириш мавриди эмас. Шу нарса ойдин ҳақиқатки, эндиликда мамлакатимиз аҳли республикадаги юқори бўғин мутасаддиларидан бошлаб, деярли барча туман ҳокимлари ва секторлар, маҳаллалар раҳбарларигача яхши биладилар. Чунки матбуот, телевидение ва интернетда улар фаолияти бамисоли кўзгудагидек акс этиб туриши талаб этилмоқда. Давлат раҳбари ўз фикру амалларида бўлгани каби командаси барча аъзолари саъй-ҳаракатларида ошкоралик ва шаффофлик бўлишига эришмоқда.

Унинг давлат раҳбари сифатидаги юксак минбардан янграган дастлабки маъруза ва нутқлари, илк китобининг ўзиёқ тинглаган ва ўқиган кишида ўзгача бир енгиллик, яхши кайфият, эртанги кунга эзгу умид ва ишонч уйғотганини ҳатто анча-мунча нигилистлар ҳам холис тан оладилар, деган фикрдаман. Ғарб жамиятшунослари ўйлаб топган «харизма» деган тушунча бор. Ўзбекчада буни фикри ожизимча, «ўзига ишонтириш, жалб қилиш, маҳлиё этиш хислати» деб кенгроқ изоҳласа бўлар. Яна ҳам аниғини тилшунос мутаржимлар билишса керак.

Ҳар ҳолда мен англаган маъноси шуки, сиёсатчи арбобнинг қалбидаги эзгу ният, самимийлик, ростгўйлик, меҳр-оқибатга йўғрилган инсонпарварлик нури, аввало, унинг сиймосида, айниқса нигоҳларида яққол акс этади ва бу зиё тўппа-тўғри раият юрагига

етиб боради, унда ўз инъикосини топади. Ана шу хислат сўз ва иш бирлиги, аниқроғи, айтилаётган гаплар ҳамда амалий ишлар уйғунлиги таъминланиши, креативлик, фаоллик, соғлом ва шаффоф ҳаёт тарзи билан мустаҳкамланиши харизмани юзага келтиради.

Мамлакатимиз Президентининг яқинда босмадан чиққан «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси»¹ китобини мутолаа этиш асносида беихтиёр унинг давлат бошлиғи сифатида чоп этилган дастлабки асарининг номи, моҳиятини тасаввур ва тафаккур кўзгусидан ўтказдим. Бу асар 2017 йилда дунё юзини кўрган бўлиб, «Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак»², деб аталар эди. Диққатга сазовор жиҳати – янги раҳбар бу билан юқорида биз баҳоли қудрат шарҳлаган ва одамларни ғоят қизиқтириб турган ўта муҳим бир саволга жавоб берарди. Яъни маълум бўлдики, раҳбарлар ўтган даврнигина эмас, ҳозирги, амалдаги фаолиятни ҳар куни танқидий таҳлил этиши, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик билан ишлаши талаб этилади.

Бу талаб халқ чуқур қониқишу катта кўтаринкилик билан кутиб олган яна битта тамоман янги ва жанговар шиор билан янада кучайтирилди: «Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халққа хизмат қилиши керак!»

Президент бу ўта масъулиятли қоидани илгари сурар экан, шу чоққача совет даврларидан буён узоқ йиллар амалда бўлган, ҳануз жон беришни истамаётган яроқсиз бюрократик тизимни синдиришга, чин маънодаги халқчил ва демократик давлат қуришга сидқидилдан аҳд этганини кўрсатди. Зеро...

¹ Шавкат Мирзиёев. «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси». Тошкент: «Ўзбекистон», 2022.

² Шавкат Мирзиёев. «Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак». Тошкент: «Ўзбекистон», 2017.

Совет давридан одамлар юрагига маҳкам ёпишган шундай мустаҳкам бир қўрқувлар силсиласи бор: «давлат – илоҳий тушунча, ҳаммамиз давлатникимиз, мамлакатдаги барча бойликлар давлат мулки, давлатга қарши гапириб бўлмайди».

Ҳолбуки, ер юзидаги аксар мутараққий мамлакатлар аллақачонлар шахс манфаатини давлат манфаатидан устун қўйиб, хусусий мулк устуворлигини нафақат қонунда, балки амалиётда ҳам реал воқеликка айлантириб, бу билан инсонлардаги ғайрат-шижоат, ижодкорлик, ташаббускорлик ҳисси билан ишлаш иштиёқини кучайтириб, иқтисодиётда ҳам, ижтимоий ҳаётда ҳам ҳайратли даражадаги натижаларга эришгандилар. Биз эса мустақилликдан сўнг бу ҳақда кўп гапирган бўлсак-да, амалда коммунистик тақсимотчилик ва текисчилик қусурларидан халос бўлолмадик.

Президент Мирзиёев ушбу масалани бутун халқ кўз ўнгида давлат хизматчиларининг улкан армиясига қарата кўндаланг қўйди. Ифодали қилиб айтганда, инсонни, унинг жамиятдаги ўрни ва манфаатларини том маънода олдинги ўринга олиб чиқди. Наинки олдинги ўринга олиб чиқди, балки тўла асос билан айта оламиз: юксакликка кўтарди. Инсон қадрини улуғлаш давлат сиёсати марказига қўйилмоқда. Бу эзгу истак фақат минбарлардан оғзаки гап сифатида айтилаётгани йўқ. Шахсан Президентнинг ўзи бу ҳақда вилоятма-вилоят, туманма-туман, қишлоқма-қишлоқ, маҳаллама-маҳалла, уйма-уй пою пиёда юриш асносида энг оддий инсонларнинг кўзига тик қараб айтмоқда.

Бу истакнинг самимийлигига ҳеч қандай шак-шубҳа бўлиши мумкин эмас. Бу истак – янги Ўзбекистон раҳбарининг ҳаётий аъмоли, яъни идеалигина бўлиб қолмасдан, фаолиятининг бош қоидаси, умрининг мазмуни, дейишга тўла асосимиз бор. Лоақал

Президентимизнинг кейинги йилларда чоп этилган асарларининг сарлавҳаларига назар ташлайлик.

«Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади», «Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари», «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз», «Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз», «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси».

Бу китобларни ҳижжалаб ўқиб чиққан бир зиёли сифатида айтаманки, мазмун-моҳияти номларидаги эзгу мақсадга айнан мос ва, иншааллоҳ, бу пок ниятлар унга йўлдош бўлгай!

Дарвоқе, «буюк келажак», деган жумла, очиғи, яқин-яқингача узоқдаги мавҳум бахт-саодатни ифодалаб келгани учун айримларнинг ғашига тегар, ҳатто: «хўш, қачон келади ўша буюк келажак, юз йилдан кейинми?» қабалидаги истехзоларни ҳам эшитиш мумкин эди. Бу истехзоларга жавобан «Фарзандларимиз биздан кўра бахтли яшаши шарт», деган яна бир долзарб ваъда бот-бот янграб турарди. Мазмунан тўғри бўлган бу иддаоларни инкор этиш мумкин эмасди. Шу билан биргаликда...

Одамларнинг аксарияти фарзандлари яхши, тўқ ва фаровон, бахтли яшашини мутлақо инкор этмаган, аксинча астойдил маъқуллаган ҳолда ўзлари ҳам бугун, ҳозир яхши яшашни истар эдилар. Қалбларидаги бу ҳаққоний истак йўғрилган аччиқ саволларга жавоб кутар эдилар.

Юртбошимиз ўз фаолиятининг дастлабки кунлариданоқ бу саволга аниқ ва лўнда жавоб берди: «Келажак бугундан бошланиши керак, зеро, бугунги авлоднинг ҳам тўқ, фаровон ҳамда бахтиёр яшашга ҳаққи бор ва биз шунга эришишимиз шарт», деган қатъий талабни илгари сурди. Бу жуда кўпларнинг қалбидаги оғриқли, армонли саволга берилган аниқ ва қатъий

жавоб эди. Бу – миллионлар юрагида янги орзу-умидлар уйғотадиган оламшумул мужда эди. Айни пайтда бу – жуда катта масъулиятни зиммага олиш эди. Бу – ўттиз йил давомидаги иш суръатларига нисбатан жуда катта сакраш қилишни талаб этар эди.

Қарангки, Президент ана шундай масъулиятни зиммага олишга журъат этди.

Такрор айтаман: мен назариётчи эмасман. Европалик улуғ алломалардан бири уқтирганидек, кўпроқ ҳаёт дарахтини яшнатиш борасида бош қотиришни хуш кўраман. «Назария қуруқдир, дўстим, лекин яшнар ҳаёт дарахти», деган экан буюк немис мутафаккири Гёте. Ўзимизнинг алломалар ҳам бунга ўхшаш кўпдан-кўп ҳикматли ибораларни айтишган, албатта. Бинобарин, мамлакатимиз раҳбарияти илгари сурган ва сураётган ғояларни узундан-узоқ шарҳлашдан кўра кўпроқ амалий натижалар ҳақида мухтасар сўзлаш ва фикрларимни аниқ мисоллар, факт ва рақамлар билан мустаҳкамлашга ҳаракат қиламан. Шубҳасиз...

Бу улуғвор бунёдкорлик кўламлари ҳақида шунчаки, йўл-йўлакай тўхталиб ўтиш мумкин эмас. Уларнинг миқёси, аҳамияти, халқ онги-шууридаги инъикоси шу қадар маҳобатли ва ҳайратланарлики, дўппини олиб қўйиб, шошмасдан, синчиклаб, мағзини чақиб кўздан кечириш ҳамда таҳлил призмасидан ўтказишга тўғри келади.

Худди шу жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда, Президентнинг одамлар бугун, ҳозирданоқ яхши яшаши керак, деган қатъий талаби нечоғлик даражада бажарилаётгани, бу йўналишда қандай ишлар амалга оширилаётгани, буни жамоатчилик қандай эътироф этаётгани мавзусига сал кейинроқ бутун бир бобни бағишлашга қарор қилдим.

Ҳозир эса, дафъатан факту рақамларни қалаштириб, тасаввурингизни толиқтирмаслик учун озроқ ретрография билан шуғуллансам, яъни бироз ортга қайтиб, ёқимли хотираларни ёдга олиб янада кўтаринки ва хуш кайфият улашсам. Зеро, улуғ адибимиз Абдулла Қодирий ўзининг мумтоз романи – «Ўткан кунлар»да ҳақли равишда уқтирганидек: «Мозийга қайтиб иш кўрмоқ хайрлидир»¹.

Ажабмаски, айни замондаги улкан сиёсат ва давлат арбобининг мустақил ҳаёт сари қўйган илк қадамлари ҳақидаги ҳикоям унинг бугунги серқирра ва сершиддат фаолиятига оид тасаввурларни янада равшанлаштиради, илгари сураётган улуғвор ғоялари нақадар самимий ва ҳаётий эканини янада чуқурроқ тушунишга, уларга сидқидилдан ишонишга, ижроси учун камарбаста бўлишга кўмаклашса. Шу билан биргаликда юқорида Худо назар қилган инсонлар ва улардаги бетакрор хислат-фазилатлар ҳақидаги фикрларим жонли мисолларда тасдиқланса.

Қолаверса, ёшлик хотиралари ҳар қандай инсон учун ёқимли ва қадрлидир. Ўз умри мазмунини сарҳисоб қилиш асносида ҳаёт йўлида ҳамроҳу ҳамроз бўлган, юракка яқин кишиларни – устозларни, дўсту биродарларни эсга олишнинг ажру савоби ҳам бор, албатта.

¹Абдулла Қодирий. «Танланган асарлар». Тошкент: «Шарқ», 2014. 4-б.

Иккинчи боб

ИЛК УЧРАШУВ, ТАНИШУВ, СУҲБАТ

Мавжуд таомилларга кўра, улкан сиёсатчи арбоблар, айниқса, давлат бошлиқларининг болалик, ўсмирлик, ёшлик йиллари ҳақида кўпроқ уларнинг ўз қаламларига мансуб автобиографик асарларда ёхуд ўзлари сўзлаб берган таржимаи ҳол асосида таниқли сиёсатшунослар ёхуд журналистлар ёзган китобларда ҳикоя қилинади. Шу боис ҳам азбаройи камтарлик ёинки бошқа сабаблар билан анча-мунчаларининг навқирон даврлари тўғрисидаги маълумотлар кам бўлади.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг она халқимиз сийратию тийнатида келиб чиқувчи очиқ феъл-атвори, ўз таржимаи ҳоли, ёшлик замонлари ҳақида мутлақо шаффоф ҳикоя қилишни хуш кўришини назарда тутган ва ҳар тугул устозлик мақомимдан истифода этган ҳолда қуйидаги воқеаларни сўзлашга жазм этипман. Нафсиламрини айтганда, ушбу воқеаларнинг аксариятини муҳтарам юртбошимизнинг ўзи сайловчилар билан учрашувларда, ёш авлод вакиллари билан суҳбатларда бир неча бор мухтасар шаклларда тилга олган. Камина уларнинг баъзи бирларига шахсан гувоҳ эканлигим боис сал муфассалроқ баён этмоқчиман. Зотан, ички бир сезги бу хотираларда ҳам бугунги авлод назди учун теран бир ҳикмат борлигини уқтирмоқда.

...Ўтган асрнинг етмишинчи йиллари охирлари ёки саксонинчи йиллари боши эди. Тошкент давлат ирригация ва қишлоқ

хўжалигини механизациялаш институти ректори сифатида иш бошлаганимга ҳали кўп бўлмаганди.

Институт ёшлари етакчиси лавозимига янги номзод танлаш чоғида ўша пайтларда коммунистик партиянинг мустаҳкам таянчи ҳисобланган комсомол ташкилоти шаҳар, кейин республика Марказий Қўмитасидаги амалдорлар билан қаттиқ тортишиб қолдим.

Бунинг сабаби – мана шу лавозимдан қатор йиллардан буён юқори идораларда ишловчи айрим мансабдорларнинг ўғил-қизлари учун ўзига хос «трамплин» сифатида фойдаланиб келинган. Яъни, бирор каттаконнинг фарзанди ёки яқин қариндоши қисқагина муддатга тайинланиб, кейин ундан баландроқ, аниқроғи, шаҳар, вилоят, республика миқёсидаги идораларга ишга кўтариб олиб кетилган. Институтнинг салкам ўн олти минг кишилиқ ёшлар ташкилоти фаолияти эса ўз оқимига ташлаб қўйилган. Бу эса мана шу ўта масъулиятли жабҳада исталган соат, дақиқада ғоят кескин муаммолар келиб чиқиши хавфини туғдирган эди.

Мен ушбу ниҳоят даражада долзарб ва муҳим масала билан институт раҳбарлигига келган биринчи кунимданоқ шуғулланаётган ва ўз ўринбосарларим, институт партия ташкилоти етакчилари билан кенгашган ҳолда мана шу ҳар жиҳатдан масъулиятли вазифага чин маънода муносиб номзод қидираётган эдим. Нафсиламрини айтсам, институт ректорлигига тавсия этишдан олдин мен билан муфассал суҳбат ўтказган Ўзбекистоннинг ўша пайтдаги олий раҳбари Шароф Рашидов талаба ёшлар билан ишлашда масаланинг худди шу жиҳатига алоҳида эътибор беришим лозимлигини уқтирганди.

– Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти нафақат Иттифоқда, балки бутун дунёдаги энг йирик олий таълим муассасаларидан бири, унда дунёнинг йигирмага яқин мамлакатидан келган талабалар таҳсил

олади, аспирантлар, илмий тадқиқотчилар изланиш олиб боради. Уларнинг бошини қовуштириш, ушбу даргоҳда ўзаро аҳиллик, ҳамжиҳатлик асосидаги соғлом таълим-тарбия, илмий изланиш муҳитини яратиш осон иш эмас, – деганди у киши. – Бунинг учун кечаю кундуз сидқидилдан меҳнат қилиш, ҳалол ва адолатли бўлиб, ҳушёрлик билан иш олиб бориш талаб этилади. Ундаги арзимаган бир кичик жанжал халқаро можарога сабаб бўлиши мумкин. Шунини бир дақиқа ҳам эсдан чиқарманг.

Бу менга билдирилаётган катта ишонч билан биргаликда ўта жиддий огоҳлантириш ҳам эди. Мен талабалару тадқиқотчи ёшлари таркиби ўнлаб давлатлардан келган юзлаб миллатларга мансуб йигит-қизлардан иборат ушбу байналмилал жамоадаги барқарор вазият учун бошим билан жавоб беражагимни чуқур англаб турардим.

«Барчасини кадрлар ҳал қилади!» деган шиорни айрим олимлар йигирманчи аср бошларида кашф этилган деб ҳисоблашади ва ҳатто, ўша давр коммунист доҳийларидан бирига нисбат ҳам беришади. Менимча, бу қоида башарият онгли равишда жамоа бўлиб яшай бошлаган илк даврларда туғилган ва асрлар давомида ўзининг долзарб аҳамиятини йўқотмай келади. Соҳибқирон бобомиз Амир Темур ҳазратларининг мана бу иборасида ушбу ақида ўзининг энг мухтасар ва мукаммал ифодасини топган: «Тажрибамда кўрилганким, азми қатъий, тадбиркор, ҳушёр, мард ва шижоатли бир киши мингта тадбирсиз, лоқайд кишидан яхшироқдир»¹. Камина ўз раҳбарлик фаолиятининг дастлабки кунлариданоқ шунга қатъий амал қилишга ҳаракат қилар ва ҳар бир иш жабҳасига шу соҳани аввало, яхши биладиган ва яхши кўрадиган, яъни ўлганининг кунидан ёхуд вақтинча эмас, том маънода меҳр қўйиб, жонини бериб меҳнат қиладиган муносиб етакчиларни танлашга интилардим. Айниқса, таркиби

¹ «Темур тузуклари». Тошкент: «Ўзбекистон», 2015. 8-б.

турли миллат ва элатлар вакилларида, турлича ёшдаги ва дунёқарашдаги, дини ва ғоявий эътиқоди ҳар хил кишилардан иборат жамоаларга, аввало, маънавий баркамол, ахлоқий жиҳатдан пок, билими мукамал, дунёқараши кенг, юксак маданиятли ва энг муҳими, меҳр-оқибатли, яъни инсонпарвар кишилар етакчилик қилишлари шарт, деган фикрда қойим эдим.

Шунинг учун ҳам ишни энг қуйидан бошладим. Яъни, илм даргоҳимизнинг барча факультетларида таҳсил олаётган талабалар, аспирантлар ва тадқиқотчилар, навқирон ўқитувчилар орасидан аввало, фанларни аъло даражада ўзлаштираётган, ҳаётий позицияси мустаҳкам, дунёқараши кенг, қалбида етарлича журъату дадиллиги ва ўз кучига комил ишончи бор йигит-қизларни қидириб топиш, бирма-бир суҳбатдан ўтказиш, барча бўғинларни юксак талаблар даражасидаги етакчилар билан мустаҳкамлашга интилдим.

Институт ёшлар ташкилоти раҳбари амалда ректор ва партия қўмитаси котибидан кейин турувчи учинчи шахс ҳисобланар, жамоатчилик асосидаги лавозим ҳисобланмай, шу чоққача унга талабалар орасидан эмас, кўпроқ ўқишни битказган ва юқорида айтганимдек, кимларнингдир «порлоқ келажак сари» интилаётган қариндошу таниш-билишлари тайинланиб келгани боис, улар олийгоҳнинг кўп минг кишилиқ ёшлари билан яқиндан мустаҳкам алоқа ўрната билмаган, ўртадаги муносабат расмиятчиликдан, турли жорий тадбирлар ўтказишдан иборат бўлиб келган, холос.

Мен бу масъулиятли лавозимга номзодни талабалар орасидан излаш, яъни улар қалбини яхши ҳис этадиган, уларни тўлқинлантираётган, ташвишлантираётган муаммоларни тушунадиган, шу билан биргаликда туғма лидерлик, яъни йўлбошчилик хусусиятига эга, кенг миқёсли мустақил фикрловчи, иродали, керак пайти қаттиққўллик ва қатъият кўрсата оладиган йигит топишимиз керак, деган таклифни ўртага ташладим. Факультет

деканларининг тавсияларига биноан бир неча номзодларни қабул қилиб, мулоқотда бўлдим.

– Қишлоқ хўжалигини механизациялаш факультети учинчи босқич талабаси Мирзиёев Шавкат Миромонович, – дея таништирди ўзини кўринишдан ёши йигирмадан эндигина ошган бўлса-да, тийрак ва маъноли кўзларида ҳаётнинг анчагина мураккаб синовларидан ўтишга улгургани, шулар самараси ўлароқ ўзига ишонч, анчайин дадиллик яққол акс этиб турган, зич ва қуюқ сочлари ёнбошга ҳафсала билан таралган ёқимтой чеҳрали йигит.

У факультети ёшлари етакчиси экан. Ҳа, айтганча, шу ўринда факультет деканининг у ҳақда айтган холисона фикрларини эътироф этмасам бўлмайди. Бу борада аввал ҳам қатор суҳбатларда сўз юритганман. Чунки хотирамга бир умр муҳрланиб қолган.

– Худо берган иқтидори, битмас-туганмас ғайрати бор. Уни танласангиз янглишмайсиз, – деди факультет раҳбари.

Одатимга кўра, бирор киши ҳақида ҳали унинг ўзини кўрмай туриб, юксак баҳо эшитсам, дарров ишона қолмайман, аксинча, ҳушёр тортаман, бу баҳонинг нақадар холис эканлигига мумкин қадар тезроқ аниқ ишонч ҳосил қилишга интиламан.

– Тавсия учун раҳмат. Аммо мен танланаётган номзодни шахсан ўзим атрофлича ўрганиб, дилдан суҳбатлашиб кўргачгина бир хулосага келаман, – дедим. Ҳа, айтганча...

Ўша кунларда институт етакчиларидан бири бошқа номзодни тавсия этди ва унга мана бундай таъриф берди:

– Бу йигит ҳар қандай топшириқни сўзсиз, айтилганидан ҳам зиёда қилиб, вақтида бажаради, зиммасидаги вазифани кўнгилдагидек, ўта аниқ-пухта адо этади, – деганди декан. Сирасини айтганда, бу ўша давр коммунистик мезонлари асосида белгиланган «навбатчи» баҳо бўлиб, ўз моҳиятига кўра баҳоланаётган шахснинг «ижро интизоми»га қанчалик риоя этишини акс эттирарди. Бироқ мен табиатим ва танлаган соҳам

тақозосидан келиб чиққан ҳолда, биз тайёрлаётган кадрлар, айниқса илм соҳасининг одамлари кўпроқ мустақил фикрлаши, мудом изланишдан чарчамаслиги, пухта ҳисоб-китобга асосланган ташаббускор таваккалчиликдан чўчимаслиги, дадил, журъатли бўлиши даркорлигини кўп таъкидлар эдим. Шунинг учун унга:

– Биз буйруқларни кўр-кўрона эмас, онгли равишда ақл-идрок чиғириғидан ўтказган ҳолда кутилганидан ҳам зиёда қилиб бажарадиган, зийрак, дадил, мустақил қарор қабул қилишдан кўрқмайдиган илм ва амалиёт ходимларини тарбиялашимиз лозим, – дея енгил дакки берган ва тавсия этилган номзодни инкор қилган эдим.

Бинобарин, қишлоқ хўжалигини механизациялаш факультетидан келган ва аввал суҳбатлашилганларидан анча ёш номзодимиз билан мулоқотни бошлашдан олдин қаршимдаги йигитнинг мустақил фикрлаши, ўз қарашларини нечоғлик журъат билан баён этиши ва ҳимоя қилишини алоҳида синовдан ўтказиш зарурлиги ҳақида ўйлаб турардим.

Одатдагидек мулоқотни шошилмасдан, суҳбатдошим билан яқинроқ танишишдан бошладим. Ундан ўзи, оиласи, талабаликкача бўлган ҳаёти ва орзу-интилишлари, яъни мактабда ўқиш чоғидаги ўзлаштириши, тилларни, айниқса рус тилини қай даражада билиши (бу ўша даврларда жуда муҳим эди), қизиқишлари доираси, ота-онасининг кимлиги ва касби кори, қавм-қариндошларию дўстлари, сабоқдошлари билан муносабатлари, институтни битказгач, меҳнат фаолиятини қай тарзда давом эттирмоқчи экани ҳақида муфассал сўзлаб беришни сўрадим.

Маълум бўлдики, Шавкат Мирзиёев – асли қишлоқ фарзанди. Зомин тоғлари бағрида туғилиб вояга етган. Туман марказидаги биринчи ўрта мактабда, турли миллат вакиллари бўлган ўқитувчилардан таълим олган. Суҳбатимиз чоғида у ўз устоз муаллимлари ҳақида алоҳида ҳаяжонли миннатдорчилик, меҳру

ҳурмат билан сўз юритиши эътиборимни тортди. Бу унинг болалик пайтлариданоқ билимга чанқоқлиги, илм-фанга муҳаббати ва фидойи кишиларга нисбатан қалбида алоҳида иззат-икроми борлигини кўрсатиб турарди.

Унинг аждодлари ана шу юксак чўққили пурвиқор тоғлар этагидаги воҳаларда азал-азалдан деҳқончилик билан шуғулланиб келишган экан. Боболари орасида пахтачилик, чорвачилик, ғаллачилик соҳасида ҳалол меҳнат қилиб элга танилган миришкор инсонлар кўп бўлганлигини айтди. Уларнинг исми-шарифларини ички бир ғурур билан тилга олар экан, навқирон суҳбатдошимнинг кўзлари бошқача чақнади. Ана шу касбни улуғлаш, деҳқон меҳнатининг машаққатларини енгиллаштириш, замонавийлаштириш, бунинг учун эса фан-техника ютуқларига асосланган ҳолда тубдан механизациялашга ўз ҳиссасини қўшиш мақсадида шу институт ва айнан шу факультетга ўқишга киришга жаҳд этганини, бироқ бу осон бўлмаганини, дастлабки уриниши муваффақиятсиз чиққанига ҳам қарамасдан, тушкунликка тушмаганини, кечаю кундуз янада қаттиқроқ ўқиб, пухтароқ тайёрланиб, ниҳоят мақсадига эришганини айтди. Бундан сезилдики, у ўзи қатъият билан бағрига интилган ушбу мўътабар даргоҳга ҳам қалбида ўзгача муҳаббат, эътиқоду садоқат ҳис этади.

Илк сўзлариданоқ унинг барча қишлоқ кишиларига хос самимий, оққўнгил ва очиқ-ойдин фикрловчи йигит экани сезилганди. Алоҳида бўртиб кўринган яна бир хусусияти – у юрагидаги энг нозик ҳис-туйғуларини-да яшириб ёки бўяб-бежаб, оҳанжама қилиб ўтирмасдан бажонидил баҳам кўрар ва бу билан суҳбатдошини беихтиёр сеҳрлаб, ўзига маҳлиё этиб қўяр, унинг самимий ишончига сазовор бўлиб, юрагини забт этарди. Ҳа, худди шундай эди. Бунинг уни ўша чоғлар яқиндан билган, ўқишда ёки ишда елкадош бўлган кишилар ҳам кўп таъкидлашган.

Демак, бу эътирофни мен унинг бугунги олий мартабаси, юксак рифъати улвийси тақозоси билан эмас, ҳув ўша қирқ йил олдинги суҳбат чоғидаги таассуротларнинг холисона ифодаси сифатида келтиряпман. Нафсиламрини айтганда, унинг айни кунларда мамлакатимизнинг энг олис қишлоқларигача қадам-бақадам кезиб, оддий хонадонларга кириб, оддий меҳнаткаш инсонлар билан суҳбатлар чоғи тез-тез таъкидлайдиган бир ибораси менга ўша, навқирон йигитнинг навраста ва пок қалбидаги самимият худди ўша пайтлардаги сингари шаффоф ва мусаффо ҳолатда сақлаганини ёрқин исботлайди:

«Мен ҳам қишлоқдан чиққан оддий бир йигитман», деган сўзни у биринчи сайловда ҳам, иккинчи сайлов чоғида ҳам сайловчилар билан учрашувларда бир неча бор такрорлаганини телевизор орқали кўрдим ва ундаги ўша мен илк танишув, дастлабки суҳбат чоғида кашф этган беғубор самимият яна ҳам тиниқлашганига, бамисоли порлоқ бир машъал сингари порлаб турганига комил ишонч ҳосил қилдим. Майли, воқеалар оқимидан илгарилаб кетмай, биринчи суҳбатимизга қайтайлик.

Мулоқот асносида мен унинг отаси Миромон Мирзиёевнинг касби врач-фтизиатр эканини, Зоминдаги сил касаллигига қарши кураш шифохонасига раҳбарлик қилаётганини, онаси раҳматли ҳам шу касалхонада ишлагани ҳақида билиб олдим. Волидасининг шу касалликни касалхонада беморлардан юқтиргани ва ўзини асраш-даволашдан кўра, бошқалар саломатлиги ҳақида кўпроқ жон куйдиргани, фидойи бўлгани учун ҳам бевақт вафот этиб кетганидан воқиф бўлдим. Бундан қаттиқ таъсирландим. Биз фидойилик, жонини жабборга бериб ишлаш деган жумлаларни кўп ишлатамиз. Осонгина, оғзимизнинг бир чеккасидан чиқиб кетаверади. Ҳолбуки, мана шу тушунчаларнинг замирида қанчадан-қанча шифокорлар, олимлар, ҳарбийлар, учувчилар, хуллас, турли касб эгаларининг бевақт вафотлари, қаҳрамонона

ҳалок бўлишлари билан боғлиқ фожиали воқеа-ҳодисалар мужассам эканини ҳамиша ҳам чуқур ўйламаймиз. Айни кунларда Президентнинг мамлакатимизда тиббий хизматни кескин ривожлантириш йўлида тиним билмаётгани, ватандошларимиз саломатлиги ҳақида бунчалар жонкуярлик, бу қадар қатъият билан ғамхўрлик қилаётгани, бу масалани такрор-такрор муҳокамага қўяётгани, бир жумла билан айтганда, шу йўлда туб ижобий натижаларга эришишга қатъий бел боғлагани сабаблари унинг болалиқдаги ана шу аччиқ армонига бориб тақалса не ажаб.

Англадимки, суҳбатдошим волидаи муҳтарамасидан тўққиз ёшида жудо бўлган. Бу жуда аламли. Ахир дунёда она меҳрининг ўрнини босувчи на моддий, на маънавий неъмат бор. Бу кемтикни ҳеч нарса билан тўлдириб бўлмайди.

Ана шу оғир мусибат дамларидаги ҳис-туйғулар улуғ шоиримиз Абдулла Ориповнинг қуйидаги сатрларида ниҳоятда таъсирчан ифодаланган:

*«Маконда ломаконсан, энди қайдан излагайдурман,
Фигоним кимга айтиб, кимга сендин сўзлагайдурман.
Бировлар мотамида оху фарёд айлаган эрдим,
Сенинг-чун, эй гарибим, ич-ичимдан бўзлагайдурман»¹.*

Онасиз ўсиш қисмати фарзандни тез улғайтиради. Зеро, у турмушнинг оддий, кундалик ноўнғайликларидан бошлаб, ҳаётдаги катта қийинчиликлару мураккаб муаммолар билан барвақт тўқнашади. Албатта, сағир қолган болаларга туққан онадан кам бўлмаган даражада меҳр бериб, ҳар томонлама етарли ғамхўрлик кўрсатиб, уларнинг чинакам меҳр-муҳаббати ва бир умрлик миннатдорлигига сазовор жаннати муслима аёллар кўп. Улар қошида ҳамиша таъзим бажо келтириш фарздир. Аммо туққан она ўрнини ҳеч ким ва ҳеч нарса ҳеч қачон босолмайди. Ундан жудо

¹ Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.

бўлиш Яратганнинг инсон боласига юборадиган энг мураккаб синовларидан биридир.

Шу маънода суҳбатдошим кўнглидаги ана шу кемтик бир нуқта унинг теран бир андуҳ сингиб кетган шафиқ кўзларида билинар-билинемас зоҳир бўлиб турар эди. Бундай кишилар одатда мутаассир ва раҳмдил, кескин қарорлар қабул қилишда анчайин эҳтиёткор бўладилар. Ана шуни назарда тутиб, мен мавзунини раҳбар одам зарурат туғилган кезларда нечоғлик даражада қаттиққўл бўлиши мумкинлиги ва лозимлигига бурдим. У фикримни тасдиқлаш баробарида: «Ҳар қандай вазиятда адолат ва ҳаққониятни эсдан чиқармаслик керак» деган фикрни имкон қадар маданиятли қилиб, ётиғи билан билдиришга уринди.

Гап орасида унга: «Раҳбар ходим учун бир суткада қанча уйқу етарли бўлиши мумкин?» деган кутилмаган ва бироз ғалати савол бердим. У шошиб қолмади. «Агар ўзи соғлом, уйқуси самарали бўлса, икки-уч соат кифоя қилади» деди у сира иккиланмасдан.

Бу мен кутган жавоб эди. Чунки падари бузрукворим мисолида мен худди мана шунга гувоҳ бўлган эдим.

Раҳматли отам, Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси, Социалистик Меҳнат Қаҳрамони, нафақат Хоразм вилояти, балки мамлакатдаги энг йирик жамоа хўжаликларида бирини узоқ йиллар идора қилган Искандар Дўсов ана шундай ишлар эди. Барча, жумладан, биз, фарзандлар уни мудом тик оёқда мудом ҳаракатда кўрардик ва қачон, қанча ухлаганини билолмай, ҳайрон бўлиб юрардик. Ҳолбуки, отам урушдан ярадор бўлиб қайтган танасидаги оғир жароҳатлар муттасил азоб берарди.

Ёш ҳамсуҳбатимнинг уйқу ҳақидаги қатъий ишонч билан айтган гапими ё шу муносабат билан падари бузрукворимнинг табаррук сиймоси кўз олдимга келгани боисми, бу галги мулоқот аввалгиларидан анча чўзилди. Мен ўртага янги-янги, баъзилари ўзим учун ҳам биринчи марта кўндаланг бўлаётган

саволлар ташлар эканман, ундан жавоб кутиш билан биргаликда кўнглимдан: «Хўш, менимча қандай?» деган фикр ўтарди. Бошқача айтганда, қўйилаётган саволларга у билан биргаликда энг тўғри, ягона жавобни топишга ўзим ҳам ҳаракат қилар эдим. Чамаси, бунинг сабаби, суҳбатимизнинг илк жумлалариданоқ ушбу йигитга нисбатан кўнглимда ихтиёрсиз равишда туғилган ва мулоқот жараёнида тобора мустаҳкамланиб бораётган хайрихоҳлик, яқинлик ҳисси билан боғлиқ эди.

Кўнгил сезади. Бундан бир муддат аввал, Мустақилликнинг ўттиз йиллиги арафасида ана шу энг улуғ, энг азиз байрам муносабати билан ўтказилган ва «Нуроний» газетаси саҳифаларида эълон қилинган суҳбатда мен шу ҳақда гапирган ва бу сезгини инсонга Парвардигор томонидан инъом этилган энг бебаҳо бойлик, дея таърифлаган эдим. Шу ўринда мазкур эътирофни яна бир марта такрорлаш ва қисқача таҳлил этишни истар эдим.

Яшириб, носамимийлик қилиб ўтиришни истамайман, ҳамма замонларда, ҳамма вазиятларда ва ишларда бўлгани каби, ўша кунларда мазкур лавозимга номзод танлаш ва тайинлаш борасида юқоридан, ёнбошдан ва қуйидан кўплаб кишилардан илтимослар бўлган, уларнинг айримлари қиёлмайдиган, келгусида қайсидир маънода керак бўлиши тайин одамлар эди. Қолаверса, мен уларнинг бир нечасига масалани имкон қадар ижобий ҳал этишга ваъда ҳам берган эдим. Аммо...

Суҳбат асносида кўнглимнинг туб-тубида «Сен излаган номзод айнан мана шу йигит», деган ғойибона садо баралла янграб турар эди. Бироқ уни тавсия этишни ҳеч ким илтимос қилмаган, суриштирувимга кўра, минг бир машаққат ила ўқишга киришдан бошлаб, фанларни ўзлаштириши, илмий тадқиқотга қизиқиши ва ёш олимларнинг нафақат институт, балки шаҳар, республика миқёсидаги конференция-анжуманларида қизиқарли ҳамда долзарб мавзулардаги маърузалар билан чиқиши, факультет ижтимоий

ҳаётидаги фаол иштироки – ҳамма-ҳаммаси унинг, аввало, Худо берган туғма иқтидори, бу қобилиятни юзага чиқариш йўлидаги дадил шахсий саъй-ҳаракати, қизиқувчанлиги ва интилувчанлиги, вақтдан унумли фойдаланиши билан боғлиқ эди.

Ана шу лаҳзаларда падари бузрукворим иш тутумига хос ва ҳамиша юрагимнинг тўрида турувчи теран маъноли бир ибора эсимга келди: «масъулиятли лавозимга муносиб кишиларни кимдир илтимос қилиши шарт эмас, зарур бўлса, биз ўзимиз улардан илтимос қилиб, ишга таклиф этишимиз керак» дердилар у киши.

Юқорида «харизма» деган ажнабийча бир истилоҳ ҳақида гапириб ўтгандим. Яна ўша тушунчага қайтиб, ўзимга ўхшаш аксар инсонлардаги бир ҳолатга гувоҳлик бераман: улар учун биринчи таассурот кўпинча ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлади. Яъни бир одамни биринчи мулоқот чоғида ёқтирса, кўнглида умрбод ана шу ҳис устувор бўлади. Акси бўлса, яъни илк учрашув ёки суҳбатдаёқ хушламаса, кейин ҳам қабул қилиши душвордир.

– Сизни институт ёшлар етакчиси лавозимига тавсия этишга қарор қилдим. Шунга нима дейсиз? – савол назари билан синовчан қарадим суҳбатдошимга. Кўп ҳолларда, бундай таклиф билдирилган киши дарҳол: «Ишончингизни шараф билан оқлашга ваъда бераман» дея баландпарвоз оҳангда миннатдорчилик билдиради. Айрим амалсевар уддабуро кимсалар: «Бир умр хизматингиздамиз» деган маҳрамона кўшимча ҳам қиладилар.

Менинг суҳбатдошим эса бироз ҳаяжонланиб:

– Бу жуда масъулиятли вазифа, мен ҳали талабаман, эплашим қийин, – деган самимий камтарлик ва бир қадар иккиланиш билан жавоб берди. Ва бу камсуқумлик, иккиланишнинг самимийлигига ишонмаслик мумкин эмасди. Ҳали учинчи босқичда ўқиётган талаба йигитнинг қарийб ўн олти минг кишилик, ифодали қилиб айтганда, ёшлар армиясига қўмондонлик қилишга дабдурустан

жазм этиши қийин. Албатта, калтабин ва масъулият нималигини ҳали яхши тушунмайдиган айрим ёшлар ўйлаб ҳам ўтирмасдан дарҳол: «ишончингизни шараф билан оқлайман ёхуд бу яхшилигингизни бир умр унутмайман, ҳамиша хизматингизни қиламан», деб юбориши мумкин. Ёки «юқорида» танкаси бор ва бу вазифага вақтинчалик иш, эртанги каттароқ мансаблар учун трамплин, деб қаровчи «отасининг боласи» учун бундай камтарлик ва иккиланиш ҳиссиёти мутлақо бегона. Ҳаётим давомида шундай мансабпараст касларга дуч келдимки, номи лавозим, тагида машина, қишда иссиғу ёзда салқин кабинет ва чиройли котиба бўлса бас, шуғулланадиган соҳасию бажарадиган вазифасининг заррача аҳамияти йўқ. Ундайлар бугун коммунал хўжалик, эртага тиббиёт, индин маданият тармоғига сира топ тортмасдан бурун суқаверадилар. Таниқли ҳажвчи адибимиз, Ўзбекистон халқ ёзувчиси Неъмат Аминовнинг «Ёлғончи фаришталар»¹ китобида мамлакат танасига тушган ана шундай «қурт»ларнинг бир қарашда беозоргина кўринувчи «раҳбарлик фаолияти» жамият тараққиётига, ҳақиқат ва адолат мезонларига нақадар катта зарар етказиши ҳажв тиғи остида жудаям ҳаққоний кўрсатиб берилган. Бу асар ўша пайтлар жуда катта шов-шувларга сабаб бўлган, турли даражадаги ўзини ҳурмат қилувчи раҳбарлар уни ўқиб, ўзларига тегишли хулосаларни чиқариб олгандилар.

Албатта, мен ўзим танлаган мана шу йигит номзодини илгари суриш билан талаба ёшлар ўртасида ижтимоий адолатга ишонч туйғуси кучайишинигина кўзда тутаётган эмасдим. Шу билан биргаликда ҳар қандай эсли-хушли раҳбар сингари ёнимда менинг елкамдаги юкнинг бир қисмини ўз елкасига олиб, зиммамдаги масъулиятни салгина бўлса-да енгиллаштирадиган, мураккаб дақиқаларда ўзини аямасдан астойдил қўллаб-қувватлайдиган

¹Неъмат Аминов. «Ёлғончи фаришталар». Тошкент, 1986.

ишончли, садоқатли ҳамкор, дўст, шогирд орттиришни хоҳлар эдим. Буни очиқ айтишим шарт.

– Иккиланманг. Қўллаб-қувватлаймиз, керак бўлса, ёрдам берамиз, муҳими, мана шу ишончга сидқидилдан муносиб бўлишга ҳаракат қилишингиз зарур, – дедим мен ва бир оз кулимсираб: – Ҳали... унгача юқоридагиларнинг розилигини олишимизга тўғри келади. Улар эса... осонликча жон бермайди.

Шундай деяётганим тасодифий эмасди. Ёшлар ташкилоти шаҳар, қолаверса, республика Марказий қўмитаси кадрлар борасида ўзининг мустақил сиёсатини юргизар, компартия идоралари эса бу борада уни қаттиқ қўллаб-қувватларди. Бинобарин, «горком комсомол» ва, айниқса, «ЎзЛКСМ» Марказқўмининг айтгани айтган-дегани деган, ҳисобланарди.

Орадан кўп йиллар ўтган бўлса-да, ўша даврнинг кадрларни танлаш, тарбиялаш ва тайинлаш борасидаги ўзига хос жиҳатлар ҳақида иложи борича холислик билан тўхталиб ўтишни жоиз, деб ҳисоблайман. «Номенклатура» деган истилоҳ бугунги кун ёшлари учун нотаниш. Бироқ ўша даврда бу сўзнинг салмоғи жуда катта эди. Яъни, мамлакат бошқаруви тизгинига мутлақ эгалик қилувчи компартия идорасининг бирор бўғини кадрлар захираси рўйхатига илиниш, номенклатурага кириб олиш ҳисобланар, бироқ бу осон эмасди. Ўша даврларда яшаган кекса зиёлилар ўзбекчага «Олтин ёшлар» деб таржима қилинувчи «Золотая молодёжь» деган иборани яхши эсласалар керак. Бунинг маъноси коммунистик партиянинг туман, вилоят ва республика миқёсидаги идораларида ишловчи раҳбар ходимларнинг фарзандлари туғилган кунлариданоқ алоҳида қулайлик ва имтиёзларга эга бўлар, махсус ясли ва боғчаларда тарбияланар, махсус мактабларда ўқир ва мамлакатнинг Москва, Ленинград ва бошқа марказий шаҳарларидаги нуфузли олий ўқув юртларида таҳсил олар, ўқишни тугаллагач, аввал комсомол, сўнгра партия ташкилотларига ишга

қабул қилиниб, порлоқ келажаги таъминланар эди. Рости гап, бизнинг институтни битирган мутахассислар орасида қишлоқ хўжалиги механизацияси, ирригация, мелиорация соҳасида ишлаш асносида ўзини кўрсатиб, ишлаб чиқариш ҳамда партиявий идоралардаги юқори лавозимларга кўтарилган ходимлар кўп эди ва бу ҳол таълим даргоҳимизга ана шу тармоқларга сидқидилдан қизиқувчи қишлоқ йигит-қизлари билан бир қаторда амалдорликка интилувчи боягидақа ёшлар ҳам кириб қолган ва уларнинг фикру зикри таҳсилни бош қотирмасдан битказиб, бел оғритмасдан катта мансабларни эгаллашдан иборат эди.

Ачинарлиси, уларнинг аксарияти бамисоли иссиқхоналардаги тувакларда ўсгани, алоҳида имтиёзларга эга рус тилли мактабларида ўқигани учун ўзбек тилини билмас, маҳаллий аҳоли турмушини, ундаги ташвишу муаммоларни тасаввур ҳам этолмас, шунга қарамасдан бир амаллаб диплом олишар, таниш-билиш орқали комсомолу партия ташкилотларига жойлашиб олиб, ўзларини қозон бошидаги баковуллар сингари ҳис этишарди.

– Танлаган номзодингиз ҳали талаба экан, бу масъулиятли жабҳада ишлашга ёшлик қилади, тажрибаси йўқ, шунинг учун яхшиси, биз тавсия этган, ташкилотимизнинг кадрлар захирасида турган аспирант ёки ёш тадқиқотчилардан бирига тўхталишингизни маслаҳат берамиз, – деди мен телефон орқали мулоқот қилган ана шунақа кибрли мулозимлардан бири.

– Ақл ёшда эмас, бошда, ука, биз бу номзодга тўхталишдан олдинги институтдаги кўпчилик талабалар, қолаверса, сиз айтаётган аспирантлару тадқиқотчилар билан биргаликда профессор-ўқитувчиларнинг фикрларини инобатга олганмиз.

– Бунга ҳақингиз бор, лекин сиз биринчи навбатда бизнинг фикримиз билан ҳисоблашингиз шарт...

Тушундимки, бу ёш бюрократ билан баҳслашиб ўтиришнинг фойдаси йўқ. Аммо фикримда қойим турардим ва қарорим қатъий

эди. Шунинг учун аввал шаҳар партия қўмитасига чиқдим. У ердаги эҳтиёткор ходимлардан бири юқори комсомол ташкилоти билан ҳисоблашиб, келишиб ишлаш лозимлигини «маслаҳат» бергач, Марказқўмнинг мафкура бўйича котиби, устозим Оқил Умрзоқович Салимовга мурожаат этишга мажбур бўлдим.

Худди бугунгидай аниқ эсимда, у киши фикримни диққат билан эшитди. Сўнгра:

– Тавсия этилаётган номзод ишончни оқлашига имонинг комилми? – деб сўради.

– Комил! – дея жавоб қайтардим.

– Институт учун сен жавоб берасан, унинг раҳбар кадрлари билан сен ишласан, шунинг учун биринчи навбатда сен тавсия этган номзодга ишонч билдирилиши лозим, мен буни уларга тушунтириб қўяман, – деди одатдагидай қатъият ила.

Шу тариқа мўлжаллаган номзодимизни бир мунча қийинчилик билан юқоридагиларнинг тасдиғидан ўтказиб, институт ёшлар ташкилотининг умумий йиғилишига олиб чиқдик. Ёшлар номзодимизни катта хурсандчилик билан қарши олдилар. Чунки бу лавозимда яқин орада талабалар сафидан чиққан, уларнинг ташвишу муаммоларини ўзларичалик яхши тушунадиган номзод танланмаган эди. Энг муҳими, тенгқурларининг аксарияти ўқишда илғор, илмий тўғаракларда пешқадам, жамоат ишларида фаол, ҳамсабоқ дўстлар билан муносабатда жонкуяр бу йигитни яхши танишар ва ҳурмат қилишарди. Сайлов натижалари ҳам шунга монанд бўлди. Асосий кўпчилик муносиб номзодга астойдил ишонч билан овоз берди.

Шавкатжон аъло кайфият, ғайрат-шижоат билан иш бошлар экан, бир озгина хавотир ҳам билдирди. Хавотирининг боиси тушунарли эди. Юқорида тилга олинган айрим кишилар уни найза билан қарши олишлари мумкинлигидан ташвишланаётган эди.

– Шундай ишлашимиз керакки, ҳеч қандай эътирозга ўрин қолмасин, – дедим мен. – Ана шунда вақти келиб ўшалар ҳам ўз хатоларини тушунадилар, тан берадилар ва дўстлик қўлини чўзадилар...

Худди шундай бўлди ҳам. Институтимиз ёшлар ташкилоти нисбатан қисқа фурсатда нафақат Тошкент шаҳри, республика, иттифоқ, ҳатто халқаро миқёсда ўзининг муносиб ўрнини эгаллади. Унинг етакчиси ёшларнинг республика, иттифоқ бўйича ўтказилган нуфузли анжуманларга делегатликка сайланиб, уларда эътиборга сазовор чиқишлар қилиб, ўзининг ўткир зеҳни, ақл-заковати, раҳбарлик иқтидорини яққол намоён эта бошлади. Ёшлар ташкилотининг энг юқори бўғинларида ишловчи раҳбарлардан тортиб, ходим ва мулозимлар бундан мамнунликларини яширмадилар. Бир неча марта институт ректоратига ўз қизғин миннатдорликларини билдирганликларига шахсан гувоҳман. Ҳақиқатда ҳам институтимиз ёшларининг ўқиш давоматида, илмий изланишлар бобида, шунингдек, бевосита республика далаларида олиб бориладиган амалиёт жараёнларида эришаётган натижаларидан қувонмаслик, фахрланмаслик мумкин эмасди.

Бу эса ўз навбатида институт обрўсига обрў қўшди, унинг фақат республика ёхуд собиқ иттифоқдагина эмас, яқин ва узоқ хориж мамлакатларидаги нуфузини янада оширишга, мамлакатимизнинг турли бурчакларидан, шунингдек, чет эллардан кўплаб ёшларни талабалик, аспирантлик, тадқиқотчиликка жалб этишга муҳим омил бўлди.

Ушбу тафсилот ва мулоҳазаларни бугун, орадан шунча йиллар ўтгач, азбаройи ҳикоям қаҳрамонининг юксак мартабаси ҳақиқурмати учун ёзаётганим йўқ. Барчаси ҳақиқат ва мутлақо самимий фикрлар. Кимнингдир бунга заррача шубҳаси бўлса, кутубхонага кирсин ва институт тарихига оид вақтли матбуотда эълон

қилинган кўплаб мақолалар, солномалару рисоаларни синчиклаб ўқиб кўрсин. Мана шундай китоблардан бири 1984 йилда нашр этилган бўлиб «Меҳнат Қизил Байроқ орденли Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш институти» деб номланган ва мазкур даргоҳнинг 50 йиллигига бағишланган¹. Ушбу салмоқли рисолада олийгоҳнинг ярим асрлик шонли йўли тўғрисида муфассал ҳикоя қилинган, унинг бешигини тебратган тарихий шахслар, айна кунлардаги қайноқ ҳаёти, дарс бераётган профессор-ўқитувчилар, тажрибали олимлару ёш тадқиқотчилар, раҳбар ходимлар, жумладан, ёшларнинг моҳир етакчиси фаолияти ҳақида ҳам холис ва ҳаққоний фикрлар билдириб ўтилган.

Китобим қаҳрамонининг ёшлар етакчиси сифатидаги серқирра фаолияти, ўқишда ва илмий изланишда қўйган кейинги дадил қадамлари хусусида фикр юритиш баробарида ўзининг жуда бой тарихи ва улкан нуфузига эга, мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги, қолаверса, иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий соҳаларига жуда кўплаб етук мутахассисларни, чунончи, мустақил давлатимизнинг амалдаги раҳбарини тарбиялаб етиштирган, жумладан, ўзимнинг ҳаётимда туб бурилиш ясаган, ўчмас из қолдирган мана шу табаррук даргоҳ ҳақида, рухсат берсангиз, ҳикоямнинг учинчи бобида батафсил сўзлаб берсам.

Ҳа, айтганча, ёшлар етакчисининг дастлабки иш кунларида унга берган бояги маслаҳатимга қўшимча тариқасида айтилган ва ундан кейин ҳам кўп марта такрорланган бир қатъий талабимни ҳам мавриди келганида айтиб ўтмасам бўлмас.

– Жамоат ишларида қатнашиш, сиёсий фаолият, албатта, жуда муҳим, бу кишининг шахс сифатида шаклланишида катта роль ўйнайди. Бироқ биринчи вазифа – кунт билан ўқиш, танланган касбни ипидан игнасигача пухта ўрганишдан иборат. Шу билан

¹«Ордена Трудового Красного знамени Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства». Ташкент, 1984.

биргалиқда, илмий изланишларни ҳам асло ташлаб қўймайсиз, – дедим мен.

– Албатта, – деди у ва бунга қатъий амал қилди.

Ҳозиргина тилга олинган китобда ёш олимнинг ўз тенгқур дўстлари ва ҳамкасблари билан биргалиқда илмий тадқиқотчилик борасидаги фаолияти ҳам суратли лавҳаларда акс этган.

Сал кейинроқ яна бир муҳим ва қизиқарли воқеа юз берди. Институтга унинг юбилейи муносабати билан Ўзбекистон компартияси Марказий қўмитаси биринчи котиби, муҳтарам устоз Шароф Рашидов бошлиқ раҳбарлар ташриф буюрадиган бўлди. Биз бу ташрифга имкон қадар ҳар томонлама пухта тайёргарлик кўришга ҳаракат қилдик.

– Ёнимда турасиз, Шароф Рашидович сизни кўрса хурсанд бўлади, – дедим институт ёшлари етакчиси Шавкат Мирзиёевни чақириб. Бундай дейишимнинг боиси бор эди. Сал аввалроқ бўлган ва республика раҳбари иштирок этган анжуманларнинг бирида йиғилиш аҳли номидан ўша даврлар урфига кўра, КПСС Марказий Комитети Сиёсий бюроси ва унинг Бош котиби Леонид Ильич Брежнев номига ёзилган мактубни ўқиб эшиттириш учун минбарга ёшгина қуюқ сочли қорақўз бир йигит чиққан ва рус тилидаги ушбу Мурожатномани жуда чиройли талаффуз билан ўқиган, Шароф Рашидович бунга эътибор берган, йиғилишдан сўнг ўша йигитни чақириб, суҳбатлашган, қаердан эканини, рус тилини қандай қилиб бу қадар яхши ўргангани ва ширин талаффуз этиши билан қизиққанди. Йигит ўзини таништириб, Зомин туманидан экани ва у ердаги биринчи мактабда ўқиганини айтган, Шароф Рашидович бундан хурсанд бўлиб, каминага: «Бу ўғлимизнинг билими ва илмий салоҳиятини ривожлантириш, қўллаб-қувватлаш керак» деган маслаҳат ва топшириқни берган эди.

Бу гал ҳам худди кутганимиздек бўлди. Учрашувдан сўнг Шароф Рашидов институт аҳли билан дўстона суҳбатлашиш

асносида ёшларимиз етакчисига ҳам эътибор қаратди ва илмий тадқиқотлари, жамоатчилик соҳасидаги ишлари қандай кетаётгани билан астойдил қизиқди, кунт билан меҳнат қилиши, тинмай изланиши лозимлигини уқтирди, келажақдаги фаолиятида муваффақиятлар тилади. Менга эса бу борада алоҳида эътиборли бўлишни уқтирди. «Бу йигитдан яхши олим, моҳир раҳбар чиқади» дедилар мухтасар қилиб.

Шу ўринда халқимизнинг яна битта бир қарашда оддий, лекин маъноси ниҳоятда кенг ва чуқур, маълум даражада илоҳий мазмунга эга бир мақоли эсимга келди. «Ўхшатмасдан учратмас», дейдилар. Бу бежиз эмас. Не ажабки, менинг ҳаётимда туб бурилиш ясалишига сабаб бўлган улуғ ва табаррук инсон, зукко ва дабир, яъни устоз раҳбар Шароф Рашидов ёш умидли шогирдим истиқболига ҳам катта умид ҳамда ишонч билан қаради. Бу эса унинг бетакрор заковати, валиймонанд арбоб бўлганлигининг яна бир исботидир.

Бу эса менинг қалбимга фахру ғурур бағишлади. Чунки ҳали ўзим ҳам нисбатан ёш раҳбар ҳисобланардим. Республика раҳбарининг бу эътибори айна пайтда кадрлар билан ишлаш соҳасидаги дастлабки саъй-ҳаракатларим тўғри бўлиб чиққанлигининг эътирофи эди.

Шулар ҳақида ёзаяпман-у кўнглимдан айна шу ўринда ҳикоямда муайян лирик чекиниш қилиш, бугина эмас, унга алоҳида бир боб қўшиб, мамлакатимиз тарихида ўзининг муносиб ўрнига эга, халқимиз қалбида мангу ўчмас из қолдирган мана шу буюк давлат ва сиёсат арбоби, улкан ижодкор, беназир шахс ҳақида бироз муфассалроқ тўхталиб ўтиш лозим, деган истак бот-бот ўтаётир. Шояд, бу нафақат менинг, балки шу беназир аллома назарига тушган барча инсонларнинг шогирдлик бурчи, ўз тақдирида муҳим, керак бўлса, ҳал қилувчи роль ўйнаган мўътабар мураббийга миннатдорлиги белгиси сифатида қабул қилинса.

Нафсиламрини айтганда, бу ушбу асардан кўзланган мақсадга ва унинг қаҳрамони қарашларига ҳам мантиқан мувофиқ келади, деган умиддаман. Зеро, Шавкат Миромонович мамлакатимиз тарихи, унинг ривожланиш босқичлари ҳақида гапирганда Шароф Рашидов номини алоҳида ҳурмат-эътибор билан тилга олиши ҳеч кимга сир эмас. Кенг маънода юртбошимиз мана шу улуғ инсонни ўзининг оқ фотиҳа берган устозларидан бири деб ҳисоблашини ҳам яширмайди. Ажабмаски, у ёшлик йилларидан мана шу улкан тарихий сиймо, бетакрор шахс, беназир ижодкор ва беқиёс инсонга ўхшашни, унинг йўлидан боришни орзу қилган бўлса.

Очиғи, давлатимизнинг бугунги раҳбари фаолиятини узоқ йиллардан буён хайрихоҳлик ила кузатиш ва мушоҳада этиш асносида унда Шароф Рашидовга хос бебаҳо фазилатларни кўп кўрдим. Ана шу уйғунликнинг янги замон тақозосига кўра янада мукаммаллашаётгани, янги давр талабларига биноан янгича фазилатлар юзага чиқаётгани ҳам бор гап ва улар ҳақида навбатдаги бобларда алоҳида, батафсил тўхталаман. Ҳозирча эса...

Шавкат Мирзиёевдек заковатли, журъат-жасоратли, ғайрат-шижоатли, сабот-қатъиятли, юртпарвару халқсевар раҳбарни таълим бериб, камол топтирган муаззам ва муҳтарам илм даргоҳи, унинг қисқача тарихи, ривожланиш босқичлари, бугунги аъмоли ва ҳусни жамоли хусусида бир-икки оғиз фикр юритсам. Менимча, бу ушбу ҳикоям мазмун-моҳиятига путур етказмаса керак, билъакс, фаолияти хусусида сўзланаётган улкан сиймо портретига чизгилар янада тўлақонли бўлишига хизмат қилади, дея умид билдираман.

Учинчи боб

КЎНГИЛ СЕЗГИСИ – ЯРАТГАННИНГ БЕБАҲО ИНЪОМИ

Алқисса, юқорида айтиб ўтганимдек, 1978 йилда Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтига ректорликка тайинландим.

Ҳаётимнинг нафақат мамлакатимиз, ҳатто собиқ Иттифоқ, яъни ҳозирги постсовет давлатлари ҳудудида, балки бутун дунёда ўзининг салмоқли ўрнига эга бўлган ана шу табаррук илм даргоҳи билан боғлиқ қисми ҳақида ҳикоя қилиш мен учун жуда мароқли. Фикримча, ушбу ҳикоя аксар ёш китобхонлар учун ҳам муайян даражада жозибали туюлса, ажабланмаслик керак.

Бунинг сабаби – мустақил ҳаётга интилаётган, ўз идеалидаги мақсадлар ва қалбидаги юксак орзуларнинг амалга ошишига йўл очувчи муносиб касб эгаллаш устида бош қотираётган ёшлар улуг инсонлар, мамлакат тарихида ўчмас из қолдирган кадрлар етишиб чиққан таълим даргоҳларига алоҳида диққат-эътибор билан қарайдилар. Нафсиламрини айтганда, дунё сиёсатида ўз ўрнини топган улкан давлат арбобларини етиштирувчи бундай олий ўқув юртларининг тарихи, бугунги фаолияти кексаю ёш, хуллас, барча учун қизиқарли ҳисобланишини таъкидлаб ўтирмасам ҳам бўлар.

Албатта, давлатимиз, халқимиз учун Шавкат Миромонович Мирзиёевдек раҳбарни етиштириб берган ушбу таълим даргоҳига, унинг улкан ва аҳил жамоасига бутун мамлакатимиз аҳли нафис бир меҳр, самимий бир ҳурмат билан қарайди. Бу эса ушбу жамоага чексиз фахр-ифтихор туйғусини бағишлаш билан биргаликда зиммасига катта масъулият ҳам юклайди.

Шуни алоҳида таъкидлашни истардимки, бу институтга ишга келишга, айниқса бундай масъулиятли тайинловга дарҳол рози бўлмаган, бир қадар иккиланган эдим. Зеро, кенг ва чуқур, келажаги порлоқ илмий тадқиқотлар ва амалий изланишларга ихтисослашган йирик бир муассаса раҳбари эдим ва муҳими, ўзим яхши биладиган соҳада катта иштиёқ билан куну тун тиним билмай меҳнат қилаётгандим.

Олимлар яхши биладилар. Ўзининг узоқ йиллик орзу-интилишлари меваси бўлажак, айти пайтда амалиёт учун аҳамияти ўта муҳим бўлган кашфиётлар устида ишлаётган киши ўзини бепоён денгиздаги балиқдек ҳис этади.

– Қатор йиллар давомида олдин педагогика, сўнгра илмий тадқиқот институтида ишлаб, ёшларга ҳам таълим-тарбия бериш, ҳам уларни илмий фаолиятга йўналтириш борасида етарлича тажриба тўпладингиз. Шунинг учун сизни нафақат республика ёки мамлакат, қолаверса, жаҳондаги улкан илм даргоҳларидан бирига юборишга қарор қилинди. Бу республика раҳбарияти ва шахсан Шароф Рашидовичнинг сизга нисбатан катта ишончи ва айти пайда ўта оғир масъулиятдир. Буни яхши тушунасиз ва шунга монанд ишлайсиз, деган умиддамиз, – дейишди Марказий Комитетда.

Бу чиндан ҳам менга билдирилган жуда катта ишонч, айти пайтда республика ҳукуматининг мендаги илмий – педагогик

ҳамда бошқарувчилик салоҳияти ва тажрибасининг эътирофи ва айни пайтда муҳтарам устозлар алоҳида таъкидлашганидек, ўта залворли масъулият эди.

Шуни инобатга олган ҳолда, кўнглимдаги дастлабки иккила-нишларни бир четга суриб, қатъий фикрга келдим. Бу қатъият натижасида қалбимда янгича бир журъат пайдо бўлди ва бу ҳис руҳимга дадиллик, жисмимга куч-ғайрат бахш этди. Ва...

Ўша лаҳзаларда юрагимдан ўтган яна бир туйғу ҳақида бот-бот эслаб, гапириб юраман. Бу туйғуни илмий тилда интуиция дейишади. Мен оддий, ўзбекча қилиб, кўнгил сезгиси, деб атайман. Яъни янги вазифага тайинланиб, янги даргоҳга, янги жамоа истиқболига йўл олар эканман, кўнглимнинг туб-тубида бу ерда бир умрлик қадрдонларга айланажак кўплаб яхши инсонларга дуч келаман, етук олимлар, донишманд мураббийлар, келажакда илму фан, сиёсату иқтисодда улкан чўққиларни эгаллаб эл-юрт корига яровчи йигит-қизлар билан учрашаман, биргаликда аҳиллигу жипсликда ишлайман, уларнинг севинчу ташвишларига шерик бўламан, деган теран бир сезги бор эди. Шу маънода...

Ушбу бой тарих ва улкан илмий салоҳиятга эга таълим ва илмий-тадқиқот даргоҳига ишга келиш ҳаётимнинг энг муҳим бурилиш нуқталаридан, тафаккурим ва зеҳниятимда ажабтовур эврилишлар ясаган воқеа, десам, янглишмасам керак. Очиғи, унинг табаррук остонасига қадам қўяр эканман, юрагимни чексиз фахру ғурур билан биргаликда қаттиқ ҳаяжон ва, ҳатто бироз кўрқув ҳам чулғаган.

Зотан, ушбу илм даргоҳининг, аввало, Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий, илмий-маърифий ҳаётидаги ўрни ва роли, залвори ва салобати жудаям улкан эди. Ўзбеклардан чиққан буюк алломалардан бири бўлмиш академик Тошмуҳаммад Қори Ниёзий,

шунингдек жаҳонга машҳур бир қатор рус ва бошқа миллатларга мансуб таниқли олимлар тамал тошини қўйган, Ўзбекистондек аграр республика учун тайёрлайдиган мутахассисликлари жиҳатидан энг олдинги ўринларда турувчи, собиқ СССРдан ташқари, дунёдаги 30 дан зиёд мамлакатдан келган аспиранту талабалар таҳсил оладиган улкан даргоҳ ҳисобланарди.

Унда қарийб мингга яқин профессор ва ўқитувчилар ишлаган, ўн беш мингдан зиёд талаба таҳсил кўрган. Тошкентдаги асосий ўқув базасидан ташқари Қарши ва Янгиер шаҳарларида филиаллар, Самарқандда ўқув-таянч бўлими фаолият кўрсатар, уни битказиб, қишлоқ ва сув хўжалиги учун бениҳоя муҳим аҳамиятга эга касбларни эгаллаган йигит-қизлар Ўзбекистондан ташқари, ер юзининг аграр соҳа билан шуғулланувчи барча мамлакатларида ишлашарди.

Ўқитувчи-педагоглримиздан эллиқдан ортиқ киши фан доктори, 23 нафари профессор, 300 га яқини фан номзодлари ва доцентлар эди.

Рухсатингиз билан атиги бир нечагина рақам келтирсам: 1983 йилда институтнинг 14 факультети, шу жумладан, филиал ва бўлимларида юзга яқин миллату элатларга мансуб 15,5 минг талаба таҳсил олган. Шулардан 500 га яқинини Осиё, Африка, Лотин Америкасининг 37 мамлакатидан келган йигит-қизлар ташкил этарди.

Ушбу китобни ёзишга киришар эканман, институт тарихи, ривожланиш йўллари ҳақида ҳикоя қилувчи бир неча рисола, альбом ва справочникларни кўздан кечиришимга тўғри келди. Рухсат этсангиз, қуйида улардан олинган айрим факт ва рақамларни

келтириб ўтсам.

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтининг мустақил олий таълим даргоҳи сифатидаги фаолияти совет давридаги расмий солномаларда 1934 йил 17 сентябрдан ҳисобланиб келинган бўлса-да, аслида унинг ташкил этилиш тарихи моҳиятан сал илгарироқ бошланган. Яъни, у 1920 йил 7 сентябрда ташкил этилган, Туркистон давлат университети таркибида «Қишлоқ хўжалиги» ва «Техника» факультетлари негизида шаклланган ва 1922 йилда университетнинг «Техника» факультети республикадаги мавжуд шароити ва тегишли кадрларга бўлган катта эҳтиёж ҳисобга олинган ҳолда муҳандис-мелиораторлар факультетига айлантирилган.

Кейинроқ Ўрта Осиё давлат университети дея номланган ушбу олийгоҳ қишлоқ хўжалиги факультетининг машинасозлик бўлими 1930 йилда қайта ташкил этилади ва Қишлоқ хўжалиги институти таркибида қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш факультети ташкил топади. Ўрта Осиё политехника институти сув хўжалиги факультети 1931 йилда Ўрта Осиё сув хўжалиги муҳандислари институтига айлантирилади.

Марказий Осиёнинг географик шароити, йилнинг тўрт фасли мужассамлиги, қулай иқлими ва беминнат қуёши суғорма деҳқончиликнинг ривожини учун муҳим омил эди. Истиқболда соҳанинг устувор тараққиётини таъминлашда ирригация, мелиорация ва механизацияни ўзаро ҳамоҳанг ривожлантириш зарурати давр тақозоси бўлиб қолди.

«Тарихий воқелик 1934 йил 17 сентябрда содир бўлди. Ўрта

Осиё Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш муҳандислари институтини ташкил этиш ҳақида қарор қабул қилинди. Ушбу институт Ўрта Осиё Ирригация муҳандис-техник институти ва Ўрта Осиё Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш институтларининг қўшилиши натижасида юзага келди»¹.

Мустақил институт шаклида иш бошлаганидан кейин ушбу таълим даргоҳига собиқ СССРнинг барча йирик илмий-педагогик марказларидан етук олимлар таклиф этилган. Халқимизнинг улуғ алломаларидан бўлмиш академик Тошмуҳаммад Қори Ниёзий, профессорлар В.В. Пославский, Е.П. Залесский, Л.К. Коревицкий, М.Я. Громов, С.М. Суханов, Н.В. Макридин, Н.И. Каменев, А.Н. Аскоченский, Н.А. Янишевский, А.Н. Иванов шулар жумласидан эди. Бундан ташқари кўплаб доцентлар, фан номзодлари ишлар эдилар.

Институт ўзининг илк қадамларидан бошлаб Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги учун ўта муҳим аҳамиятга эга бўлган етук мутахассислар етказиб беришга киришди. Бу мутахассислар Ўзбекистондаги улкан тарихий лойиҳалар – Мирзачўл ва Қарши даштларини ўзлаштириш, Катта Фарғона канали, Фарҳод, Каттақўрғон сув омбори ва шунга ўхшаш кўплаб улкан лойиҳалар асосидаги тарихий иншоотларни бунёд этишда байроқдор бўлдилар.

Ўтган асрнинг саксонинчи йиллари институтнинг чинакам гуллаб-яшнаш даври эди десак муболаға бўлмайди. Юқорида таъкидланганидек, бу даврга келиб, талабалар сони қарийб ўн олти мингга яқинлашган, институт дунёдаги шу йўналишда фаолият кўрсатувчи олий таълим даргоҳлари ўртасида етакчи ўринларга

¹«Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти» ТИҚХММИ 1922 (1934) – 2020. Тошкент, 2020. 7-8-б.

чиққани учун жаҳоннинг ўнлаб мамлакатларида яшовчи йигит-қизлар айнан Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти дипломини олишга иштиёқ билдирар, шу ерга интилар эдилар.

Шу билан биргаликда ушбу даргоҳ қишлоқ хўжалигини механизациялаш, электрлаштириш, ер тузиш, мелиорация сингари ўта муҳим соҳаларга оид долзарб илмий тадқиқотлар олиб бориладиган, уларнинг натижалари амалиётга дадил татбиқ этиладиган ўзига хос илмий-амалий марказга ҳам айланганди. Биттагина рақам: 1980 – 1983 йилларда илмий ишланмалар натижасида яратилган ихтиро ва кашфиётларга 100 га яқин муаллифлик гувоҳномалари олинган. Муҳими, бу ихтироларнинг деярли барчаси ишлаб чиқаришга татбиқ этилганди. 20 дан зиёд тадқиқотчи докторлик, 40 киши номзодлик диссертацияларини ҳимоя қилиш арафасида эди...

Тасаввур этинг, бундай улкан жамоани бирлаштириш, айниқса, жисму жонида ёшлик шиддату шижоати тўлиб-тошган ёвқур ва серҳаяжон йигит-қизларнинг бошини қовуштириш, бугунги ибора билан айтганда, турли ёт таъсирлардан асраш, асосан, аниқ фанларга таянувчи мураккаб касбу ихтисосларга қунт билан ўргатиб, саъй-интилишларини тўғри йўналтиришнинг ўзи бўлмасди, албатта. Шуларни ҳисобга олган ҳолда, бу борада институт ёшлар уюшмаси ҳал қилувчи роль ўйнашини яхши тушунардим ва ана шу ташкилотга қаттиқ таянардим, бинобарин, унинг раҳбари алоҳида ташкилотчилик иқтидорига, талабалар ўртасида юксак обрў-иззатга, барча йигит-қизлар ҳавас қиладиган бетакрор инсоний хислат-фазилатларга эга бўлиши лозимлигига алоҳида эътибор қаратар эдим. Ўзларингиз ўйлаб кўринглар: салкам қирқ мамлакат, юздан зиёд миллат, турлича диний эътиқод вакиллари, турфа дунёқарашу тарбия даражасидаги ёшлар

қалбига йўл топишнинг ўзи бўлмайди. Ёшлар масаласида йўл қўйилган арзимас бир хато эса барча замонларда нечоғлик хатарли оқибатларга олиб бориши мумкинлиги эса тариху яқин ўтмиш сабоқларида бизга маълум ва равшан.

Шу тариқа юқорида айтиб ўтганимдек, қунт билан изланиб, институт талабаларининг кўпчилиги билан бевосита мулоқотлар ўтказиб, ниҳоят қишлоқ хўжалигини механизациялаш факультетидан худди кўнглимдаги орзу-ниятларга, улкан режаларга монанд, жамоамиз аҳиллиги ва ҳамжиҳатлигини мустаҳкамлаган ҳолда, институтимиз олдида турган юксак талабларга мос келадиган номзодни топишга муваффақ бўлдим. Унинг ким эканлиги ҳақида энди етарлича тасаввур ҳосил қилдингиз, деб ўйлайман.

Ҳамонки институт ҳақида мумкин қадар батафсил ҳикоя қилишга жазм этдим, унинг етакчи бўлинмаси ҳисобланмиш ва қаҳрамоним бевосита таҳсил олган қишлоқ хўжалигини механизациялаш факультети хусусида ҳам салгина кенгроқ тўхталишни маъқул топаман.

Ушбу факультет институт мустақил таълим даргоҳи сифатида пайдо бўлишида ҳал қилувчи роль ўйнаган, бинобарин унинг асосини ташкил этувчи, айниқса соҳадаги амалий аҳамияти жиҳатидан энг олдинги ўринларда турувчи бўлинмалардан ҳисобланарди. 1983-1984 йилларда унда қарийб бир минг олти юз нафардан зиёд талаба таҳсил олар, шулардан юзга яқини Осиё, Африка, Лотин Америкаси қитъаларидаги 20 га яқин мамлакатлардан келган хорижий йигит-қизлардан иборат, ўқитувчи ва илмий ходимлар сони юзга яқин эди. Ўтган йиллар давомида бу факультет ишлаб чиқаришга ўн мингдан зиёд юқори малакали мутахассислар тайёрлаб берган, бу борада

профессорлар М.В. Сабликов, Е.К. Батуринов, Г.А. Кошевников, С.П. Пўлатов, М.И. Ландсман, доцентлар Н.В. Сабликов, В.В. Булкин, Н.П. Полекутин, В.А. Иванов, А.Х. Ҳайдаров сингари устозларнинг ҳиссаси беқиёс эди. Ушбу аҳил жамоага декан С.Г. Муҳаммаджонов моҳирона раҳбарлик қиларди.

Факультетда талаба ёшларни илмий тадқиқотчилик фаолиятига йўналтириш ҳамда уларнинг билим ва кўникмаларини ишлаб чиқариш, хусусан, пахтазору ғаллазорларда амалий синовдан ўтказиш уйғун тарзда олиб бориларди. Биргина 1983 йилнинг ўзида салкам 300 талаба маҳаллий ва халқаро миқёсдаги турли илмий анжуманларда ўз маърузалари, илмий тадқиқотлари тақдимотлари билан иштирок этганди. Уларнинг амалиётдаги фаолиятлари ҳам диққатга сазовор эди. Чунончи 1981 – 1984 йилларда пахта йиғим-терими мавсумида факультет ёшлари етакчилигида бутун институт талабаларидан 36 та механизация ва таъмир отрядлари тузилиб, Сирдарё ва Жиззах вилоятларида 2500 дон техника ускуналари таъмирланган, жами 200 тоннадан зиёд пахта хом ашёси териб олинган, қарийб юз минг центнер дон янчилган, 4500 гектар ер ҳайдаб берилган. Факультет аҳли мамлакатдаги йирик тракторсозлик корхоналари билан амалий ҳамкорликда иш олиб борар, уларда маҳсулот сифатини оширишда ўз илмий ишланмалари ва бевосита иштироклари билан фаол қатнашардилар.

Биз ёшлар сардори лавозимига лойиқ кўрган йигит мана шундай улкан факультет, аниқроғи, илм ва амалиётни ўзида мукамал мужассам этган йирик таълим маркази вакили эди. Аъло ўқиш билан бирга факультет жамоат ишларидаги энг фаол, чин маънодаги лидер, яъни етакчи ва пешқадам талабалардан ҳисобланарди. Суҳбатларимиз давомида мен ундан нега

айнан шу факультетни танлаганини кўп марта, такрор-такрор сўраганман. У ўсмирлик йилларидан бошлаб ўзбек деҳқонлари, айниқса пахтакорлари меҳнатининг нақадар машаққатли эканига бевосита гувоҳ бўлгани, кўнглида ана шу оғир, заҳматли юкни сал бўлса-да, енгиллаштириш, қишлоқ хўжалигидаги ўта оғир жараёнларни техника зиммасига юклаш билан боғлиқ орзулар пайдо бўлгани ва бора-бора бу орзу уни мана шу институт, мана шу факультет сари етаклаб келганини, аммо ўқишга кириш осон бўлмагани, дастлабки уриниши муваффақиятсиз чиққани, бироқ у бундан тушкунликка тушмасдан янада қаттиқроқ ўқиб-ўрганиб, тайёргарлик кўриб, ниҳоят ушбу нуфузли таълим даргоҳи талабаси бўлишдек бахтга эришгани ҳақида такрор-такрор самимият ва фахр билан завқли гапирар эди. Бу менга жуда ёқар, чунки худди ўзимнинг болалик ва ўсмирликдаги ўй-фикрларим, орзу-ниятларимга айнан ўхшаш эди. Одамларни айнан орзу-ниятлар уйғунлиги ҳам учраштиради, яқинлаштиради, бирлаштиради, тақдирларини туташтиради, десам адашмасам керак. Назаримда, доно халқимизнинг: «ўхшатмасдан учратмас» деган мақолида ҳам худди шу маъно тажассум топган. Тақдир тақозоси, аниқроғи, Парвардигор хоҳиш-иродаси ила учрашган, бир маслак, муштарак орзу-ниятлар йўлида бирга меҳнат қилганлар албатта, муроду мақсадларига етадилар. Яратганнинг олий ҳақиқати шундай.

Бирга ишлай бошлаганимиздан сўнг орадан кўп ўтмаёқ чиндан ҳам янглишмаганимни, бу йигитни менга Аллоҳнинг ўзи етказганлигини яққол англадим. У дарҳол талаба ёшлар давомати, илмий ишларга қизиқиши, амалиётдаги иштироки, ижтимоий фойдали меҳнатга тайёргарлик, бўш вақтни ташкил этиш ва ҳоказолар билан боғлиқ бизни қийнаб турган кўпгина

муаммоларимизга бирин-кетин ечим топа бошлади. Тез орада институт ёшлари ўртасидаги маънавий-ахлоқий муҳитни тубдан соғломлаштиришга, талабаларнинг фанларни ўзлаштириш фоизлари юксалишига, дунёқарашларида ижобий ўзгаришлар юз бериши, спорт-соғломлаштириш, маданий-маърифий тадбирларда, илмий анжуманлардаги иштироки кескин кенгайишига эришилди. Бунинг натижаси ўлароқ, жамоамизнинг республика, собиқ Иттифоқ, қолаверса, дунё мамлакатларидаги таълим даргоҳлари ўртасидаги нуфузи тўхтовсиз ошиб боришига эришилди. Халқона қилиб таърифласак, унинг пойқадами хуш келди. Институтимиз обрўсига обрў қўшилиб, номи тилга тушди, тарихий «ТИИМСХ» – Тошкент Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш институти 80-йилларнинг энг пешқадам олий таълим муассасалари қаторида тилга олинадиган бўлди.

Табиийки, бу мени ана шу заковатли, серғайрат ташкилотчи, айна пайтда ўта камтарин ва жиддий йигитнинг келажаги хусусида астойдил ўйлашга ундар, кўнглимда таҳсил ниҳоясидан сўнг уни институтнинг ўзида олиб қолиб, илмий ишга жалб этиш керакми ёки дарҳол марказий олий ўқув юртларидан бирортасига аспирантурага жўнатиш ёхуд дастлаб ишлаб чиқаришда тажрибасини мустаҳкамлаб, сўнгра сиёсат соҳасига йўналтириш мақсадга мувофиқ бўлармикан, деган турфа фикрлар айланарди.

Ҳеч кимга сир эмас, мамлакатимиздаги нуфузли олий таълим даргоҳларидан бири ҳисобланувчи Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш институтини битказиб, ишлаб чиқаришда ўз мутахассислиги бўйича иш бошлаган, фаолиятини кунт билан муваффақиятли давом эттирган йигит-қизлар орасидан қишлоқ хўжалигини механизациялаш, сув хўжалиги, мелиорация соҳаларининг туман, вилоят, республика,

ҳатто Иттифоқ миқёсидаги таниқли раҳбарлари кўплаб етишиб чиққан. Мен шу жиҳатни ҳисобга олган ҳолда фикр юритардим ва ёшларимиз етакчисида мужассам бўлган серқирра иқтидор ва ноёб салоҳиятни кўрганим ва билганим учун унинг келажакда эл-юрт бошидаги порлоқ юлдуз бўлишини орзу қилардим ва бунга қатъий ишонардим.

Юқорида айтиб ўтганимдек, ўзи билан кўп бора суҳбатлашиб, унинг болалик чоғларидан тақдирнинг мураккаб синовларидан ўтиб чиниққанини, худди менга ва бошқа миллионлаб ўзбек йигит-қизларига ўхшаб ўсмирлик чоғларидан пахтакорлигу ҳашарчилик машаққату уқубатларини бошдан кечиргани, шунинг натижасида кўнглида ушбу соҳани механизациялаш асосида деҳқонлар меҳнатини енгиллаштириш, шу билан бир қаторда кейинги пайтларда кўп тилга олинганидек «мажбурий меҳнат»га барҳам бериш орзу-истаги туғилганини билиб, битирув имтиҳонлари ниҳоясига етаётган кунларда яна бир карра мулоқот қилдим. Кўнглидаги орзу-ниятларни, айти пайдаги фикрию истагини билай, дедим.

У олимликка қизиқиши, агар имкон берилса, институтда қолиб, ижтимоий-сиёсий фаолияти ва илмий изланишларини давом эттириш ниятида эканини айтди.

Кўзидаги комил ишонч ва руҳидаги қатъиятни кўриб, унга бўлган меҳрим янада кучайди. Зеро, ҳали айтиб ўтганимдек, у билан дунёқарашларимиз ўхшаш, орзу-интилишларимиз муштарак эди. Бу эса инсонларни яқинлаштиради. Тарихий ва айти замонлардаги кўплаб мисолларга таянган ҳолда, сирасини айтадиган бўлсак, устоз-шогирдлик анъанасининг замирида ҳам аслида айнан мана шундай фикрий уйғунлик ва дунёқарашлардаги муштараклик, мақсадлар ўхшашлигидан иборат тушунчалар силсиласи ётади.

Хуллас, шундан сўнг йигитнинг отаси билан фикрлашиб, уни ўқишни битиргач, институтда олиб қолишга, илм ва ташкилий-сиёсий фаолиятни уйғун тарзда давом эттириши устида жиддий маслаҳатлашиб олишга узил-кесил қарор қилдим. Зеро...

«Ота рози – Худо рози» дейди доно халқимиз. Унинг институтда қолиб ишлашига аввало, падари бузруквори рухсат этиши, шуни астойдил хоҳлаб, оқ фотиҳа бериши талаб этилар, зеро шаҳарда яшаш, уй-жой, турмуш муаммоларини ечиш осон эмасди. Гарчанд институт раҳбарияти ёш олим ва сиёсат арбобини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга тайёр бўлиб турар, зеро у ўз одамгарчилиги, чинакам намунали феъл-атвори билан бутун жамоамизнинг меҳр-ҳурматини қозониб улгурган эди.

Эсимда, ёшларимиз етакчиси битириш имтиҳонларини топшираётган кунларнинг бирида илтимосимга биноан унинг отаси – Миромон ака ҳузуримга келди. У билан юракдан узундан-узоқ суҳбат қурдик.

Мен унга ўғлини институтда ишга олиб қолишга қарор қилганимизни айтдим. Шавкатжоннинг истиқболи порлоқ экани, илмий-педагогик соҳада ҳам, ижтимоий-сиёсий фаолият бобида ҳам насиб этса, катта чўққиларни забт этажаги муқаррар эканлигини тушунтиришга ҳаракат қилдим.

«Саъдуллажон, – деди у киши, – аввало, сизга бизнинг фарзандимизга кўрсатган улкан ишончингиз учун катта раҳмат, лекин оиламиз катта, қишлоқда турмуш қандай мураккаб эканини ўзингиз яхши биласиз, оилада ишлайдиган битта менман, бошқа топарман-тутарманимиз йўқ. Рухсат этсангиз, ўғлимни қишлоққа олиб кетсам, ихтисослиги бўйича ишласа, қанотимга кириб, опаси

ва укаларига бош бўлиб, рўзгор ташвишларининг бир томонини кўтарса, деб ният қилувдим, биз ҳам кексайиб қолдик ахир. Илмий-педагогик ишнинг ҳам, ижтимоий-сиёсий фаолиятнинг ҳам кейинроқ мавриди келар».

Албатта, мен у кишининг ҳолатини тушуниб турардим. Унинг бу сўзларида аввало фарзандига нисбатан чексиз оталик меҳри мужассам эди. Ёш кадримиз падари бузрукворининг олдида бўлиб, оиласига моддий жиҳатдан ёрдам бериш асносида ўзининг ўша даврлар учун ҳам анча ноёб ҳисобланган ихтисоси билан ўта керакли мутахассис сифатида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг муҳим бир тармоғида ишлаб, сиёсий ҳаётга фаол аралашиб, ўз иқтидори ва меҳнатсеварлигига таянган ҳолда ўсиб-улғайиши, фахрланарли даражадаги мартабаларга эришиши, илмий фаолият билан сал кейинроқ шуғулланиши ҳам мумкин эди. Аммо...

Мен унинг айна дамларда ғайрат билан олиб борилаётган илмий фаолиятни дафъатан тарк этишини, талабалик йилларидаёқ бошлаган изланишлари узилиб қолишини истамасдим. Аввал илм довларини забт этса, ундан сўнг амалиётда ишласа, янада улуғвор мақсадлар сари интилса янглишмайди, деб ўйлар эдим. Ташкилотчилик, раҳбар соҳасида ишлаб, халқимизга хизмат қилса, мамлакат тараққиётига ҳисса қўшса ва хоҳлаган пайтида яна илмий-педагогик фаолият билан ҳам шуғулланса, дердим. Шунинг учун...

Мен бу таклифга рози бўлмадим ва унинг институтда ишлаши лозимлигини қатъий туриб талаб этдим, отага, оилага шу ерда ишлаб ҳам мададкору кўмакчи бўлиш мумкинлигини уқтиришга уриндим. Суҳбат пировардида қатъий қилиб мана бундай дедим:

«Оқсоқол, у энди фақат сизнинг ўғлингиз эмас, бизнинг

институтимизнинг ҳам фарзанди! Мана кўрасиз, у илм йўлидан кетса, шубҳасиз, етук олим бўлади. Унинг алоҳида иқтидори, салоҳияти бор. Сиз ва биз дуо қилиб, қўллаб-қувватласак, у элимизнинг, юртимизнинг фахри бўлади! Биласизми, мен уни кимга ўхшатаман? Бу йигитда буюк юртдошингиз Шароф Рашидовнинг нафасини сезаман... Шароф Рашидов унинг ёшида фронтда – ўқ-ёмғирлар остида кезган, сўнгра халқ хизматида бўлиб, Самарқандда, Тошкентда масъулиятли вазифаларда ишлаган ва натижада элу давлатимизнинг фахрига айланган. Менга Шароф Рашидов билан кўп бор кўришиш, бебаҳо маслаҳатларини олишга муяссар бўлиш насиб этди. Айниқса, шу институтга раҳбар қилиб жўнатишда айтган гаплари қулоғим остидан ҳеч қачон кетмайди: «Инсон умри абадий эмас, лекин унинг умрини шогирдлари узайтиради!» деганлар. Фарзандингиз ана шу улуғ инсоннинг назарига тушди, дуосини олди. Шунинг учун у илм соҳасидаги фаолиятини давом эттирмаса бўлмайди!»

Шогирдимнинг падари бузруквори кўпни кўрган, катта ҳаётий тажрибага эга, умрини дунёдаги энг шарафли касблардан бири бўлган шифокорликка бағишлаган олижаноб ва бағрикенг инсон эди. Қолаверса, Мирзиёевлар оиласида Шароф Рашидовга нисбатан алоҳида меҳр борлиги ва ҳурмат-эътиқод нақадар баланд эканлиги дарҳол сезилди, қаршимда оёқ тираб турган отахон бирданига юмшади, кайфияти ўзгарди, кейинги гапларимиз ўз-ўзидан қовушиб кетди:

«Мен ҳам Шароф Рашидович билан бир неча бор кўришиш, у кишининг кўпгина қимматбаҳо ўғитларини олишга муяссар бўлганман, бу улуғ инсоннинг ҳар бир сўзи бизнинг оиламиз учун ҳам муқаддас!» – деди Миромон ака ва ўғлининг институтда қолиб ишлашига чин кўнгилдан розилик берди.

Хайрлашар эканлар, ниятни мухтасар қилиб: «Энди,

Саъдуллабек, сиз ҳам оиламизга аъзо бўлдингиз, шогирдингизнинг истиқболи йўлида ёрдаму қимматли маслаҳатларингизни аямайсиз деган умиддаман», – деди.

Шу тариқа улуғларнинг номи, айтган сўзларию билдирган тилаклари ҳикмати, бир оғиз ўгити бизнинг ниятимизни қовуштирган, катта мақсад йўлидаги курашларда бизнинг саъй-ҳаракатларимизни бирлаштирган, яқдил қилган. Кўрдимки, Миромон Мирзиёев ҳам оддий отахон эмас, ҳар бир сўзида пурҳикмат донишманд инсонлиги намоён эди!

Албатта, ўша, собиқ Иттифоқ давлати кучу иқтидорда бўлган кезларда мубоҳасамиз сабабчиси бўлган йигит орадан йиллар ўтгач мустақил мамлакатнинг Президенти бўлади, деса биров ишониши нари турсин, бу ҳақда хаёл суришнинг ўзи бамисоли бир эртақдек туюларди, дейиш мумкин. Аммо мен юқорида айтдим. Инсон қалби сезади, ҳис этади. Бу ҳодисани халқимиз оддий тилда «Худо кўнглимга солди» деб ифодалайди. Худо кўнглингизга солган экан, демак, қаршингиздаги кишининг манглайида толе юлдузи порлаб турганини қалб кўзи билан кўрасиз. Ички интуиция билан ҳис этасиз. Ана шу юлдуз шуъласи софдил инсонлар қалбида эзгу ниятларни туғдиради, шу толенинг рўёбига эш, йўлдош бўлишга ундайди. Бундан ташқари, ҳар қандай эзгу орзу-ният, тилак бўм-бўш жойда туғилмайди. Унда шубҳасизки, маъно ва мантиқ, асос бўлиши лозим. Халқимизнинг: «Аллоҳ ниятингга йўлдош қилсин» деган дуоси, ҳикматли ибораси заминида ҳам айнан шу асос ва мантиқ ётади.

Шу тариқа ёш Шавкат Мирзиёев ўқишни тугаллагач, институтда ишга олиб қолинди ва ўз илмий ҳамда ижтимоий-сиёсий меҳнат фаолиятини қунт билан давом эттирди.

Очиғини айтаман, ўша кезларда институтда ишга қолиш,

илмий фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқи қандайдир имтиёз ёхуд дарҳол ёрқин келажак эшигини очиб берадиган улкан имкониятлар силсиласи эмасди. Айниқса, узоқ қишлоқдан келган ёшлар учун аксинча, бу кечаги оч-юпун талабаликнинг машаққатлари икки-уч ҳисса ошган давоми эди, холос. Аспирантлик, оддий ўқитувчи ёки тадқиқотчи бўлиш дегани, ижодкорлар тили билан ифодали қилиб айтилса, арзимаган маош олиб, қаттол совет даврининг мудҳиш кашфиётларидан бири бўлмиш «прописка» деган муаммони ҳал этолмай, мелисанинг муттасил текширув ҳамда таъқибларидан яширинган кўйи ижарахоналарда сарсон-саргардон ўлароқ, илмнинг метин харсанглари бамисоли тиш билан кемиришни англатарди. Бундай уқубатларга ҳар ким ҳам дош беролмайди. Сарсонликларга чидолмай, қўл силтаб кетиб қолганлар қанча.

Ҳикоям давомида қатъият деган истилоҳни кўп ишлатаётганимни сезган бўлсангиз керак. Менинг назаримда унинг моҳиятию аҳамияти ирода, сабр-бардош, матонат каби муқаддас тушунчалардан кам эмас.

Айнан ана шу – қатъият ҳамдам ўлароқ, қахрамонимиз машаққатларни енгди, ёшлар етакчилигидек ўта масъулиятли вазифа билан биргаликда ғоят долзарб мавзуда илмий иш олиб бориб, номзодлик диссертациясини ёзишга киришди. Диссертация мавзуси унинг болалик чоғларида туғилган мусаффо орзусига монанд бўлиб, қишлоқ хўжалигини механизациялашнинг, шу асосда деҳқон фаолиятини илмий ташкил қилиш, ота-боболаримиз кўп асрлар давомида чекиб келаятган машаққатли қўл меҳнатини камайтира бориб, пировардида бу ишни тўласинча техника зиммасига юклашга қаратилган эди.

Шуниси ҳайратланарли ва алоҳида эътирофга лойиқки, у

диссертация ёзиш жараёнида унинг мавзуси бўйича амалий тажрибалар ўтказиш, яъни далама-дала юриш зарурати туғилган кезларда ҳам бунинг учун ортиқча вақт, имконият ва қулайлик ёки имтиёз сўрамас, барчасига улгурар, фурсат топиб, керакли ишларни вақтида адо этарди. Бундай матонатга тан бермаслик, ҳавас қилмаслик мумкин эмасди.

Диссертация муваффақият билан ҳимоя қилинди, унинг амалий аҳамияти юқори баҳоланди. Шунинг самараси ўлароқ ёш тадқиқотчига ушбу долзарб мавзу устида ишлашни давом эттириш, яъни докторлик диссертациясини тайёрлашга киришиш тавсия этилди.

Шавкат Мирзиёев фан номзоди бўлиб, институт раҳбарияти таркибига кириб, зиммасидаги юмушу ташвишлар яна бир неча карра ортганига қарамасдан илм ва ташкилотчилик фаолиятини муштарак олиб борар экан, нафақат институтда, балки туман, шаҳар ва қолаверса, республика миқёсида аста-секин танилиб борар, биз – устозлар, жамоадошлар, сафдош дўсту биродарлар бундан беҳад мамнун эдик. Улуғ сиймолар назарига тушган, эзгу ниятига сазовор бўлиб, оқ фотиҳасини олган бу билимдон ва ташкилотчи йигитнинг катта сиёсат саҳнасида чиқишига тилақдош эдик. Бироқ...

Айни ўша кунларда Ўзбекистон раҳбари, буюк арбоб, улуғ аллома ва ижодкор Шароф Рашидов вафот этди. Республика бошқаруви айрим арбобларнинг иродасизлиги туфайли издан чиқди. Жафокаш халқимиз бошига «пахта иши» аталмиш қора кунлар келди. Минглаб раҳбарлар ноҳақ ишдан олинди, қатағон қилинди, ўн минглаб бегуноҳ пахтакор деҳқонлар туҳматга учраб қамоқларга ташланди. Бутун бир миллатга қора тамға босишга уриниш бўлди. Хайриятки, қора кучлар бунинг уддасидан

чиқолмадилар. Мард ва матонатли элимиз давру тақдирнинг яна бир мураккаб синовини шараф билан енгиб ўтди. Унга қасд қилганлар паст бўлди. Эзгулик душманлари шум ниятларига эришолмадилар. Ноҳақ туҳматга учраган минглаб юртдошларимиз озодликка чиқиб, ўз оилалари бағрига қайтишди. Майли, ўтган ишга салавот, дейдилар.

У кунлар ҳақида том-том китоблар, хотираномалар ёзилган, кинофильмлар яратилган. Шу боис муфассал тўхталиб ўтирмайман. Қолаверса, тарихимиздаги бу мураккаб даврнинг ҳаққоний баҳосини донишманд ва олий ҳакам Вақтнинг ўзи беражак. Авлодлар эса унинг хулосасидан сабоқ олажак.

Камина 1986 йилда ректорликдан бўшаб, институтдаги етакчи лабораторияга раҳбарлик қила бошладим. Бошқача айтганда, яна ўзим севган илмий ишлар, муҳим тадқиқотлар билан бевосита ва яқиндан шуғулланишга киришдим. Бу эса юқорида айтиб ўтиб кетганимдек, ўзининг қувончли самараларини берди. Узоқ йиллик изланишлар натижасидаги кашфиётлар, амалий ишланмалар юзага чиқди. Алоҳида айтиб ўтишим лозим, ана шу кезларда Шавкат Мирзиёев билан муносабатларимиз янада яқин, самимий тус олди. У бу пайтда институт ректори ўринбосари сифатида вақти ўта зиқ бўлишига қарамасдан мунтазам кўришиб, ҳол-аҳвол сўрашга вақт топар, илмий тадқиқотларимга астойдил кўмаклашишга, қўллаб-қувватлашга ҳаракат қилар, хуллас, қадрдонлик ришталарини узиш нари турсин, заррача таранглаштиришга асло йўл қўймасди. Зеро, у табиати, феъл-атворига кўра, атрофидаги кишиларга мавқе-мартабасига қараб эмас, одамгарчилиги, дўсту қадрдонлик қоидаларига асосан муомала қилиш, муносабатда бўлишни ўзининг ҳаётий қоидасига айлантирганини биз – ҳамкасбу елкадошлар яхши билардик,

бунга аллақачонлар қатъий ишонч ҳосил қилгандик.

Абу Наср Форобий айтади: «Ҳар кимки илм-ҳикматни деса, уни ёшлигидан бошласин, соғ-саломатлиги яхши бўлсин, яхши ахлоқ ва одобли бўлсин, сўзининг уддасидан чиқсин, ёмон ишлардан сақланадиган бўлсин, хиёнат, макр-ҳийладан узоқ бўлсин, диёнатли бўлсин, барча қонун-қоидаларни билсин, билимдон ва нотик бўлсин, илмли ва доно кишиларни ҳурмат қилсин, илм ва аҳли илмдан мол-дунёсини аямасин, барча реал, моддий нарсалар тўғрисида билимга эга бўлсин».

Мана шу улуғ ҳикматни камина бир дақиқа ҳам ёддан чиқармасликни, унга қатъий амал қилиш ўзимнинг ҳаётдаги асосий шиорим, деб билдим. Қарангки, Шавкат Мирзиёев билан ўша йиллардаги муносабатларимиз асносида у ҳам буюк алломаларимизнинг ҳикматларини, ўғитлари ва таълимотларини чуқур билиши ҳамда оғишмай амал қилишига кўп бора имон келтирдим.

Ўша йилларда ёш ва интилувчан олим Шавкат Мирзиёев билан илм, амалиёт, иқтисод ва сиёсат ҳақида кўпдан-кўп мароқли суҳбатлар қурганмиз. Чунки энди яна ҳам яқинроқ сирдош бўлиб қолгандик. Аниқроғи, у институтдаги барча ёши улуғ устозларга иззат-ҳурматни бир дақиқа ҳам унутмас, айниқса менга меҳри, ғамхўрлиги бўлакча эди. Эҳтимол, бу камина ҳам ўша кезларда Марказдан келган десантчилар йўриғига юрмаганим учун иродаси бўш, қатъиятсиз маҳаллий каттаконлар томонидан ноҳақ ранжитилганим билан боғлиқ бўлгандир. Умуман...

Унга хос яна бир бебаҳо инсоний фазилатни алоҳида таъкидлаб ўтмасликка ҳаққим йўқ. Бу – ҳаётда қийинчиликка дуч келган, ёинки замона зўрлари томонидан таъқибга учраган кишиларга, айниқса, тақдирида муайян кемтиклик мавжуд ногирон, бемору хаста, жисмоний нуқсонли инсонларга нисбатан

алоҳида бир шафиқлик туйғуси. Ана шу туйғунинг табиатидаги оддий одамгарчилик, устозларга, умуман, кекса ёшдаги кишиларга меҳр ва ҳурмат, дўстларга садоқат, ёшларга айниқса, кичкинтойларга ғамхўрлик каби хислатлар билан уйғун тарзда яхлит ва мукамал зоҳир бўлиши, шубҳасиз, унинг буюк шахс, улкан сиймо сифатидаги сийратини яққол ёритиб, қиёфасидан беихтиёр хайрихоҳлик уйғотувчи ўзига хос зиё таратиб туради. Бу – шунчаки чиройли сўзлар эмас. Бу айна ҳақиқатнинг ўзгинасидир. Бунини у билан ақалли бир мартагина юзма-юз бақамти келиб, лоақал икки оғиз суҳбатлашишга муяссар бўлганлар энг оддий кишилардан тортиб, таниқли олимлар, академикларгача беҳад ҳайрат ва беғубор ҳавасларини яширмасдан алоҳида таъкидлашган.

Албатта, бунини барча бирдек ҳис қилиши, бир хил эътироф этиши қийин. Зеро, одамлар турфа, дунёқарашлар турлича. Бинобарин...

Шавкат Мирзиёев Президент вазифасини бажаришга киришган биринчи кунлариданоқ ўз фаолиятини халқнинг ана шундай турфа қатлами орасига юришдан, чунончи, мактаблар ва болалар боғчалари, турли йўналишдаги, жумладан энг оғир беморлар даволанадиган касалхоналар, етимхоналару меҳрибонлик уйлари, қариялар ва ногиронлар парваришланадиган пансионатларга боришдан бошлаганини, асрлар давомида наинки каттаконлар, балки мундайроқ амалдорлар қадами етмаган, эътибору назарлардан четга қолиб келаётган масканларга ташриф буюришини «популизм» дея баҳолаган айрим бадбин кишилар ҳам бор эди. Улар тез орада янглишганликларини тушундилар деб ўйлайман. Чунки қисқа фурсатнинг ўзидаёқ бундай юришлар бир-икки бор, хўжакўрсинга қилинмаётгани, балки бу давлат

раҳбари ички сиёсатининг олдинги ўринларидан бирида турган доимий, керак бўлса, кундалик иш эканлиги равшан аён бўлиб қолди. Ҳаммасидан ҳам ҳайратлантирадигани – Президент муайян болалар уйи ёки меҳрибонлик масканида бўлиб, у ердаги шарт-шароит билан эринмасдан синчиклаб танишиб, муаммоларни аниқлаб, бу ерда истиқомат қилаётганларнинг фикр-мулоҳазалари, арзу шикоятларини диққат билан эшитиб, мутасадди раҳбарларга масалани ечишнинг аниқ йўл-йўриқларини ҳамда муддатини кўрсатиб, белгиланган вақтдан сўнг бу ерга такроран ташриф буюриб, ана шу топшириқлар ижросини шахсан текширгани, бундан шу жой аҳли нечоғлик қониқиш ҳосил қилгани билан қизиқиши бўлди. Олий даражадаги раҳбарнинг бундай қунт-эътибори ва саъй-ҳаракатини кўрган киши унинг қалбидаги раҳм-шафқат, меҳр-мурувват туйғулари теран самимият ва мен юқорида кўп такрорлаган мустаҳкам қатъиятга асосланганига тан бермай иложи йўқ эди.

Хўш, бундай юксак инсоний туйғуларнинг манбалари қаерда, илдизлари нималарга бориб тақалади?

Фикримча, бу аввало, меҳнаткаш ва доно халқимиздаги энг бетакрор хислатларга уйғун ва муштарақдир. Жаҳон аҳли «ўзбек» деганда бағри кенг, меҳмондўст, аҳдига содиқ, оғзидаги бир бурда нонини ҳам қардош биродарлар билан баҳам кўришга интилувчи кўзи тўқ, нияти пок, оққўнгил ва очиқ чехрали миллатни тушуниши ҳеч кимга сир эмас. Аммо...

Жонажон элимиз тарихда эришган улкан ғалабалар, давлатчилик, илму фан, меъморлик ва бинокорлик, бадий ижод соҳасидаги оламшумул ютуқлар, кейин эса калтабин ҳукмдорларнинг халқдан айрилиб, ўзаро ҳокимият талашишга берилиши орқасидан юзага келган сиёсий тарқоқлик,

бошбошдоқлик оқибатида мустамлака асоратига тушиш, шунинг натижасида асрлар давомида чекилган уқубатлар, кўрилган хўрликларнинг аччиқ сабоқлари ва дунёни ҳайратга солган аждодларимиз юксаклигига эришиш, мустақил давлатимизни, озод халқимизни жаҳонда пешқадам ўринларга олиб чиқиш орзуси ҳам ҳар биримизнинг қалбимиздан чуқур жой олган.

Буни теран англаган донишманд олим, тажрибали раҳбар ҳокимият тепасига келган илк дақиқалариданоқ мана шу улғ ва жафокаш миллатнинг қаддини кўтариш учун аввало ҳар бир ватандош кўнглига йўл топишга азму шижоат айлаганида теран ва мутлақо ҳаққоний мантиқ бор.

Яна бир карра, аниқ мисоллар воситасида таъкидлайман, илмий истилоҳ билан филантроплик, оддий тилда жудаям тушунарли тарзда инсонсеварлик, деб изоҳланувчи бу хосса унда олим ва раҳбар сифатида эндигина шаклланаётган пайтларидаёқ яққол намоён эди.

Ҳа, айтганча, институт ректорлигидан озод этилганимдан сўнг ўрнимга муҳтарам устозим узоқ йиллар Ўзбекистон Компартияси Марказқўми котиби, ундан сўнг республика Олий Совети Президиуми раиси лавозимларида ишлаган Оқил Умрзоқович тайинланди. Шу боис мен ва қолаверса, институтнинг бошқа барча раҳбарлари буни қувонч ва қониқиш билан кутиб олдик. Зеро, базавий касбига кўра муҳандис олим, техника фанлари доктори, улкан ҳаётий ва кўп йиллик раҳбарлик тажрибасига эга бу инсон биз бошлаган ва олиб бораётган ишларни аввалгидан-да зиёд даражада давом эттириши, янада юқори поғоналарга кўтаришига ишончимиз комил эди. Шундай бўлди ҳам. У киши институтни моҳирона бошқардилар, жамоани янада

жипслаштириб, янада улкан марраларни эгаллаш сари сафарбар этишга бош-қош бўлдилар. Таълим-тарбия жараёнини янада такомиллаштириш билан биргаликда муҳим йўналишлардаги илмий тадқиқотларнинг кўламини кенгайтириш чораларини кўрдилар. Жумладан, мен бошлиқ лабораторияда илмий ишларни қунт билан давом эттиришимиз учун барча шароитларни яратиб бердилар. Ташкилий-сиёсий соҳада ҳам изчил иш олиб борилди. Шавкат Мирзиёев эса шу орада институт партия қўмитаси котиби, проректор вазифаларида ишлаб, Оқил Умрзоқовичнинг энг яқин сафдоши сифатида бу борада алоҳида жонбозлик, ташаббускорлик кўрсатди, ректор муовини, муайян муддат ректор вазифасини бажарувчи лавозимларида ишлаш жараёнидан раҳбарлик истеъдодининг янги қирраларини намоён этди.

Сирасини айтганда, Оқил Умрзоқович жамоамиздаги барча етук олимлар, профессор-ўқитувчилар, айниқса иқтидорли ёшларга ўз билим ва маҳоратини кўрсатиш учун кенг йўл очди. Аммо...

Саксонинчи йилларнинг иккинчи ярмида ниҳоятда кескинлашиб кетган қатағон машинаси республиканинг олий идораларида ишлаган барча раҳбар ходимлар қаторида муҳтарам устозимизни ҳам ўз қомига тортди...

Бундан беш йиллар олдин Оқил Умрзоқович телекўрсатувлардан бирининг мухбири саволларига жавоб қайтариш асносида ўша кунларни эслар экан, оғир дамларда ўзига руҳан мададкор бўлган, оиласидан муттасил хабар олиб турган энг содиқ дўстлар, шогирдлар ҳақида гапириб, биринчи навбатда Шавкат Мирзиёевни тилга олди. Бу – кимгадир яхши кўриниш мақсадида айтилган гап эмас. Бу – айна ҳақиқат ва бунга ўзим шахсан гувоҳман. Ҳолбуки...

Вазият жуда мураккаб эди. Каттаю кичик раҳбарлар

бировлардан ҳол сўраш нари турсин, ўз мавқеини сақлаш умидида соясидан ҳадиксираб, ҳатто... отасининг жанозасида қатнашишга қўрқиб юрган пайтларда бундай қила олиш осон эмасди. Бунга ҳар кимнинг ҳам журъат-жасорати етмасди.

Тарихдан яхши биламиз, йигирманчи, ўттизинчи, эллагинчи йиллар қатағонлари даврларида тизим қаҳрига учраган маҳкумлар, уларнинг оилалари ҳолидан хабар олиш, уларга кўмак, лоақал далда беришга журъат қилиш наинки мансаби, иши, балки ўз ҳаётини хавф остига қўйиш билан баробар эди. «Фалончи халқ душманининг шериги ёки думи экан» деган тухмат билан қамалганларнинг сони камми?

Саксонинчи йиллар ўртасида Ўзбекистонда ана шундай таҳликали шароит вужудга келганди. Бинобарин ҳар қандай киши, қанчалик комил ва қай даражада солиху содиқ бўлмасин, вазият билан ҳисоблашишга мажбур. Ўз жонини сақлаш инстинкти ҳар биримизга хос. Бироқ...

Ана шундай шароитда ёш, эндигина ўсиб келаётган навқирон раҳбар йигит ўз истиқболи, сиёсий карьерасини ўйлаб ўтирмади. У аждодларидан мерос ва қон-қонига сингиб кетган муқаддас қадрият – меҳр-оқибат даъватига қулоқ солди. Одамгарчилик деб аталмиш оддий, айни пайтда энг буюк, энг мўътабар хислатни ёрқин намойиш қилди. Зотан, одамгарчилик – биз боядан бери таҳлил этишга ҳаракат қилаётган фазилатларнинг олий намунаси, шоирлар таъбири билан ифодалаганда гултождир. Замонамизнинг улкан ижодкорларидан бири Муҳаммад Юсуф:

*«Ўтар инсон яхши ёмони,
Меҳр қолур, муҳаббат қолур...»*

деб ёзганида минг карра ҳақ эди, деб ўйлайман.

Яратганга шукрларким, ўзбеклар, Ўзбекистон ва унинг кўп миллатли халқи бошига тушган кулфатлар ариб, элимиз озод, юртимиз мустақил бўлди. Ноҳақ тухматга учраганлар оқланиб, юзлари ёруғ бўлди. Шулар жумласида ҳурматли Оқил Умрзоқович Салимов бор эди. У киши институт ректорлигига тикланганларидан кейин ҳам анча йиллар бирга ишлашдик. Айниқса, Шавкат Мирзиёев институт сиёсий етакчиси, ректор муовини сифатида унинг ёнида турди. Ташкилотчилик иқтидорини янада ёрқин намоёиш этди. Шунинг самараси ўлароқ ўз истиқлолини қўлга киритишга интилаётган жафокаш Ўзбекистондаги ҳам шаклан, ҳам мазмунан янгича сиёсат майдонига дадил кириб келди. Бу жараённинг қанчалик мураккаб кечгани ҳақида келгуси бобда муфассал ҳикоя қиламан.

Дарвоқе, Оқил Умрзоқович Салимов кадрдон даргоҳимизни 1986 – 1992 йиллар давомида бошқардилар. Институт Ўзбекистон мустақиллигидан сўнг мамлакатимиздаги етакчи олий таълим даргоҳларидан бири сифатида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига минглаб етук мутахассис кадрлар тайёрлаб беришга киришди. Бугунга келиб унинг юксак илмий-педагогик салоҳиятга эга бўлган аҳил жамоаси ана шу фахрли ҳамда масъулиятли вазифани шараф билан уддаламоқда. Бу борада унинг бағрида камол топган суюкли фарзанди, республикамизнинг амалдаги Президенти Шавкат Мирзиёев бошчилигидаги ҳукумат раҳбарияти кўрсатаётган ғамхўрлик ва ёрдам алоҳида муҳим аҳамият касб этаётганини таъкидлаб ўтиш ўринли, деб ўйлайман.

Албатта бугунги ёруғ кунларга етиш осон бўлгани йўқ. Бу йўлда қанча курашлар олиб борилди, тинимсиз меҳнат қилинди, машаққату заҳматлар чекилди. Муҳими, улар бежиз кетмади.

Тўртинчи боб

ҚУТЛУҒ ҚАДАМЛАР

Мустақиллик арафасидаги серғулув йилларнинг ҳар бир оyi, куни ҳақида соатлаб гапириш мумкин.

1990 йил бошида Ўзбекистон тарихида биринчи демократик сайловлар ўтказилажаги, унда аввалги пайтлардаги сингари яккаю ягона ҳукмрон партия, аниқроғи, ҳукумат эмас, иккита фирқа, ундан ташқари аҳоли орасидан чиққан ташаббускор гуруҳлар ҳам номзод кўрсатиш ҳуқуқига эга бўлажаги ҳақида гап-сўзлар пайдо бўлди. Аҳолининг саксонинчи йиллар ўрталаридан бошлаб мустақкам шаклланиб борган сиёсий фаоллиги ўзининг авж нуқталарига чиқди. Республикамизнинг бутун ҳудуди, марказий шаҳарларидан тортиб энг чеккадаги узоқ қишлоқларигача сиёсий фаоллашув жараёнидан четда қолмади.

Ушбу сайловларга республика миқёсидаги тайёргарлик, унинг ўтказилиш жараёни ҳақида кўплаб ҳужжатли, хронологик рисоалар, уларда бевосита иштирок этган тарихчи олимлар, сиёсатшунослару журналистларнинг хотираномалари, эсдалик асарлари ёзилган. Бинобарин, умумий гапларни бир четга суриб, ўзим ишлаган институт доирасидаги воқеалар ҳақида имкон қадар муфассал тўхталишга ҳаракат қилсам тўғри бўлар.

Барча жойлардаги каби институтимизда ҳам Республика Олий Кенгаши депутатлигига номзод кўрсатиш ҳаракати

жадал бошланди. Олиму мураббийларимиз, кўп минг сонли талабаларимиз илк бора янгича усулда ўтказилаётган умумхалқ сайловларида фаол қатнашиш, парламентга ўзимизнинг жамоа вакили бўлган энг муносиб номзодни кўрсатиш иштиёқи билан ёнардилар.

Хўш, бу номзод ким бўлиши керак?

Ана шу саволга аҳил жамоанинг оқсоқол кайвониларидан бошлаб, ёвқур ва шиддатли ёшдаги талаба йигит-қизларигача яқдиллик ва комил ишонч билан жавоб бердилар: Шавкат Мирзиёев!

Ҳа, кўп минг сонли институт жамоасининг жўровоз фикри ана шундай бўлди ва бу мутлақо тасодифий эмасди. Кўпни кўрган аҳил олимлар жамоаси мамлакат парламенти аъзолигига айнан уни муносиб, деб ҳисоблар, унинг ўзи эса бундай ишончга кўп йиллик фидокорона меҳнати, билими, ақл-заковати туфайли сазовор бўлган эди. Теварак-атрофидаги Мирзо Улуғбек туманига қарашли бошқа зиёлилар масканлари, заводу фабрикалар, хуллас, кенг жамоатчилик вакиллари ҳам бу таклифни бажонидил маъқулладилар ҳамда бу хайрли ташаббусга астойдил бош қўшдилар.

Илк бора муқобиллик асосида ўтказилаётган сайловларда ғолиб чиқиш эса ҳазилакам иш эмасди. Рақиблар ҳам чакана кишилармасди ахир. Улардан бири, адашмасам, республиканинг ўша пайтдаги, ифодали айтганда, «оғир вазнли» раҳбарларидан, яъни энг юқори бошқарув тизими – Марказқўм бюроси аъзоси, Туркистон ҳарбий округи раҳбари, бевосита Москвага бўйсунувчи генераллардан бири эди. Бинобарин, унга «административ ресурс» ёрдами ва қўллаб-қувватлаши керагидан ортиқ даражада кафолатланган, ғалабасига деярли ҳеч ким шубҳаланмасди.

Шавкат Мирзиёев тарафдорларининг асосий қисмини эса юқорида айтганимдек, Мирзо Улуғбек тумани аҳлининг зиёли қатлами, айниқса миллий уйғониш шавқи-сурури билан ёнаётган ёшлар ташкил этарди. Улар вужудга келган имкониятдан унумли фойдаланиш учун куну тун тиним билмадилар, тарғибот ва тушунтириш ишлари оқилона ва холисона олиб борилди.

Натижа шунга яраша бўлди. Ёш номзод катта устунлик билан ёлиб чиқди. Энди ўйласам, ўша илк ғалабанинг ўзида илоҳий бир рамз бор экан. Таъбир жоиз бўлса, унда она юртимизнинг ёруғ келажаги, бугунги дориломон, кун сайин ободу фаровон бўлиб бораётган кунларимизнинг муқаддимаси акс этган экан.

Номзодимизнинг ғалабасини фақат ва фақат институт аҳлининг шижоати таъминлади, демоқчи эмасман. Аввало, Парвардигор инояти эди бу шубҳасиз. Ўзбекистон деб аталмиш улуғ мамлакат ҳаётида туб бурилиш ясалган ўша кезларда ана шу суронли даврнинг, оламшумул эврилишларнинг бевосита иштирокчиси, камарбаста фаоли бўлиш ҳар кимга ҳам насиб этаверадиган толе эмас. Бунинг учун Аллоҳ назарига тушган бўлиши керак, киши.

Бундан ташқари бизнинг номзодимиз фақат институтнинг ўзида эмас, у жойлашган Мирзо Улуғбек тумани, муаззам пойтахтимиз бўлмиш Тошкент шаҳри, қолаверса, бутун республикага танилиб улгурган йирик шахс даражасига етиб улгурганди бу пайтлар. Юқорида мен институтимизнинг республика қишлоқ хўжалиги ҳаётидаги ўрни ва роли, унда таҳсил олаётган йигит-қизларнинг талабаликнинг илк паллалариданоқ дала, деҳқончилик, хуллас, амалиёт билан уйғун тарзда улғайиши, ўқишни битириб чиқиб, айна пайтларда ўлканинг барча бурчакларидаги каттаю кичик хўжаликлар, ташкилоту идораларда мутахассису раҳбарларнинг ҳақли равишда эгаллаган нуфузи

ҳақида тўхталиб ўтгандим. Шунинг учун такрорлаб ўтирмоқчи эмасман. Нафсиламрини айтганда, асосан, аграр фаолият билан шуғулланувчи республика аҳолисининг ушбу институт, унда ишловчи барча профессор-ўқитувчилар, олиму мураббийлар, раҳбару ташкилотчиларга ҳурмати баланд, муносабати самимий эди.

Бундан ташқари номзодимиз илмий-педагогик ишни самарали ижтимоий-сиёсий фаолият билан қўшиб олиб боргани, яъни аввал институт ёшлари сардори, кейин сиёсий етакчи сифатида мамлакат миқёсидаги тадбирларда мазмун-моҳияти диққатга сазовор чиқишлари, эътиборга молик таклиф-мулоҳазалари билан танилган, жамоатчиликнинг ҳам назарига тушган, хуллас, республика сиёсий ҳаётида ўзининг муайян муносиб ўрнига эга эди.

Шу билан биргаликда, сайловлар арафасида ўтказилган тарғибот-ташвиқот кампаниясида унинг ёнида туриб, жонбозлик кўрсатган сафдош дўстлари, ҳамкасблари, маҳалладош, тумандош биродарлар хизматини ҳам асло унутиш мумкин эмас.

Муҳими, номзодимизнинг сайловолди учрашувларида ўзи кўзлаётган мақсадини, зиммасига юкланажак масъулиятни теран ҳис этган ҳолда, ортиқча баландпарвоз гаплару қуруқ ваъдаларга берилмасдан комил ишонч билан фикр юритиши, ҳар қандай саволга лўнда, тушунарли ва ишонарли жавоб қайтариши билан сайловчиларнинг меҳрини қозона олаётган эди.

Очиғи, ўша кунларни такрор кўз олдимга келтирар эканман, завқланиб, жўшиб кетаман. Салкам бир ярим асрлик истибдод исканжасида яшаган халқ унинг сўзи, хоҳиш-иродаси чин маънода аҳамият касб этаётганини англаб етган ва бу тарихий имкониятдан унумли ва оқилона фойдаланишга астойдил ҳаракат қилиб,

ўзининг ҳақиқий жонкуярларини, муносиб вакилларини сайлашга шижоат билан бел боғлаган эди. Бунинг натижасида...

Олий Кенгаш таркиби узоқ йиллар давом этган сиёсий турғунлик даврларидаги сингари тўласинча коммунистик партия белгилаган бош йўналишга оғишмай амал қилувчи тартиб-интизомли, ювош ва соме депутатлардан иборат эмас, анча-мунчаси ўзининг мустақил ва кўпчиликниқидан фарқланувчи фикрига эга депутатлардан иборат эди.

Бу эса амалдаги раҳбариятдан янгича шароитда янгича ишлашни, яъни фақат ўз иродасини ўтказишга уринмасдан турфа фикрларни тинглаш, фарқли қарашларни ҳазм этишни, зарур пайтда ён беришни, хуллас, етарлича қайишқоқ бўлишни талаб этар, қисқа қилиб айтганда, ёқадими-ёқмайдими, демократия қоидаларига амал қилишни кун тартибига қўйганди.

Компартиянинг бюрократик буйруқбозликка асосланган бошқарув услуби шароитида бунга дарҳол эришишинг иложи йўқ эди, албатта. Шунинг учун ҳам моҳиятан янгича бўлган, илк бора яккапартиявийлик усулидан воз кечган ҳолда шаклланган парламент иш маромига янгича мазмун бағишлаш билан биргалиқда мўътадилликни сақлаш осон эмасди. Баҳс-мунозаралар ҳарорати гоҳо ўта юқори даражага чиқарди.

Шавкат Мирзиёев Олий Кенгаш депутати сифатида фаолият кўрсатган паллаларда, назаримда, ундаги яна бир ўзига хос хусусият юзага чиқди. Бу узоқ йиллар давом этган сиёсий турғунликдан сўнг баногоҳ пайдо бўлган турфа фикрлик, сўз эркинлиги шароитида ўзини муносиб даражада тута олиш, яъни бошқалар иддаосини тоқат билан тинглаш, енгилтак риторикадан узоқда туриш, энг муҳим гапларни энг муҳим ва зарур паллаларда ўртага ташлай олиш, оддий қилиб айтганда,

масъулиятли пайтларда оғир-вазминлик кўрсата олиш хислати эди. Буни турлича қарашлардаги депутатлар ҳам, Олий Кенгаш раёсати ҳам, қолаверса, мамлакатнинг ўша даврдаги раҳбарияти ҳам кўриб-билиб турар эди. Шу боисдан ҳам унга Олий Кенгашнинг муҳим бошқарув тизимларидан бири бўлмиш мандат комиссиясига раҳбарлик қилиш ишониб топширилди. Ушбу комиссия раислигини амалга ошириш асносида у энг мураккаб вазиятларда ҳам ягона тўғри ва мақбул йўлни топишга ҳаракат қилди ва шунга эришди. Энг мураккаб, баҳс-мунозарали ва зиддиятли лаҳзаларда ўзини муносиб даражада тутди. Прагматик услубда, оғир-босиқлик, ишчанлик билан фаолият кўрсатди. Бу хусусият инобатга олиниб, тез орада у Тошкент шаҳрининг йирик ва марказий ҳудудларидан бири бўлган Мирзо Улуғбек туманига ҳокимликка тавсия этилди. Қадрдон туман аҳли уни катта хурсандчилик билан қарши олди.

Яхши эслайман, у ўзи яхши билган, яъни ўқиган маскани, ишхонаси, яшаш жойи шу ерда бўлган туман раҳбарлигига киришар экан, меҳру ҳурмат ва масъулиятни ҳис этган ҳолда, катта иштиёқ, ғайрат-шижоат билан иш бошлаганиди. Зеро, у ушбу туман миқёсидаги мавжуд муаммолардан бевосита хабардор эди, уларни бартараф этиш устида ҳали институтда ишлаш чоғида ҳам кўп ўйлар, мажлисларда гапирар, таклиф-мулоҳазалар билдирарди. Мана энди ҳамонки тақдирнинг ўзи унга ана шу ғояларини ҳаётга татбиқ этиш имконини берган экан, демак энди бутун билими, раҳбарлик иқтидори ва маҳорати, куч-ғайратини сарфлаб ишлаши зарурлигини у чуқур англади ва зиммасидаги лавозимга жуда катта масъулият ҳисси билан қарар эди.

Албатта, қайси бўғиндалигидан қатъи назар, ҳар қандай раҳбар ҳар қанча закий, моҳиру серғайрат бўлмасин, зиммасидаги

вазифаларни ёлғиз ўзи бажара олмайди. Худди шундай бу мураккаб вазифаларни кўнгилдагидек адо этиш учун фақат буйруқ бажарадиган ижрочиларнинг жисмоний елиб-югуришларининг ўзи кифоя қилмайди. Билимли, салоҳияти кучли, соғлом фикрли ва хайрихоҳ, содиқ ва тўғрисиўз сафдошлар керак бўлади ушбу машаққатли юмушларда.

Ёш ҳоким бу ҳақиқатларни унутмади. Уларга амал қилиш билан бирга янги давр мазмунидан келиб чиқувчи янгича услуб ва ёндашувларни излашга, топишга ва ўз фаолиятига кунт билан жорий этишга интилди. Зотан, ҳокимлик деган бошқарув институтининг ўзи ўлкамиз ва халқимизга тарихан таниш бўлса-да, мустақил Ўзбекистон учун моҳиятан мутлақо янгилик эди. Шу боисдан ҳам бу жабҳада иш бошлаган анча-мунча ходимлар тез орада жиддий хатоларга йўл қўйгани ҳам сир эмас. Ҳоким деган истилоҳ замиридаги тушунча мазмуни айримлар учун ўз тасарруфидаги ҳамма кишилар ва ҳамма нарсалар устидан мутлақ ҳукмронликни, халқ ибораси билан айтганда, «ўзи хон, кўланкаси майдон»ликни ифодалаган ҳолатлар ҳам бор. Бундай раҳбарлар узоқ ишлолмадилар. Чунки ҳокимлик ҳукм эмас, иш юритиш, иш юритганда ҳам буйруқбозлик билан эмас, жонбозлик, яъни фидойиликнинг, ташаббускорликнинг шахсий намунасини кўрсатиш билан меҳнат қилишдан иборат эканлигини етарлича тушунмадилар.

Яна бир муҳим жиҳат: ҳоким расман халқ депутатлари маҳаллий кенгашлари билан маслаҳатлашган ҳолда иш тутиши белгиланган бўлса-да, амалда кўплаб муҳим масалаларда якка ҳолда қарорлар қабул қилади. Бу эса, табиийки, ундан жуда катта билим, юксак ақл-заковат, дадиллик ва қатъият соҳиби бўлиши зарурлигидан ташқари, мамлакат раҳбарияти олиб бораётган

сиёсатни аниқ билиш ва унга оғишмай амал қилишни, айни пайтда кўл остидаги ходимлар, айниқса, етук мутахассислар фикри билан мудом қизиқишни, ҳисоблашишни, доно халқимиз таъбири билан айтганда, «бир каттанинг, бир кичикнинг гапига кириш»ни талаб этади. Ана шуни унутмаган, кибру ҳавога берилмаган, бағри кенгликни унутмаган раҳбарнинг юзи ҳамиша ёруғдир. Шавкат Мирзиёев туман ҳокими бўлиб ишлар экан, ана шу қоидаларга амал қилди. Каттаю кичикка бирдек самимий, ҳаққоний ва адолатли муомалада бўлди. Кибрга, гина-кудуратга заррача ҳам йўл қўймасликка интилди.

Ўша пайтлар у билан бевосита ёнма-ён ишлашган кишиларнинг ёзма ёхуд теле-видео хотираномаларида қайд этилишича, ёш ҳоким бир вақтлар унга нисбатан адолатсизлик қилган кишиларни сидқидилдан кечириб, уларга ишда ўзини кўрсатишга имкон берган, ҳақиқатда ҳам ишончни оқлаганларини сира иккиланмасдан янада юқори, масъулиятли лавозимларга кўтаришга ҳаракат қилган. Яъни кек сақламаган, иш манфаатини шахсий ҳис-туйғулардан баланд қўйган. Тумандаги ҳар бир фуқаро кўнглига йўл топишга, имкони доирасида беғараз кўмаклашишга, айниқса бева-бечоралар бошини силаб, мушкулини осон қилишга интилган. Бунга жуда кўплаб мисоллар келтириш мумкин.

Дарвоқе, бундан сал олдин, сайловлар арафасида сайловчилар билан бўлган учрашувларда Шавкат Миромонович туманда ишлаб юрган кезларида қандай тўсиқлар, нечоғлик мураккаб вазиятларга дуч келгани ва улардан қай тарзда чиқиб кетишга муяссар бўлгани ҳақида қизиқарли лавҳалар сўзлаб бергани кўпчиликнинг эсида бўлса керак. Муҳими, у зимдан ва ҳатто, ошкора душманлик қилишга уринганларнинг хатти-ҳаракатларига ҳам муносиб, яхшилик билан, ўзининг ҳалол ва матонатли меҳнати билан жавоб қайтарди.

Камина бу пайтда Тошкент Фармацевтика институти ректори бўлиб ишлаётганим, ўзимга яраша юмушу ташвишлар етарли экани боис у билан нисбатан камроқ кўришган бўлсам-да, қизгин ва самарали фаолиятини синчиклаб, хайрихоҳлик билан кузатиб борардим ва эзгу ишларидан огоҳ бўлиб, астойдил севинардим. У эса ҳарчанд иши кўплигига қарамасдан устозлар, дўсту биродарлар ҳол-аҳволидан хабардорликни ҳам асло унутмасди.

Шуларнинг ҳосиласи ўлароқ, у қисқа фурсатда туман аҳлининг самимий меҳр-ҳурматини қозонди. Айни пайтда ўзининг кенг миқёсда ва мустақил фикрловчи, кўламли идора этиш имкониятига эга, тиниб-тинчимас ва ишлаб чарчамайдиган етакчи сифатидаги салоҳиятини мамлакат олий раҳбарияти кўз ўнгида ёрқин намоён этди. Бунинг натижасида янада каттароқ ва масъулиятлироқ ишончга сазовор бўлиб, Жиззах вилоятига ҳокимликка тайинланди.

Бу унга билдирилган жуда катта ишонч эди. Пойтахтдаги ҳарчанд катта бўлмасин, ҳар қалай туманни бошқариш билан вилоятни, аниқроғи, ҳудуд жиҳатидан Европадаги айрим давлатларга тенг келадиган, мамлакат ичидаги мўъжаз бир мамлакатни, Ватан ичра кичик ватанни идора қилиш ўртасида анча жиддий фарқ бор. Аввало, моҳиятан янгича ҳокимлик тизимида нисбатан қисқа муддат ишлаган кадрни бунақа вазифага юбориш учун унинг бу ишни уддалашига етарлича ишонч ҳосил қилинган бўлиши лозим. Қолаверса, бундай улкан масъулиятни зиммага олишга ҳар кимнинг ҳам юраги дов бермайди. Лекин республика раҳбарияти унинг туман ҳокимлигидаги раҳбарлик фаолиятини, иқтидор ва салоҳиятини ҳар тарафлама ўрганиб, синовдан ўтказиб, натижаларни баҳолаб, ана шундай хулосага келган ва уни янги

лавозимда она-Ватаннинг муҳим бўлаги бўлмиш ота юртни обод этиш йўлида комил ишонч ва шиддат-шижоат билан ишлашга руҳлантирганди.

Ҳар бир инсон, жумладан, ҳар қандай раҳбар учун киндик қони томган табаррук тупроқни гуллантиш, ўзини улғайтирган эл хизматида бўлиш, қорига яраш имкони, аввало, катта бахт. Иккинчи тарафдан бунинг ўта оғир юки, яъни алоҳида масъулияти бор. Зеро, одамлар сендан ўзинг ўйлаганингдан-да кўпроқ нарса кутадилар. Шунинг учун аввалгидан ҳам кўра қаттиқроқ ишлашга тўғри келади.

Умуман олганда ҳам, етарлича иқтидор, муайян иш тажрибасига эга бўлса ҳам ҳали қирққа кирмаган йигит учун кўлами жиҳатидан олдингидан жуда кенг, ҳудуди катта, хўжалиги сертармоқ, қолаверса, анчагина қисмини чўлдан ўзлаштирилган ерлар ташкил этувчи жойда илгаригидек дарҳол юксак натижалар кўрсатиш ва маҳаллий аҳолини рози қилиш, айниқса республика раҳбариятининг эътирофига сазовор бўлиш осон эмасди. Лекин не ажаб ва саодатким, у шунга эришолди. Буни...

Дўстларки турган гап, ҳатто... узоқ-яқиндаги мухолиф фикрли кишилар ҳам тан олаётгани ҳам бор гап.

Камина донишманд элимизнинг «бирни кўриб шукр қил, бирни кўриб фикр қил», деган мақолини жуда яхши кўраман ва унга амал қилган ҳолда мамлакатимизда яқин ўтмишда, шунингдек, бугун амалга оширилаётган ишлар ҳақидаги турфа қарашлар, холису нохолис баҳоларни-да кузатиб бораман. Бугун бунинг учун узоққа боришнинг ҳожати йўқ. Компьютер ва ҳатто телефонингиз экранини ёқиб, интернет саҳифаларини варақлаш, ижтимоий тармоқларни кўздан кечириш кифоя. Ўзимизнинг юртда ёхуд хорижда яшовчи кўплаб журналистлар, блогерлар, ютуберлар

эълон қилаётган ахборотлар қалашиб ётибди. Албатта улар оқими ичидан бамаъни, ҳаққоний муносабат акс этган хабару даракларни, тафсилу таҳлилларни топиш учун етарлича фаҳм-фаросат, ақл-заковат керак бўлади.

Бир куни ютуб тармоғи орқали тарқатиладиган видеоканаллардан бирида асли Жиззахда туғилиб ўсган, ўша ерда матбуот соҳасида ишлаган ва кейинчалик хорижга кетган ва ҳозир ўша ерда яшаб, асосан танқидий чиқишлар қилиб турадиган бир журналист йигит анчайин машҳур сайтлардан бирига интервью берар экан, суҳбатдошини ҳайратга солароқ, Шавкат Мирзиёевнинг Жиззахда ҳокимлик чоғида қилган ижобий ишлари ҳақида гапира бошлади. Хусусан, вилоятдаги драма театрини тубдан таъмирлашга шахсан бош-қош бўлгани, ижодий труппага катта амалий ёрдам кўрсатгани, театр қайта очилиб фаолият кўрсата бошлагач, ўзи оиласи билан унинг спектакларини томоша қилишга мунтазам келиб тургани ва бошқа турли бўғинлардаги раҳбарларни мана шундай «маданий юришлар»га ўргатгани, умуман, вилоят ҳокимининг маданият ва маърифат, таълим-тарбия, спорт, соғлиқни сақлаш тизимларига доимий эътибор билан қарагани, зиёлилар билан тез-тез мулоқот қилиб турганини айтди ва азбаройи холислик талабига кўра «буларни эътироф этишга мажбурман» дея алоҳида таъкидлади.

Бу чеккадаги кишининг фикрлари, албатта. Вилоят аҳли орасидан истаган бир соҳада ишловчи киши билан суҳбатлашсангиз, сизга бундан-да қизиқ, ибратли мисолларга тўла ҳикоялар сўзлаши мумкин. Бир жумла билан айтганда, вилоят аҳлининг яхши ишлаб, яхши яшаб, яхши ҳордиқ чиқариши учун мукамал шарт-шароит яратиш ҳокимнинг биринчи галдаги

долзарб вазифаси бўлган.

Камина фикримни иқтисодиёт, айниқса қишлоқ хўжалигида қўлга киритилган ютуқлар билан исботлаш учун узундан-узоқ тафсилотларга берилмоқчи, статистик рақамлар келтирмоқчи эмасман. Биттагина далил билан чекланаман: яъни Жиззахдан кейин у аҳолиси сони жиҳатидан республика вилоятлари орасида биринчи ўринда турувчи, иқтисодиёти нақадар залворли Самарқанд вилоятига ҳоким қилиб юборилиши унинг фаолиятига берилган аниқ ва муносиб баҳо, деб ўйлайман.

Балким кимларгадир эриш туюлар, аммо шундай бир муқояса қилишга жазм этаман: ўзи туғилиб ўсган заминни обод, элини шод эта олган шиддаткор ва серғайрат раҳбар олий раҳбарият хоҳиш-иродасига кўра, энди Президент таваллуд топиб улғайган кишварул маъвони иқтисодий равнақ топтириш, маънавий, маданий ва маърифий жиҳатдан гуллатишу яшнатиш учун сафарбар этишга лойиқ кўрилади. Шу қисқа изоҳнинг ўзи кўп нарсани ойдинлаштиради, кўплаб саволларга жавоб беради, менимча.

Халқ депутатлари вилоят кенгашининг ўша, адашмасам, икки мингинчи йиллар бошида бўлган ва янги ҳокимни тасдиқлашга бағишланган сессиясида давлат раҳбари унинг олдида турган ўта долзарб вазифалар ҳақида гапирар экан, мажлис қатнашчилари, қолаверса, ушбу анжуманни телевизор орқали кузатаётган бутун мамлакат кўз ўнгида ундан:

– Соғлигингиз яхшими? – деб сўраган ва янги ҳоким: – Яхши, – дея қисқа, аниқ ва ишончли жавоб қайтарган эди. Кўпчилик қатори биз, унга ёшлик йилларидан буён қадрдон бўлган устозлар, ёру дўстлар ундаги ана шу комил ишонч ва қатъиятни севинч, меҳр ва қониқиш билан қарши олган ва унга янада мустаҳкам саломатлик

ва омадлар тилагандик ўшанда.

Миллионлар нигоҳидаги бу қисқа диалогнинг замирида юкланаётган масъулиятнинг бутун залворию салобати ва ушбу масъулиятни зиммасига олаётган кишининг ўз салоҳияти, куч ва имкониятларига бўлган ишончу қатъияти яққол тажаллий топганди. Чиндан ҳам...

Самарқанд – ер юзининг сайқали, уни етти иқлим аҳли билади, уни лоақал бир бора кўришга, эртақмонанд шаҳарнинг тенгсиз ва бетакрор осори атиқаларини томоша қилишга интилади. Шу боис қишин-ёзин, кўйингки, йилнинг тўрт фаслида у ҳар куни, ҳар соат хорижлик сайёҳлару юртимизнинг барча бурчакларидан келган меҳмону зиёратчилар билан гавжум. Ушбу қадимий ва ҳамиша навқирон шаҳарнинг ҳаво, темир йўл, автомобиль дарвозалари ҳар даму ҳар лаҳза тирбанд, кўча ва майдонлари, бозору дўконлари, музей ва истироҳатгоҳлари, айниқса асрларга гувоҳ меъморий ёдгорликларидан одам аримайди. Уларга юқори сифатли туристик хизмат кўрсатиш, ўз саёҳату сафарларини чуқур қониқиш ва аъло кайфиятда яқунлаб, бу ерга яна қайтиб келиш фикри билан кетишларига эришиш учун турли-туман тармоқларнинг бир-бирига узвий боғлиқ бутун бир силсиласи бамисоли соат мурватлари сингари тўхтовсиз ва аниқ ишлаб туриши шарт.

Бундан ташқари мамлакатимизга ташриф буюрадиган олий даражали меҳмонлар – давлат бошлиқлари, Президентлару бош вазирлар, парламентлар раҳбарларию дунёга таниқли сиёсатчи арбоблар Самарқандни кўрмай қайтмасликка ҳаракат қиладилар. Уларни халқаро мезону меъёрлар даражасида кутиб олиш, иззат-икром кўрсатиш, кузатиб қўйиш талаб этилади.

Бу биттагина шаҳарнинг ўзида қилинадиган ишлар. Ундан ташқари яна икки миллиондан ортиқ аҳоли яшовчи ўн бешта

туман, ўнлаб шаҳарчалар, юзлабу минглаб қишлоқлар. Хуллас...

Самарқандда ишлашнинг ўзига хос жиҳатлари ва алоҳида масъулияти борлиги таъкидсиз ҳам аён.

Ижодкор дўстларимдан бирининг айтишича, ўша пайтлар самарқандлик каттаю кичик раҳбарлар орасида ғалати бир савол юрар экан: «Ҳоким қачон ухлайди, умуман, дам оладими ўзи?»

Чунки у сутканинг мутлақо кутилмаган пайтида муайян раҳбарга муайян долзарб масала бўйича қўнғироқ қилиб ҳисоб сўраши ёхуд вилоятнинг узоқ бир бурчагига ақлга сиғмайдиган даражада тез етиб бориши ва ишларнинг аҳволини текшириб қолиши турган гап эди. Бу бир жиҳатдан.

Иккинчидан, у ҳамиша энг ўткир, энг кескин масалаларни олдинги ўринга қўяр, уларни ечишни ҳеч қачон пайсалга солмас, имкон қадар тез ва оқилона ҳал этишга ҳаракат қилар, бу йўлда сира иккиланмас, хавф-хатарлардан чўчимасдан дадил, зарур ҳолатларда жасурлик билан киришар эди.

У билан бевосита бирга ишлашган, «Нуроний» жамғармаси Самарқанд вилоят кенгаши раиси, Ўзбекистон Қаҳрамони, раҳматли биродаримиз Ҳасан Норбекович Нормуродовнинг хотирлашича, ўша пайтларда вилоятнинг тоғли тумани Ургутда икки қишлоқ аҳолиси ер-сув талашиши оқибатида ўта кескин можаро юзага келади. Жанжалга зимдан бузғунчи ва вайронкор кучлар аралашиб, уни қуролли тўқнашувга айлантиришга уринадилар. Орада қон тўкилиши, одамлар қурбон бўлиши хавфи туғилади.

Бундай пайтда баъзи раҳбарлар саросимага тушиб қоладилар, дарҳол юқоридан ёрдам сўраш, куч ишлатар тизимларни жалб этиш ҳақида ўйлайдилар.

Шавкат Мирзиёев эса одамлар орасига боришга, улар билан юзма-юз гапиришиб, муаммони яхшиликча, тинч йўл билан ҳал

этишга қарор қилади ва бунинг уддасидан чиқади.

Фикримча, ҳар қандай мушкул муаммони ақл-идрок билан яхшиликча ҳал қилиш истаги унинг феъл-атворидаги эҳтиёткорлик билан эмас, биз юқорида бир неча бор такрорлаган илмий таъбир билан айтганда, филантропия, оддийроқ изоҳланса, инсонпарварлик туйғуси билан боғлиқ. Чамаси машойихларимизнинг: «Етти иқлимнинг божу хирожи бир гўдакнинг кўз ёшига арзимаёди» деган беназир ҳикмати унинг қон-қонига сингиб кетган ҳаётий ақидадир.

Албатта, ўта зарур вазиятларда унинг етарли даражада қаттиққўллик кўрсатиши, фикрида қойим туришига ҳам кўп бор гувоҳ бўлганман. Қойил қолдирадиган тарафи шундаки, бу чора айнан энг керакли, яъни шундан бошқа йўл йўқ (бўлмаган) вазиятларда қўлланган ва бу унинг инсонпарварлик ақидасига зид келмаслигига эриша олган. Ана шу мувозанатнинг ҳеч қачон бузилмаслигига эришгани, бу борада Яратганнинг ўзи уни қўллагани, ирода, сабр-бардош, қатъият ато этгани учун ҳам унинг сиёсий йўли ойдин бўлган бўлса ажаб эмас.

Самарқанд вилояти ҳокимлигидан кейин у республика Бош вазири вазифасига тайинланди. Шу фактнинг ўзи қадимий ва ҳамиша навқирон Зарафшон воҳасидаги фаолиятига берилган юксак баҳо эди, десак муболаға бўлмас.

Ўзбекистон Олий Мажлисининг уни мамлакат миқёсидаги энг олий лавозимлардан бирига тасдиқлаган сессияси тафсилотлари, унда республикамизнинг биринчи Президенти билдирган фикрлар билан интернет тармоқлари орқали муфассал танишиш мумкин. Шунинг учун бу воқеага алоҳида тўхталиб ўтирмайман. Фақат бир нарсани таъкидлаб ўтишни истардимки, у кетма-кет икки вилоятда ишлаб улгурган бўлса-да, пойтахтга нисбатан тез, яъни бирмунча

қисқа фурсатда қайтиб келди. Аммо...

Ушбу нисбатан тез ва қисқа муддат замиридаги наинки ҳар бир йил ёки ой, ҳар бир кун, соат, дақиқаю сониянинг ўз салмоғи, кенг ва теран мазмун-моҳияти мавжуд ва бу олий раҳбариятга ҳам, у билан бирга ишлашган сафдошларига ҳам, қолаверса, оддий меҳнаткашларга ҳам ойнадай равшан бўлиб турар ва айнан мана шу шаффофлик унга мамлакат миқёсидаги бу даражадаги юксак ва масъулиятли вазифани комил ишонч билан топширишни тақозо этганди. Ва...

Чин маънодаги етакчи, раҳбар фаолиятининг баҳо мезонлари қаерда қанча ишлагани билан эмас, қандай ишлагани билан белгиланажаги борасидаги азалий ҳақиқат у Бош вазир лавозимига ўн уч йил мобайнида кетма-кет уч марта лозим кўрилгани билан яна бир карра ўз тасдиғини топди.

Бунинг энг бирламчи, энг оддий, энг тушунарли битта сабаби бугун Бош вазир лавозимида ишлаётган, эндиликда ўзи хоҳлайдими-йўқми, катта мансабдор, улкан давлат арбоби сифатида кундалик «қора меҳнат»дан анча баланд туриши лозим, аниқроғи, шунга мажбур ҳисобланадиган Шавкат Мирзиёев амалда ҳали ҳануз ҳув ўша, мен илк бора танишиб, суҳбатлашиб, кейин бирга ишлашиб, бевосита кўриб, билиб, ишонч ҳосил қилган ҳайратомуз даражадаги ишчанлик хусусиятини, ғайрат-шижоати ва тиниб-тинчимаслик фазилатини заррача камайтирмагани, аниқроғи, ҳамон шаҳару қишлоқлару дала-даштларни пою пиёда қадам-бақадам кезишдан эринмаслиги, энг майда муаммоларни-да илдизигача ўрганиб, ечиш йўл-йўриғини ўз вақтида аниқ белгилашдан ижирғанмаслигига бориб тақаларди назаримда. У мудом халқ орасида, оддий одамларнинг рўпарасида эди ва умуммиллий, умумдавлат аҳамиятига молик масалалар билан

бир қаторда жуда оддий ва ўта муҳим муаммоларни ечишга вақту имкон топарди. Зеро, буни кўрмаслик, эътироф этмаслик, тан бермасликнинг иложи йўқ эди.

Айрим кузатувчилар орасида ўша йилларда у кўпроқ қишлоқ хўжалиги, аниқроғи, пойтахтдан четроқдаги муаммолар билан банд эди, деган фикр юради. Бу иддаода маълум даражадагина жон бор, холос. Яъни у қишлоқ хўжалигидаги битмас-туганмас муаммоларни ечиш билан биргаликда, аввало, Бош вазирнинг Конституция ва тегишли қонунларда, хизмат ваколату мажбуриятлари ҳақидаги йўриқномаларда белгиланган вазифаларини бекаму кўст бажариши шарт эди ва буни унинг ўрнига ҳеч ким келиб қилиб бермасди. Ҳамма гап шундаки, у ўз зиммасидаги тоғдай вазифалар билан биргаликда, уларга қўшимча равишда мана шу ўта оғир ва масъулиятли соҳага жавобгарликни ҳам олган, буни уддалаш учун эса йигирма тўрт соат тинимсиз ишлаш кераклигини билар ва шундай қиларди.

Имоним комилки, айнан шунинг учун ҳам у мана шу мамлакатимиз иқтисодиётида етакчи ўрин тутувчи тармоқ ҳаётини, ундаги муаммоларни янада мукамал билиш имконига эга бўлган, уларни янада чуқурроқ, ипидан-игнасигача ўрганган, оғриқли масалаларни юрагидан ўтказган, уларни ҳал этишнинг энг мақбул чораларини излаган ва Президентликка келганидан сўнг буни дарҳол кун тартибининг бошига қўйганлигида, шу соҳада энг тўғри, энг оқилона ислоҳотларни бошлашга дадил киришганида теран мантиқ бор.

Марказий Осиё, жумладан, Ўзбекистон чор Россияси томонидан босиб олинган ўн тўққизинчи аср иккинчи ярмидан бошлаб, маҳаллий халқ вакиллари фақат ва фақат қишлоқ хўжалиги билан шуғулланишга мажбурланганлиги, аниқроқ ва қаттиқроқ қилиб айтсак, мамлакат арзон хом ашё базасига,

аҳолиси эса арзон ишчи кучига айлантирилгани, яъни пахтага қул қилингани, бир замонлар ўз илмий салоҳияти билан дунёни қойил қолдирган, математика, астрономия, жўғрофия, тиббиёт сингари фанлар соҳасида ер юзида етакчилик қилган, айниқса алгоритмни кашф этиб, бугунги шиддаткор технологик тараққиётнинг асосини яратган буюк аждодларнинг авлодлари технологик жиҳатдан ўта қолақ, асосан, қўл меҳнатига таянувчи тармоқ мардикорлари қилиб қўйилгани, навраста ниҳоллари бўлмиш мактаб ўқувчилари ўқиш-ўрганиш ўрнига йил бўйи даладан чиқарилмай мажбурий меҳнат исканжасига солингани ҳеч кимга сир эмас.

Шу соҳани анча яқиндан билганим учун бу ҳақда кенгроқ фикр юритяпман ва қанчалик ёқимсиз бўлмасин, мулоҳазаларимни ўтган даврларда юракларга ўрнашган чуқур надомат билан бошляпман. Юқорида тўхталиб ўтганимдек, қишлоқ хўжалигидаги оғир қўл меҳнати камайтириш, соҳага механизацияни кенг жорий этиш борасидаги саъй-ҳаракатлар етарли эмасди. Москва Ўзбекистонда етиштирилаётган пахта хом ашёси миқдорини йил сайин ошириб боришни талаб этар, айна пайтда бу соҳани модернизациялаш, техника билан етарлича қуроллантириш, диверсификациялаш ҳақида мутлақо қайғурмасди. Оқибатда пахтани етиштириш минг машаққат, азоб-уқубатга айланган, ҳосилни йиғиштириб олиш баъзида йил охиридаги қаттиқ совуқ тушган кунларгача давом этар, бинобарин, наинки талабалару мактаб ўқувчилари, керак бўлса, боғча тарбияланувчиларигача далага чиқиб, жафокаш ота-оналари ёнида туриб пахта теришига тўғри келарди. Зарарли таъсирга эга кучли кимёвий препаратларни аёвсиз ишлатиш оқибатида далада ишловчилар ўртасида турли юқумли хасталиклар, айниқса гепатит, яъни сариқ касаллиги авж олганди. Бу дардлар тарқалишининг олдини олиш борасида қайғурилмас,

вақтида муолажа қилиш эса аянчли аҳволда эди. Баъзан, ҳатто оғир касалларни шошилиш операция ва мунтазам муолажа қилиши шарт бўлган шифокорларни даладан пахта териб юрган ҳолатда топардингиз. Шукрки, эндиликда бу аянчли манзара аксар ёшларимиз учун эртак бўлиб туюлади. Аммо...

Ҳатто мустақилликдан сўнгги қарийб чорак асрдан зиёд даврда ҳам бу оғир ва шармандали иллатдан қутулиш қийин бўлди.

Сирасини айтганда, ушбу соҳадаги ислоҳот ва ўзгаришлар ҳозир осон бўлаётгани йўқ. Юз йиллар давомида иқтисодиётимизнинг қон-қонига, суяк-суягига сингиб кетган бу аянчли ҳолатни бартараф этиш учун туб ислоҳотлар ўтказишга тўғри келмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг бу йўлдаги қатъияти ўзининг салмоқли самараларини намоён этаётганини бутун халқимиз, қолаверса, дунё жамоатчилиги яққол кўриб турибди.

Қишлоқ хўжалигининг барча соҳаларида кластер тизимининг жорий этилиши, биринчи навбатда, ундаги асосан қўл меҳнатига асосланган жараёнларни модернизациялашга йўл очди ва бу мажбурий меҳнат, айниқса болаларни дала юмушларига жалб этишни тамоман тўхтатишга имкон берди. Қайта ишлаш саноатини қишлоққа яқинлаштирди. Бир пайтлар пахта хом ашёси тола шаклида деярли юз фоиз сув текин экспорт қилинган бўлса, кейинги олти йил мобайнида кўрилган кескин чоралар натижасида деярли юз фоиз ўзимизда қайта ишланмоқда. Республикадаги деярли ҳар битта туманда камида биттадан ип йиғириш, тўқимачилик корхоналари, аксариятида тайёр маҳсулот, жумладан, экспортбоп сифатли ва харидоргир кийим-кечаклар тикиладиган фабрикалар ишга тушди. Минглаб, ўн-юз минглаб қишлоқ ёшлари, хотин-қизлар уларга жалб этилиб, касб-ҳунарли, рўзғорига барака

киритадиган даражада даромадли бўлдилар.

Энг муҳими, Шавкат Мирзиёевнинг қатъияти ва оқилона сиёсати самараси ўлароқ, пахта яккаҳокимлигига чин маънода барҳам берилди. Бир замонлардаги сингари: «даромади қай даражадалигининг аҳамияти йўқ, муҳими, пахта узоқ муддат сақлаш мумкин бўлган ва ҳамиша харидоргир маҳсулот» деган тор ва калтабин қарашдан воз кечилди. Пахтани тахмину таваккалчилик билан эмас, ўзимиздаги қайта ишлаш саноати эҳтиёжларини қатъиян ҳисобга олган ҳолда етиштиришга киришилди. Табиийки, бунинг натижасида юз минг гектарлаб ерлар бўшади ва уларда кундалик ҳаётимиз учун зарур бўлган, импорт ўрнини босувчи ўта муҳим маҳсулотлар етиштириш имкони туғилди.

Бугунги кунда дастурхонларимизни йил бўйи анвойи ноз-неъматлар билан узлуксиз таъминлаш реал воқеликка айланди. Минглаб гектар майдонларда барпо этилган иссиқхоналарда энг оддий лимон, қулупнай, помидор, бодринг, булғор қалампири ёхуд бақлажону томоша қовоқдан тортиб, фақат тропик мамлакатларда ўсувчи, шу чоққача юз фоиз импорт қилинган апельсину мандарин, банан, ананас, киви, авокадогача муваффақият билан парваришланиб, салмоқли ҳосил олинмоқда. Буни бозорларимиздаги манзара ўзгарганидан ҳам яққол сезиш мумкин. Бугина эмас...

Сабзаёт маҳсулотлари, мева-чева экспорти бўйича Ўзбекистон шахдам қадамлар билан илгариламоқда. Яқин ҳамкоримиз бўлган Россия ва, қолаверса, Европанинг бошқа кўпгина давлатларида айнан серқуёш Ўзбекистон помидор-бодрингларини ўрик-гилослари харидоргирлик борасида биринчи ўринда туриши бугун ҳеч кимга сир эмас. Зеро, сахий қуёш, тоза ҳаво, мусаффо ва серҳосил тупроқли заминимиз, зилол ҳамда фойдали минералларга бой сувимиздан

бахраманд бўлиб етишган бизнинг анвойи маҳсулотларнинг шифобахш хоссаси жаҳон аҳли учун исбот талаб қилмайдиган ҳақиқатга айланган. Баъзида Россия оммавий ахборот воситаларида бошқа мамлакатлардан келтирилган айрим маҳсулотларни харидорларга манзур қилиш учун атай «Ўзбекистонники» дея сотишга уринилаётгани ҳақидаги ғалати хабарларни ўқиб қоласан, киши. Бунга ажабланмаса ҳам бўлади. Чунки миришкор ўзбек деҳқони даласида унган ноз-неъмат довруғи бугун бутун дунёни забт этиб улгурди.

Чорвачилик, паррандачилик соҳасидаги тўкин-сочинлик эндиликда биз ҳар куни кўриб, кўзимиз ўрганиб қолган ҳақиқат. Минг бора шукр, бозорларимиз мол ва парранда гўшти, балиқ маҳсулотларига тўла. Ҳолбуки, бу маъмурчилик ва фаровонлик замирида ҳам кейинги йилларда кунт билан олиб борилаётган собитқадам сиёсат ётибди. Бу йўналишда ишлаётган тадбиркорлару фермерларга бериладиган мадад ва имтиёзларни кенгайтириш борасида ўта муҳим ҳукумат қарорлари қабул қилинди. Уларни ҳаётга татбиқ этиш билан шуғулланувчи янги тузилмалар барпо этилди. Бундан ташқари ҳар бир оиланинг боласи гўшт-сут, тухум еб, илиги тўқ ва бақувват бўлиб ўссин, бунинг учун ҳар бир хонадонда ақалли битта сигир, бир неча қўй-эчки, камида беш-ўнта товук, иложи бўлса, ўрдак-ғоз, бедана боқилсин, одамларга бу борада моддий ва амалий ёрдам кўрсатайлик, билмаса ўргатайлик, кўмаклашайлик деган оддий, айна пайтда ниҳоятда муҳим инсоний ташаббус аҳоли кўнглига хуш келди, ундаги яхши ишлаб, яхши яшашга бўлган иштиёқни кескин оширди.

Балиқчилик соҳаси амалда нолдан тикланди, десак муболаға бўлмайди. Орол фожиаси, умуман, диёримиздаги дарёлар суви йиллар сайин камайгани ва энг ёмони, эътиборсизлик ва лоқайдлик

оқибатида халқимизнинг «луқмаи ҳалол» дея эъзозланувчи ушбу бебаҳо неъматга бўлган эҳтиёжи етарлича қондирилмай келинди. Бозору дўконларда унинг хиллари камайиб кетди. Борлари ҳам заҳардан қиммат бўлиб, оддий аҳолининг чўнтаги кўтаролмай қолди.

Мамлакат раҳбарининг ғояси, бевосита ташаббуси билан бу тармоқни тубдан ривожлантиришнинг аниқ ва реал стратегияси ишлаб чиқилди ва зудлик билан ҳаётга татбиқ этила бошлади. Эндиликда юртимизда азалдан боқиб келинган сазан, судак, жерих, лаққаю дўнг пешона каби балиқлардан ташқари анчайин камёб ҳисобланган форел, осётр, кета ва ҳоказо сингари қиммат хиллари етиштирилмоқда, уларнинг шифобахш икралари дастурхонларимизнинг доимий кўрки бўлиб қолаётир.

Бу фикрларнинг исботини кўриш учун марказий шаҳарлардаги улкан супермаркетларни кўя тулинг, энг чекка туману қишлоқлардаги минимаркетларга кирсангиз кифоя.

Қишлоқ хўжалигининг тубдан диверсификация қилинаётгани Президент Шавкат Мирзиёевнинг аграр соҳани нақадар чуқур ўргангани, унинг кечаги куни, бугуни ва истиқболини мукамал билишини очиқ-ойдин кўрсатиб турибди. Албатта, бир ярим аср давомида пахта монокультураси исканжасида бўлган ва асосан, экстенсив, яъни кўп харажат қилиб кам ҳосил ва даромад олиш қисматига кўникиб қолган қишлоқ хўжалигини тамоман янги изга кўчириш, тобора кўпроқ пахта олиш учун шафқатсиз равишда ишлатилган ва бунинг оқибатида ҳолдан тойган, шўрланган ерларни бошқа, иқтисод учун фойдали, экологик нуқтаи назардан безарар, аҳоли эҳтиёжларига мос экинлар етиштиришга, улардан юқори ҳосил олишга эришиш, тармоқни қолоқлик ва боқимандалик гирдобидан олиб чиқиш, етарлича

даромад, арзирли фойда келтирадиган соҳага айлантириш, унга боғланган миллионлаб кишиларни камбағаллик гирдобидан олиб чиқиш осон иш эмас. Айрим мамлакатларда бунга кўп йиллар керак бўлган.

Шуниси қониқиш билан эътироф этилмоқдаки, деҳқончилик борасида минг йиллик анъаналар ва бой тажрибага эга бўлган халқимиз давлатимиз раҳбарлигининг оқилона сиёсати ва бевосита жонкуярлик билан қўллаб-қувватлаши натижасида бу муаммони нисбатан қисқа муддатларда муваффақиятли ҳал этмоқда.

Шунинг натижасида мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигига, аҳолини кенг эҳтиёж мол-маҳсулотлари билан узлуксиз ва етарли даражада таъминлашга эришилди.

Кўпни кўрган кекса киши, олим ва мутахассис сифатида шуни комил ишонч билан айта оламанки, бугун Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги интенсиф тараққиёт йўлига тушмоқда. Яқин йиллар мобайнида у ҳозир муваффақият билан ишлаб чиқарилаётган ноз-неъматларга қўшимча суратда ер юзидаги турфа иқлим шароитларига мослашган хилма-хил маҳсулотларнинг деярли барчасини етарли миқдорда етиштириш, катта ҳажмларда экспорт қилиб, етти иқлим аҳлининг ҳайратли эътирофига сазовор бўлишига шубҳа йўқ. Зеро, серқуёш ўлкамиз табиати ва кейинги йилларда яратилган шарт-шароитлар, орттирилаётган бой тажриба, бунинг учун бемалол имкон беради. Энг муҳими...

Пахтакору ғаллакор деҳқон, боғбону соҳибкор, полизчию чорвадор, паррандабоқару балиқчи, хуллас, ўз умрини, орзу-умидларини қишлоқ хўжалиги билан боғлаган ҳар бир инсон, айниқса ёшлар учун кенг имкониятлардан фойдаланган ҳолда эркин меҳнат қилиш учун барча шарт-шароитлар муҳайё этилмоқда. Дарвоқе, эркинлик ҳақида алоҳида тўхталиб ўтиш

мавриди келди чоғи...

Китобхонимни фақат иқтисодиёт масалалари ҳақидаги узундан-узоқ мулоҳазаларим билан зериктириб юбормаслик мақсадида мана шу, узоқ-яқиндаги кўпчилик учун анчайин жозибали, айна пайтда ҳамиша кўпдан-кўп қизғин мунозараларга сабаб бўлувчи мавзу юзасидан баҳоли қудрат фикр юритишга уриниб кўрмоқчиман. Саҳв кетсам, маъзур кўрарсиз.

«Эркинлик – қанчалар тотли калом бу!» деган Лотин Америкаси санъаткорлари ишлаган кинофильм бўлар эди ўтган асрнинг етмишинчи йилларида. Қизиқиб, суюб томоша қилганмиз. Лекин...

Мазмун-моҳиятини ўша даврлардаги тасаввурларимиз билан англаганмиз. «Ер юзида одам боласи биздагичалик эркин нафас оладиган бошқа мамлакат йўқ» мазмунидаги баландпарвоз қўшиқларни жўровоз бўлиб куйлаб юрганмиз. Озодлик, мустақиллик, инсон эрки деганда, «буюк советлар иттифоқи фуқароси бўлиш»ни англаганмиз. Бахт-саодат мазмуни шунда деб ўйлаганмиз.

Чин эркинлик маъносини бугунги давр аҳли яхши билади. Ушбу умумбашарий бебаҳо қадрият, агар таъбир жоиз бўлса, инсон ҳаётининг жон томирини ташкил этувчи тириклик зарурати эндиликда бутун дунё жамоатчилиги диққат марказидаги энг асосий тушунчалардан, мамлакатлар тараққиёти шарти ва даражасининг мезонларидан бири ҳисобланади.

Бешинчи боб

ЭРКИНЛИК ҚУДРАТИГА ТАЯНИБ

Шубҳасиз, Шавкат Мирзиёевнинг Президент сифатидаги илк ва дадил қадамларидан бири – ҳуқуқий эркинликлар ва айниқса, фикр ва сўз эркинлигини амалда кенг жорий этилгани, десак муболаға бўлмаса керак. Бугина эмас, энг муҳими, ана шу фикр ва сўзни бемалол айтиш ҳуқуқини таъминлаш билан биргаликда уни тинглаш, эшитиш вазияти юзага келтирилди ва бу борадаги энг асосий ташаббускор Президентнинг шахсан ўзи бўлди.

Республика Президентининг Халқ қабулхоналари ташкил этилишини мана шунинг амалдаги кўриниши, жонли исботи сифатида кўрсатиш мумкин.

Албатта, ҳар бир фуқаронинг бу борадаги ҳуқуқлари барча замонлардаги конституциялару қонунлардан тушмай келган. Аммо...

«Россиянинг бахтсизлиги мавжуд қонунларининг номукам-маллигида эмас, уларга амал қилинмаслигидадир» дея ёзғирган экан улуғ рус адиби ва сиёсат арбоби Михаил Евграфович Салтиков-Шчедрин. Дарҳақиқат, қонунлар ҳамиша чиройли, халқ кўнглига таскин берадиган қилиб ёзилади. Уларни ҳаётга татбиқ этиш, сўзсиз бажариш борасида ҳам мафтункор, қулоққа ёқадиган сўзлар кўп айтилади. Аммо...

Бизда ҳам яқин-яқингача фикр, сўз эркинлиги ҳақида кўп ва хўб гапириб келинган. Аммо ўрислар ибораси билан айтганда, халойиқ жим, мудом сукунат ичра яшаган. Бу борада қаттиқ тақиқлар, кескин таъқиблар ўрнатилган эди, десак тўласинча тўғри бўлмайди. Лекин...

У замонларда катта амалдорлар ёппасига эл орасига кириб: «қани, айтинглар, кимнинг нима гапи бор?» дея шаҳару қишлоқ кезиб, уйма-уй кириб юришини, қайсидир вилоят ёки туман ҳокимининг шароити оғир бир маҳаллага бориб, ўша ерга вагон-уй қўйиб, яшаб, муаммоларни жойида, бошида туриб ҳал этиш билан шуғулланишини тушда ҳам кўриш мумкинмасди. Ҳозир ҳам кимларгадир бунақа ишлар арзон популизм бўлиб кўринади. Лекин битта нарса аниқ, шу «популизм» натижасида ақалли битта хонадоннинг шикаст-рехти тузатилсаю оиланинг мушкули осонлашса, биттагина маҳалланинг йўли асфальтланса, шундай восита ҳам мақсадни оқлайди. Яъни бошда кимларгадир қуруқ ваъда бўлиб кўринган нарса амалий натижага айланар экан, бу энди популизм эмас, сўз ва иш бирлиги деган ҳаққоний баҳони олиши шарт. Аслида...

Ваъда ва амал, сўз ва иш бирлигига путур етишининг энг асосий сабабларидан бири ҳам айнан халқ дардини билмаслик, ҳис этмаслик, аниқроғи, буни унинг ўзидан эшитмасликдир. Модомики, халқ ўз ёғига ўзи қоврилиб, амалдор бюрократия эса ўз ўлчамлари ичида яшар экан, ўртадаги самимият йўқолиб, норози сукунат ва жимлик кучайиб, жарлик тобора кенгайиб боради. Албатта...

Бизнинг доно ва сабр-бардошли халқимиз инобатга олинмайдиган фикр, эшитилмайдиган сўзни айтиш бефойдалигини билгани учун ҳам узоқ йиллар давомида сукут сақлаб келди. Бунинг ўрнига тирикчиликни, бола-чақасини боқишни ўйлади.

«Ўзбек халқ мақоллари» китобини варақласангиз, донишманд ва ижодкор элимизнинг жуда кўплаб ажойиб кашфиётларига дуч келасиз.

«Аввал ўйла, кейин сўйла», «Етти ўлчаб, бир кес», «Йиғлаб борсам, ҳўнграб чиқди», «Онангни қози сўкса, дардингни кимга айтасан», «Гапни гапир уққанга, жонни жонга суққанга», «Мен нима дейман-у қўбизим нима дейди», «Қизим, сенга айтаман, келиним, сен эшит», «Сабр таги – сариқ олтин», «Гап келганда отангни аяма», «Ўйнаб гапирсанг ҳам ўйлаб гапир» ва ҳоказо.

Асрлар давомида шаклланиб, сайқалланиб келган бу ҳикматли иборалар айни ҳаётнинг ўзидан олинган ва уларнинг замирида эс-ҳушли инсон муайян вазиятда қандай йўл тутиши лозимлиги аниқ-тиниқ қилиб белгилаб қўйилган.

Мамлакатимизнинг барча вилоятлари, туманларида Президент Халқ қабулхоналари очилиши ва уларда одамларнинг арзу шикоятлари бажонидил тингланиб, ростакамига ҳал этила бошлаши, менинг назаримда халқимиз ҳаётида юз берган туб ўзгаришлардан биридир. Бу мен юқорида тилга олган жарлик устига шунчаки кўприк солди эмас, шу ўпирилиш ўрнини тўлдириш, бўшлиқни йўқотиш йўлидаги энг тўғри ва халқчил тадбир бўлди. Одамлар ҳукумат уларнинг дарди билан чинакамига қизиқадиган, сўзини эшитадиган замон келганига ишонч ҳосил қила бошладилар. Аламли сукутга барҳам бериб, ўз кўнгилларини очишга, юракларидаги сўзларини айтишга жазм этдилар.

Шу маънода менинг фикримча, Президент Халқ қабулхоналари – мамлакатимизда сўз эркинлиги қарор топа бошлашининг энг муҳим шартларидан, таянч нуқталаридан бири бўлди. Бунинг ҳосиласи ўлароқ, оммавий ахборот воситалари жонлана, дадиллаша

бошлади. Айниқса интернет тармоқлари пешқадамликни қўлга киритди.

Бугунги кунда Ўзбекистонда оммавий ахборот воситалари рост гапларни айтаётгани, ҳар қанча аччиқ бўлмасин, ҳақиқатни кўрсатишга интилаётгани, камчилик ва нуқсонларни очиқ танқид қилаётгани бор гап. Эндиликда бу борада тақиқланган мавзулар деярли йўқ.

Жамиятнинг зиёли қисми, ижодкорлар, олимлар, ўқитувчилару шифокорлар, қўйингки, жамиятнинг барча қатлам ва тоифаларига мансуб кишилар, турли касблар эгалари ўз соҳаларидаги муаммолар ҳақида ошкора мулоҳаза юритиш, ҳаттоки Президент билан бевосита мулоқотлар чоғида бу ҳақда унга шахсан айтиш, шахсан ёрдам ёки маслаҳат сўраш имконига эга бўлдилар. «Зангори экран» орқали бундай мулоқотларни кўрган аҳоли ҳаётимиздаги ўзгаришлар муқаррар эканига амин бўлмоқда.

Ушбу бобга қисқача хулоса қилиб айтадиган бўлсак, шу нарса ойнадай равшан бўлиб турибдики, Шавкат Миромонович Мирзиёев Президентлиги даврида Ўзбекистонга тамоман янгича фасл – иқтисодий-сиёсий, ижтимоий-маънавий, илмий-маърифий иқлим кириб келди. Элу халқимиз ана шу эрувгарчилик иқлимининг илиқ ва тиниқ эпкинларидан эркин нафас ола бошлади. Том маънодаги эркин фикрлаш, эркин сўзлаш муҳити юзага келди. Одамлар уйда бир гап-у кўчада бошқа гапни гапирмасдан дарду ҳасратини, муаммоларини очиқ-ошкора айта бошлади. Чунки буни тинглайдиганлар топилди. Халқ билан нафақат Президент қабулхоналари ёки мажлис-машваратларда, балким бевосита маҳалласига, уйига бориб, учрашиб, суҳбатлашиб, арзини эшитиб, муаммосини жойида, вақтида ҳал этиш йўлга қўйилди. Маҳаллабай, хонадонбай ишлаш тизимлари вужудга

келди. Бу кимларгадир, қанақадир майда ишлар бўлиб кўриниши мумкин. Лекин улуғ мутафаккир алломамиз ҳазрати Алишер Навоий ёзганлар-ки, осмонда қуёш бўлиб порлагандан кўра, бир камбағалнинг ўчоғидаги қумғонини қайнатгувчи чўғ бўлган афзалдир. Бошқача айтганда, энг улкан ва мушкул муаммолар ечими халқнинг энг оддий ташвишларини енгиллаштириш, муаммоларини ҳал қилишдан бошланади.

Худди шу маънода мамлакатимиз аҳолиси учун энг долзарб ҳисобланадиган, лекин йиллар давомида яширишга уриниб келинган камбағаллик муаммоси ҳақида очиқча айтилиб, мунозара юритилиб, унга қарши кескин кураш бошланганини чин маънода инқилобий ҳодиса, дейиш мумкин. Айнан шу муаммодан келиб чиқувчи яна бир вазифа – аҳолини уй-жой билан таъминлаш масаласи давлат сиёсатининг олдинги ўринларига қўйилгани, қисқа муддат ичида бепоён юртимиз улкан қурилиш майдонига айлантирилиб, узоқ йиллар бошпанасизлик уқубатини бошдан кечирган минглаб, ўн, юз минглаб оилалар Ватан ичра ўзининг мўъжаз ватанига эга бўлганликлари айни ҳақиқат.

Қишлоқ хўжалиги равнақи, пахта яккаҳокимлигининг буткул тугатилиши, чигит экишдан бошлаб, ғўза парвариши, йиғим-терим, толани ажратиш, калава йиғириш, мато тўқиш ва ниҳоят уни тайёр маҳсулотга айлантиришдек узлуксиз силсила яхлит шу ерда, ўзимизда, ишлаб чиқаришнинг янгича услуби – кластер тизими томонидан бажарилиши, кўп замонлар давомида деҳқоннинг косасини оқартирмаган пахта толасини хом ашё тарзида сотиш тажрибасига узил-кесил барҳам берилгани бағоят улуғ иш бўлди. Бу ҳақда юқорида тўхталган эдим. Бироқ мавриди келгани учун яна бир бора эслатиб, таъкидлаб ўтишни истайман. Зеро, шу асосда қишлоқ аҳолисининг турмуш шароитларини тубдан яхшилаш вазифаси кун тартибининг бошига қўйилди ва дадил саъй-ҳаракатлар тезда ўз самарасини кўрсатди.

Олтинчи боб

«БИР СЎЗ ДЕГИЛКИ,
РОСТ БЎЛСИН...»

Демократ шоиримиз Муҳаммад Амин Муқимийнинг шундай ўтли сатрлари бор:

*«Муқимий Муҳйига бир сўз дегилки, рост бўлсин,
Келар албат сени ҳам йўқлагудек бир замон яхши...»*

Ушбу байтни келтиришим ва, умуман, мазкур бобни ёзишдан ягона мақсадим – қўлингиздаги китобнинг мазмун-моҳияти, унинг қаҳрамони фаолияти ҳақида билдирилаётган фикрлар холис ва самимий эканлигини яна бир карра таъкидлаш ва шунинг баробарида айрим мулоҳазаларни билдириб ўтишдан иборат.

Табиийки, нафақат ижодкор журналистлар, балки ҳар бир зиёли, қолаверса, мамлакатнинг ҳар бир фуқароси учун давлатнинг амалдаги раҳбари фаолияти, айниқса, унинг ғоялари асосида, бевосита раҳбарлиги ва шахсан иштирокида амалга оширилаётган ижобий ишлар ҳақида сўзлашнинг ғоят мураккаб жиҳати бор. Яъни холислик мезону меъёрларидан заррача четга чиқиш мумкин эмас. Акс ҳолда, бу қандайдир тама яширинган маддоҳлик, хушомадгўйликка ўхшаб қолиши мумкин. Бунинг устига, муҳтарам

Президентимизнинг ўзи қуруқ мақтовларга қарши эканини, кўпроқ мавжуд муаммолар, камчилик ва нуқсонлар ҳақида гапириш ва ёзиш зарурлигини кўп бор такрорламоқда. Қарсакбозлик, ҳамду сано, мадҳиябозлик яхшиликка олиб бормаслигини алоҳида таъкидлаётир. Депутатларга, журналистларга, блогерларга қайта-қайта уқтирмоқдаки, ҳақиқатни айтишдан, мавжуд камчилик ва нуқсонлар ҳақида танқидий чиқишлар қилишдан қўрқмаслик керак. Шу билан бир қаторда барча бўғинлардаги мансабдорлардан танқидий чиқишларга нисбатан тоқат билан муносабатда бўлиш ва кўрсатилган ҳаққоний камчиликларни тузатиш юзасидан ўз вақтида самарали чоралар кўришни қатъий талаб этмоқда. Бу борада ҳам ўзи намуна кўрсатмоқда. Ҳукумат, ҳатто мамлакат олий раҳбарияти фаолияти ҳақидаги холис ва конструктив танқидий мулоҳазалар инобатга олинмоқда. Ҳеч қандай таъқиб ва тақиқларга йўл қўйилмаётир.

Албатта, танқид қилиш осон. Бунга етарлича асослар бўлса, қонун доирасида конструктив фикр-мулоҳаза юритилса, марҳамат, сўз эркинлиги мустаҳкам қарор топаётган ҳуқуқий демократик жамиятда танқиддан холи ҳудуд ҳам, шахс ҳам бўлиши мумкин эмас. Танқид – келажак меваси, деган ибора бежиз пайдо бўлмаган. Нафсиламрини айтганда, мамлакатимиз Президентининг бу борада тутаётган собитқадам сиёсати, матбуот ва сўз эркинлиги қатъият билан кенгайтирилаётгани шу соҳадаги халқаро ташкилотлар, қолаверса, бутун дунёдаги демократик жамоатчилик томонидан ҳам тан олинмоқда, ошкора эътироф этилмоқда.

Шу билан бир қаторда, доно халқимизнинг азалий русмлари, анъаналари ва тамойилларига кўра, буюк мутафаккир алломаларимизнинг мумтоз асарларида ёрқин акс этгани каби воқеликка, шахс ва унинг тарихдаги ўрнига, айниқса, улкан давлат

арбоблари фаолиятига беғараз нигоҳ билан қараш, яхшини яхши, ёмонни ёмон демоқ, ютуқлару камчиликларни холис баҳоламоқ ҳам фарздир. Шу муносабат билан ҳазрати Алишер Навоийнинг буюк шоҳ ва беназир аллома Мирзо Улуғбек ҳақидаги қуйидаги маснавийсини келтириб ўтиш жоиз кўринади:

*«Темурхон наслдан султон Улуғбек,
Ки олам кўрмади султон анингдек».
Унинг абнои жинси бўлди барбод,
Ки давр аҳли биридин айламас ёд.
Вале ул илм сори топди чун даст,
Кўзи олдида бўлди осмон паст.
Расадким боғламиш зеби жаҳондир,
Жаҳон ичра яна бир осмондир.
Тузиб бу наъв илми осмони,
Ки андин тузди «Зижи Кўрағони».
Қиёматга дегунча аҳли айём,
Ёзарлар анинг аҳкомидин аҳком...»*

Яъни бу сатрларда Самарқанд салтанати ҳукмдори ва айни пайтда жаҳон астрономия фани асосчиларидан бири, Шарқ илми нужуми асосчиси Мирзо Улуғбекнинг ҳукмдорлик фаолияти: «ки олам кўрмади султон анингдек», дея олий даражада баҳоланади. Шу билан биргаликда, ҳақиқат талабидан келиб чиққан ҳолда унинг инсон сифатидаги фожиали қисмати очиқ кўрсатилади. «Унинг абнои жинси бўлди барбод, ки давр аҳли биридан айламас ёд» дея аччиқ ҳақиқат айтилади. Бироқ ҳукмдорлик салтанати нечоғлик муваффақиятсиз якунланганига қарамасдан, у илму фан, бунёдкорлик, эл фаровонлиги борасида амалга оширган оламшумул ишлар миннатдор авлодлар хотирасида

мангу қолгани бағоят холислик билан ифодалаб берилган. Айнан эзгулик йўлидаги, илму фан бобидаги ишлари тўфайли ҳам «ки олам кўрмади султон анингдек», деган энг олий баҳо берилмоқда. Бу шоҳона байтлардан келиб чиқадиган маъно, фикримизча, ҳар қандай салтанату давлат раҳбари абадиятининг, тарихи имтиҳонидан оладиган баҳоси юксак бўлишининг шарту кафолати у амалга оширган оламшумул бунёдкорликлару эзгу ишлардир ва булар ҳақида асрлар оша муқаррар равишда миннатдорлик, фахру ғурур билан эсланажак.

Зеро, беш юз йилдан кейин ажойиб шоиримиз Муҳаммад Юсуфнинг мана бу мисралари майдонга келиши ҳам бу азалий ва абадий ҳақиқатнинг тарих кўзгусидаги мунаввар инъикосидир:

*«Самарқандга борсам мен агар,
Улуғбекни кўриб қайтаман...»*

Китобхон билан ғойибона мулоқотимни ана шу тарихий-фалсафий жиҳатларни эътиборга олган ҳолда давом эттирсам, мақсадга мувофиқ бўлар, деб ўйлайман. Яъни ҳамонки, мен амалдаги давлат раҳбарини ёшлик йиллариданоқ яқиндан билган, унинг порлоқ истиқболга ишонган, бу йўлда имкон қадар қўллаб-қувватлаган эканман, у кишининг бугунги фаолияти ҳақида ҳам устозга хос холису талабчанлик билан фикр билдиришим шарт.

Чунки бошқача бўлиши мумкин ҳам эмас. Устозлардаги соғлом фикр, менинг назаримда, шогирдларнинг мавқе-мартабаси даражасига қараб ўзгариши, яъни кечаги талабчанлик бугун маҳлиёликка, ҳайбаракаллачиликка айланиши фазилат эмас, хавфли иллат. Унақа кимсалар устоз деган шарафли унвонга номуносиб. Ҳамиша, ҳар қандай шароитда ўзининг ҳақ сўзига эга, виждонию иймон-эътиқодига содиқ устозгина нафақат

шогирдлари, балки бутун жамоатчилик, элу халқ томонидан эъзозланади. Буюк бобомиз соҳибқирон Амир Темур онҳазратнинг ўз устози комили ва меҳрибон мураббийси Мирсаид Барака жанобларига нисбатан умрбоқий эҳтироми бунга ёрқин мисолдир. Сабаби, ул устоз дунёнинг ярмини забт этган, соҳибқирон деган олий рутбага эга ҳукмдорлар ҳукмдорига ҳам ҳамиша тўғри сўзни айтганлар.

Шу маънода фикр юритадиган бўлсам, мамлакатимизнинг бугунги раҳбари қишлоқда, оддий меҳнаткаш зиёли оиласида туғилиб ўсган, яхши тарбия кўрган, қунт билан билим олиш, ўқиш-ўрганиш йўлини танлаган, илму фан замиридан етишиб чиққан, сиёсатга ўз билим ва тафаккури, ҳалол меҳнати, адолатли ижтимоий фаоллиги орқали кириб келган, раҳбарликнинг қуйидан юқоригача бўлган барча бўғинларида ўзини ҳар тарафлама кўрсата олган, замонлар синовидида чиниққан баркамол, тажрибали давлат арбобидир. Шунинг учун унинг фаолиятига баҳо бермоқчи бўлган ҳар бир инсон ана шуни ҳисобга олган ҳолда, ақл-идрок билан ҳаққонийлик ва адолат нуқтаи назаридан мушоҳада қилиши лозим, албатта.

Мамлакатимиз демократия тамойиллари устувор бўлган эркин ва фаровон жамият қуриш йўлидан бормоқда. Ленинизм-сталинизм даврларидаги сингари раҳбарларга кўр-кўрона сиғиниш аҳолида қуллик кайфиятини, иккиюзламачилик ва сохта мадҳиябозликни шакллантириши, муте ва боқиманда қилиб қўйишини, бу эса халқдаги ижодий ташаббускорлик хусусиятини сўндириши, азму иродасини синдириши мумкинлигини тарих, ҳаттоки яқин ўтмишимиз яққол кўрсатди. Бугунги давр кишилари ўз йўлбошчиларига қўрққанлари, унга тобе ва муте бўлганликлари учун эмас, халқпарварлиги боис чин юракдан меҳр қўйганлари

туфайлигина ҳурмат кўрсатишлари, эъзозлашлари ва улуғлашлари мумкин. Заковатли ва фасоҳатли халқларнинг ўз замони қаҳрамонларини, етук йўлбошчиларини ўзи белгилаб олишга қурби етади. Шунинг учун юксак технологиялар эраси бошланаётган йигирма биринчи асрда «қўлбола доҳийлар» яратишнинг зарурати ҳам, ҳожати ҳам йўқ. Айни пайтда, мен тобора кенгайиб бораётган демократик ислоҳотлар, матбуот ва сўз эркинлигини суиистеъмол қилишга, минг машаққату метин ирода билан амалга оширилаётган эзгу ишлардан кўр-кўрона кўз юмиб, фақат қораловчилик ва танқидбозликка, илмий тил билан айтганда, нигилизмга берилишга ҳам кескин қаршиман. «Айтар сўзни айт, айтмас сўздан қайт», «Ўйнаб гапирсанг ҳам ўйлаб гапир» дейди доно халқимиз.

Юқорида таъкидлаганимдек, яхшилик, эл-юрт равнақи йўлидаги оламшумул ишлар ўзининг холис ва ҳаққоний баҳосини олиши, бу ҳақда кенг халқ оммасига очиқ-ошкора айтилиши шарт ва зарур, деб ўйлайман. Чунки бу эътироф ана шу йўлда камарбаста бўлган Президентни ҳам каттаю кичик раҳбарлардан тортиб, оддий меҳнаткашгача, яхлит қилиб айтганда, буюк ўзгаришлар сари бел боғлаган бутун халқимизни руҳлантиради, янада илҳом, ғайратшижоат билан ишлашга ундайди ва ўз иштиёқу интилишларининг тўғрилигига ишонтиради.

Юқорида муфассал сўзлаб берилган мисолга яна бир марта қайтадиган бўлсам, мен Шавкат Миромоновичнинг ёшлиқдаги хислатлари ҳақида бугун унинг ҳозирги мартабасидан келиб чиқиб, қўшиб-чатиб айтаётганим йўқ. Айнан худди шу фикрлар у ҳали эндигина 25 ёшга кирган, шунга қарамасдан улкан бир институтнинг 15 минг нафардан зиёд ёшлари етакчиси бўлиб ишлаб юрган чоғларда – олий даргоҳимизнинг ярим асрлик тўйига

бағишлаб 1984 йилда, яъни бундан қарийб 50 йил олдин чоп этилган «Меҳнат қизил байроқ орденли Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш институти» номли салмоқли китобда кўп сонли муаллифлар жамоаси томонидан холисона эътироф этилган. У пайтларда бу йигит вақти келиб улкан давлат арбобига айланажагини ҳеч ким билмаган албатта. Лекин бор гап айтилган. Шуниси аниқ ҳақиқатки, ундаги ўша пайтлардаги ақл-заковат, ҳайратомуз даражадаги битмас-туганмас ғайрат-шижоат, бетакрор инсоний хусусиятлар бу йигитдан келажакда ва ёрқин сиймоли улкан Шахс етишиб чиқиши муқаррар эканини кўрсатиб турарди. Бу мисолда яна бир шарқона ҳақиқат – ҳеч бир инсон шу даражадаги юксак мартабага тасодифан келиб қолиши мумкин эмаслиги, доно халқимиз ибораси билан ифодаласак, бунинг учун унга аввалбошдан Аллоҳ назари тушган бўлиши лозимлиги равшан кўринади. Албатта, бу мунаввар тақдир реал рўёбга чиқиши учун беназир ақл-заковат, беқийс меҳнатсеварлик, ўз Ватани ва она халқига чексиз муҳаббат ва мислсиз фидойилик талаб этилади. Яна бир бор такрорлайман, худди ана шу хислатларни мен эндигина йигирма ёш остонасига қадам қўйган Шавкат Мирзиёев сиймосида аниқ кўрган эдим. Уни учратишим, номзодига тўхталишим ҳам албатта, Яратганнинг иродаси эди. Омадни Худо беради. Бандаси сабабчи бўлади, холос. Демокчиманки, ўша интилувчан, тиниб-тинчимас йигитда ҳам илмий салоҳият ҳамда бошқарувчилик иқтидори мужассам эди. Мабодо сиёсат саҳнасига кирмасдан фан йўлидан кетган тақдирида ҳам муқаррар катта олим, профессор, академик бўлиши тайин эди. Бу ҳақда ҳам ўша пайтлари у билан кўп суҳбатлашганмиз. Унинг бу борадаги

мақсади аниқ ва юксак, марраси жуда баланд, яъни мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги ривожини, қолаверса, бутун халқимиз истиқболига алоқадор режалар билан чамбарчас боғлиқ эди.

Бинобарин, ўшанда унинг ёшлар етакчилиги лавозимини кўнгилдагидек уддалаш билан бирга илмий ишга бўлган қизиқишини ҳам асло сусайтирмасдан долзарб мавзуда тадқиқот олиб боргани, номзодлик диссертациясини ўз вақтида муваффақиятли ҳимоя қилгани, дарҳол докторлик диссертациясини устида иш бошлагани бежиз эмасди. Шу билан биргаликда ундаги битмас-туганмас шижоат, кенг миқёсли фикрлаш хусусияти фақат бир йўналиш билан кифояланмасдан мудом олға интилишга илҳомлантирарди уни. Демак илмни ва жамоат ишларидаги фаолиятини уйғун ва муштарак олиб боргани, шунинг натижаси ўлароқ кейинроқ институт партия кўмитаси котиби, проректор, биринчи проректор, ректор вазифасини бажарувчи вазифаларига лойиқ кўрилгани, бу лавозимларда ҳам билдирилган ишончли шараф билан уддалаб, улкан жамоада катта обрў-эътибор қозонгани ана шу шижоатнинг амалдаги ифодаси, ҳосиласи, деб ўйлайман. Бу эса ҳаёт қонунларига кўра унга катта сиёсат майдони эшиklarини очди. Нафсиларини айтганда, сиёсат билан шуғулланиш, халқу миллат, мамлакату давлат тақдирини масъуллик ҳам унинг номаи аъмоли, қисмати, Аллоҳ томонидан белгиланган сарбаланд толейдир. Бас, шундай экан, саксонинчи йиллар охири, тўқсонинчи йиллар бошидаги илк демократик сайловларда муваффақиятли қатнашиб, биринчи чақириқ республика Олий Кенгаши депутатлигига сайлангани, парламентнинг илк мажлисидаёқ ундаги масъулиятли комиссиялардан бирига етакчиликка танлангани, шу тариқа сиёсат майдонида ҳам ўз заковат ва фасоҳати, мустаҳкам иродаси, қатъиятини кўрсатиб, пойтахтдаги

етакчи туман, икки вилоят ҳокимликларини, мамлакат ҳукуматини бошқаргани ва ниҳоят олий мартаба – Президентликка муносиб кўрилгани тасодиф эмас, деб ҳисоблайман.

Илм ва ишлаб чиқаришни, қолаверса, элу юрт ҳаётини ичкаридан, энг қуйи қатламлардан бошлаб чуқур ўрганган, уни ўзгартириш, ривожлантиришнинг энг мақбул йўлларини яққол тасаввур эта оладиган бундай зиёли ва заҳматкаш инсон, улкан шахснинг ҳокимият тепасига келиши – халқимизнинг бахти, юртимизнинг саодати дейишга тўла ҳаққу асосимиз бор. Айни пайтда давлат раҳбарининг фаолияти нақадар муваффақиятли кечиши унинг ўзи севган ва чексиз содиқ бўлган она халқига қанчалик яқин бўлиши, уни қанчалик кенг ва чуқур тушуниши, унга қанчалик таянишига муқаррар ва чамбарчас боғлиқдир. Комил ишонч билан айтишим мумкин: бу ҳақиқат муҳтарам Президентимиз қалбидан чуқур жой олган. Шунинг учун ҳам у ўзи мамлакат аҳли олдига жуда юқори марраларни қўймоқда. Доно ва фидойи халқимиз бу юксак марраларни эгаллашга қодир эканлигига қатъий ишонмоқда. Унинг Президентлик рутбасига келганидан кейинги илк шиорларидан бири ҳам буюк келажакни мард ва фидойи халқ билан бирга қураимиз, деган улуғ ният, олий мақсадни ифодалагани тасодиф эмас. Бу жанговар шиор унинг қалбида йиллар давомида шаклланиб, сайқалланиб келган.

«Ҳар бир инсон ўз табиати билан шундай тузилганки, у яшаши ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга муҳтож бўлади, у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди ва уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёж туғилади» дейди Форобий.

Бас шундай экан, давлатимиз раҳбарининг Янги Ўзбекистон аҳли олдига бу қадар юксак марраларни қўяётгани, хусусан,

жамият ҳаётида Учинчи Ренессанс, яъни янги Уйғониш даврини бошлашга азму шижоат этаётгани бежиз эмас.

Учинчи ренессанс пойдеворини қуриш борасидаги эзгу мақсад ва бу йўлда қилинаётган улуғвор ишлар ҳақида ўйлар эканман, биринчи галда Ўзбекистон давлатининг илмий салоҳиятини тубдан қайта қуриш, уни буюк аждодларимиз эришган жаҳоншумул юксаклик даражасига кўтариш бобида кўрилаётган чора-тадбирлар кўз олдимга келади.

Буларнинг энг асосийларидан бири, шубҳасиз, республика Фанлар Академияси фаолиятининг қайта жонлантирилишидир.

Илм-фанга, таълим-тарбияга бўлган муносабатнинг тубдан ўзгаргани ҳақида алоҳида, соатлаб, аниқ-равшан мисоллар билан сўзлаш мумкин. Ўзбекистон Фанлар Академиясининг бамисоли қайта туғилганини эътироф этмаслик мумкинми? Бунинг натижасида олимларимиз зўр кўтаринкилик, ғайрат-шижоат, жўшқин илҳом билан ишламоқдалар. Ўзбекистон эндиликда илмий салоҳияти жиҳатидан жаҳондаги энг пешқадам давлатлар қаторига чиқмоқда, дея бемалол айтиш мумкин. Бир замонлар бизнинг юрт фарзандларига дунёнинг энг нуфузли олий таълим даргоҳлари – Кембриж, Оксфорд, Сорбонна университетларида ўқиш ушалмас орзу ҳисобланган бўлса, эндиликда бу оддий воқеликка айланди. Ўзбек йигит-қизлари шу ерда, ўз уйида туриб бундай илмгоҳларнинг мураккаб имтиҳонларини муваффақиятли топшироқда. Бир йўла бир неча дорилфунун ва институтлар талабасига айланмоқда. Бундан ташқари мамлакатимиз пойтахтида, қолаверса, бошқа етакчи шаҳарларимизда жаҳондаги энг йирик илм-фан масканларининг филиаллари ишлаб турибди. Ўзимизнинг олий таълим даргоҳларимизнинг бугунги даражаси ҳам жаҳон билан бемалол беллаша олади.

Ахир бошқача бўлиши мумкин ҳам эмас. Биз кимларнинг авлодларимиз? Шарқ маънавий тараққиётининг «Олтин асри»ни яратган Беруний, Имом Бухорий, Хоразмий, Фарғоний, Форобий, Абу Али Ибн Сино, Мирзо Улуғбекларни улғайтирган бу азиз эл ва табаррук юрт ер юзида ўзининг муносиб ўрнига эга бўлиши лозим. Шу ўринда такрор бўлса ҳам яна бир карра таъкидламоқчиман: Мамлакатимиз Президентининг Учинчи ренессанс тамал тошини қўйишга жазму журъат этаётгани бежиз эмас. Бунга ҳамма асослар бор. Халқимиз ҳам тарихан, ҳам бугунги кунлар шиддатига таянган ҳолда бунга тўла ҳақли ва муносибдир.

Кейинги йилларда халқ хўжалигининг бошқа кўплаб соҳаларида, маданияту маънавиятда, адабиёт ва санъатда, спортда сезиларли ютуқларга эришилди. Яқиндагина ўз якунига етган Токио олимпиадаси Ўзбекистоннинг Марказий Осиёда чин маънода илғор ва пешқадам эканлигини бутун дунёга яққол намойиш қилди.

Хуллас, ҳаётимизнинг барча жабҳаларида жонланиш, ўсиш-ўзгариш яққол кўзга ташланмоқда. Буни эътироф этмаслик, тан олмаслик ҳақиқатдан кўз юмиш бўлади. Ташқи сиёсат ҳақида гапириб ўтирмайман. Янги Ўзбекистоннинг халқаро миқёсдаги нуфузи бугун қанчалик ортиб бораётганини халқимиз ҳам, жаҳон афкор оммаси ҳам яққол кўриб турибди.

Буларнинг ҳаммаси республика бошқаруви ишончли қўлларда эканини, халқимиз ўз йўлбошчисига нақадар меҳру садоқат, иззат-ҳурмат билан қараётганини, уни чин юракдан қўллаб-қувватлаётганининг исботидир. Албатта булар ҳақида кўп ва хўп гапириш мумкин. Лекин шу ерда Президентга хос яна бир бетакрор ва муҳим хусусиятни яна бир карра эслатишни ва алоҳида таъкидлашни истардим. Бу – унинг камтарлиги, эришилаётган

натижалар билан асло қоникмаслиги, муваффақиятларга маҳлиё бўлмаслиги, мавжуд аҳволни ҳаққоний, ишларни мунтазам танқидий баҳолашга, ўзи ва командаси олдига мудом бири-бирдан мураккаб вазифалар қўйишга, маррани баланд олишга ҳаракат қилиши, ўзи ҳам тиниб-тинчимаслиги ва бошқаларни ҳам бир дақиқа тинчитмаслигидир. Бундай хислат олий раҳбарлардан камдан-камига насиб этади.

Худди шу ўринда Ўзбекистон аҳлини, айниқса, қишлоқлар аҳолиси халқини узоқ йиллар қийнаб келган ўта ўткир бир муаммонинг нақадар ҳозиржавоблик ва тезкорлик билан оқилона ҳал этилаётганига тўхталиб ўтгим келди. Гап электр таъминотидаги танқислик ва узилишлар ҳақида.

Шавкат Мирзиёевнинг азму иродаси билан бу муаммо нисбатан қисқа муддатда муваффақиятли ҳал қилинмоқда. Шуниси қувонарлики, эскича услубда, яъни экстенсив асосда эмас. Тамоман янгича, фан-техника ютуқларига таянган ва улардан унумли фойдаланган, хорижий шериклар инвестицияларини фаол жалб этган ҳолда. Навоий ва Самарқанд вилоятларида супер замонавий қуёш электр станциялари барпо этилгани, Қашқадарё ва яна бир неча вилоятларда бу хайрли юмуш давом эттирилиши аниқ вазифа қилиб қўйилгани, ундан ташқари қулай ҳудудларда шамол электр станциялари бунёд қилиш устида иш олиб борилаётгани шунингдек, катта-кичик дарёларимизнинг барчасида сон-саноксиз мўъжаз гидроэлектр станциялари қад ростлаётгани бу фикрнинг тасдиғи бўла олади. Бу ҳали ҳаммаси эмас. Республикамиз ҳудудида супер замонавий, технологик жиҳатдан мукамал ва атроф-муҳит учун хавфсиз қудратли атом электр станцияси барпо этиш борасида изланишлар олиб борилмоқда.

Бу ишларнинг барчаси элу халқимиз билан бамаслаҳат, унинг истак-орзулари, фикр-мулоҳазалари инобатга олинган ҳолда, етти ўлчаб-бир кесиб амалга оширилаётгани ҳам адолатли ҳақиқатдир. Президент Мирзиёев умуммиллий, умумдавлат аҳамиятига эга янгича улугвор вазифалар ҳақида гапирар экан, ҳамиша уларнинг ижроси аҳолимиз фикри инобатга олинишини айтиб, шунга қатъий амал қилиб келмоқда. Ана шундай ўта муҳим масалаларга оид фармон-қарорлар лойиҳалари умумхалқ муҳокамасига чиқарилмоқда, билдирилган фикр-мулоҳазалар эса албатта ҳисобга олинмоқда.

Гоҳ-гоҳ ўйлаб қоламан. Бундай тиниб-тинчимаслик, йиллаб дам олмасдан ишлаш, улкан мамлакатнинг у бурчидан бу бурчига қадар қадам-бақадам кезиш, эришилган натижалар билан қониқиб хотиржамликка берилиб қолмаслик сабаблари нимада? Бундай шижоатнинг манбаси, илдизлари қаерда?

Жавобим шундайки, бунинг энг биринчи сабаби, мамлакатнинг бугунги раҳбари мамлакатдаги узоқ йиллар давомида юзага келган аянчли ҳолатни ич-ичидан чуқур билгани, йиллар давомида йўл қўйилган камчиликларнинг оғриқ азобларини юрак-юрагидан ўтказгани, ана шу нуқсонлар учун ўзини ҳам масъул, деб билгани ва энг муҳими, бу ҳақдаги ҳақиқатни халқнинг кўзига тик қараб мардонаворлик билан ошкора гапира олгани, ана шу аҳволни тузатишга фидокорона бел боғлаб, оммани ўз жаҳду шиддатига инонтира олгани, ишонтира олгани ортидан эргаштира олганидир. Бинобарин, у шиддатли вақтнинг ҳар бир куни, соатидан оқилона, унумли фойдаланишни, йиллар давомида бой берилган имкониятларни мумкин қадар тезроқ юзага чиқаришни, кўзланган марраларга тезроқ етиб боришни истайди. Мени севинтирадиган ўта муҳим бир жиҳат бор: халқимиз ўз Президентига фақат

саройда ўтириб фармони олий имзолайдиган ҳукмдор ёки ҳув баландда – қандайдир қўл етмас жойдаги олиймақом амалдор деб эмас, истаган пайтда ҳар қандай хонадонга кириб келиши, пойгакка туфлисини ечиб, оддий бир деҳқон ёхуд ишчи, қурувчи ёки ўқитувчи оиласи билан бир дастурхон атрофида, бир пиёла чой устида юракдан мулоқот қилиб, турмушнинг турфа ташвишларини енгилда беминнат амалий ёрдам кўрсатиши мумкин бўлган яқин одами, жигарбандидек қарамоқда. Унга тўғридан-тўғри дадил муурожаат этмоқда. Чунки шу муурожаат изсиз кетмаслигига, эътиборсиз қолмаслигига ишончи комил бўлмоқда. Бундай толе ҳар қандай давлат бошлиғига ҳам насиб этавермайди. Бунинг учун муҳтарам Президентимизнинг ўз таъбири билан айтганда, одам ўз халқини юракдан севиши, кечаю кундуз унинг ташвиши билан яшаши, унга дармон бўлиши, муаммоларини ечиш йўлида ўзини муттасил қийнаши керак. Ҳеч иккиланмасдан, комил ишонч билан айтаманки, давлатимиз раҳбари Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг характерида худди шундай хислат-фазилатлар ўз тажассумини топган. Ўйлайманки, бу характер, бундай азму ирода унинг насли пок, етти аждоди ҳалол меҳнатдан обрў топган серғайрат сулолага мансублиги, ўзи ҳам болалик, ўсмирлик ва айниқса, ёшлиқдан заҳматларда, изланишлару машаққатларда, мураккаб синовларда чиниқиши натижасидир.

Ҳамонки, шиддат-шижоат, тинимсиз меҳнат, эришилган натижалар билан қониқмасдан мудом олға интилиш ҳақида гап кетди, шу муносабат билан фикрларимнинг хулосаси сифатида битта истакми, тилакми, талабми, қандай аташ сизларга ҳавола, билдирмоқчиман: мамлакатимиз Президенти Шавкат Миромоновичга ёвқур ёшлик йилларидан буён хос, айни кунларда ҳам ёрқин намоён бўлаётган нодир хислат – битмас-туганмас куч-

ғайрат, шиддату шижоат, илмийроқ қилиб айтсам, сўнмас энергия уни ҳеч қачон тарк этмасин!

Бундай шижоаткорлик эса мамлакатимизда яшовчи ҳар бир инсон, айниқса ёшлар учун Ватан тараққиёти, халқу миллат истиқболи, бахту иқболи йўлидаги фидокорликнинг олий намунаси бўла олади.

Яна бир муҳим масала ҳақида тўхталиб ўтиш мавриди келди чамаси. Гап кекса авлод вакилларининг жамият ҳаётидаги иштироки ҳақида.

Яқин-яқингача пенсия ёшига етган кишиларнинг аксарияти фаол меҳнатдан четлашар ва бундан мамлакат ишлаб чиқариши, маданий ҳаёти ва илм-фани катта зарар кўрар эди. Ўзингиз ўйлаб кўринг, бир инсоннинг ҳар жиҳатдан камолотга эришуви, меҳнатда, илму ижодда юксак маҳорат эгаллаши, катта тажриба орттириш учун бир неча ўн йиллар керак бўлади. У ана шундай даражага етган чоғда баногоҳ кераксиз бўлиб қолиши жуда ачинарли ҳолдир. Бундан ҳеч ким ютмайди, аксинча, бебаҳо маънавий бойликдан маҳрум бўлинади, айниқса тараққиёт сари интилаётган ёш мустақил мамлакатлар учун бу ўта салбий оқибатларга олиб борадиган ҳодиса.

Бу ҳақиқат мутлақо инкор этиб келинди, дейиш тўғри бўлмасди, албатта. Аксар соҳаларда ўта муҳим касбдаги мутахассислар меҳнатидан фойдаланилган, чунончи, олий таълим даргоҳларида ҳам юқори илмий салоҳиятни сақлаш назарда тутилиб, нафақа ёшига етган анча-мунча академиклар, профессорлар ишлашган. Бироқ улар бунинг эвазига маошлари ёки нафақаларининг тенг ярмидан воз кечишлари, энг ҳақоратлиси, солиқ миқдори ҳаддан ортиқ баланд бўлгани боис илмий ёки ижодий ишлари учун тўланадиган гонорар, яъни қалам ҳақининг баҳридан ўтишларига

тўғри келар эди. Ана шундай ноҳақликларга барҳам берилиши, минглаб, ўн минглаб етук мутахассислар, олимлар, ижодкорлар жўшқин меҳнат ва илмий-ижодий фаолият қучоғига қайтиши, маош билан биргаликда нафақалари, илм ва ижод маҳсулотлари ҳақини тўлиқ олиши таъминланиши мамлакатимиз Президентининг оқилона ва адолатли қарорларидан бири бўлди.

Пиру бадавлат қарияларимизнинг фаол меҳнатга кенг жалб этилиши ушбу соҳаларда ишлаётган барча ходимлар ва айниқса, улар сафига эндигина кириб келаётган ёшлар ҳаётида чинакам бурилиш ясади, деб бемалол айта оламан. Зеро, бирор бир соҳа йўқки, ундаги мукамал иш маромини устоз ва шогирдларнинг ўзаро бамаслаҳат, бақамти фаолиятисиз тасаввур этиш мумкин бўлса. Тажриба ва шижоат уйғунлашган жойда эса ҳамиша юксак натижаларга эришилиши муқаррар. Бу – ҳаётнинг тарихан исботланган ҳақиқати. Доно халқимизнинг «Қариси бор уйнинг париси бор» деган ҳикматли нақли бежиз юзага келмаган.

Республикамизда илмга, олимлар фаолиятига бўлган муносабатнинг тубдан ижобий томонга ўзгариши, бу соҳага қаратилаётган диққат-эътибор даражаси ва ажратилаётган маблағлар миқдори республика раҳбариятининг мамлакатда фан-техника тараққиётини жадаллаштиришга бўлган иштиёқи нечоғлик жиддий эканини яққол кўрсатади. Сирасини айтганда, давлатимиз етакчисининг академиклар билан ўтказган учрашувларида қатнашган барча олиму олималар бунини бевосита ўз соҳалари, қолаверса, шахсий фаолиятлари мисолида ҳис этдилар.

Камина ана шундай иззат-икромга сазовор бўлган кекса олимлардан бириман. Бу эъзознинг, бундай меҳр ва ҳурматнинг, бу қадар самимий ғамхўрликнинг аҳли илм учун қанчалар ҳаётбахш, илҳомбахш таъсирга эга эканлигини сўз билан ифодалаб

беришим қийин. Фаннинг турли йўналишларида изланишлар олиб бораётган, тадқиқот ва тажрибалар ўтказётган кексаю ёш ҳамкасбларим билан қилган суҳбатларим давомида уларнинг барчасида янгича илҳом, ҳозирги замон таъбири билан айтсак, ўта кучли мотивация, беқиёс ғайрат-шижоат муҳити пайдо бўлганлиги ҳақида тўлқинланиб гапиришади. Албатта...

Илм-фаннинг ҳар бир йўналишида олиб борилаётган изланишлар, тадқиқотлар, экспериментлар қадр-қиммати уларнинг амалиётдаги самараси билан ўлчанади. Бу – аксиома. Зотан, илм билан шуғулланишдан мақсаднинг ўзи ҳам инсоният ҳаётини салгина бўлса-да, яхшилаш, янгилаш, янада самаралироқ, қулайроқ қилишга эришишдан иборатдир. Ҳикоямнинг айрим ўринларида мен ва китобим қаҳрамонини илму фаннинг машаққатли йўлига бошлаган мақсад, орзу-ният хусусида, бу ҳақдаги суҳбатларимиз ҳақида мавриди билан қисқача тўхталиб ўтгандим, агар эсингизда қолган бўлса. Инчунин...

Халқимиз таъбири билан айтганда, олим бўлиш – игна билан қудуқ қазиш. Барча йўналишлардаги илмий изланишлар ҳам қисқа фурсатларда кўзланган натижани бериши қийин. Баъзан бунинг учун бир неча ўн йиллар талаб этилиши мумкин. Бу эса айрим фанлар моҳиятини теран тушунмайдиган, шошқалоқлик билан юзаки фикрловчи нодон арбобларда «бунақа серхаражат ва камсамара илмий тадқиқотларнинг кимга кераги бор?» деган мутлақо ғайри илмий ва ҳалокатли хулосани келтириб чиқариши ва оқибатда илм-фанга ўгай кўз билан қаралишига сабаб бўлиши ҳам мумкин. Яшириб ўтиришнинг не ҳожати бор, яқин ўтмишда ўзимизда ҳам шундай муносабат шакллана бошлаган, қанча-қанча олимларнинг ишдан қўли совиб, тушкунликка тушган, анча-мунчаси хорижий мамлакатларга кетиб қолган ҳам эди.

Билъакс, ўзи илм-фан қучоғидан чиққан олим Президентимиз ўзининг чет эл сафарлари давомида ана шундай ҳамюртларимизни қидириб топишга, шахсан суҳбатлашиб, уларни юртга қайтиш ва ўз илмий фаолиятини жонажон Ватан равнақи йўлида сарфлашга ундашга вақту имкон ажратди. Шунинг самараси ўлароқ, АҚШ, Буюк Британия, Европанинг қатор мутараққий мамлакатларида ишлаб юрган қанчадан-қанча юксак иқтидорли олимларимиз юртга қайтдилар.

Бундай ибратли, савоб, элу юртимиз шаъну шавкатини оширишга қаратилган эзгу ишлар ҳақида кўп ва хўб, ғурур билан гапириш керак. Чунки бу қалбларимизда фахру ифтихор уйғотишдан ташқари олим сифатида зиммамиздаги масъулиятни кучайтиради. Ғайратимизга ғайрат, илҳомимизга илҳом қўшади. Янги кашфиётлар, дадил илмий изланишлар, мураккаб экспериментлар, самарали амалий тажрибаларга ундайди. Камина буни бевосита ўз илмий ва амалий фаолиятимдан келиб чиқиб айтаётирман.

Худди шу маънода, мавриди келганидан истифода этиб бевосита ўзим олиб борган ва олиб бораётган илмий амалий ишлар, нималар ҳақида бош қотираётганим, қандай муаммолар ечими устида тадқиқотлар ўтказаяётганим хусусида ҳам икки оғиз тўхталсам.

Юқорида таржимаи ҳолимнинг Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти лаборатория мудирининг сифатида олиб борган ишларим ҳақида қисқача гапириб ўтган эдим. Энди ўша ва ундан кейинги айрим нуқталарга муфассалроқ тўхталиш, айрим изоҳлар бериб ўтишни

жоиз кўраман.

1987 – 1990 йилларда шу институтдаги пахтачиликни кимёлаштириш лабораторияси мудури сифатида бу йўналишдаги муҳим илмий тадқиқотларга раҳбарлик қилдим. Шу билан биргаликда ўзим илм йўлига кирган дастлабки даврлардан бошлаган изланишларни давом эттирдим. Умуман, шунча йил давомида қаерда, қандай вазифада ишламайин, ҳаётимнинг мазмуни бўлган илмий тадқиқотлардан заррача бўлсин чекинганим ёки узоқлашганим йўқ. Шунинг натижасида сохта камтарлик қилиб ўтирмасдан чуқур қониқиш билан таъкидлашим мумкинки, анча-мунча қувонарли, мақтанишга арзигулик натижаларга эришдим. Бунинг энг ёрқин мисоли сифатида болалик чоғларидаги беғубор орзумни амалга оширганим, падари бузрукворимга берган ваъдам, яъни ғўза баргини тўкиш учун ишлатиладиган ва инсон саломатлиги учун зарарсиз бўлган кимёвий модда кашф этишга эришганимни фахр билан айтишим мумкин. Бундан ташқари ана шу йўналишда яна бир қанча фан ва амалиёт учун муҳим аҳамиятга эга бўлган тадқиқотлар олиб боришда тўхтовсиз давом этдим.

Шу билан бир пайтда мустақил мамлакатимиз раҳбарияти танлови ва тавсияси билан республикада илм-фан, олий таълим ва тарбия соҳаларини бошқариш ҳамда жадал ривожлантириш юмушларида баҳоли қудрат иштирок этишдан тўхтаганим йўқ.

Чунончи, 1991 йилдан 2000 йилгача Тошкент Фармацевтика институти ректори, шу билан бир пайтда 1992-1993 йилларда «Ўзфармсаноат» ДАК бошқаруви раиси, 2007 – 2017 йилларда Ўзбекистон Фанлар академияси Ўсимлик моддалари кимёси институти директори маслаҳатчиси бўлиб ишладим. Бу давр мобайнида кимё бўйича ўз илмий мактабимни яратиш йўлидаги

саъй-ҳаракатларимни қунт билан давом эттирдим. Эндиликда ушбу долзарб ва ўта муҳим аҳамиятли соҳа учун жуда зарур етук мутахассислар, улкан назариётчи олимлар ҳисобланувчи кўплаб шогирдлар етиштирдим ва устозлар бошлаган қутлуғ эстафета ишончли қўлларда, дея тўла асос билан айта оламан.

Табиийки, барча фанлар сингари кимё соҳасидаги пировард мақсадлар инсон бахт-саодати, унинг фаровонлиги ва саломатлиги йўлида беминнат хизмат қилишдан иборатдир. Бинобарин, менинг назаримда чинакам олим фақат илмий-назарий фаолият билан чегараланмаслиги, ўз тадқиқотлари самараларини амалиётга татбиқ этиш йўлида ҳам бевосита жон куйдириши, керак бўлса, енг шимариб ишлаши мақсадга мувофиқ.

Шу маънода фикр юритадиган бўлсам, илмий фаолият билан биргаликда тиббиёт соҳаси учун ўта зарур янги, замонавий, самарали, ножўя таъсирлари кам бўлган дори воситалари ишлаб чиқариш мақсадида фармацевтика корхонаси ташкил этдим. 2017 йилда очилган «Навкар Ш» МЧЖ фармацевтика корхонамизда бир қатор қаттиқ дори шакллари (капсула) ва минерал тузлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилган. Табиий ингредиентлар, чунончи, юртимизда ўсадиган шифобахш ўсимликлар ва бошқа моддалардан таркиб топгани ва анча арзонлиги туфайли уларга талаб катта.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида пахтачилик, ғаллачиликни ривожлантириш, улар ҳосилдорлигини ошириш борасидаги ихтироларимни амалиётга татбиқ этишга қаратилган яна битта ишлаб чиқариш корхонаси очдим. Унда буғдой уруғи ва пахта чигити зараркунандаларига қарши полифункционал «Баҳор» ва «Қалқон» препаратларини ишлаб чиқариш йўлга қўйилди. Ушбу кимёвий ҳимоя дори воситалари ҳам республикада амалиётга кенг татбиқ этилмоқда. Чунки деҳқон ва фермерларимиз уларнинг самарадорлигини яққол ҳис этишмоқда. Бундан

ташқари эндиликда ана шундай ноёб кимёвий моддаларни катта харажатлар ва, айниқса валюта ҳисобига хориждан келтиришга ҳожат қолмаётир.

Мамлакатимиз раҳбариятининг, хусусан, муҳтарам Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг диққат-эътибори, ғамхўрлиги ва сидқидилдан қўллаб-қувватлашига таянган ҳолда маслакдош дўстлар, ҳамкасблар, шогирдлар билан биргаликда амалга оширилаётган яна бошқа қатор ишлар ҳақида гапиришим мумкин. Аммо...

Ҳарчанд холис бўлишга ҳаракат қилма, барибир ўзинг, ўз ишларинг ҳақида гапириш, уларни баҳолаш, аҳамиятини кўрсатиш ёқимли машғулот эмас. Ҳар ҳолда мен шундай деб ўйлайман. Бу ҳақда бошқалар сўзлагани, берилган баҳолар ҳақида ишонарли далил ва ҳужжатли исботлар келтиргани маъқул. Шу боис келинг, яхшиси, Википедия саҳифаларини варақлаб, унинг саҳифаларидаги қуйидаги маълумотномага кўз югуртирайлик:

«Искандаров Саъдулла (1939. 5. 2, Хоразм вилояти Боғот қишлоғи) – кимёгар олим, Ўзбекистон Фанлар Академияси академиги (2000). Ўзбекистон Қишлоқ хўжалик фанлари академияси академиги (1991), кимё фанлари доктори (1973), профессор (1980). Тошкент Фармацевтика институтини тугатган (1961). Ўзбекистон Фанлар академияси Ўсимлик моддалари кимёси институтида илмий ходим (1965 – 73), Хоразм педагогика институтида проректор (1973 – 77), Ўрта Осиё нефтни қайта ишлаш илмий-тадқиқот институти директори (1977 – 78), Тошкент Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш инженерлари институти ректори ва кафедра мудири (1978 – 86; 2001 йилдан), лаборатория мудири (1976 – 1991), Тошкент Фармацевтика институти ректори (1991 – 2001). Илмий ишлари ўсимликлар

алкалоидларини ўрганиш, кимёвий тузилишини аниқлаш, структуравий таҳлил усуллари ва уларни қишлоқ хўжалигида қўллаш масалаларига бағишланган. Ўсимликлардан 24 янги алкалоид ажратиб олган. Пахтачиликда қўлланиладиган биологик стимуляторлар (А-1, Кетостим), «Оптим» дефолиантини ихтиро қилган. Шамол эрозиясига қарши курашда интер полимер комплекс қоплама ҳосил қилиш усулини яратди. Тиббиётда кенг кўламда ишлатиладиган бир қанча ноёб дорилар (левомицитин, витамин-Е, мумиё ва б.)ни ишлаб чиқаришнинг янги технологияларини таклиф этди. Олий ўқув юртлари учун органик кимё бўйича дарсликлар ёзган. Жаҳон доришунослар Конгресси аъзоси (1996)».

Бу маълумотномага қўшимча тариқасида ҳозирги пайтда мамлакатимизда миллионлаб гектар майдонларга экилаётган чигит ва ғалла уруғларини зараркунанда микроблар, замбуруғлардан тозаловчи ва экиннинг дуркун ўсиб чиқишига кўмаклашувчи кимёвий моддамизни ишлаб чиқаришни ҳамда уни республикамизнинг барча бурчакларидаги фермер хўжаликларига етарли миқдорда етказиб беришни янада кўпайтириш билан шуғулланаётганимизни такроран таъкидлашни истар эдим. Чунки давлатимиз раҳбари юксак минбарлардан туриб қайта-қайта уқтираётган ўта долзарб вазифа – мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ҳозирги мураккаб шароитларда юртимиздаги барча тармоқлар, айниқса биз масъул бўлган кимё соҳаси ходимларидан бир ғайратга ўн ғайрат қўшиб ишлашни талаб этади.

Бас, шундай экан, кексаликни писанд этмасдан, бутун йил давомида вилоятма-вилоят, туманма-туман юришга, раҳбарлар, мутахассислар, деҳқон ва фермерлар билан учрашиб, ҳамкорлигимиз самараларини муҳокама қилиб, жонажон

Ватан равнақига улар қаторида туриб ҳисса қўшишга ҳаракат қилаётирман.

Бир мен ва ҳамкасб-ҳамкорларим эмас, республикадаги барча иш ва илм кишиларига худди мана шундай самарали фаолият кўрсатиш учун етарли шарт-шароит ва кенг имкониятлар яратилган. Уларнинг кўпчилиги Янги Ўзбекистонда янгича илҳом, куч-ғайрат билан ишлашаётир, десам айни ҳақиқатни эътироф этган бўламан.

Мана шунақа гаплар. Хуллас, иш кўп, вақт тигиз, Худо умр, тинчлик ва саломатлик берса, келгусидаги режаларимиз ҳам бир талай.

Ушбу бобдаги мулоҳазаларнинг ниҳоясида юқорида турлича шакл ва кўринишда уч-тўрт бор айтиб ўтилган фикрни яна бир марта такрорлашни жоиз деб биламан. Бугунги давр, тубдан янгиланаётган жонажон Ўзбекистонимиз унда истиқомат қилаётган барча кишиларни, кексаю ёшни мамлакатимизда муҳтарам Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев раҳбарлигидаги меҳнаткаш, оқилу доно, камтарин ва камсуқум халқимиз томонидан юксак орзу-умидлар билан олиб борилаётган оламшумул ўзгаришларни астойдил маъқуллаш ва қўллаб-қувватлаш билан биргаликда уларга нафақат эш ва йўлдош бўлишга, балки юртбошимизга елкадош бўлишга, чинакам фидойилик кўрсатишга, уйғоқ ва сергак бўлиб яшашга, ғайрат-шижоат билан ишлашга ундайди. Ифодали қилиб айтсам, яшнаётган чаманда гуллаб-яшнаб, барқ уриб, ижод этиб, яъни кимдир оламшумул асарлар яратиб, кимдир лоақал бир иморат қуриб, кимдир боғига ақалли бир ниҳол қадаб ва уни авайлаб парваришлаб, мевасидан баҳраманд ўлароқ, узоқ ва мазмунли умр кечиргиси келади ҳар бир кишининг. Демак, бугунги кундаги фаоллик биргина менга эмас, аксарият халқимизга хос, десам адолатдан бўлади.

Еттинчи боб

ИНСОННИ ҚАДРЛАГАННИ
ТАРИХ УЛУҒЛАЙДИ

Улкан шоирларимиздан бири Омон Матчоннинг ҳазрати Алишер Навоий ғазалига боғланган мухаммасида шундай байт бор:

*«Котибу давру рақам аввалгиларга ўхшамас,
Энди инсон қадри ҳам аввалгиларга ўхшамас...»*

Дарҳақиқат, Шавкат Мирзиёев ички сиёсатининг ўзагини инсон қадрини улуғлашга бўлган самимий ва сидқидил иштиёқ ташкил этади. Бунини ўткир зеҳнли китобхонларим астойдил тасдиқлашларига шубҳа қилмайман. Чунки муҳтарам юртбошимизнинг Президентлик иқтидорига келган биринчи кунларданоқ бу масалани давлат сиёсатининг энг асосий бош йўналишига айлантиргани ҳеч кимга сир эмас.

Амалдаги йилимиз республикаимиз Президенти томонидан мамлакатда «Фаол маҳалла ва инсон манфаатларини ҳимоя қилиш йили» деб белгиланди. Бу қарор давлатимиз раҳбарининг ўз Президентлик фаолиятининг дастлабки кунлариданоқ илгари сурган халқпарварлик, инсонсеварлик сиёсатининг мантиқий ва мудом ривожланишда бўлган собитқадам давомидир. Унинг

Ўзи ушбу сиёсатнинг ўзак-негизини мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришдек улуғ мақсад ётганлигини қайта-қайта таъкидлаб келмоқда ва бунинг оддий шиор эмас, ҳаёти мазмуни эканлигини амалда ҳар кун, ҳар соат ёрқин мисоллар билан намоён этмоқда.

Кўҳна тарих гувоҳ – оддий инсонни қадрлаган, унинг фаровонлиги ва бахт-саодати йўлида заҳмат чеккан, улуғ мутафаккирларимиз таъбири билан айтганда, халқ ғами билан яшаган арбоблар, олиму ижодкорлар, ҳар қандай касб эгалари асрлар оша эл ардоғида, авлодлар ҳурмат-эътиборида бўлиб келганлар.

Камина адабиётшунос эмасман. Лекин бир зиёли, қолаверса, ўзбек олими сифатида умрим бўйи халқимизнинг буюк шоири ва мутафаккири Алишер Навоий ижодини имкон қадар кенгроқ ва чуқурроқ ўрганишга, унинг беназир инсонпарварлик таълимотидан илҳом олишга интилиб келаман. Очиғи, Навоий ижодига нисбатан қалбимда сўнмас муҳаббат уйғониши ва мудом кучайиб боришида улуғ устозим Шароф Рашидовнинг берган маслаҳатлари, панд-насиҳатлари муҳим роль ўйнаган. Зеро, Шароф аканинг ўзлари Навоийни чексиз ва беғубор бир муҳаббат билан ардоқлар, яқинлари, дўстлари, шогирдлари билан суҳбатларда бу ҳақда муфассал гапиришдан, уларни ҳаёт мазмун-маъносини англашда буюк мутафаккир ижодига мурожаат этишга ундашдан эринмасди. Мен ҳам шогирдларимни мудом шунга чорлайман, ҳаёт сабоғини, илму ижод дарсини унинг бебаҳо меросидан олишга даъват этаман. Бас, шундай экан, ушбу мулоҳазаларим асносида ҳам буюк бобомизнинг ҳаётбахш ғоялари, ибратли пандларидан фойдаланишни маъқул кўряпман.

Ҳазрати Алишер Навоий илгари сурган буюк инсонпарварлик ғояси улар учун ҳаёт ва фаолиятнинг энг юксак мезони ҳисобланган:

*«Одами эрсанг, демагил одами,
Ониким йўқ халқ ғамидан ғами».*

Дафъатан қараганда жуда оддий ва тушунарли ушбу пандни чуқур таҳлил қилиб кўрсак, унинг замирида халқ хизматига камарбаста бўлган аҳли сиёсат, аҳли диёнат ва аҳли риёзат учун нақадар залворли масъулият тажассум топганига, нечоғлик кескин талаб қўйилганига имон келтирамиз. Ва шунга тарихан гувоҳмизки, бунини тушунмаган ёхуд тушунса ҳам писанд этмаган не-не зотлар рутбаю маснадидан қатъи назар, наинки жисман, балки руҳан, маънан, йўқлик қаърига шўнғиб кетдилар.

Нафсиламрини айтганда, миллатимиз тафаккурининг қуёши ҳисобланмиш Алишер Навоий ҳазратлари ҳукмдор ва раият, яъни раҳбар ва халқ мавзусида ўз умри давомида тинимсиз ёзган ва кўплаб шоҳ асарлар яратган. Зеро, ўзи ҳам раҳбарлик лавозимларида ишлаган, бу масъулиятли жабҳани ичдан тадқиқ этиш имконига эга бўлган. Унинг Бош вазир сифатида амалга оширган эзгу ишларининг сон-саногии йўқ. Шу билан биргаликда у раҳбар, амалдор шахсиятни улуғ ижодкор сифатида руҳий жиҳатдан тадқиқ этган ва унинг бу борадаги хулосалари башарият тамаддунининг бебаҳо маданий бойликлари сирасига киради. Чунончи, «Ҳайратул аброр», «Садди Искандарий» дostonларини синчиклаб ўқиган киши ҳазратнинг бу борада нақадар ҳақгўй бўлганликларига ёрқин ишонч ҳосил қилади.

Шарқ Уйғониш даврига асос солган барча беназир алломаларимиз сингари Алишер Навоий ҳам инсон қадрини улуғловчи, унинг бахт-саодатини таъминловчи идеал жамият,

фозил мамлакат қуришни орзу қилган ва бу борада оқилу одил ҳукмдорнинг ўрни ва ролини олдинги ўринга қўйган. Орзусидаги одил подшоҳлар ҳақида тўлқинланиб меҳру ҳурмат билан кўп ва ҳўб ёзган. Айни пайтда...

У айрим замона ҳукмдорларига қуйидагича холис ва самимий панду дашном беради «Ҳайратул аброр»да:

*«Эйки қавий айлади давлат қўлинг,
Зулм сори тушди ва лекин йўлинг.
Зулмунг эмас эрди халойиққа кам,
Ким қиладурсан ани ўзунгга ҳам.
Зулм ўзунга фисқдур эй хуш ёр,
Гум қил они бўлса санга хуш ёр...»¹*

Дарвоқе, мен шахсий кутубхонамда эъзозлаб келадиган асарлар қаторида устоз Шароф Рашидовнинг 1979 йилда Алишер Навоий ҳақида ёзган «Шоир, мутафаккир, инсонпарвар» деб аталган ажойиб мақоласи сақланади. Ушбу асар қуйидаги сўзлар билан бошланган:

«Инсоният ва унинг кўп минг йиллик маданияти тарихи шундан далолат берадики, ўз тақдирини ва ижодиётини халқ тақдири билан чамбарчас боғлаган кишилар асрлар бўйи авлодларнинг қалбида барҳаёт яшайдилар...»²

Мақолада Навоий ижодининг турли йўналишлари, ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган ва унинг ҳукмдорлар, давлат бошлиқлари фаолиятига оид қарашлари ҳақида алоҳида тўхталиб ўтилган. Чунончи буюк мутафаккирнинг «Хамса»сига

¹ Алишер Навоий. «Ҳайратул-аброр». Тошкент, 1983. 13-б.

² Шароф Рашидов, «Сайланма». Тошкент, 2017. 179-б.

кирувчи «Садди Искандарий» достонидаги мана бундай қатъий огоҳлантириш келтирилади:

*«То ҳирсу ҳавас хирмани барбод ўлмас,
То нафсу ҳаво қасри барафтод ўлмас,
То зулми ситам жонига бедод ўлмас,
Эл шод ўлмас, мамлакат обод ўлмас».*

Сўнгра шундай хулоса қилинади: «Идеал жамият, умумбашарий бахт-саодат ҳақида барча халқлар ва уларнинг Навоий ҳамда Пушкин, Низомий ва Шевченко, Толстой ва Тагор сингари даҳо фарзандлари орзу қилганлар. Уларнинг шу улуғ орзулари ифодаланган асарлари доимо бизга йўлдош ва раҳнамо»¹.

Китобимнинг сўнги бобини бу тарздаги муқояса ва мулоҳазалардан бошлаганим бежиз эмас.

Бугунги кунда мамлакатимизда айнан ўша буюк аждодларимиз орзу қилган, фидойи устозларимиз ишонч ва умид билан кутган даврлар бошланди. Инсон қадрини юксакларга кўтариш давлат сиёсатининг бош масаласига айланаётгани буни яққол тасдиқлайди.

Хўш, бу сиёсат нималарда кўринмоқда?

Мен статистика мутахассиси эмасман. Кўпдан-кўп рақамлар келтириб, бошингизни қотириш ниятим йўқ. Гарчи рақамлар маҳобатли, фактлар ҳайратланарли даражада мўл ва айримларини келтириб ўтиш фойдадан холи бўлмасди албатта. Лекин биз ҳамонки, мавзунинг мағз-моҳиятини рақамлар билан эмас, реал воқелиқдаги инъикоси билан очишга қарор қилган эканмиз, масалага сал оддийроқ, яъни бу натижалар мамлакат, хусусан, унинг аҳоли турмушида қандай намоён бўлаётганини англаш нуқтаи назаридан ёндашамиз.

¹ Шароф Рашидов. Ўша асар. 198-б.

Табиийки, инсон қадри эъзозланиши ва янада юксалтирилишининг энг биринчи шарти, аввало, унинг тинч, беҳавотир, қўни-қўшнилар билан аҳилликда яшашини таъминлашдан иборатдир. Бу ҳақда доно халқимизнинг ҳикматли нақллари, мақолу маталлари кўп. «Бир кун жанжал бўлган жойдан қирқ кун барака кетади», «Қўшнинг тинч – сен тинч» ва ҳоказо.

Шавкат Мирзиёевнинг давлат раҳбари рутбасидаги илк сиёсий қадамлари яқин қўшни давлатлар билан муносабатларни тубдан яхшилашга, ораликдаги англашилмовчиликларга чек қўйиш, мунозарали масалаларни ўзаро манфаатдорлик асосида оқилона ечишга қаратилгани, шунинг натижасида чегаралар очилиб, узоқ йиллар давомидаги «ёпиқлик»ка барҳам берилиши мамлакатимизнинг халқаро майдондаги обрў-эътибори кескин ошишига, шу жумладан, республикамиз етакчисининг жаҳон жамоатчилиги тасавурида доно, тинчликсевар, прагматик фикрловчи арбоб сифатида таассурот қолдиришига олиб келди. Бу эса наинки ташқи, балки ички сиёсатда ҳам ўзининг ёрқин самараларини кўрсата бошлади. Ўзбекистон хорижий мамлакатлар аҳли учун очилибгина қолмасдан, ўз аҳолисининг дунё бўйлаб эркин ҳаракат қилиши, ўқиши, ишлаши, бизнес юритиши учун кенг имкониятлар яратди.

Валюта конвертацияси эркинлаштирилиши навбатдаги дадил қадам бўлди ва молиявий муносабатлардаги салкам ўттиз йилдан буён давом этиб келган чекловларни бекор қилди. Бу эса нафақат иқтисодиёт ривожиди, тадбиркор ва ишбилармонлар фаолиятида, балки шу билан бир қаторда аҳоли барча қатламлари тафаккурида ижобий бурилиш ясади, уларнинг иқтисодий ислохотларга бўлган ишончини мустаҳкамлади.

Мана шу каби ўта журъатли чора-тадбирлар Ўзбекистон раҳбарининг давлатни тубдан янгилаш борасидаги орзу-ниятлари катта ва саъй-ҳаракатлари жиддий эканини наинки юртимиз аҳолиси, балки бутун дунё жамоатчилигига яққол кўрсатди. Бинобарин, мамлакат Президентининг мана бу сўзлари мутлақо самимий эканлигига ҳеч қандай шак-шубҳа қолмади:

«Биз бугун ўз олдимизга катта-катта мақсадлар қўйиб, маррани баланд олдик.

Ўзбекистонда демократик ислоҳотлар муқаррар тус олди ва ҳеч ким, ҳеч қандай куч бизни ўз танлаган йўлимиздан қайтара олмайди»¹.

Бу йўлдаги ҳар бир янги қадам пухта ўйлангани, бинобарин, олға қилинаётган ҳаракатда ўта муҳим янги бир жабҳани очиб берганлиги билан характерлидир. Айтайлик, Президент мамлакатни жадал ва интенсив ривожлантиришнинг ҳал қилувчи шартларидан бири сифатида фан-техника, замонавий технологияларга таянилажасига урғу берар экан, илм аҳлининг кадр-қимматини беқиёс даражада юксалтириш вазифасини қўйди ва бу борада бир қатор амалий чоралар кўрди. Фанлар Академияси таркибидаги ўз фаолиятини деярли тўхтатган институтлар ишини қайта тиклаш ва тубдан ўзгартириш соҳасида муҳим қарорлар қабул қилиниб, уларда аниқ-тиниқ ва реал вазифалар белгиланди. Олимларимиз маррани баланд олишлари, ўз тадқиқотларини жаҳон миқёсларига кўтаришлари зарурлиги вазифа қилиб қўйилди.

«Бугунги кескин рақобат шароитида иқтисодиётда устувор йўналишлар ривожини таъминловчи илмий тадқиқотлар ҳамда

¹ Шавкат Мирзиёев. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. 126-б.

инновацион ишланмаларни амалга оширувчи тизим ишини самарали ташкил қилиш энг асосий вазифа ҳисобланади. Ўзбекистонни 2030 йилга қадар глобал инновацион индекс рейтингида дунёнинг етакчи давлатлари қаторига киритишдек улкан мақсадга эришишда инсон капиталини ривожлантиришга қаратилган стратегик режа эълон қилинди. Бизнинг мақсадимиз илм-фан соҳасини замонавий иқтисодиёт талабларига мослаштиришдан иборат бўлиб, ўз навбатида, илм-фандаги тегишли ҳуқуқий база билан тартибга солинадиган туб таркибий, ташкилий, молиявий ҳамда кадрлар ва инфратузилмага оид ислоҳот-ўзгаришларни амалга оширишни кўзда тутуди».¹

Ушбу сўзларда давлат раҳбарининг илм-фан ривожига нечоғлик катта аҳамият бераётгани ва беражаги, шунингдек, олим шахсига, унинг жамиятдаги ўрни, элу юрт нигоҳидаги шаъни ва обрў-эътиборига нисбатан қай даражада муносабатда бўлаётгани ва бўлажаги равшан акс этган.

Шу ўринда рухсатингизга биноан бир тарихий чекиниш қилиб, илм-фанга таянишнинг қанчалик улкан аҳамиятига бир мисол келтирсам.

Иккинчи жаҳон урушида мағлуб бўлибгина қолмасдан, атом бомбардимонларига дучор этилган, батамом вайрону фатарот қилинган Япония ўз иқтисодини тиклаш ва тараққиётда катта сакрашларга эришиш учун айнан шу йўлни танлаганди. Дунёнинг қайси бурчаги бўлмасин, яратилган янги бир технология, кашф этилган ва бошда мутлақо хом хаёл бўлиб туюлган янги илмий таклифлар ва ишланмалар ёппасига мамлакатга жалб этилган, бунинг учун давлат ғазнасидаги энг сўнгги чақаларгача аялмаган.

¹ Шавкат Мирзиёев. «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси». Тошкент: «Ўзбекистон», 2022. 239-б.

Зеро, доно япон халқи бу инвестициялар эрта-индин ўзини юз, минг баравар оқлашига ишонган ва тарих улар шундай қилиб адашмаганини бугун ёрқин намоён этиб турибди.

Бас, шундай экан, мамлакатимизда илм-фан камолоти тараққиётнинг бош омилларидан бири сифатида белгилангани мутлақо тўғри ва иншааллоҳ, биз унинг ажойиб самараларини яқин кунларда кўра бошлашимизга ҳеч қандай шубҳа йўқ.

Бу борада қалбимизга ёруғ умидлар бахш этадиган яна бир воқелик – мамлакатимизда олий таълимнинг тубдан қайта қурилаётганидир. Бугунги кунда республикадаги олий таълим муассасалари сони 160 тага етгани мени кўп йиллардан буён шу соҳада ишлаган киши сифатида севинчли ҳайратга солади. Чунки яқин яқингача бу рақамлар бир неча баравар кам эди. Қисқа муддат ичида мана шундай катта сакрашга эришиш жамиятни эркинлаштириш ва илм-фан ривожига стратегик масала сифатида қаралишининг самарасидир.

Табиийки, илм-фан тараққиёти самараларининг амалий ифодасини ишлаб чиқаришдаги заковатли, ғайрат-шижоатли меҳнат жараёнисиз тасаввур этиш мумкин эмас. Ҳар қандай беназир ғоя, улуғ кашфиёт реал воқеликка айланган тақдирдагина кўзланган натижани беради. Бинобарин, фан билан ишлаб чиқариш уйғунлиги ва муштараклигини таъминлашни ҳаётнинг ўзи тақозо этади.

Бу ҳақиқат бир дақиқа бўлса-да, назардан қочирилмаётганини биз мамлакатда иқтисодиётни қатъият билан диверсификациялаш, халқ хўжалиги тармоқларининг мутаносиб ривожини таъминлаш борасида амалга оширилаётган ишлар мисолида кўрамиз ва шу аснода эришилаётган оламшумул ютуқлардан чексиз фахрланамиз.

Келинг, бу борада ўзим шахсан мансуб бўлган соҳа – кимё

билан боғлиқ одамни лол қолдирадиган даражадаги ҳайратомуз ишлардан гапирай.

Яқингинада ишга туширилган, улкан ва жаҳонда аналоги бармоқ билан санарли бўлган газни қайта ишлаш мажмуалари, умуман, Қашқадарё, Бухоро, Навоий, Тошкент ва бошқа вилоятлардаги кимё саноати корхоналари Ўзбекистон бу соҳадаги экспорт салоҳияти бўйича дунёдаги пешқадам давлатлар қаторига чиқаётганидан ёрқин далолат беради. Энг муҳими, бу мамлакат ичкарасида саноат, транспорт, қурилиш, қишлоқ хўжалиги, қўйингки, халқ хўжалигининг барча тармоқлари жадал ва барқарор ўсишига дастак бўлади.

Бинобарин, давлатимиз раҳбарининг мана бу сўзларида ҳеч қандай муболаға йўқ:

«Янги Ўзбекистонни барпо этишнинг асосий шарти «Ҳар бир фуқаро бой бўлса, давлат бой бўлади, ҳар бир оила фаровон бўлса, мамлакат фаровон бўлади», деган тамойилни амалга оширишдан иборат»¹.

2021 йилда республикада ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ҳажми 734,6 триллион сўмни ташкил этгани ва бу борадаги ўсиш 7,4 фоиз бўлгани, бу эса 2020 йилдагидан 5,5 фоизга кўп эканлиги давлатимиз раҳбари айтган имкониятлардан қай даражада фойдаланилаётганлигини аниқ кўрсатиб турибди. Ҳолбуки, Жаҳон банки 2021 йилда Ўзбекистон иқтисодиёти 4,3 фоиз ўсиши мумкинлигини башорат қилган эди. Бутун дунёда пандемия балоси ҳукм сурган ўта оғир шароитларда мана бундай натижаларга эришишни доно ва шижоатли Президентимизнинг оқилона раҳбарлигида халқимиз кўрсатаётган жасорат ва матонат ҳосиласи деб баҳоласак, чин ҳақиқатни айтган бўламиз.

¹ Шавкат Мирзиёев. «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси». Тошкент: «Ўзбекистон», 2022. 199-б.

Дарвоқе, бойлик ва фаровонлик ҳақида гапирар эканман, мамлакат раҳбарининг кичик ва ўрта бизнес ривожини бобидан олиб бораётган собитқадам сиёсати ҳақида алоҳида тўхталиб ўтмаслигим мумкин эмас.

Зеро, бу борада давлат томонидан яратилаётган шарт-шароитлар, берилаётган имтиёزلару қулайликлардан олим ва тадбиркор сифатида шахсан ўзим ҳам бевосита баҳрамандман, шу билан биргаликда ишбилармонлик билан шуғулланувчи кўплаб дўстларим, танишларим мисолида яхши хабардорман.

Бу, албатта, ўз-ўзидан бўлгани йўқ. Давлатимиз раҳбари ушбу масалани ўта кескин қўйди ва барча бўғинлардаги амалдорлардан, мутасадди ташкилотлардан мазкур соҳада туб бурилиш ясашни қаттиқ талаб қилди.

«Тадбиркорлар уларни қўллаб-қувватлаш ҳақидаги чиройли гапларни кўп эшитган, энди бу гапларнинг амалий таъсири ва натижасини ўз кундалик фаолиятида ҳис этиши керак»¹, деди Президент «Янги Ўзбекистон» газетасига берган интервьюсида.

Ана шу қатъий талаб, сергак назорат ва мунтазам давом этаётган амалий тадбирлар ўз натижасини берди. Аҳвол ижобий томонга тез суръатлар билан ўзгара бошлади.

Бунинг ёрқин далили сифатида кейинги йилларда мамлакатда салкам икки ярим миллион ишчи ўрни яратилгани, жумладан, ярим миллион аёл мунтазам ижтимоий фойдали меҳнатга жалб этилганини келтириш мумкин. Ҳамонки хотин-қизлар меҳнати ҳақида гап очилган экан, шу ўринда охириги йилларда 1,5 минг аёл раҳбарлик лавозимларига тайинланганини ҳам чуқур мамнуният билан қайд этмасдан ўтолмайман.

Кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш, хусусий тадбиркорликни

¹ «Янги Ўзбекистон» газетаси. 2021 йил 17 август.

ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш давлат иқтисодий-ижтимоий сиёсатининг негизини ташкил этаётгани аҳоли моддий аҳволининг кун сайин яхшиланиб бораётганлигида равшан акс этмоқда. Зеро, аҳоли ўртасида маҳаллабай, хонадонбай иш олиб борилиши, ҳар бир оила, ҳар бир хонадон тадбиркорлик билан шуғулланишига эришиш, бу борада моддий жиҳатдан кўмаклашиш, малака ва тажриба нуқтаи назаридан амалий ёрдам кўрсатиш, яъни эл орасидаги қанотли иборада айтилганидек, одамларга балиқ тарқатиш эмас, балки ҳар бир кишининг қўлига қармоқ бериб, балиқ тутишни ўргатиш ўз натижасини бераётир. Бу, албатта, осон бўлаётгани йўқ. Бироқ собитқадамлик, сабр-қаноат, қатъият туфайли кўзланган мақсадга эришиляпти. Одамлар қаловини топса қор ҳам ёнишига, озгина кунт қилинса, ҳаттоки ўз ҳовлисидан, уйдан чиқмасдан туриб пул ишлаш, рўзғорига барака киритибгина қолмасдан тузуккина даромад кўриш мумкинлигига ишонч ҳосил қилмоқдалар. Чиндан ҳам элимизда камбағаллик камайиб, бой-бадавлат яшаётганлар сафи кенгаймоқда. Статистика маълумотларида кейинги йилларда аҳоли даромадлари 2,5 баравар ошгани қайд этилмоқда. Хўш, бу амалда қай тарзда намоён бўлаётир?

Менимча, бу, энг аввало, халқимизнинг уй-жой, машина ва бошқа нормал ҳаёт учун зарур бўлган ашёлар ҳамда қулайликларни харид қилиш имконият ва салоҳияти шиддат билан ортаётганида кўринади. Кейинги йилларда мамлакатимизда 140 мингта уй қурилган бўлса-да (бу рақам 2021 йил охирларида олинган, айни кунларда янада ортганига шак-шубҳа йўқ), аҳолининг турар жойга бўлган талаби асло камайган эмас. Аксинча, ой сайин, йил сайин ортмоқда. Бу эса нафақат пойтахтда, балки барча вилоятлар, туманлар марказларида кўплаб кўпқаватли янги уйлар барпо этиш заруратини келтириб чиқармоқда. Мамлакатимизнинг аксар шаҳарларида «Янги Ўзбекистон» номли мавзелар қад ростлаётгани қалбимизга чексиз севинч ва ғурур

бағишлайди. Республикадаги енгил автомобиллар ишлаб чиқарувчи қўшма корхоналар аҳоли эҳтиёжларини тўласинча қоплай олмаётир ва бу муаммони ҳал этиш мақсадида ҳукумат хориждан импорт қилинадиган машиналар учун бож тўловларини камайтирди.

Худди шу нуқтада, мамлакат раҳбарияти аҳолининг кундалик энг оддий муаммо-ташвишларидан бошлаб, умуммиллий, умумдавлат миқёсидаги масалаларни ўз вақтида сергаклик ва ҳозиржавоблик билан илғаётгани, кечиктирмасдан ҳал этишга ҳаракат қилаётганини эътироф этмасликнинг иложи йўқ. Президент ўз чиқишларида «ҳар қандай масалани халқимиз билан маслаҳатлашган, унинг фикрини инобатга олган ҳолда ҳал қиламиз» деган гапни кўп такрорламоқда ва бунини амалда кўрсатмоқда. Унинг эндиликда жуда хайрли анъанага айланган вилоятларга мунтазам сафарлари чоғидаги аҳоли вакиллари билан бевосита юзма-юз ёхуд видеоселектор орқали учрашувларида қанчадан-қанча муаммолар ҳал этилаётгани, мушкулотлар енгиллаштирилаётганини бутун халқ ўз кўзи билан кўриб, юраги билан ҳис этиб турибди. Бу – айна ҳақиқат.

Инсон қадр-қиммати эъзозланиши ҳақида мулоҳаза юритар эканман, Шавкат Мирзиёевнинг шахсий ғояси, ташаббус ва бевосита раҳбарлиги остида амалга оширилган яна бир оламшумул тарихий воқелик ҳақида тўхталмай ўтолмайман. Кейинги бир неча йиллар давомида «Меҳр» операцияси доирасида бир неча марта кетма-кет ўтказилган махсус инсонпарварлик тадбирлари давомида тақдир тақозоси билан узоқ муддатлардан буён ўзга юртларда саргардон бўлиб юрган, турли сабабларга кўра Ироқ ва Суриядаги уруш гирдобига тушган бир қанча юртдошларимиз Ватанга қайтарилди. Уларнинг орасида билиб-билмай ўз ихтиёридан ташқари ёхуд ёт ғоялар таъсирига тушган ҳолда хато қилиб шу йўлга кирган

опа-сингилларимиз кўпчиликни ташкил қилади. Айримлари ўзга давлатларда бир неча фарзанд кўриб, жигарбандларини ҳам ўзлари сингари сарсону саргардонликка мубтало этганлар.

Давлатимиз раҳбарининг шахсий саъй-ҳаракатлари ва махсус хизматлар вакилларига берган топшириғига кўра, Яқин Шарқдаги қатор мамлакатлар раҳбарлари, дипломатик ҳамда ҳарбий идора-ташкilotлари билан узлуксиз ва машаққатли музокаралар, амалий тадбирлар олиб борилиб, ватандошларимиз бирма-бир қидириб топилди ва ўз вақтида тегишлича шошилинич ёрдамлар кўрсатилиб, махсус самолётларда Ўзбекистон заминига олиб келинди. Улар бир неча муддат хушҳаво санаторий ҳамда оромгоҳлардаги аввалдан тайёрланган мослашув муассасаларида тиббий кўриқдан ўтказилиб, жисмоний ва руҳий муолажалар воситасида соғломлаштирилиб, ундан кейингина туғилиб ўсган масканларига қайтарилди, катта ёшдагиларига ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланиш, мактаб ёшидагиларига узлуксиз таълим олиш, кичкинтойларга эса болалар боғчаларида тарбияланиш имкони яратилди.

Бундай бағри кенглик ва меҳр-оқибат, очиғи, бутун дунё жамоатчилиги эътиборидан четда қолмади. Хориждаги кўплаб оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистон раҳбариятининг ушбу ташаббуси ҳақида ҳайрат ва ижобий эътироф билан йўғрилган мақолалар босилди, телекўрсатувлар намоиш этилди.

Шу ўринда наинки юртимиз, балки чет элларда ҳам ҳаққоний эътироф этилган яна бир воқеани тилга олишни жоиз кўрдим. Гап яқин йилларгача номининг ўзиёқ одамлар юрагига ваҳима ва кўрқув солиб келган «Жаслиқ» ахлоқ тузатиш муассасасининг ёпилиши ҳақида. Ростини гап, мана шу хайрли иш ўзига хос бир рамзий аҳамият касб этди. Аввало, халқимиз, қолаверса, бутун дунё жамоатчилиги бунда Ўзбекистон раҳбариятининг яна бир

муҳим жабҳадаги мардлигини, журъат-жасоратини кўрди.

Шубҳасиз, қонун устувор мамлакатда жиноятга жазо муқаррар бўлиши шарт ва бу инкор этиб бўлмас ҳақиқатдир. Бироқ жиноятчиликка қарши курашнинг ҳам турли усул ва чоралари борки, улардан ҳар жойда ҳар хил истифода этилади. Айтайлик, қаердадир қонунларни тобора қаттиқ, шафқатсиз қилиш ва жазони кучайтириш йўлидан борилса, қайдадир раҳм-шафқат, кечиримлилик, айбдорларга ўз гуноҳларини тезроқ ювиш имконини бериш услуби танланади.

Эндиликда мамлакатимизда прокуратура, милиция, хавфсизлик, судлов тизими иш услублари ҳам тубдан ўзгарди. Инсон ҳуқуқи, унинг манфаатларини ҳимоя қилиш ҳақиқий маънода олдинги ўринга чиқмоқда. Бу борада сансалорлик, лоқайдлик ва эътиборсизликка йўл қўйган раҳбарларга муносабат қандай бўлаётганига гувоҳмиз.

Саккизинчи боб

УЧИНЧИ РЕНЕССАНС – ҲАЁТБАХШ ҒОЯ

Бугунги кунда бу ибора халқимиз тилида янги эврилишлар умиди сифатида алоҳида меҳр, ишонч-иштиёқ билан янграмоқда.

«Ренессанс»¹ сўзи француз тилидан олинган бўлиб, уйғониш, тикланиш ва қайта юксалиш сингари маънолар мажмуасини англатувчи бағоят кенг, теран ҳамда улугвор тушунчадир. Европаликларнинг талқинига кўра, ушбу кўҳна қитъада илк ренессанс, яъни илм-фан, адабиёт ва санъат, хуллас, инсоният тақдири учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган соҳалар гуркираб ривожланган ижтимоий-сиёсий ва маданий жараён ўн тўртинчи асрда Италияда бошланиб, ўн беш-ўн олтинчи асрларда унинг атрофидаги бошқа Ғарб давлатларида давом этган. Ва бунинг далил-исботи сифатида Жордано Бруно, Галилео Галилей, Николай Коперник илмий кашфиётлари, Петрарка, Бокаччо ва бошқаларнинг назм ва насрдаги ижоди, Микеланжело, Рафаэль, Леонардо да Винчиларнинг тасвирий санъатдаги бебаҳо асарлари, шунингдек, меъморчиликдаги янги услублар кўрсатилади. Ҳолбуки...

Бу даврда Шарқда, Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистон заминидан алақачон Иккинчи ренессанс бошланган, яъни

¹Словарь иностранных слов. Москва: «Русский язык», 1988. Стр. 428.

Темурийлар давлати деб аталмиш улкан салтанат ҳудудида ижтимоий-маданий равнақнинг янги тўлқини жўш ураётган эди. Биринчи маърифий Ренессанс эса буюк аждодларимиз 9 асрда бошлаб, 12 асргача қатъият билан давом эттириб келганларини, унинг ҳаётбахш сарчашмалари бошида Абу Райҳон Беруний, Хоразмий, Фарғоний, Имом Бухорий, Ибн Сино сингари беназир алломалар турганини бутун дунё биларди. Уларнинг муборак анъаналари Мирзо Улуғбек, Али Қушчи, Ғиёсиддин Жамшид, Мансур Ал Коший, Қозизода Румий, Фақиҳ Абу Лайс, Алишер Навоий, Камолиддин Беҳзод ва бошқалар давом эттирганларидан аҳли жаҳон хабардор эди. Аммо...

Феодал тарқоқлик даврлари, асрий истибдод, мустамлака ва тушкунлик асоратлари халқимиз эришган оламшумул ютуқларга ҳалокатли таъсир этди. Илму фани, адабиёти ва санъати гуллаб-яшнаган улуғ ва беқиёс кишвар муте мамлакатга, арзон-гаров хом ашё ўлкасига айлантирилди. 20-аср бошларида жаҳид боболаримиз, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунаввар қори, Абдурауф Фитрат, Чўлпону Абдулла Қодирийларнинг аслиятимиздаги юксакликни тиклаш, янги ҳаёт қуриш борасидаги саъй-интилишлари яксон қилинди, шафқатсизларча қонга ботирилди. Шукрки...

Аллоҳ инояти ила эришилган истиқлол кўксимизни кўтариш имконини берди. Миллий ва диний қадриятларимизга қайтиш, уларни эъзозлаш ҳуқуқига эга бўлдик.

Бироқ асрлар давомида бой берилган буюк қадриятларимизни, бебаҳо маънавий мулкимизни тиклаш, жой-жойига қўйиш осон эмасди, албатта. Бунинг учун қанча муддат кераклигини ҳеч ким аниқ айтолмас, шунинг учун баланду қуйи минбарлардан туриб, буюк келажак ҳақида орзу ва фаразлар қилишдан нарига ўтолмадик. Ва ниҳоят...

Республикаимиз Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон халқи узоқ келажакда эмас, айна шу бугунги кунларда тўқ, фаровон ва бахтли яшашга ҳақли, деган ғоят дадил ва ўта масъулиятли вазифани илгари сурди. Бу машаққатли вазифани бажариш борасида амалга оширилган ишлар ҳақида юқорида анча-мунча тўхталиб ўтганим учун яна такрорлаб ўтирмайман. Фақат шуни алоҳида таъкидлашни истардимки, мана шу эзгу ўзгаришлар кенг халқ оммаси қалбида ёруғ ва тиниқ акс-садо берди. Раият ўз қудрати ва салоҳиятига янада кучлироқ ишона бошлади. Мадҳиямизда битилганидек, буюк халқ қудрати чин маънода жўш ура бошлади. Ва буни теран илғаган раҳбаримиз янги, янада улкан ва юксак марраларни белгилашга жазм этди.

«Ҳозирги вақтда мамлакатимизда яна бир муҳим Уйғониш жараёни кечмоқда. Шунинг учун «Янги Ўзбекистон» ва «Учинчи Ренессанс» сўзлари ҳаётимизда ўзаро уйғун ва ҳамоҳанг бўлиб янграмоқда, халқимизни улуғ мақсадлар сари руҳлантirmoқда», деди комил ишонч билан Президентимиз «Янги Ўзбекистон» газетасига берган интервьюсида.¹

Шубҳасизки, белгиланажак ҳар қандай марра, кўзланажак катта мақсадлар, аввало, аниқ-тиниқ, реал моҳиятга эга ва уларнинг тарихий пойдевори, замонавий таг-замини бўлмоғи, шунингдек, уларга эришиш имкониятлари, йўл-йўриқлари, усул ва тарзлари пухта ҳисоб-китоб қилиниши шарт. Акс ҳолда бу баландпарвоз шиор, қуруқ даъватдан иборат бўлиб қолаверади.

Айнан шу маънода ўз иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг барқарор йўлига тушиб, йиллик ўсиш суръатлари бўйича дунёдаги пешқадам давлатлар қаторидан мустаҳкам ўрин эгаллаётган Ўзбекистон бугун ўз олдига ҳар қандай сарбаланд ва мураккаб марраларни қўйишга тўласинча ҳақлидир.

¹ «Янги Ўзбекистон» газетаси. 2021 йил 17 август.

«Янги Ўзбекистон орзуси, бугунги кунларимизга нисбатан айтганда, ҳозирги даврнинг тақозоси, унинг асл қиёфасини, ҳаракатлантирувчи кучлари ва омилларини белгилайдиган ғоявий-маънавий асос, халқимизга хос яратувчанлик шижоати ва кенг кўламли ислоҳотларимизнинг яққол ифодасидир»¹, дейилади Президентимизнинг «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси» китобида.

Худди шундай, Учинчи ренессанс пойдеворини яратиш ва пировардида уни реал воқеликка айлантириш нияти ҳам ҳозирги даврнинг қонуний тақозосидир. Унга эришиш учун барча тарихий асослар, замонавий имкониятлар, куч ва салоҳият мавжуд. Ҳамма гап аҳли Ватан, замондош биродарларимизнинг, айниқса, ёвқур ва шиддаткор ёшларимизнинг ақл-заковати, ғайрат-шижоати, она юрт ва азиз халқимизга садоқатига боғлиқ. Зеро, аҳолисининг қарийб 60 фоизини 30 ёшгача бўлган ўғил-қизлар ташкил этувчи Ўзбекистон том маънода ёшлар мамлакатидир. Унинг порлоқ келажаги ана шу улкан авлод қўлида эканлигини таъкидлаб ўтирмасак ҳам бўлади.

Буни теран англаган мамлакатимиз етакчиси ўз Президентлик фаолиятининг бошларидаёқ элимиз аҳлига шундай даъват билан мурожаат этган эди:

«Мен буюк шоиримиз Чўлпон шеърий сатрлари билан сизларга, бутун халқимизга мурожаат қилмоқчиман: «Бутун кучни халқ ичидан олайлик, кучоқ очиб мактабларга борайлик»².

Кейинроқ бу оташин даъват аниқ режага, жанговар мақсадга, амалга оширилиши қатъиян шарт қилиб қўйилган муҳим вазифага айланди.

¹ Шавкат Мирзиёев. «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси», Тошкент: «Ўзбекистон», 2022. 11-б.

² Шавкат Мирзиёев. «Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари». 4-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. 159-б.

«Янги Ўзбекистон мактаб остонасидан бошланади, деган улуғ ғоя асосида мамлакатимизда мактаб таълимини умуммиллий ҳаракатга айлантириш бўйича бошлаган ишларимизни янги босқичга кўтарилмоқда. Юртимизда мутлақо янги мазмун ва шаклдаги замонавий ихтисослаштирилган мактаблар тизимини яратиш бўйича давлат дастурлари ишлаб чиқамиз ва амалга оширамиз»¹, деб ёзилди «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси» китобида.

Бугунги кунда мамлакатимизда мактаб таълими тизими тубдан ислоҳ қилинаётгани ҳеч кимга сир эмас. Ихтисосига кўра илм кишиси бўлганим учун, шахсан менга мана шу ислоҳотларнинг оқилона ва аниқ йўналишлар бўйича мақсадли тарзда амалга оширилаётганлиги, айниқса ёқади. Айтайлик, биз узоқ йиллардан буён катта олимлар, буюк ижодкорлару санъаткорлар, спорт усталарининг маҳорат мактаблари ҳақида кўп гапириб келганмиз. Бироқ бу борада, очиғи, назарий фикрлардан нарига ўтолмаганмиз. Бугун мана шундай мактаблар амалда фаолият кўрсатаётганлиги, улар нафақат пойтахтда, балки ҳар бир вилоятда мавжудлиги айтиш ҳақиқат. Уларда алоҳида қобилиятга эга бўлган ўғил-қизлар танлов ҳамда имтиҳонлар асосида қабул қилиниб, муайян фанлар ихтисослашган тарзда чуқур ва кенг ўргатилмоқда. Бинобарин, худди Президентимиз орзу қилгани ва бу ҳақда кўп такрорлаётганидек келажакда юртимиз фарзандлари орасидан янги Берунийлар, Хоразмийлар, Фарғонийлар, Мирзо Улуғбек ва Алишер Навоийлар етишиб чиқажагига шак-шубҳа бўлиши мумкин эмас. Учинчи Ренессанс пойдевори айнан шу қоракўзлар томонидан, шу синфларда, аудиторияларда, лаборатория ва ижодхоналарда, тажриба-синов майдонларида барпо этилажак.

¹ Шавкат Мирзиёев. «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси». Тошкент: «Ўзбекистон», 2022. 224-б.

Президент мактабларидаги иш услубининг жаҳондаги энг мутараққий мамлакатлар даражасида эканлиги, бу борада хорижий тажрибаларни ўрганиш кенг йўлга қўйилгани, Америка ва Европа давлатларидан етук мутахассис ўқитувчилар жалб этилгани бутун республикадаги таълим-тарбия тизими учун ўзига хос намуна бўлмоқда. Баъзан: «Бу хилдаги янгича таълим даргоҳлари шу чоққача мавжуд мактаб тизими аҳамиятини пасайтирмайдими, уларга бўлган қизиқишни сусайтириб қўймайдими?» деган саволларни эшитиб қоламан. Аксинча, янгича билим масканлари мамлакатдаги бутун таълим тизимига ибрат, замонавий таъбир билан айтганда, драйвер вазифасини бажаради. Қолаверса, мамлакатимиз раҳбарияти қандайдир алоҳида, сараланган мактабларни эмас, барча билим даргоҳларини бирдек мутаносиб ривожлантириш чораларини кўрмоқда. Юртимизнинг энг чекка қишлоқларидаги бирорта мактабни ҳам эътибордан четда қолдирмасликка ҳаракат қилмоқда.

Бу фикрнинг энг оддий исботи сифатида қуйидаги воқеани келтирмоқчиман. Ушбу сатрларни ёзаётган кунларимда республика Президенти Шавкат Мирзиёев Самарқанд шаҳридаги кўзи ожиз болалар мактаб интернатига ташриф буюрганини, у ердаги ўқувчилар, ўқитувчилар билан батафсил суҳбатлашгани, билдирилган ҳар битта фикр, мулоҳаза, таклиф ва истакни диққат-эътибор билан тинглаганини, айрим муаммоларни шу заҳотиёқ ҳал этиб берганини телевизор орқали томоша қилдим. Зотан...

Бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Мамлакатимизда Шавкат Мирзиёев шахсан бормаган ёхуд ҳали бориб улгурмаган бўлса-да, ҳол-аҳволи ва муаммоларини бевосита билмаган бирорта таълим-тарбия, саломатлик, меҳр-мурувват масканлари қолмади, десам муболаға бўлмас. Оддий одамлар орасидан чиққан, уларни

юрак-юрагидан севгувчи, дарду ташвишларини яқиндан билгувчи ва теран ҳис этгувчи инсонпарвар Президент фаолиятининг ҳар бир куни, ҳар бир соати бугун эл кўз ўнгида ва у тўласинча Ватан, халқ хизматига, эл-юрт бахту саодати йўлидаги фидокорона меҳнатга бахшида этилганини инкор этиш мумкинми? Менимча, йўқ! Буни ҳақиқат ва адолат ҳаққи ҳурмати уни узоқ-яқиндан биладиган ҳар бир инсон, ҳатто унга мухолиф кишилар ҳам холисона тан оладилар, дея ишонаман.

Мактаб таълими ҳақидаги фикрларимизни мухтасар қилиб, бу борадаги якуний мулоҳазаларни айтадиган бўлсак, муҳтарам Президентимизнинг бу борадаги сиёсати буюк маърифатпарвар Абдулла Авлонийнинг ушбу соҳа биз учун ҳаёт-мамонт масаласи эканлиги ҳақидаги оташин даъватидан келиб чиққан ҳолда олиб борилаётганлигини, бас шундай экан, бу йўлда кўзланган эзгу ва улуғвор мақсадларга албатта эришилажагига қатъий ишонамиз.

Тўққизинчи боб

«ЭМАС ОСОН БУ МАЙДОН ИЧРА ТУРМОҚ»

Сарлавҳадаги сатрларни ҳазрат Мир Алишер Навоий ўзининг шоҳ асари – «Хамса»ни яратишга киришиш арафасида ёзган экан.

*«Эмас осон бу майдон ичра турмоқ,
Низомий панжасига панжа урмоқ...»*

Яъни Шарқ поэзиясининг гултожи ҳисобланмиш улкан эпик асарни, туркий адабиётдаги илк мукаммал дostonлар бешлигини дунёга келтиришнинг ўзи бўлмаслигини у яхши англр, бу йўлдаги қийинчилик ва машаққатларни, тўсиқлар ҳамда қарама-қаршиликларни аниқ тасаввур этарди. Сир эмаски, Алишер Навоий ўз «Хамса»сини туркий, хусусан, ўзбек тили ва адабиётининг ҳақ-ҳуқуқлари учун қаттиқ кураш кетаётган бир вазиятда яратди. Не бахтки, бу саъй-ҳаракат беҳуда кетмади – айнан «Хамса» она тилимиз ва миллий адабиётимиз қадри учун курашнинг байроқдори бўлган буюк мутафаккирнинг ижодий зафари эмас, ўзбек мумтоз адабиётининг оламшумул ғалабаси ўлароқ тарихимиз саҳифаларига олтин ҳарфлар билан битилди.

Умуман, кенг миқёсли, айниқса, шу чоққача муайян тарихий-жўғрофий майдонда мавжуд бўлмаган, маҳаллий шарт-шароитлар

учун тамоман янги ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий ҳодисани вужудга келтириш ҳеч қачон осон бўлмаган. Бунинг устига шу чоққача шу мақсад ва йўналишларда қилинган уринишлар бесамар ёхуд етарлича натижаларга эришилмаган, шунинг оқибатида раият катта қисмининг ҳафсаласи пир бўлган ва ижтимоий-сиёсий лоқайдлик кайфияти ҳукм сура бошлаган шароитларда наинки янгиланиш, балки олға ҳаракатланишнинг ўзи уддалаб бўлмайдиган вазифага айланади.

Шавкат Мирзиёев Президентликка келган дастлабки ойлар, йиллар хронологиясига синчиклаб назар солар эканман, унга нақадар қийин бўлганлигини ва ҳозир, айни дамларда ҳам заррача осон эмаслигини яққол тасаввур этаман.

Сардоба сув омборидаги ўпирилиш мамлакатимиз тарихидаги йирик техноген ҳалокатлардан бири бўлди.

Кекса олим сифатида дарҳол изоҳлаб ўтишим лозимки, ер юзидаги деярли барча мамлакатлар, чунончи, юксак даражада ривожланган давлатлар тарихида ҳам бу сингари ва бундан неча юз, минг баравар вайронкор техноген ҳалокатлар юз берган. Яъни ҳар қанчалик абсурд бўлиб кўринмасин, бу сингари кулфату фалокатлар кўпроқ тараққиёт сари жадал интилаётган жамиятларда кўпроқ учрайди. Жайдари қилиб тушунтирадиган бўлсак, иш бор жойдагина камчилик ва нуқсон бўлиши мумкин. Мисол учун, собиқ СССР, ҳозирги Украинанинг Чернобил ва Япониянинг Фукусима атом электр станцияларидаги воқеаларни эсга олишимиз мумкин. Худога шукр, кўрилган зарар ва келиб чиққан оқибатлар нуқтаи назаридан Сардоба тошқинини уларга мутлақо солиштириб бўлмайди. Гарчи фожианинг катта-кичиги йўқ дейдилар. Чунки етти иқлимнинг бож-хирожи биргина гўдакнинг кўз ёшига арзимади, дея огоҳлантиришган машойихлар. Бинобарин, ушбу ҳодиса юртимиз аҳли учун умуммиллий кулфат, катта синов бўлди.

Бироқ...

Мамлакатимиз раҳбарининг ушбу фалокат ҳақидаги бор ҳақиқатни бутун халқимизга рўй-рост, очиқ айтиб, унинг асоратларини бартараф этиш борасидаги чора-тадбирлар режасини аниқ баён этиб, қилинажак ишларга илк соатларданоқ шахсан бошчилик қилишга киришиши тошқиндан зарар кўрган барча кишилар, қолаверса, бутун эл-юрт дардига малҳам бўлди, уларнинг эртанги ёруғ кунларга умидини мустаҳкамлади, ҳамжиҳатликка, елкама-елка туриб комил ишонч билан ишлашга ундади. Натижада чўл қўйнида тамоман янги, пойтахт шаҳарлар, дунёдаги энг катта мегаполислар даражасидаги шарт-шароитларга эга бўлган ажойиб шаҳарча қад кўтарди. Русларда: «не было бы счастья, да несчастье помогло» деган ғалати бир мақол бор. Ўзимизнинг жайдари лаҳжаларимизда бунинг муқобаласи тахминан: «ҳар ёмон ҳодисанинг бир яхши томони бор» бўлса керак. Аммо-лекин ана шу биргина яхши жиҳатни юзага чиқариш нечоғлик мураккаб ва машаққатли юмуш эканлигини ҳар ким ҳам тасаввур этолмаса керак.

Нима бўлганда ҳам шу нарса яққол аёнки, Сардоба тошқини оқибатларининг қисқа фурсатда бартараф этилиб, маҳаллий аҳоли вакилларининг аввалгидан бир неча баробар юқори бўлган яшаш шароитлари яратиб берилгани мамлакат раҳбарининг теран тафаккури, ташкилотчилик санъатини бутун дунёга яна бир карра ёрқин кўрсатиб, мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотларга нисбатан ишончни янада мустаҳкамлади.

Ковид-19 пандемияси бутун дунё аҳолисини, айниқса ер юзидаги катта-кичик, ривожланиш даражаси турлича барча мамлакатлар халқлари, шу жумладан, давлатлар раҳбариятларини ўта мураккаб имтиҳондан ўтказди десам, муболаға бўлмайди. Бу офат қаршисида не-не алломаю замонларга, юксак даражадаги

муолажа хизмат тизимига, қадим-қадимдан бу соҳада катта тажриба ва мукамал анъаналарга эга бўлган АҚШ, Германия, Франция, Италия, Хитой, Ҳиндистон тиббиётлари эсанкираб, саросимага тушиб қолганига, минглаб, юз минглаб қурбонлар берилганига гувоҳмиз. Ҳар тугул тараққийпарвар жаҳон жамоатчилиги бу балога қарши баҳамжиҳат курашга отланди ва унинг даҳшатли хавфини қадам-бақадам камайтириб боришга эришди.

Ўзбекистон ана шу курашнинг олдинги сафларида бўлганлигини, шунинг самараси ўлароқ, бошқа жойлардагидан бир неча ўнлаб баравар кам талафот кўрганлигини бутун дунё аҳли эътироф этмоқда. Бу кўнглимизга ғурур бағишлайди ва ана шу соҳадаги ташкилий ишлар мамлакатимиз Президенти йўлбошчилигида ғоят сергаклик билан оқилона, маҳорат билан олиб борилганига яна бир қарра амин бўламиз.

Яна шунга амин бўламизки, бу мураккаб синовдан муваффақиятли ўтишимизда кейинги йилларда соғлиқни сақлаш соҳасида ўтказилган туб ислоҳотлар, чунончи, медицина илмини, тиббий хизматни замонавий талаблар даражасига кўтариш борасида амалга оширилган кенг кўламли ишлар ҳал қилувчи ўрин тутди.

Албатта, техноген ҳалокатлар ёхуд коронавирус сингари баногоҳ ёпирилиб келувчи офатларга қарши кураш, уларни енгиш ва асорату оқибатларини бартараф этиш, ҳарчанд қийин бўлмасин, ҳар тугул қунт, қатъият, сабру бардош ила муайян муддатларда ҳал қилиш мумкин бўлган муаммолардир. Буни бугунги ҳаётнинг ўзи ҳам яққол кўрсатиб турибди. Бироқ...

Шундай бало-офатлар борки, улар бир қарашда кўзга ташланмайди, ҳатто нигоҳу тасаввурларимизни шамғалат қилиб, худди ҳаётимизнинг азалий қонуниятларидек туюлади. Надоматким, айримлар уларсиз яшаш, турмушдаги каттаю кичик муаммоларни ҳал қилиб бўлмайди, деган тасаввурларга асир бўлиб

яшайдилар.

Ҳолбуки, ҳаётдаги барча ўткир муаммолар, фожиалар айнан мана шу биз сукутли ризолик билан кўникиб қолган иллатларга бориб тақалади. Улар бамисоли барқ уриб, гуркираб яшнаётган дарахт томирига тушган қуртлар мисоли жамиятни ичдан емиради, унинг маънавий-ахлоқий қиёфасини тубанлаштиради.

Шулардан энг даҳшатлиси, шубҳасиз, коррупциядир. Уни жиловлай олмаган мамлакату жамиятдаги тараққиёт ва фаровонлик, адолат ва ҳаққонийлик ҳақида орзулар йиллар, асрлар бўйи қуруқ гаплигича қолаверади. Айниқса...

Биз каби азал-азалдан исломий мўминлик, «каттага ҳурмат, кичикка иззат» тамойили асосида шаклланган, «тепангга битта чўпни тикка қилиб қўйса ҳам итоат эт» қабилидаги ақидалар руҳида тарбияланган жамият аҳли бундан не-не жабру жафолар чекмадик ахир!

*«Додхоҳим, додхоҳлик сенга хос,
Порасиз ўтмас сенга юз илтимос,
Учраса илдам мовут тўнлик киши,
Ўйлашиб сўнг учрашар йиртиқ либос»,*

дея алам ва ҳасрат билан ёзган эди демократ шоиримиз Муқимий. Афсуслар бўлсинким, номи додхоҳ, яъни элу раиятнинг додини, арзу ҳолини эшитишга масъул бўлган амалдор, қозию қуззот, миршаб қавми асрлар давомида зулм ва адолатсизлик, порахўрлик, ошна-оғайнигарчилик, ҳозирги истилоҳлар билан айтганда, коррупция, лоббизм, непотизм рамзи бўлиб келди. Оддий халқ эса: «онангни қози сўкса, арзингни кимга айтасан», дея изтиробли киноя қилишдан нарига ўтолмади.

Собиқ СССР давридаги ҳукмрон мафкура узоқ йиллар

давомида бу иллатларни «коммунистик ахлоқ кодекси», партиявий назорат ҳамда қонун асосидаги жазо чораларини ҳаддан ортиқ кучайтириш йўли билан бартараф этишга чандон уриниб келган бўлса-да, таг-томири билан йўқотолмади.

Мустақилликдан кейин миллий, диний қадриятларимиз тикланиб, демократик эркинликлар жорий этилгани сари бу борадаги саъй-ҳаракат ва курашлар самаралироқ бўлажигидан, қолаверса, жамиятимизнинг барча қатлам ва тоифаларида миллатимизга хос инсоф-диёнат, ўзганинг ҳақини, айниқса етим-есирлар ризқу насибасини ейишдан қўрқиб, эл-юртга қайишиш сингари муқаддас тушунчалар чуқур илдиз отиши, кенг қарор топишидан умид қилган эдик. Бироқ «ўрганган кўнгил ўртанса қўймас», деганларидек, айрим тоифа кимсалар ўз билганларидан қолмадилар. Бунинг оқибатида коррупция ва порахўрлик, ошна-оғайнигарчилик, маҳаллийчилик тўласинча барҳам топмади. Бу эса Президент кўп марта ҳаққоний таъкидлагани сингари халқнинг ҳақиқат ва адолатга бўлган ишончини сусайтирди.

Шавкат Мирзиёев Президентлик фаолиятининг дастлабки даврлариданоқ ана шу иллатларга қарши кенг жабҳадаги кураш бошлангани эл кўнглида сўниб улгурмаган умидларни қайта ундирди. Узоқ йиллар давомида танқиддан мутлақо холи ҳисобланиб келган, оддий одамлар учун, ҳатто номининг ўзи қўрқинчли туюла бошлаган хавфсизлик хизмати ходимларининг машъум кирдикорлари ҳақида очиқ-ошкор гапирила бошлангани, бу соҳада кескин ўзгаришлар қилингани, жиноят қилганлар ҳаққоний жазога тортилгани, очиғи, ўта ҳайратланарли эди. Бу ҳодисадан илк бора шундай жудаям чуқур ҳикматли маъно келиб чиқдики, эл сайлаган давлат бошлиғи, чин маънодаги миллат сардори ўз ҳокимиятининг хавфсизлиги, барқарорлигининг

кафолати сифатида куч ишлатар тизимларга эмас, халқ оммасига таянмоғи керак.

Шу ўринда, кўпни кўрган бир қария сифатида шундай бир муқоясани келтириб ўтишни жоиз кўраман. Кимгадир бу мисол ноўрин туюлса, маъзур кўрар. Шарқ мамлакатлари тарихи шуни яққол кўрсатадики, куч ишлатар тизимларга халқ назоратидан холи қилиб қўйиш, уларга ҳаддан ортиқ ваколатлар бериш, юмшоқ қилиб айтганда, жамият «эркатойлари»га айлантириш ҳамиша аянчли оқибатларни келтириб чиқарган. Аксар исёну фитналар давлат тўнтаришлари айнан ана шу тизимлардаги нопок мансабпараст кимсалар томонидан уюштирилган. Мисол учун, узоққа бориб ўтирмасдан, Туркияда 2016 йилда бўлган воқеаларни келтириш мумкин. Узоқ йиллар давомида алоҳида мақомларга эга бўлиб келган ва кейинги пайтларда ўтказилган демократик ислохотлар оқибатида бу имтиёзлардан маҳрум бўлган бир ҳовуч исёнчи ҳарбийларнинг давлат тўнтариши қилишга бўлган уриниши ўз Президентига чексиз ҳурмат-эътиқодли, меҳр-муҳаббатли ва садоқатли халқ оммаси томонидан чиппакка чиқарилди. Дарҳақиқат, элпарвар ва доно йўлбошчилар ҳамиша, ҳар вақту замонларда она халққа қайишган ва шу туфайли унинг мустаҳкам садоқатидан, кўмагию мададидан баҳраманд бўлиб келишган.

Шавкат Мирзиёев қатъий илгари сураётган талаблардан бири – қонун олдида ҳамма тенг бўлмоғи, ҳеч қандай соҳа, тизим учун алоҳида имтиёзлар яратилиши мумкин эмаслигига жамият аъзоларида чуқур ишонч бўлиши шарт.

Президентнинг мана шу йўналишдаги дадил ва қаттиққўл сиёсати аҳолининг ислохотлар натижасига ва қолаверса, янги Ўзбекистонни яратиш борасидаги саъй-ҳаракатларга ишончи ва иштирокини кучайтирди.

Қонун муҳофазасига масъул идораларнинг энг баланд мартабали амалдорларнинг жиноий кирдикорлари фош этилиб, ҳаққоний жавобгарликка тортилиши эндиликда коррупцияга қарши кураш ўта жиддий, ҳаққоний ва барқарор бўлажигидан яққол нишона сифатида намоён бўлди. Бунинг амалий исботи эса, ўтган йиллар давомида катта-кичик амалдорлардан ўнлаб, юзлаб нафари жиноят устида қўлга олиниб, қонуний жазога тортилаётганида яққол кўринмоқда. Коррупцияга қарши кураш борасида янги фармону қарорлар имзоланиши, шу соҳага масъул янги тузилмалар вужудга келиши, албатта, яхши. Бироқ бу ўта хавфли ва яшовчан иллатга қарши кураш чинакам умумхалқ ҳаракатига, кексаю ёш, хуллас, жамиятнинг ҳар бир аъзоси учун ор-номус ишига айланмас экан, кўзланган натижага эришиш қийин кечади. Умид қиламизки, бу йўлда Президент раҳбарлигида олиб борилаётган ишлар кўлами янада кенгаяди, жамиятимизни поклаш йўлидаги кураш асло сусаймайди.

Ушбу покланиш жараёни, шубҳасиз, барча жабҳаларни, айниқса, қонун муҳофазасига масъул ҳуқуқ-тартибот идора-ташкилотларини нопок унсурлардан қатъият билан тозалаш, янги, ёш ва принципиал кадрлар билан таъминлаш ва шу асосда уларнинг жамият ҳаётидаги ўта муҳим ролини асло сусайтирмасдан, балки аксинча, қатъият билан кучайтириш, бу зарур ишни мазкур соҳалар вакиллари билан халқ оммаси ўртасидаги ўзаро самимий муносабатни қарор топтириш, яқдилликни мустаҳкамлаш билан қўшиб олиб боришни тақозо этади. Зеро, жамият ҳаётидаги осойишталик, ишчан ва серғайрат муҳитни ҳуқуқ-тартиботдаги барқарорликсиз тасаввур этиб бўлмайди.

Шуниси қувончлики, давлат раҳбарининг мана шу масалага алоҳида муҳим аҳамият бераётгани, ушбу соҳалар ходимлари фаолиятини дунёдаги энг ривожланган мамлакатлардаги сингари

даражаларга кўтариш, энг замонавий жиҳозлар, асбоб-ускуналар билан таъминлаш долзарб вазифа қилиб қўйилгани эндиликда бу борада юксак натижаларга эришилажагидан далолат беради.

Давлат раҳбарининг шахсан ўзи, унинг командасидаги янгича фикрловчи, ёш ва замонавий кадрларнинг мудом халқ орасида юриб, ўткир муаммолар, долзарб масалаларни диққат-эътибор билан ўрганишдан эринмаслиги, Президент халқ қабулхоналарига оқиб келаётган ариза-шикоятлар, таклиф-мулоҳазаларнинг номига, хўжақўрсинга эмас, балки синчиклаб текширилаётгани, тобора эркинлашиб, дадиллашиб бораётган матбуот ва оммавий ахборот воситаларининг чиқишларига сергаклик билан қулоқ тугилаётганлиги жамият тараққиётига тушов бўлаётган жамики иллатларни ўз вақтида аниқлаш ҳамда йўқотиш чораларини кўришга имкон бермоқда. Эндиликда ҳукумат матбуот ёки ижтимоий тармоқлар орқали муаммо кўтарган, муайян масалада танқидий фикр билдираётган журналист, блогер ёинки ўзи ва ўз қишлоқдоши, юртдоши ҳақ-ҳуқуқини ҳимоя қилишни сўраб мурожаат этаётган оддий бир фуқаро овозини бажонидил тоб-тоқат билан эшитмоқда. Қўйилаётган масалаларнинг қонуний тарзда ҳал этилишига астойдил қўл урмоқда.

Узоқ ва яқин хориждаги турли ҳуқуқий ташкилотлар Ўзбекистонга узоқ йиллар давомида қўйиб келган талаблари бажарилганини эътироф этаётгани, билдириб келган эътирозларини бекор қилаётганликларининг ўзи мамлакатимизда қонунийлик, инсон ҳуқуқлари таъминланиши борасида тан оларли натижаларга эришилганининг ёрқин далилидир. Ушбу сатрларни ёзаётган кунларимда Ўзбекистон пахта толасини Ғарб мамлакатларига экспорт қилиш бўйича анча йиллар давомида ҳукм сурган тақиқлар бекор қилингани ҳақида хабар тарқалди. Бу

эзгу мужда, шубҳасиз, экспорт имкониятларимиз янада ошажаги, иқтисодий тараққиётимиз янада жадаллашажагидан нишонадир.

Ўзбекистон учун алоҳида муҳим аҳамиятга эга ўткир муаммолардан бири, шубҳасиз, меҳнатга лаёқатли аҳолининг анчагина қисми узоқ ва яқин хориждаги мамлакатларда муҳожирликда юрганидир. Албатта, уларни ҳеч ким она юртдан ҳайдаган ёки уларнинг ўзлари бегона ўлкаларга «ўйнагани» кетган эмас. Тирикчилик ғами, рўзғор ва бола-чақа боқиш ташвиши шу кўйга солган. Аксарияти ўта қийин шароитларда, хорлигу зорликлар, фожеий воқеаларга дучор бўлиб, топган пулини оиласига жўнатиб, шу орқали мамлакатимиз иқтисодиёти ривожига билвосита баҳоли қудрат ҳисса қўшиб келмоқдалар. Афсуски, шу ҳақиқатларни кўра-била туриб, яқин-яқингача улар тақдирига бепарқ, ҳатто ҳақоратомуз қараб келинди. Шавкат Мирзиёев ана шу адолатсизликка кескин чек қўйди. Хорижда ишлаб юрган ватандошларимизга жон-жигарларимиз сифатида муносабатда бўлиш ташаббусини бошлаб берди. Бу борада бутун халқ томонидан беҳад хурсандчилик, миннатдорчилик билан кутиб олинган аниқ амалий тадбирларни амалга оширди. Мусофирликда бахтсиз ҳодисаларга дучор бўлган ватандошларимизни зудлик билан оилалари бағрига қайтариш мақсадида махсус самолётлар, бутун-бутун поезд эшелонларини сафарбар этди. Энг муҳими...

Ўзбекистон фарзандлари ўзга юртларда саргардон бўлишининг бош сабаби – ишсизлик, камбағалчилик муаммолари ҳақида асл ҳақиқатни халқнинг кўзига тик қараб, очиқ-ошкор айтди ва ана шу муаммоларни ечишни ўз сиёсатининг бош масалаларидан бири қилиб белгилади. Шу йўлда ўзи ҳам тиним билмай, жамики масъулларни тиндирмасдан кечаю кундуз меҳнат қилмоқда.

Албатта, ҳали-ҳануз муаммо ва қийинчиликлар етарли. Уларни, Президент таъбири билан айтганда, ҳеч ким бир жойдан

келиб ечиб, енгиб бермайди. Барчасини ўзимиз ўз кучимиз, тафаккуримиз, ғайрат-шижоатимиз билан бартараф этмоғимиз даркор. Бу эса осон эмас. Аммо...

Бу ҳаётда эзгуликка йўналган бирор осон иш борми ўзи? Бани башарият ҳаётининг минглаб йилларга бориб тақалувчи тарихи равшан кўрсатадики, тирикликнинг асл мазмуни қийинчилик ва машаққатларни енгил орқали маънавият юксакликлари сари интилишдан иборатдир. Дунёдаги мутараққий мамлакатлар, қудратли давлатлар, бой-бадавлат ва фаровон турмуш кечиришга эришаётган элу халқлар тажрибасидан маълум: бу интилишнинг самараси албатта ижобий бўлажак.

Шу ўринда мамлакатимиз раҳбари алоҳида аҳамият бериб, ҳаётимизга қатъият билан жорий этаётган янгича маҳалла институти ҳақида бир-икки оғиз мулоҳазаларимни айтиб ўтсам. Чунки, жамиятимиз турмушидаги катта-кичик муаммоларни ҳал қилишда ана шу бетакрор ва бебаҳо тизимнинг нақадар катта аҳамиятга эга эканлигини ҳаётнинг ўзи яққол кўрсатмоқда. Бинобарин юртбошимизнинг бу йўналишдаги ишларни қунт билан илгарилатаётгани бежиз эмаслиги аён бўлаётир.

Маҳалла ўзбек халқининг азалий ўзак қадриятларидан бири ҳисобланади. Қадимдан бир маълум ва машҳур нақл борки, ҳар қандай мушкулотнинг илдизини топмоқчи бўлсанг, унинг ўзагига қара. Президентимиз аҳоли турмуш осойишталиги, ўзаро аҳилликни таъминлаш ҳамда фаровонликни юксалтириш масалалари ечимини маҳалла тизимини мукамаллаштириш ва ривожлантириш билан боғлаётган экан, шубҳасиз, ана шу азалий ҳикматдан келиб чиқмоқда. Бинобарин мен ушбу йўналишда олиб борилаётган ишларнинг муваффақиятига қатъий ишонаман.

Ўнинчи боб

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН МЕЪМОРИ

Алқисса, ушбу китобнинг шундай номланиши ва умуман майдонга келиши сабаби ва натижалари ҳақида икки оғиз сўз юритиш мавриди келди, деб ўйлайман.

«Қудратимизга шак-шубҳангиз бўлса, бунёд этган иморатларимизга боқинг», деган экан соҳибқирон бобомиз Амир Темур. Камина ушбу сўзлардан имкон қадар кенгроқ маъно кўришга ҳаракат қиламан. Назаримда гап фақат ўша даврларда барпо этилган ва дунё аҳлини ҳали ҳануз ҳайратга солиб келаётган тенгсиз иморату иншоотлардагина эмас. Аввало, асрлар бўйи мўғул истилоси остида тарқоқ ва бошбошдоқ бўлиб ётган буюк эл-юртни бирлаштириб, мустақил ва қудратли давлат бунёд этиш акс этади бу ҳаққоний иддаода. Иккинчидан, мана шу марказлашган қудратли давлатда илм-фан, маданият ва маънавият тараққиёти юксак даражага кўтарилгани, натижада бутун дунё тарихида «Темур ва темурийлар даври илм-фани ва маданияти» деган объектив эътирофнинг пайдо бўлиши инъикос топган. Учинчидан, соҳибқирон яратган салтанат мангуликка дахлдорлиги яққол кўриниб туради ушбу мағрур мурожаатномада.

Шу маънода Амир Темурни Марказий Осиё, қолаверса, ер юзидаги энг улкан ва ҳар жиҳатдан мукамал салтанат меъмори сифатида эътироф этишга ҳақлимиз.

Соҳибқироннинг юқорида келтирилган сўзларига қайтиб,

«меъмор» сўзининг бевосита маъноси, яъни бунёдкорлик, бинокорлик, қурилиш ва ободонлик соҳасида амалга оширилган ишлар ҳақида фикр юритадиган бўлсак, Амир Темур ва темурийлар даври бунёдкорлиги тарихи дунё тамаддуни тарихида алоҳида ўрин тутиши ҳеч кимга сир эмас. Нафақат салтанат пойтахтидаги ер юзига зеб бағишлаган ва асрлар оша тиллардан-тилларга ўтиб келаётган маълум ва машҳур: «Самарқанд – ер юзининг сайқали» иборасининг туғилишига сабаб бўлган ҳайратланарли иморатлар, қолаверса, Марказий Осиёнинг бошқа шаҳарларидаги осори атиқалар ҳазрати соҳибқироннинг жаҳон тарихида фақат қудратли саркарда эмас, балки шу билан биргаликда беназир бунёдкор сифатида қолишига асос бўлди. Яъни эндиликда фақат Ўзбекистон эмас, бутун дунёда қурилиш ва меъморчилик фанлари ҳақида сўз борар экан, «Темур даври архитектураси, бинокорлик тамойиллари» мавзуси муқаррар тилга олиниши, эътироф этилиши, катта қизиқиш билан ўрганилиши оддий воқеликка айланди. Сирасини айтганда, бундай толе тарихда ўтган камдан-кам ҳукмдорларгагина насиб этиши мумкин.

Ҳа, улкан давлат бошлиқларининг муайян соҳаларда мавжуд давр, мавжуд шарт-шароитлар учун фавқулодда аҳамиятли янгилик бўлган бунёдкорлик ишлари тарихга айнан ана шу ҳукмдор номи ила эгизак бўлиб киради ва асрлар бўйи тилдан-тилга кўчаверади. Зеро, халқ барча даврларда давлат бошлиқларининг айнан қурилиш-бунёдкорлик, ободонлаштириш ва боғлар яратиш соҳасидаги фаолиятига алоҳида диққат-эътибор билан қарайди. Бу саъй-ҳаракатларнинг ҳаққоний баҳосини абадиятга дахлдор қилиб қўяди. Бунга юртимиз тарихидан қатор ибратли мисоллар келтириш мумкин. Айтайлик, Самарқанд ва Жиззах вилояти ҳудудларида Шайбонийлар сулоласининг вакили бўлмиш улўф ҳукмдорлардан бири Абдуллахон Иккинчи даврида барпо этилган «Абуллахон тўғони», «Хон банди», «Абдуллахон кўприги» сингари

иншоотлар қолдиқлари ҳозиргача сақланган ва бугунги кунда улар меъморий ёдгорликлар сифатида кўриқланади. Айримлари, ҳатто қайта тикланган. Умуман, бу ҳукмдор даврида халқ хўжалиги учун муҳим аҳамиятга эга юқорида айтганимиз сингари кўплаб иншоотлар – каналлар, сув айиргичлар, тўғонлар, сув омборлари, кўприклар қурилган. Мутафаккир ва муаррих Камолиддин Биноийнинг ёзишича, биргина Зарафшон дарёси бўйлаб 21 та ана шундай иншоот барпо қилинган. «Шу ҳолни назарда тутсак, Иккинчи Абдуллахонни ўзбек давлатчилиги тарихида катта ўрин эгалловчи буюк давлат арбобларидан бири, дейишга ҳақлимиз»¹, деб ёзади таниқли адиб ва публицист Абдуқаҳҳор Иброҳимов ўзининг «Бизким, Ўзбеклар» китобида.

Ўзбекистон пойтахти Тошкент шаҳрининг 1966 йилги зилзиладан сўнг тамоман қайтадан, кўркам, қулай ва замонавий қилиб қурилиши, унда жаҳондаги энг катта мегаполисларгагина хос бўлган, Ўрта Осиёда биринчи ер ости йўли – метро барпо этилиши мамлакатимизнинг ўша даврдаги олий раҳбари Шароф Рашидов номи билан боғлаб эсга олиниши ҳам ушбу фикримизни тасдиқлайди.

Бу тарихий мисолларни эслашдан мақсад айни кунларда наинки тобора кенгайиб, кўкка бўй чўзиб, гўзаллашиб бораётган республикамиз пойтахти Тошкент, балки она юртимизнинг барча бурчакларида мазмун-моҳиятига кўра мутлақо янгича иншоотлар ой сайин, кун сайин кўплаб қад ростлаётганига урғу беришдан иборатдир. Инсон табиати шундайки, баъзида ёнгинасида юз берган мислсиз тарихий ўзгаришлар аҳамиятини ҳам етарлича теран ҳис этмайди, оламшумул бунёдкорлик ишларига ҳам тез кўникади ва уларни оддий воқеликлар сифатида қабул қила бошлайди. Доно халқимизнинг «Олдиндан оққан сувнинг қадри йўқ» деган нақли бекорга пайдо бўлмаган шекилли. Ҳолбуки...

¹ Абдуқаҳҳор Иброҳимов. «Бизким, Ўзбеклар». Тошкент: «ШАРҚ» НМАК, 2019. 54-6.

Бийдай чўл қўйнида жаҳондаги энг ривожланган мамлакатларнинг ҳам унча-мунчасида йўқ маҳобатли кимё мажмуининг ишга туширилиши, ўнлаб, юзлаб гидро электр станциялари бирин-кетин фаолият бошлаётгани, бир неча қудратли иссиқлик электр станциялари фойдаланишга топширилаётгани, Навоий ва Самарқанд вилоятларида бизнинг шароит учун батамом янги замонавий қуёш электр станциялари пайдо бўлгани ва шунга ўхшаш киши ақлини шоширадиган яратувчилик кўламлари ҳақида ҳар куни такрор-такрор гапириш, бу мавзуларда том-том китоблар ёзиш, давомли кинофильмлар яратиш жоиздир. Зеро...

Бугун қилинаётган ишлар мамлакатимиз тараққиётининг мунаввар ва музайян солномасидан ўзининг ҳақли ва муносиб ўрнини эгалламоғи шарт. Келажак авлод вакиллари худди айни дамларда биз буюк аждодларимизнинг оламшумул тарихий кашфиётлари билан фахрланиб юрганимиз сингари бугунги кунда қилинаётган ишларнинг, барпо этилаётган муаззам биною иншоотларнинг Бош меъмори, муҳандисларию фидойи бинокорлари ҳақида аниқ-тиниқ тасаввурга эга бўлмоқлари лозим.

Дарвоқе, «меъмор» сўзининг маъносию тарихий илдизлари ҳақида қисқача тўхталмоқчи бўлсак, аввало, унинг кенг миқёсдаги бунёдкор, яъни бино ва иншоотлар лойиҳасини чизишдан бошлаб, қуриб битказилгунича масъул ҳисобланадиган, аниқроғи, барча жараёнларга бевосита раҳбарлик қиладиган ижодкор муҳандис, моҳир уста ва етакчи ишбоши маъноларини ифодалашини эслатиб ўтишимиз жоиз кўринади. Ҳар ҳолда бу тушунчанинг моҳияти Европадан кириб келган «архитектор» истилоҳиникидан менгзаб бўлмас даражада кенг, чуқур эканлигини алоҳида таъкидлаш керак.

Алишер Навоий ҳазратлари ўзининг идеал давлат раҳбари образини яратишга бағишланган беназир ижодий маҳсули, мукамал «Хамса» таркибига кирувчи «Садди Искандарий», яъни «Искандар девори» достонида ушбу мавзунини муфассал таҳлил этган.

*«Не ким бўлса меъмори чобукхаёл,
Яна даги устоди нозук хаёл»,*

деган талабни илгари суради у меъмор олдига. Яъни чин маънодаги бунёдкор меъмор, аввало, теран тафаккурга, чуқур фантазияга, дадиллик, журъат-жасорат сингари фазилатларга эга бўлиш билан биргаликда ўз касбининг ҳақиқий устаси бўлиши, унинг глобал масалаларидан тортиб, энг нозик қирраларигача чуқур билиши зарурлигини уқтиради.

Гапнинг индаллосини айтадиган бўлсам, бугунги кунда улкан қурилиш ва бунёдкорлик майдонига айланган жонажон Ўзбекистонимизга қадам ранжида этган ҳар бир меҳмон, сайёҳ ёки зиёратчи бу ердаги маҳобатли яратувчилик ишларининг миқёс ва кўламлари қошида ҳайратга тушиши ҳамда уларнинг меъмору муҳандислари, ишбошию мутаваллиларига тасанно айтиши турган гап. Табиийки, мана шу улкан бунёдкорлик, ижодкорлик, шиддату шижоаткорлик ғоясининг муаллифи, бош меъмори ва муҳандиси, асосий ташаббускори ва ташкилотчиси – Президент Шавкат Мирзиёев ҳисобланади. Шу маънода, уни Навоийдек беназир мутафаккирларимиз васф этган буюк зотларга менгзашга, Янги Ўзбекистоннинг Бош меъмори, дея алқашга ҳаққим бор, деган фикрдаман.

Алишер Навоий ўз асарларида меъмор, бинокор, бунёдкор ва муҳандис истилоҳларини синоним сифатида ишлатган. Яъни меъмор муҳандисни кўчма, образли маънода, оддий инсон орзуларини рўёбга чиқаришда кўмаклашувчи халоскор тарзида ҳам тасаввур этган.

*«Муҳандисе топаю эгнима қанот ясатай,
Учуб ҳавосида қушлар аро ўзимни қотай»,*

деб ёзади у «Хазойин-ул маоний»да.

Шу маънода, Янги Ўзбекистоннинг Бош меъмори бугунги давр замондошлари, айниқса эртанги кун ёшлари орзу-умидларига қанот бағишлаш борасида ҳам тинимсиз изланиш, интилишда эканини кўрмаслик, ҳис этмаслик мумкин эмас.

Ўз навбатида бугунги ёшларимиз юртимиз ўтмишидаги Ўғизхон, Жалолиддин Мангуберди, соҳибқирон Амир Темур, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Муҳаммад Шайбонийхон ва бошқа кўплаб буюк тарихий шахслар ҳаёти ҳамда фаолиятини кенг ва чуқур ўрганиш билан биргаликда айни замонда Янги Ўзбекистон тарихини яратаётган донишманд ва шижоатли Президентимиз фаолиятини мукамал билишлари, у илгари сураётган илҳомбахш ғояларни онгу шуурларига сингдиришлари, бугунги фаровон турмуш ҳамда порлоқ келажак учун олиб борилаётган бунёдкорлик жабҳаларининг олдинги сафларида бўлишлари шарт, деб ўйлайман. Шубҳасиз, бунинг учун аввало Президент асарларини, унинг мамлакат ҳаётининг турли жабҳаларига тааллуқли долзарб масалаларга оид маъруза ва нутқларини қунт билан, синчиклаб ўрганишлари мақсадга мувофиқдир. Зеро, уларда кейинги йилларда мамлакатимизда ўтказилган туб ислохотлар, амалга оширилган ва амалга оширилаётган оламшумул ишлар назарий жиҳатдан мукамал асосланган, кўзланаётган юксак марраларга эришишининг энг тўғри ва реал йўл-йўриқлари белгилаб берилган.

Шуларга асосан, мамлакатимиз раҳбарини Янги Ўзбекистон меъмори дейишга барча асослар бор. Шу билан биргаликда, гап ҳар жиҳатдан янги жамият бунёдкори ҳақида кетар экан, нафақат иқтисодий-сиёсий, ижтимоий-маънавий, маданий-маърифий соҳадаги, балки давлат қурилишининг яна кўплаб бошқа таркибий қисмларида юз бераётган эврилишлар ҳақида батафсил тўхталиш, аниқ мисоллар билан таҳлилий фикрлар билдириш жоиз, албатта. Камина давлатимиз раҳбари сиёсий портретига баҳоли қудрат

айрим чизгиларнигина дарж этаётганим учун унинг серқирра фаолиятини тўласинча акс эттиришга даъво қилмайман. Тишим ўтмаган, қаламим ожизлик қилган ўринларни мазкур соҳаларнинг билимдон мутахассислари холисона ёритиб берадилар, деган умиддаман. Ана шунда биз учун азиз ва муҳтарам бўлган Юртбошимиз сиймоси халқимиз, шунингдек, бутун дунё аҳли кўз ўнгида янада мукамал ҳамда мунаввар намоён бўлади. Ва имоним комилки, унинг номи, ҳаёти ва фаолияти жаҳон миқёсида ўрганиш, ибрат олишга лойиқ давлат арбоблари қаторидан жой олади. Тарихимизнинг фахр-ифтихорга тўла ёрқин саҳифаларидан муносиб ўрин эгаллайди. Табиийки...

Тарихдаги барча ҳукмдорлар ва давлат бошлиқларини ҳам меъмору муҳандисга муқояса этиб, бунёдкору маърифатпарвар сифатида эътироф этиб бўлмайди. Ғарбу Шарқ йилномаларида ҳокимиятини мустаҳкамлаш ва рақибларидан қасд олиш мақсадида наинки бошқа мамлакатлар, балки ўз салтанати пойтахти Римга ўт қўйган Нерон, бузуқлик ва ишратпарастлик билан «довруқ» таратган Калигула, юзлаб, минглаб шаҳарларни вайрон қилиб, қонга ботирган, миллионлаб кишилар ёстиғини қуритган Чингизхон, Гитлер сингари кўплаб нобакорлар қилмишлари ҳам акс этган. Минг афсуски, қадим Марказий Осиё кечмиши ҳам бундай мудҳиш воқеликлардан мустасно эмас. Ўз ҳузур-ҳаловати ва маишатидан бошқа нарсани ўйламаган, Ғарбу Шарқ тарафдан бўлган босқинчилик урушлари чоғида иродасизлик кўрсатган, ўзаро тахт таллашишлар оқибатида Амир Темур салтанатини пароканда қилган, Шайбонийлар сулоласини инқирозга учратган, Заҳириддин Муҳаммад Бобурни «ҳинд сори юзланиш»га мажбур этган, худбинликка, мансабпарастлик ва манфаатпарастликка берилиб, бошбошдоқлик вазиятини вужудга келтирган, оқибатда ер юзининг гултожи бўлган ўлкани истибдод асоратига туширган, асрлар давомида гуллаб-яшнаган шаҳарларимиз мустамлакачилар

томонидан оёқости қилинишига сабаб бўлган, Машрабни остирган, Нодирани сўйдирган, Фурқату Муқимийларни қувғину бадарға қилдириб, жадинд боболаримизни зиндонларда чиритган нодону ношуд хонлару амирлар йилномалар саҳифасида золим, айна пайтда қўрқоқ ва иродасиз, бузмакор ва вайронкор кимсалар сифатида қолдилар. Уларнинг алал оқибат аянчли қисмати ҳақида тарихий ва бадий асарларда кўп ўқиганмиз, алҳазар, деганмиз. Аламлиси шундаки, барча даврларда ҳам нобакор, ношуду нотавон ҳукмдорлар қилмишлари асорати элу юрт аҳволу руҳиясида акс этган, тараққиётга тушов бўлган, бир замонлар юксак даражада равнақ топиб гуллаб-яшнаган мамлакатларни қолюқлик исканжаси сари улоқтирган. Теварак-атрофимиздаги айрим мамлакатларда ҳанузгача давом этаётган нотинчликлар мисолида бунга яққол ишонч ҳосил қилишимиз мумкин. Яқингинамизда ҳамон ҳукм сураётган аянчли вазиятлардан сабоқ олиб, теран хулосалар қилмоғимиз даркор.

Минг шукрлар бўлсинки, мана, ўттиз йилдан ошди, мустақил, озод ва тобора обод, эли шод юртда, наинки Марказий Осиёда пешқадам, балки бутун дунёда ўзининг муносиб ўрни ва нуфузига эга юксак орў-эътиборли мамлакатда, қудратли давлатда яшайпмиз. Унинг байроғи ишончли кўлларда, байроқдори жасур ва матонатли, биз сидқидилдан ишонч билдирган улкан Шахс ҳисобланади. Бироқ...

Президентимиз такрор ва такрор уқтираётганидек, ҳозир бутун ер юзи аҳолиси ўта мураккаб замонда яшамокда, дунё қалқиб турибди. Башарият тақдирига кучли хавф солувчи турли таҳдидлар пайдо бўлмокда. Теварак-атрофдаги айрим давлатларда, шундоққина чегараларимиз ортида нималар бўлаётганидан, жаҳон миқёсида қандай умумбашарий ўткир муаммолар юзага келаётганидан хабардормиз. Бу эса бутун халқимиздан доно йўлбошчи атрофида мустаҳкам жипслашган ҳолда аҳилу иноқ

бўлиб, сергак ва ҳушёр бўлиб, ғайрат-шижоатни, фидойиликни асло сусайтирмасдан ҳалол ва фидокорона меҳнат қилиш, мамлакатимиз тинчлиги ва хотиржамлиги, она-Ватанимиз равнақи йўлида комил ишонч билан олға интилишимиз зарурлигини тақозо этади. Жамиятимиз аъзоларининг мутлақ кўпчилиги мана шу оддий ҳақиқатни, муҳим заруратни теран англаётгани, шубҳасиз, кўнглимизга таскину ёрқин умидлар бағишлайди.

Ушбу фикрларни ёзар эканман, ёшлик йилларимда хуш кўриб ўқиган ва ёд олганим – академик шоиримиз Ғафур Ғулом қаламига мансуб қуйидаги бағоят ҳикматли сатрлар ёдимга тушди:

*«Йигит омон бўлса, хавфу хатар йўқ,
Қалқон бор, қалъа бут, кўргон саломат.
Чоллар уйқусида жаннат фароғат,
Қизлар кулгусида авжу даромад».*

Иншааллоҳ, абадул абад шундай бўлсин!

Ушбу тилақдан сўнг китобга сўнги нуқтани қўйиш ниятида эдим. Бироқ...

Кейинги пайтларда шогирдларим таклифига биноан бир неча марта «Уч авлод учрашуви» номли бағоят ибратли тадбирда қатнашишга муяссар бўлдим. Ана шу эъзозли давралар тўрида ўзимга ўхшаш кўплаб пиру бадавлат отахонлар, кайвони оналар қаторида ўтириб, республикамиз Президентининг мамлакатимизда кекса авлод вакилларига, устозу мураббийларга муносабатни энг олий қадриятлардан бирига айлантириш борасида илгари сурган ғоялар, уларнинг кутилганидан ҳам зиёд даражада ҳаётга татбиқ этилаётгани хусусида ғурур билан кўп ўйладим ва ёзаётган китобим ниҳоясига шу мавзуда бир боб қўшиш фикрига келдим. Зеро...

Бу қароримнинг китоб учун танланган асосий мавзуда ҳам салмоқли ўрни бор экан. Бир замонлар ёш ва шиддаткор шогирд сифатида устозлар дуосини олиб, улар йўлини тутиб, ўқиш-ўрганиш, илмнинг машаққатли сўқмоқларидан сабот билан илгарилаб, ўқитувчи мураббий бўлиб, сўнгра сиёсат саҳнасига чиқиб, унинг мураккаб синовларида чиниқиб, ҳалол меҳнат қилиб, адолат тарозисини маҳкам ушлаб камолга етган умумжаҳон миқёсидаги улкан давлат арбоби мақомига эришган шахс эндиликда Ўзбекистон Республикаси Президенти сифатида эл йўлбошчиси, миллионлаб ёшларнинг ғамхўр ва талабчан устози. Ва шунга мутлақо амин бўляпманки, у устозлик деган шарафли унвонни жамийки рутбалардан сарбаланд кўраётир. Ана шу бебаҳо туйғуга иззат-икром рамзи ўлароқ қуйидаги боб юзага келди.

Ўн биринчи боб

ШОГИРД КАМОЛОТИ – УСТОЗ САОДАТИ

Қадимул айёмдан маълум ҳақиқат бор: ҳар бир кишининг қандай тарбия топиши, қай тарзда камолга етиши, ҳаётдаги ўрнини ва келажагини белгилаши, тақдири азалнинг турфа йўлларида қай бирини танлаши, шубҳасиз, у мансуб бўлган аждодлар силсиласи ҳаёти ва анъаналари, туғилиб ўсган муҳит, мавжуд ҳаёт тарзи, шарт-шароит, насл-насаб, хонадон, ота-она, қолаверса, қавму қариндошу маҳалла-кўйга ва, айниқса устозу мураббийларга бевосита боғлиқдир. Бинобарин, бугун давлатимиз раҳбариятининг иродаси билан мамлакатимизда ана шу муқаддас қадриятларни олдинги ўринга олиб чиқиш, улуғлаш давлат сиёсати даражасига кўтарилаётгани ҳам бежиз эмас. Бас, шундай экан, рухсатингиз билан суҳбатимизни, аввало, ўзим камол топган оила, унинг оламга машҳур бошчиси, мамлакатимиз тарихида ўзининг муносиб ўрнига эга инсон, ҳаётдаги илк устозим – Социалистик Меҳнат Қаҳрамони, донгдор пахтакор, эл-юрт оқсоқолларидан бўлган муҳтарам падари бузрукворим Искандар Дўсов ҳақидаги қисқача хотиралардан бошласам. Зеро, бу менга чексиз севинч ва ғурур бағишлайди. Муқаддас динимиз, азалий урф-одатларимизга кўра, оталар руҳини шод этмоқ ҳар бир инсон учун фарзи аиндир. Айниқса, мендек муайян ҳаёт йўлини босиб ўтиб,

бугунги кунда бахтиёр кексалик гаштини сураётган ёши улуғ кишилар учун бунинг алоҳида завқу сурури бор, албатта.

Раҳматли отамиз оддий деҳқон оиласида туғилиб, суяги меҳнатда қотган, ўз заҳматкашлиги орқасидан обрў-иззат топиб, умр бўйи пахтакорлик касбига содиқ бўлиб қолган инсонпарвар, оиласевар, заковатли ва мустаҳкам иродали киши эдилар. Иккинчи жаҳон урушидан оғир ярадор бўлиб қайтгани, шунинг оқибатида жисмонан қийинчилик билан ҳаракатланишларига қарамай, яна далага отланганлар ва уруш жароҳатлари азобини қаттиқ меҳнат билан енгишни ўз турмуш тарзига айлантирганлар. Буни ўз шогирдларига, фарзандларига ҳам кунт билан сингдирган.

У раҳбарлик қилган хўжалик пахтачилик соҳасида қатор йиллар давомида муттасил равишда юксак натижаларга эришиб, вилоят, республика ва, ҳатто Иттифоқ марказидаги раҳбарлар назарига тушган. Бинобарин ўша даврда СССРнинг энг юксак мукофотиغا сазовор бўлиши тасодифан эмасди. Ўзбекистоннинг доно ва элпарвар раҳбари Шароф Рашидов эса у билан яқин дўстлашиб, тез-тез учрашиб, қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини ошириш, пахтачиликда ишларни ташкил этиш бобида суҳбатлашиб, маслаҳатлашиб турганлар.

Элимизнинг шавкатли солномасига номи зарҳал ҳарфлар билан битилишга арзигулик устозлардан яна бири, тақдир тақозоси билан менга қадрдон бўлиб қолган улуғ инсон, Шавкат Мирзиёевнинг падари бузруквори Миромон Мирзиёевдир. У билан танишув ва қисқача суҳбат хусусида юқорида мухтасар тўхталиб ўтган эдим. Мана энди мавриди келгани учун у билан бўлган кейинги учрашувларимиз, бу зиёли, фидойи инсондан ҳаёт ҳикматлари ҳақида тинглаган ҳикояларим тўғрисида яна сўзласам.

Ўша дастлабки мулоқотдан сўнг у билан яна бир неча

бор кўришиб, завқли суҳбатлар қурдик. Ўз ҳаётини кишилар саломатлигини сақлаш соҳасига бахшида этган бу инсонни чин маънода фидойи дейиш, ўз қалбини ёндириб кишилар йўлини ёритган Данкога қиёслаш мумкин. Иккинчи жаҳон урушидан кейинги оғир йилларда бутун мамлакатда сил касаллиги кенг тарқалган эди. Илдизи очарчилик, қаҳатчиликка бориб тақалувчи бу ижтимоий ва ўта юқумли хасталикка қарши курашга бел боғлашга, очиғи, унча-мунча врачлару ҳамшираларнинг юраги дов бермасди. Миромон Мирзиёев ўз қалбида шунга журъату жасорат топиб, наинки ўзи, балки рафиқасини ҳам ёнига олиб, узоқ тоғли тумандаги махсус шифохонани узоқ йиллар маҳорат билан бошқарди. Айнан унинг фидойилиги самараси ўлароқ, нафақат Зомин тумани, балки теварак-атрофдаги кўплаб ҳудудларда мана шу оғир дард устидан ғалаба қозонилди. Миромон Мирзиёев эл соғлиғини сақлаш йўлидаги фидокорона меҳнатлари учун ҳақли равишда Ўзбекистонда хизмат кўрсатган тиббиёт ходими фахрий унвонига сазовор бўлди.

Миромон Мирзиёев мана шу машаққатли касбига кўплаб ёшларни жалб этиб, ажойиб шогирдлар етиштирди. Уларнинг кўпчилиги ҳозирга қадар ўз касбларини улуғлаб, элу халққа беминнат хизмат қилиб келмоқдалар.

«Ўз шогирдларига меҳнатдан завқ олишни ўргата олган устоз шарафларга лойиқдир», дея лутф этган экан инглиз адиби Эльберт Хаббард.

Бу эътирофни падари бузрукворларимиз Искандар Дўсов, Миромон Мирзиёев сингари инсонларга нисбатан татбиқ этишга маънавий жиҳатдан тўла ҳаққим бор, деб ўйлайман. Чунки, аввало, уларнинг ўзлари касбларини чексиз садоқат билан севар, буни кундалик фаолиятида яққол исботлаб

кўрсатар ҳамда бошқаларда шунга беихтиёр ҳайратли ҳавас уйғотар эди.

Айни пайтда улар ҳар бир ёш йигит-қиз, ҳар бир шогирд фазлу камолотга фақат илм, фан-техника тараққиёти орқали эришиши мумкинлигини барвақт англаб етган инсонлар бўлишган. Бинобарин, наинки ўз фарзандлари, балки қишлоқдаги барча ёшларни билим олишга, замонавий касбларни эгаллашга мунтазам ундашган, бу борада қўлидан келадиган ёрдамни ҳеч кимдан аяшмаган.

Донишмандлар, «Ёшлиқда олинган илм – тошга ўйилган нақш», деганларидек, болаликдан қулоққа қуйилган жўяли панд-насиҳатлар, ҳосил қилинган илк тасаввур ва кўникмалар инсон истиқболида нақадар муҳим, ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлиги исбот талаб этмайдиган ҳақиқатдир. Падари бузрукворларимизни, илк устозларни эслаш асносида ҳикоямга жон киритувчи, чинакам долзарб ва амалий руҳ бағишловчи ғоят ҳикматли шоҳона байту сатрларни хаёлимдан ўтказдим.

Ҳазрат Алишер Навоий демишларки:

*«Ҳақ йўлинда ким сенга бир ҳарф ўқитмиш ранж ила,
Айламак бўлмас адо онинг ҳақин юз ганж ила».*

Бу бежиз эмас, шекилли. Авлодлар узвийлиги, яъни устоз-шогирдлик анъанаси азал-азалдан миллатимиз зеҳниятининг ноёб дурдоналаридан, маънавий камолотининг таянч нуқталаридан бири, халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган, асрлар бўйи муқаддас тушунчаларимиздан бирига айланган, ҳозирги пайтда, айниқса, алоҳида эътибор берилаётган, юксак даражада эъзозланаётган ва тамоман янгича мазмун-моҳият билан

бойитилаётган қадриятлардандир. Бугун бизда ўқитувчининг обрўси, моддий ва маънавий турмуш даражаси сабот билан оширилаётгани, барча соҳаларда устозу мураббийлар қадри осмон қадар юксалаётгани айна ҳақиқатдир.

Доно халқимиз тилида: «Устоз кўрмаган шогирд ҳар мақомга йўрғалар», деган ажойиб ибора бор. Жудаям ҳаққоний мақол. Гапнинг рости, мен умрим бино бўлиб, ҳаёт йўлимда нимагаки эришган бўлсам, барчаси, аввало, самимий ва беғараз, меҳрибон ва айна пайтда ўта талабчан устоз ҳамда мураббийларимнинг доно маслаҳатлари, беминнат кўмаклари, ундан кейин вафодор дўстларнинг қўш қанот ва шубҳасизки, садоқатли шогирдларнинг руҳан мададу қувват бўлишлари самараси деб биламан. Яратганга беҳисоб шукрларки, тақдир мени ҳаётим ва фаолиятимнинг барча босқичларида беназир ва буюк устозларга рўбарў қилди.

Бу ҳақда сўзлар эканман, энг биринчи галда, мамлакатимизга узоқ йиллар донишмандларча раҳбарлик қилган буюк сиёсат арбоби, улуғ ижодкор, бағоят улкан шахс ва беқиёс инсон Шароф Рашидов номини тилга олишни одамийлик бурч, деб биламан. Албатта, ҳар бир инсон учун мактабда қўлига илк бор китоб-дафтар тутқазиб, ҳарф ўргатиб, тасаввурини билим зиёси билан мунаввар этган биринчи ўқитувчидан бошлаб, институтда таълим берган, илмий изланишларини астойдил қўллаб-қувватлаган домлаларию илмий раҳбарларнинг меҳнати қадри бениҳоя юксакдир. Улардан ҳар қайсисининг азиз ва табаррук номи умримиз китобининг муқаддимасию мундарижасига алоҳида заррин ҳарфлар билан ўчмас қилиб битилган. Лекин...

Инсон ўз ҳаётидаги бурилиш нуқталарига сабабчи бўлган, орзу-умидларининг ёрқин йўлига бошлаган мухтарам устозлар сиймосига алоҳида нозик туйғулар, ҳеч қачон сўнмайдиган,

ҳаттоки умрбод заррача камаймайдиган бир эҳтиром билан қарайди. Шу маънода Шароф Рашидов мамлакатимиздаги кўплаб кишилар, жумладан, менинг тақдиримда алоҳида, ҳал қилувчи роль ўйнаган, десам муболаға бўлмайди. Унинг Шавкат Мирзиёев билан танишуви, бу ёш олим йигитнинг истиқболи ҳақида астойдил қайғургани ҳақида юқорида ҳикоя қилиб ўтдим.

Шу ўринда Шароф Рашидовга хос буюк бир инсоний фазилатга алоҳида тўхталиб ўтмасам бўлмайди.

У киши республиканинг барча вилоятлари, шаҳару туманлари, қишлоғу кентларини қадам-бақадам кезишни, далалару боғларни, даштлару яйловларни айланишни, шунинг асносида оддий пахтакор деҳқонлар, чорвадору боғбонлар, чўлқуварлару сувчилар билан дилдан суҳбатлашишни яхши кўрар эдилар. Унинг ажойиб асарларини ўқиган киши ўзбек халқининг характерини нақадар чуқур билганлигига ишонч ҳосил қилиб, самимий ҳайратга тушади. Назаримда, бу жонажон диёр бўйлаб қилинган сон-саноксиз сафарлар, қизиқарли суҳбатларнинг самараси бўлган.

Ана шундай сафарлар чоғи республика оқсоқоли ёшлар билан диллашишга, уларнинг орзу-интилишлари ҳақида суриштиришга ҳам вақт топар, уларнинг келажакдаги режалари билан ошно бўлиб, қимматли маслаҳатлар берар, истеъдоди ярқ этиб кўзга ташланиб турган йигит-қизларни алоҳида эътиборга олиб, ёдида сақлар, ўқишию иши даврида суриштириб, зарур ҳолларда кўмаклашар ҳам эдилар.

Ҳикоя қилишларича, бир куни Самарқанднинг даштли туманларидан бирини айланиб, вилоят раҳбари ҳамроҳлигида машинада шаҳарга қайтаётган Шароф аканинг йўл четида эшакка минган кўйи китобдан кўз узмай мутолаа қилиб кетаётган бир

Ўсмирга кўзи тушади. Машинани тўхтаттириб, ўша китобсевар йигитча билан танишади, суҳбат давомида турли саволлар беради. Зеҳни ўткир эканига ишонч ҳосил қилгач, вилоят раҳбарига шу йигитнинг истиқболини ўз назоратига олишни илтимос қилади. Ўша йигитча кейинчалик республикадаги етакчи математик олимлардан бири бўлиб етишади.

У Хоразмга ҳам кўп келарди. Вилоятнинг таниқли олиму фузалолари, шоиру шуаролари дейсизми, булбулнафас ҳофизу санъаткорлари, дейсизми, яхши биларди. Айниқса уста деҳқонлар, пахтақору шоликорлар, боғбону чорвадорлар билан суҳбатлашишни хуш кўрар, уларнинг аксарияти билан шахсан дўсту қадрдон бўлиб кетган эди. Жумладан, падари бузрукворимни ҳам яхши кўрар, самимий ҳурмат қиларди.

Бундай воқеалар, албатта, аксар ёш йигитлар учун Аллоҳнинг ногаҳоний тухфаси, бахту омаднинг кулиши бўлиб кўринади. Аслида ҳам шундай. Яъни мамлакат раҳбарининг назарияю эътиборига тушиш ҳар ким учун порлоқ келажак, юлдузли онлар кафолати ҳисобланади ахир.

Халқимизнинг пиру бадавлат оқсоқолларидан бири, айни кунларда салкам бир аср билан юзлашай деб турган беназир инсон, етук олим ва сиёсат арбоби, ғамхўр ва қаттиққўл устоз Оқил Умрзоқович Салимов ҳақида ҳам алоҳида тўхталиб ўтмасам бўлмас. У кишининг истиқболли ёшларни синчковлик билан аниқлаши ва сидқидилдан қўллаб-қувватлаши ҳақида ушбу эътибор ва кўмақдан бевосита баҳраманд бўлган минглаб олимлару арбоблар миннатдорлик ила гувоҳлик бериши мумкин.

Эсимда у Шароф Рашидович кўрсатмасига биноан каминани партия идораларида ишлатиб, масъул лавозимларга тавсия этишни ният қилган эди. «Мен сиёсатга эмас, илмий ишга қизиқаман,

қолаверса, отамга берган ваъдамга биноан, муҳим бир кашфиёт йўлида қаттиқ изланишлар олиб боряпман, шунинг учун менга тадқиқотларимни давом эттиришга рухсат берсаларингиз», дедим. Оқил Умрзоқович ҳам отамни яхши билар ва жуда ҳурмат қиларди. Фан соҳасидаги интилишларим ҳақида муфассал суҳбатлашгач: «Бу қатъиятинг Шароф Рашидовичга ҳам албатта маъқул тушади ва, мен аминман, сени тўғри тушуниб қўллаб-қувватлайдилар», – деди. Шу тариқа мен олий таълим ва илмий тадқиқотлар йўналишида фаолият кўрсатдим.

Ҳикоямнинг бошида ёшлар етакчисини танлаш борасидаги саъй-ҳаракатларимни ўша пайтда Ўзбекистон Компартияси Марказқўми котиби бўлган Оқил Умрзоқович астойдил ёрдам берганини айтиб ўтгандим. Бунга қўшимча тариқасида таъкидлашим шарт: кейинроқ Оқил ака институтга ректор бўлиб келгач, ёш олим ва раҳбар Шавкат Мирзиёевнинг униб-ўсиши, сиёсат майдонига йўл олишида ўзининг оқилона маслаҳатлари, қўллаб-қувватлаши билан сидқидилдан иштирок этди. Ундан ташқари яна кўплаб шогирдларнинг йўли ойдин, келажаги порлоқ бўлишига катта ҳисса қўшди.

Устоз-шогирдлик қадрияти ва бу муқаддас удумимизнинг Шавкат Мирзиёев ҳаёт йўли, унинг улкан давлат арбоби бўлиб етишувидаги аҳамияти ҳақида гапирар эканмиз, республикамизнинг биринчи Президенти Ислом Каримовнинг бу борадаги ўрни ҳақида ҳам алоҳида тўхталиб ўтмаслик мумкин эмас. Мамлакатимиз тарихида, шубҳасиз, ўчмас из қолдирган бу улғ инсон ўз вақтида Шавкат Мирзиёев сиймосида моҳир ва ғайратшижоатли раҳбар, оламшумул-тарихий ишларга қодир сиёсатчи, ҳар жиҳатдан баркамол давлат арбоби шаклланганини кўра олган, дастлаб пойтахтдаги энг йирик туманлардан бирини, сўнгра икки

вилоятни бошқаришни ва ниҳоят республикадаги, таъбир жоиз бўлса, энг қийин, энг мураккаб вазифа – Бош вазирликни ишониб топширган эди. Бу ишонч нақадар юксак даражада оқланганига халқимиз, қолаверса, бутун дунё жамоатчилиги гувоҳ.

Шунинг самараси ўлароқ бутун жаҳон аҳли кўз ўнгида, халқаро демократик тамойиллар асосида ўтган умумхалқ Президент сайловларида аҳолининг асосий кўпчилик қисми сира иккиланмасдан ўзи яхши билган, сидқидилдан ишонган номзод – Шавкат Мирзиёевга икки қарра овоз бердилар. Мамлакатимизда ижтимоий-сиёсий барқарорлик, элу халқнинг осойишталиги ва фаровонлиги, миллатлараро тотувлик сақланган ҳолда иқтисодий тараққиётнинг тамоман янгича суръатларига эришилаётгани, бир жумла билан айтганда, Янги Ўзбекистон, дея аталмиш улуғ ва қудратли давлат яратилаётгани ана шу ишонч ҳам шараф билан оқланаётганини ёрқин намоён этмоқда.

ХУЛОСА ЎРНИДА

Муқаддимада қисман фикр юритиб ўтганимдек, одатда дунё миқёсидаги улкан сиёсатчилар, давлат арбоблари ҳақида гапириш, ёзиш, фикр-мулоҳазалар билдиришга биринчи галда файласуфлар, тарихчилар, сиёсатшунослар айнан ана шу соҳаларга яқин етук мутахассислар, таниқли олимлар ҳақли ҳисобланишади. Зеро, улар бу мавзунини давлат ва жамият тарихи, унинг фалсафаси, амалдаги сиёсат натижаларинини ўзлари бевосита шуғулланадиган фанлардаги мавжуд мезону меъёрларга таянган, шунингдек, дунё тамаддуни талаб ва қоидалари, шу билан биргаликда ҳар бир халқу миллат, давлату мамлакатдаги ўзига хосликларни назардан қочирмаган ҳолда таҳлилу тадқиқ этишнинг ҳадисини олганлар. Бу борада етарлича тажриба тўплаганлар. Айнан шунинг учун ҳам уларнинг таҳлил миқёслари кенг, мулоҳазалари чуқур, баҳолари ҳаққоний ҳисобланувчи асарлари ҳар қандай китобхон томонидан катта қизиқиш билан ўқилади. Бу тадқиқотларнинг баъзилари дунё миқёсида тан олинган бўлиб, жаҳон тарихи ва сиёсатшунослиги хазинасидан ҳақли ўрин эгаллаган. Камина ушбу рисола ни дарж этиш асносида дунё миқёсида маълуму машҳур қатор муаррихлару сиёсатшунослар, шунингдек, бу соҳага, айниқса кейинги пайтларда дадил кириб келаётган ўзимизнинг маҳаллий муаллифлар асарларини ўқиб, шунга такрор-такрор ишонч ҳосил қилдим.

Албатта, башарият ўйлаб топган, кўплаб авлодлар томонидан эътироф этилган ва тан олинган, бинобарин, асрлар давомида жорий этган жамики қоидалар ҳам барибир нисбий эканлиги ҳамда уларнинг барчасида истисно борлигини тан олмаслик мумкин эмас. Ҳар ҳолда...

Бу иддаони ўртага ташлаётганимга сабаб – «Чумчуқ сўйса ҳам қассоб сўйсин» қабилидаги мақоллар ҳар қанча шартли эканлигига қарамасдан ўз аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмаган ва юксак технологиялар тобора кенг чуқур жорий этилаётган ҳозирги замонда ҳам йўқотмайди, деган фикрдаман. Лекин...

Нима ва қандай бўлган тақдирда ҳам ҳар бир юмуш ва ишнинг самараси, энг аввало, ниятнинг холислигига боғлиқ.

Шу маънода ушбу ёзувларимни ўз ниҳоясига етказар эканман, бу борадаги эзгу мақсадимга эришдим, яъни кўнглимдаги барча самимий фикрларни холисона баён қилдим, деган ишончдан таскину ҳаловат топаман.

Иккинчидан, давлат бошлиқларининг юрт ободлигию эл фаровонлиги йўлидаги саъй-ҳаракатлари, жамият тараққиётига қаратилган янги-янги эзгу ғоялари, хайрли ташаббуслари, уларнинг қувончли натижалари хусусида кўпроқ шоиру ёзувчилар, журналистлар қалам тебратишларига кўникиб қолганмиз. Бу – уларнинг вазифалари. Лекин шу ўринда қанчалик аччиқ бўлмасин, холис бир фикрни айтиб ўтишни ўз инсоний бурчим деб биламанки, бу борадаги асарларнинг анчагинаси кўпинча ортиқча ҳис-ҳаяжон, баландпарвоз, лекин қуруқ гаплар, юзаки ва муболағали мақтов, ҳатто мадҳиябозликдан иборат бўлиб қолади. Бу эса соғлом фикрли кишиларнинг ғашини келтиради. Камина ана шу муҳим жиҳатни кўздан, диққату эътибордан қочирмасликка

имкон қадар ҳаракат қилдим. Қайсидир ўринда қуюшқондан чиқиб кетган бўлсам, маъзур кўринг. Бу – жузъий ҳол.

Учинчидан, тарихан барча давлату мамлакатларда, ҳар қандай ижтимоий-иқтисодий формациядаги жамиятларда мавжуд тузум, унинг раҳбарияти олиб бораётган сиёсатни четда ёки мамлакат ичкарасида туриб мудом танқид қилувчи, муттасил бадбинлик қилувчи норози кишилар бўлган, бор ва келажакда ҳам бўлажак. Бунга ажабланишнинг ҳожати йўқ. Ҳа ҳақиқат баҳсларда туғилади, ҳаёт ҳамиша дунёқарашлар, фикрлар курашидан иборат. Тараққиёт диалектикаси шундай.

Шу маънода китобимнинг маъно-мақсадини нотўғри қабул қилувчилар ҳам бўлиши мумкинлигини тушунаман ва улар билан олдиндан мунозарага киришмоқчи эмасман. Фақат ягона истак шуки, ҳар қандай контекстда ҳам холислик ва ҳақиқат мезонлари унутилмаса бас. Зеро...

Ахборот технологиялари мислсиз ривожланиб бораётган бугунги кунларда ғоялар кураши тобора кескинлашмоқда. Вайронкор кучлар сўз эркинлиги ниқоби остида ўз қарашларини аҳоли, айниқса ёшлар онгига зўравонлик билан сингдиришга, жамиятда норозилик кайфиятларини, энг ёмони, нотинчлик уйғотишга ошкора ва ҳаттоки безбетларча уринаётганига гувоҳ бўлиб турибмиз. Айрим хорижий мамлакатларда бу қандай оқибатларга олиб келганидан хабаримиз бор.

Бас шундай экан, соғлом фикр ҳифзу ҳимояти йўлида мустаҳкам ирода ва қатъият кўрсатилиши лозимлигига ишонч ҳосил қилади, киши. Ана шундай лаҳзаларда бани башарият, шу жумладан, бизнинг доно халқимиз, асрлар бўйи, не-не машаққатлар билан бўлса-да, тинимсиз такомиллашиб келаётган, айниқса

кейинги йилларда туб бурилишу эврилишларга дадил кўкрак очган жамиятимиз эришган ҳар бир хайрли ишни, эзгу ўзгаришни, яхши натижаларни, озодлигу ободлигимизни кўз қорачиғидай асрашимиз, бу ҳаракатнинг олдинги сафларида бораётган жасур пешқадамларимизнинг ёнида бўлишимиз, қанотига киришимиз кераклиги ҳаётий ва тарихий зарурат. Бу даъватни энг оддий, энг инсоний ва айна пайтда холис ишонарли қилиб айтсам, баҳоли қудрат мулоҳазаларимни билдирсам, озгина далда бўлармиканман, деган ўйларга борасан, киши.

Шу маънода ҳар қандай жамиятда сиёсатшуносларнинг узоқ асрлик тарихий даврлар тажрибаси билан асосланган назарий хулосаларию теран илмий ишланмалари, илгари сурган қимматли ғояларини ҳам, ижод аҳлининг том-том гўзал мазмунли асарларини ҳам рад этмаган ҳолда азалдан маълум оддий бир ҳақиқатни айтсам, ҳар қандай тарихий давр, шахс ҳақидаги энг мукамал ва тўғри хулосани энг одил ҳакам бўлмиш Вақт олий ҳазратлари белгилайди. Мазкур яхлит ҳамда одилона хулосанинг шаклланишида эса фақат ва фақат тор манфаату тамалардан холи, мардона, холис ҳамда беғараз баҳоларга таянувчи барча фикрлар, кўп ва хўб мулоҳазалар инобатга олиниши мумкин. Бу билан нима демоқчиман?

Айтмоқчиманки, бугунги ахборот технологиялари мислсиз даражада тараққий этган, ҳар бир онгли инсон ўз фикру қарашларини нафақат чойхонадаги улфатлари, балки бутун дунё жамоатчилиги ҳукму эътиборига ҳавола этиш имкониятига эга бўлиб турган бир шароитда рост ва холис фикр билдиришдан, уларни таҳлилий мақолалар, керак бўлса, кенг кўламли асарларда акс эттиришга истиҳола этмаслигимиз даркор. Бу билан асл ҳақиқатни айтган,

сарҳадсиз ахборот майдонини турли салбий ҳодисалардан, чунончи туҳмату бўҳтонлар, сохта маълумотлардан, вайронкор кучларнинг зимдан ва ошкора хуружларидан ҳимоя қилган, халқимиз кўнглига эзгулик уруғларини эккан, унинг, қолаверса, жаҳон жамоатчилиги идроки ва тасаввурини ҳозирги пайтда «фейк» деб аталувчи ёмғирдай ёғилаётган ёлғон ахборот хуружларидан асраган, ҳаққоният ва адолатга беминнат хизмат қилган бўламиз.

Шу билан биргаликда бу эл-юртимиздаги осойишталик, аҳиллик, бунёдкорлик, кўтаринки кайфиятни бардавом, юксак маънавий-ахлоқий муҳитни барқарор сақлашга қўшган ҳиссамиз ҳисобланади. Зотан...

Аҳли илм, оқилу доно кишилар азал-азалдан кескин баҳсу мунозаралардан ўзларини четда, аслан олганда, баландда тутадилар. Араб мақолида таъкидланганидек: «ас сумту ҳикматун», яъни ҳикмат сукутда, деб биладилар. Бу – тўғри. Бу ҳақиқатни инкор этиб бўлмайди. Бироқ жамият тараққиётининг энг нозик, энг муҳим аҳамиятга эга бўлган бурилиш нуқталарида, халқу миллат сардору саркорлари бағоят юксак, элу юрт тақдирида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган тарихий ва оламшумул, айна пайтда ўта машаққатли ва масъулиятли ғояларни илгари суриб, шу йўлда ўзлари жонфидолик қилароқ бутун раиятни ўз ортларидан эргаштиришга жазму шижоат этаётган кезларда сукут сақлаш билан чекланиш мумкин эмас, гарчанд сукут ризолик аломати ҳисобланса ҳам. Аҳли илму ижод, санъату маданият, қолаверса, барча соҳаларнинг билимдонлари, пиру бадавлат оқсоқолларимиз, кайвони оналаримиз, шиддатли ва ёвқур ёш авлод вакиллари ўзларининг салмоқли сўзларини айтишлари жуда катта аҳамиятга эга, деб ўйлайман.

Энди рухсатингиз билан китобимга уч-тўрт калима баҳоли қудрат хулоса қилсам.

Биринчи хулоса шундан иборатки, Президент Шавкат Мирзиёевнинг чин маънода элу юрт меҳрини қозонишига асос бўлган энг муҳим ва ҳал қилувчи омил унинг Она Ватани ва жонажон халқига бўлган чексиз Муҳаббатидир. Зотан, буни у амалда аниқ кўрсатди ва раият бунинг ҳақиқийлиги ва самимийлигига ёрқин ишонч ҳосил қилди.

Давлат раҳбари сифатидаги илк қадамларини халқ истиқболи сари ташлагани, дастлабки кунларданоқ эл орасига томон юргани, бевосита унинг шаҳарию қишлоғига, маҳалласига интилгани, уйига кириб боришдан, туфлисини ечиб, камтарона дастурхони теварагига ўтириб, бир пиёла чойини ичишдан, бевосита яқиндан танишиб, арзу ҳолини тинглашдан эринмагани, фидойи сафдошларидан бошлаб оддий кишиларнинг-да азасига бориб, ҳамдардлик билдириш ва дуои фотиҳа қилишни, техноген фалокат туфайли хонадони бузилиб кўчада қолган жабрдийдаларнинг ёнида туриб, кўзига қараб, бағрига босиб кўнгил сўрашни муқаддас бурч деб билгани ва уларнинг муаммоларини зудлик билан ҳал қилиб бериш учун фавқулодда журъат ҳамда топқирлик кўрсата олгани, айрим ҳолатларда мавжуд анъаналару тартиблардан бир қадар фарқли ўлароқ истисноли қарорлар қабул қилишдан-да чўчимаганига қойил қолмасликнинг иложи йўқ. Эсингизда бўлса, Сардоба тошқини туфайли хонадони сув остида қолиб, бор-йўғидан айрилган, айниқса, узоқ йиллардан буён машаққат билан тайёрлаб келаётган номзодлик диссертацияси қўлёзмаси ва бошқа материалларидан жудо бўлган ёш олима аёлнинг чорасизликдан жавдираган ёшли кўзларига қараган Президент уни ўша ернинг ўзида истисно тариқасида фан номзоди, дея эълон қилганди. Ёки вилоятларнинг бирида ёш авлод вакиллари билан

бўлган учрашувда фавқулодда истеъдод намунасини намойиш этган навқирон шоир йигитнинг давлат раҳбари томонидан республика ёзувчилар уюшмаси аъзолигига тавсия қилиниши ва бу ташаббуснинг наинки ўша анжуманда бевосита иштирок этган, балки бу учрашувни «зангори экран» орқали томоша қилиб турган бутун мамлакат ёшлари томонидан зўр хурсандчилик билан олқишланиши, яна шундай бир машваратда алоҳида қобилият ва шижоатга эга ўсмир йигитчанинг «Мард ўғлон» мукофоти билан тақдирланиши ёдингизда бўлса керак. Ёинки, эндиликда бутун мамлакатимиз ўқувчи ёшлари орасида кенг қулоч ёзган китобхонлик ҳаракатига сабаб бўлган даъват, яъни давлат раҳбарининг энг кўп китоб ўқиган йигит-қизларга Президент совғаси тариқасида автомашина тақдим этилиши ташаббусидан ҳойнаҳой хабардорсиз. Бундай воқеаларнинг ҳаётбахш таъсири миллионлаб кишилар қалбида акс-садо беради. Замонавий истилоҳ билан айтганда, жуда кучли мотивация уйғотади. Давлат раҳбарини халққа максимал даражада яқинлаштиради, оддий кишиларнинг ҳам унга нисбатан сафдошлик, ҳамнафаслик ҳиссини, шу билан биргаликда барчамизники бўлган шу Ватанга эгалик, унинг тақдири, келажаги учун жавобгарлик туйғуларини кучайтиради.

Хўш, бунга қандай эришилди?

Фикримча, бунинг энг биринчи сабаби – Шавкат Мирзиёев Президент сифатида иқтидорга келган дастлабки кунлардаёқ ўзи илгари сураётган жанговар шиорларга, аввало, шахсан ўзи амал қилди. Назаримда, унинг узоқ ва яқин тарихдаги анчагина давлат бошлиқларидан кескин фарқи ҳам, аввало, худди мана шунда. Серғайрат ва тиниб-тинчимас, улкан миқёсдаги умуммиллий, умумдавлат, ҳатто халқаро аҳамиятга эга тадбирларни пишиқ-пухта,

салобат ила уюштириш ва муносиб даражада ўтказишдан бошлаб, кундалик энг оддий, елиб-югуриш ва бевосита бошида туриб назорат қилишни талаб этувчи инсоний муаммоларни ечишдан эринмайдиган, нуроний ва зиёбахш чехрали, самимий нигоҳли олий раҳбарни кенг халқ оммаси қучоғини очиб кутиб олмоқда, унга бемалол кўнглини ёрмоқда, ўй ва ташвишларини яширмасдан айтмоқда. Бинобарин...

Буюк шоиримиз бундан юз йилча олдин ёзган мана бу ўтли сатрларда нақадар теран ҳақиқат мужассам эканлиги ва ана шу ҳақиқатга мамлакатимиз бугунги раҳбарияти томонидан қатъий амал қилинаётгани яққол аён бўлмоқда:

*«Бутун кучни халқ ичидан олайлик,
Қучоқ очиб халқ ичига борайлик!..»¹*

Иккинчидан, у Ўзбекистон Республикаси деган навқирон мамлакат иқтисодий-ижтимоий тараққиёти, халқининг фаровонлиги учун айна шу бугун, шу соатларда қилиниши зарур бўлган энг биринчи навбатдаги, энг муҳим ислоҳотлар ва ўзгаришларни аниқ белгилай олди. Ва ана шу ислоҳот ва ўзгаришларни амалга оширишга зудлик билан киришди. Ҳолбуки, бу ўзгаришларнинг айримларига қўл уриш... анчайин жиддий таваккалчилик билан боғлиқ эканлиги ҳеч кимга сир эмасди. Аммо не ажаб ва ҳайратки, у ўзида шунга журъат ва жасорат топди. Шу маънода уни сира иккиланмасдан мамлакатимиз, қолаверса, жаҳон тарихидаги буюк ислоҳотчи давлат бошлиқлари билан бир қаторга қўйиш мумкин, деб ўйлайман. Нафсиламрини айтганда, интернет саҳифаларидаги турфа фикрли мақолалар,

¹ Чўлпон. «Яна олдим созимни». Тошкент: Фафур Фулом номли адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. 407-б.

илмий, ижтимоий-сиёсий чиқишларда унда дунё тарихида ёрқин из қолдирган бир қатор улкан сиёсий арбобларга ўхшаш жиҳатлар борлиги ҳақида фикр билдирилибди. Таниқли бир сиёсатшунос эса уни хитойлик улкан сиёсат арбоби Дэн Сяо Пинга ўхшатибди. Бундай муқоясалар шартли ва нисбий, албатта. Менинг фикри ожизимга кўра, у, энг аввало, ўтмишдаги арбоблар фаолиятини чуқур ва атрофлича ўрганиб, сиёсатда ўзининг ўзига хос йўли ва услубини белгилаб олган, шу билан бир қаторда ушбу услубни давр, муайян шарт-шароитлар тақозосига кўра тинимсиз такомиллаштириб, мукаммаллаштириб бораётган замонавий давлат арбобидир.

Сиёсатда самимиятга қатъий риоя қилиш қийин, дейишади ва сиёсат арбобларини имконсизлик шароитидаги санъат соҳиблари деб аташади. Бўлса бордир. Лекин менинг назаримда, Ўзбекистоннинг бугунги раҳбари нисбатан қисқа фурсатларда худди ички сиёсатда бўлгани каби, ташқи сиёсатда, халқаро алоқаларда ҳавас қиларли даражадаги юксак натижаларга эришгани, ҳатто шу чоққача энг мураккаб ҳисобланиб келинган нуқталарда ҳам ижобий муносабатлар ўрната олгани айнан ана шу – Самимият туфайли десам муболаға бўлмаса керак. Самимият эса ҳамиша яхши ният, холис мақсад ҳосиласи сифатида майдонга келади. Ҳозирги омонат дунёда, айниқса айрим келиб чиқиши бир, динию тили муштарак давлатлар, халқлар ўртасида ўта фожиали низолар давом этиб турган бир вазиятда бундай холислик, теварак-атрофга эзгу ва дўстона назар билан қарашнинг қадр баҳосини таърифлашга тил ожизлик қилади.

Бундай холислик замирида эса, шак-шубҳасиз, Яратганнинг энг олий кашфиёти бўлмиш Инсон қадр-қимматини азиз тутиш, уни дўсту биродар билиш ҳис-туйғуси мужассамдир.

Бас, шундай экан, якуний мулоҳазаларимни яхлит ва мухтасар қилиб: Президент Шавкат Мирзиёев сиёсатининг асл моҳиятини Инсонга меҳр, уни асраш ва авайлаш, азиз ва мукаррам тутиш, қадрини кўтариш иштиёқи ташкил этади, ва бу самимий иштиёқ ёлқини ҳар бир ватандошимиз қалбига етиб бормоқда, тасавурию тафаккурини ёритмоқда, уларда эзгулик чечакларини ундирмоқда, деган хулоса билан якунлашни истайман. Иншааллоҳ, бу иштиёқ асло сўнмагай!

Китобимга сўнгги нуқтани қўяр эканман, уни ёзишда ўз маслаҳатлари билан яқиндан ёрдам берган барча дўстларга, шунингдек, ўз эътиборига лойиқ қўриб мутолаа этган кишиларга чуқур миннатдорчилик билдирган ҳолда мен учун қимматли фикр-мулоҳазаларини кутиб қоламан.


















Sa'dulla ISKANDAROV

YANGI O'ZBEKISTON ME'MORI

Prezident
Shavkat Mirziyoyevning
siyosiy portretiga chizgilar



Tarixdan ma'lumki, ulkan shaxslar, siyosat arboblari, ayniqsa davlat boshliqlari faoliyati haqida yozish, xolisona fikr yuritish mas'uliyatini zimmaga olishga har kim ham jur'at qilolmaydi. Buning uchun muallifda, avvalo, Xudo bergan yuksak salohiyat, cho'ng ilmiy zakovat, katta hayotiy tajriba, teran iqtisodiy-siyosiy tafakkur hamda keng miqyosli mustaqil fikrlash xususiyati bo'lishi kerak. Undan tashqari tadqiqot mavzusi haqida yetarlicha mukammal tasavvurga ega, o'z qahramonini yaqindan va har tomonlama o'rgangan bo'lish talab etiladi.

Taniqli olim, uzoq yillik boshqaruv tajribasiga ega rahbar, faol jamoat arbobi, ko'plab ajoyib olimlar-u yirik siyosatchilar, xalq xo'jaligi ishlab chiqarishi yetakchilarining mo'tabar ustози, akademik Sa'dulla Iskandarov ana shu haqiqatlarni yaxshi biladi va mavzu salmog'ini teran his etgan holda qalam tebratadi. Asarni diqqat bilan o'qisangiz, shunga komil ishonch hosil qilasiz.

Ushbu asar keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

MUALLIFDAN

Muhtaram kitobxon!

Ushbu risolani yozish uchun qo‘limga qalam olishdan oldin atroflicha o‘yladim, mufassal mulohaza yuritdim. Yashirmayman: avvalo ushbu mavzuda qalam tebratishga ma‘nan haqqim bormi, degan andisha va istiholani yengishga to‘g‘ri keldi. Shu bois avvalo, taniqli hamkasb olimlar, yetuk ijodkor do‘stlarim bilan dildan suhbatlashib, fikrlarini so‘radim, maslahatlarini oldim. Bildirilgan mulohazalarni atroflicha tahlil etib, shunday xulosaga keldimki, agar xolis nazar bilan ilmiylik talablariga qat‘iy rioya eta olsam, yolg‘ondan, xushomadgo‘ylik zamirida qandaydir tamalar yashiringan soxta maddohlikdan hazar qilgan holda dadil va ro‘yirost mushohada yuritsamgina, talabchan va nozik didli kitobxonni maqsadim samimiyligiga ishontirishim mumkin. Boshqacha aytganda, bu ish keng va teran ilmiy munosabat bilan birlikda oddiy insoniy his-tuyg‘ular musaffoligini, mutlaqo beg‘arazlikni talab etarkan.

Allohga hamd-u sanolar bo‘lsinki, bu hayotda hamisha yuzim yorug‘. Umrim davomida nimagaki erishgan bo‘lsam, avvalo, o‘z iqtidorim, bilim va tafakkurimga, tinimsiz mashaqqatli mehnatimga va aynan ana shu xususiyatlarim tufayli menga o‘z nazarlarini solgan mo‘tabar ustozlar, sadoqatli do‘stlarning beg‘araz madadiga tayanganman.

Bas, shunday ekan, milliy qadriyatlar aziz-u muqaddas bo‘lgan, «otalar so‘zi – aqlning ko‘zi» deya qaraluvchi hikmatli yurtning bir oqsoqoli sifatida mana shu anchayin nozik mavzuda qalam tebratishga jazm etishim mumkin, degan fikrga keldim. Ushbu jur‘atimni

qo'llab-quvvatlovchi, tasdiqlovchi va yanada mustahkamlovchi boshqa bir qator jihatlar ham borki, ular haqida ham yo'l-yo'lakay albatta to'xtalib o'taman.

Biror mas'uliyatli ishga jazm etish, shubhasiz, masalaning bir tarafi. Ahamiyati undan kam bo'lmagan, aslida mohiyatan har qanday yaxshi niyat va ezgu istakdan ancha balandda va oldinda turuvchi, kerak bo'lsa, bu boradagi hal qiluvchi jihat – shu ishni ko'ngildagidek uddalay olamanmi, bunga ijodiy va ilmiy iqtidorim, tafakkurim qudrati yetadimi degan istihola va andishadir.

Shu boisdan ham ushbu risolani yozishga o'tirishdan oldin muayyan nazariy tayyorgarlik bosqichini o'taganimni ham aytishga burchliman. Ya'ni shu yo'nalishdagi va shunga yaqin, shuningdek, qaysidir darajada bevosita aloqador ko'plab tarixiy-ilmiy manbalarni qarab chiqishga to'g'ri keldi.

Bundan maqsad shu ediki, uzoq o'tmish va yaqin tarixdagi ko'plab voqea-hodisalarni tasavvurim ko'zguisidan o'tkazdim va sinchiklab tahlil etishga, muqoyasalar asosida odilona baholashga harakat qildim. Shu mavzudagi ancha yillar burun o'qilgan anchagina kitoblarni diqqat bilan takroran ko'zdan kechirdim. Sharq tafakkuri allomalari Abu Rayhon Beruniydan Abu Nasr Forobiygacha, Konfutsiydan Lao Szigacha, Yevropa olim-u siyosatchilari, chunonchi, Arastu va Plutarxdan boshlab Nikkolo Makiavelli-yu Sharl Moris Taleyrangacha, Abulqosim Firdavsiydan Nizomiy Ganjaviygacha, Hisrav Dehlaviydan Abdurahmon Jomiy va Nizomiddin Mir Alisher Navoiygacha, Arnold Toynbidan Zbignev Bzejinskiygacha g'oyibona suhbatlashib, ular tomonidan shaxsning tarixdagi o'rni borasida bildirilgan fikrlar, ilgari surilgan g'oyalar, bashoratlar, mulohazalarni qaytadan, yanada kengroq va chuqurroq xolisona tahlil etishga harakat qildim. Yoritilmoqchi bo'layotgan mavzuga ko'hna tarixdan, bugungi zamondan misollar, muqoyasa va muqobalalar qidirdim. Zotan, buyuk allomalarimiz uqtir-

ganlarki, biz kechagi kunimizni qanchalik yaxshi bilsak, bugungi kun mohiyatini shunchalik shoyon anglaymiz, kelajak sari tashlaydigan qadamlarimiz shunchalik dadil va ishonchli bo‘ladi.

Alqissa, maqsadimni ochiq aytish pallasini keldi: orzuga ayb yo‘q, deyдилar. Kamina ozod va mustaqil mamlakatning baxtli, o‘z taqdiridan rozi bir keksa olimi sifatida Yangi O‘zbekistonda keyingi olti yil mobaynida yuz bergan va yuz berayotgan mislsiz tarixiy o‘zgarishlardan astoydil sevinib, hayajonlanib, to‘lqinlanib va ilhomlanib, mana shu olamshumul evrilishlarning amalga oshishida chinakam fidoyilik ko‘rsatayotgan mamlakatimiz xalqi va unga donishmandona va mohirona yo‘lboshchilik qilayotgan davlatimiz rahbarining benazir zakovati, bitmas-tuganmas g‘ayrat-shijoati haqida o‘zimning xolis fikrlarimni bayon etish niyatini dilimga tugdim. Binobarin, muhtaram kitobxon yuqoridagi izohlarimni inobatga olgan holda, ushbu ezgu niyatimni to‘g‘ri tushunadi, fikrlarim, ko‘z qarashlarim bilan atroflicha tanishib, tahlil qilib, o‘zining xolis bahosini beradi degan umiddaman.

Albatta, men siyosatshunos, faylasuf, iqtisodchi yoki tarixchi emasman. Shu bois ayrim mutaxassislarga zamonaviy jamiyatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan ushbu risola anchayin jo‘n va havaskorlik urinishidan iborat bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Shunday bo‘lsa, ushbu sohalarning kazo-kazolari xolisligim va samimiyatim evaziga bu qusurimni ma‘zur tutarlar, deb o‘ylayman. Undan tashqari bu mushohadalar amaldagi davlat rahbaridan ko‘rilgan bir marhamati oliyga azbaroyi javob tariqasidagi minnatdorlik hamda kelgusidagi himmat-u muruvvatlardan umidvorlik tuyg‘usi bilan ham bog‘liq emasligini yana bir karra ta‘kidlab o‘tib ketaman. Zotan, tamagirlikka asoslangan maddohlik va xushomadgo‘ylikdan har bir bandani Xudoning o‘zi asrasin. Qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib aytay, sakson yildan ziyod ongli hayotim davomida bunga muhtoj bo‘lmadim va Xudo xohlasa, umrimning oxirigacha shunday bo‘lib qolajak.

Keling, endi menga jur'at bag'ishlagan o'ta muhim jihatlardan birini aytay: bugungi oliy rahbarimizning kishini behad sevinchli hayrat va beg'araz havasga soluvchi ijtimoiy-siyosiy faoliyati, hayot yo'li haqida qalam tebratishga jazm etishimning o'ta oddiy va ayni paytda juda muhim bir sababi bor. Taqdir taqozosimi yoki Yaratganning irodasimi, kaminaga mana shu insonning mustaqil hayot yo'lidagi dastlabki qadamlarida birga ishlash, uning sevinch-u tashvishlariga bevosita guvoh bo'lish, ayrim chigal masalalarni birgalikda, maslahatlashib hal qilish, xullas, hamkor-u hamroz bo'lish nasib etgan. Mana shu jihatning o'zi ham kitob mutolaasiga kirishayotgan kishida tug'ilishi mumkin bo'lgan muayyan savollarga javob bersa, ko'p narsaga oydinlik kiritisa ajab emas.

Gapning indallosi shuki, men o'zim uzoq yillardan buyon yaxshi biladigan, ruhan yaqin bir inson to'g'risida yuragimdan o'tgan his-tuyg'u va kechinmalarni chin yurakdan samimiy o'rtoqlashmoqchiman, xolos. Zero...

Uning navqiron yillaridagi kurashchan qiyofasi, o'z kuchiga ishonchi, ustozlarga nisbatan pokiza havas, ulardek barkamol va obro'li inson bo'lish ishtiyoqi va xayrli maqsad bilan porlagan ko'zlari, mukammal ilm olish, siyosat jabhasiga dadil intilish asosida yetuk arbob, ulkan shaxs bo'lib shakllanish jarayonlari xotiram oynasida xuddi bugungiday yorqin aks etib turibdi. Uning o'qish va ishlashni sidqidildan yaxshi ko'rishi, bu borada bir daqiqa ham tinim bilmasligi, ana shu tinib-tinchimaslikdan zavq-u halovat his etishi, shu bilan birgalikda ziyrakligi, doimo sergakligi, do'stlari, ustozlariga nisbatan samimiy hurmat-e'tibori, mehr-oqibatlilik o'sha damlardayoq uni yaqindan bilgan, hatto endigina tanishgan har qanday kishi qalbida beixtiyor teran bir xayrixohlik va uning kamoliga beg'araz tilak-istaklar uyg'otardi. Gapning po'stkallasini aytadigan bo'lsam, u avval boshdanoq ayrim otasining puli, qavmi-qarindosh va tanish-bilishlar yordamida «karyera» qiluvchi,

hozirgi ta’birga ko‘ra «major» degan istiloh bilan ifodalanuvchi erkatoy yoshlardan mutlaqo farqli o‘laroq, o‘z kuchi, shu jumlani yana bir karra takrorlayman, o‘z kuchi-yu tirishqoqligi bilan va hayotdan erta ketgan volidai muhtaramasi ruhi, bir umr uzoq tog‘li qishloqdagi xastaxonada mashaqqatli shifokorlik kasbini sharaflab yashagan padari buzrukvori orzu-umidlari, ustozlari duosi, sadoqatli do‘stlari, hamkasblarining ezgu tilaklari, beg‘araz madad-u ko‘maklariga tayangan holda ulg‘aydi.

Alloh hukmidagi oliy haqiqat mavjudligini, unga binoan oddiy bir qishloq yigiti, mehnatkash ziyoli oilaning farzandi ham o‘z zahmati, mustahkam irodasi, kuch-g‘ayrati bilan hayotda, ilm-u riyozatda, siyosatda mana shunday yuksak rutbalarga erishishi mumkinligini men aynan uning misolida ko‘rdim. Bu yo‘ldagi mashaqqatli sinovlardan naqadar qiyinchiliklar va sabot-matonat bilan o‘tganiga tirik guvohman.

Odatda mustaqil hayot ostonasida turgan yoki unda o‘zining ilk qadamlarini tashlayotgan yigit-qizlar, Vatan bog‘ining navrasta nihollari o‘laroq, mamlakat tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarning ibratli hayot yo‘li, shuningdek, o‘zlariga zamondosh bo‘lgan ulkan siymolar faoliyatiga alohida qiziqish bilan qaraydilar, ulardan ulgu, ya’ni ibrat, namuna va ilhom olishga harakat qiladilar.

Bas, shunday ekan, bu kabi ibratli va sharaflil faoliyat xususida o‘z bilganlarim, kuzatganlarimni, chiqargan shaxsiy xulosalarimni bugungi avlod, ayniqsa yoshlarga so‘zlab bermasam bo‘lmas, kekxa bir ziyoli olim, ancha-muncha shogirdlarning ustozlari sifatida bunga ma’nan haqqim bor, buni zamondoshlarim, qolaversa, kelajak avlod vakillari to‘g‘ri qabul qiladilar, deb o‘ylayman.

Shu o‘rinda hazrati Alisher Navoiyning quyidagi mashhur baytini esga keltirishni joiz topdim:

*«Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir oxir».*

Binobarin, risolamda bugungi tarixiy davr ko'zgidagi bir ulug' inson, ulkan shaxs, taniqli davlat arbobi haqidagi ojizona, lekin xolisona taassurot va tasavvurlarimni bayon etishga jazm qildim. Uning sharafli faoliyatini ibrat qilib ko'rsatgan holda yosh avlod, o'g'il-qizlarim, nevara-chevaralarga qaratilgan katta hayot tajribasiga asoslangan pand-u nasihatlarim, ularning porloq kelajagi, baxt-iqboli yo'lidagi ezgu tilak hamda duolarimni ham bildirajakman.

Yana bir mulohaza shundan iboratki, Yangi O'zbekiston haqida jonajon Vatanimizning kechagi kuni, qolaversa, o'tmishini anchayin keng va teran bilgan oqsoqollar so'zlaydigan hikoyatlar, ular asosida hosil qilinadigan taassurotlarning alohida qimmatini bor. Zero, keksalar o'zlari bevosita guvoh bo'lgan kechmish voqea-hodisalar va bugun yuz berayotgan mahobatli evrilishlarni o'zaro qiyoslab, aql-idrok ko'zgidan o'tkazib, vijdonan baholash imkoniga ega hisoblanadilar.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, kamina kimyogar olimman. Butun umrim, ilmiy hamda amaliy faoliyatimni mana shu sohaga bag'ishladim. Avvalo maktab partasidanoq shu sehrli va mo'jizakor, Parvardigor inoyati va inson zakovatining tinimsiz mashaqqatli mehnati hosilasi bo'lgan hayratomuz kashfiyotlarga to'la ilmiy va ilohiy fan olamiga ko'ngil qo'ydim va bu havas bir umrlik qaynoq muhabbatga, mustahkam e'tiqodga, muxtasar aytganda, hayotim mazmuniga aylandi. Dono xalqimizning daraxt bir joyda ko'karadi degan naqliga amal qilib, shu yo'lda tinimsiz riyozat-u mashaqqatlar chekib, fan nomzodi, fan doktori, professor, akademik bo'ldim. Davr taqozosiga ko'ra, ancha muddat ilmiy izlanishlarni pedagogik hamda tashkilotchilik faoliyati, jamoatchilik ishlari bilan qo'shib olib borishimga to'g'ri keldi, bir nechta oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot dargohlarida rahbarlik lavozimlarida ishladim, talabalarga dars berdim. Navqiron faslimda tabarruk ustozlardan o'rgangan bilim va ko'nikmalarimni yosh avlodga yangi davr talabiga ko'ra yanada boyitilgan, ilmiy hamda amaliy jihatdan

asoslangan, zamonaviy shakllarda yetkazishga, ularning ta’lim-tarbiyasi yanada mukammal bo‘lishiga munosib hissa qo‘shishga intildim. Shuning asnosida ustozlik martabasiga erishish, ancha-muncha shogirdlar yetishtirish baxtiga muyassar bo‘ldim. Ma’lum darajada rahbarlik tajribasini qo‘lga kiritdim. Bu jarayonda juda ko‘plab insonlar bilan hamkorlikda baqamti ishlaganim, ularning salohiyat-iqtidori, bilimi va tajribasini, amaliy faoliyatini bevosita kuzatish, o‘rganish, qo‘llanish, shu asosda tegishli va hamisha adolatli xulosalar chiqarishga, haqqoniy baholashga intilish imkoniyatiga ega bo‘lganimni hayotda qo‘lga kiritgan eng bebaho ma’naviy-axloqiy boyligim, deb hisoblayman va buni hamisha faxr bilan ta’kidlayman. Yana shuni g‘urur bilan ta’kidlayman-ki, o‘z ilmiy tadqiqotlarim hamda ularni hayotga, ishlab chiqarishga tatbiq etish borasidagi amaliy faoliyatimni davom ettiryapman.

Binobarin, bisotimdagi mustahkam hayotiy tamal va oltmish yillik ilmiy-amaliy mehnat tajribasiga tayangan holda, olimlik va murabbiylik nuqtai nazari bilan o‘z hayotiy kuzatishlarimni bayon etishim hech kimni taassuflantirmas.

Aslini olganda, har bir ongli inson, ayniqsa ziyoli kishi o‘zi yashayotgan jamiyat hayoti, unda amalga oshirilayotgan ishlar, mamlakat rahbariyati olib borayotgan ichki va tashqi siyosat haqidagi xolis fikrlarini bildirishi shart, bu – uning vatandoshlik burchi deb hisoblayman. Ikkinchi tarafdin, har qanday davlat-u mamlakatning oliy masnad-u martabalarga ega rahbarlari ham hamisha o‘z faoliyatlari haqidagi eng oddiy, ayni paytda xolis va beg‘araz mulohazalarga befarq qaramaydilar, ularning e’tiborga loyiq jihatlarini inobatga oladilar. Buni o‘zlarining burchi, vazifasi deb biladilar. Nafsilamrini aytganda, bu jamiyat taraqqiyotining, har bir mamlakatdagi osoyishtalik, ahillik va farovon hayotning muhim shartlaridan biridir. El-u yurt sardorlari va raiyat bir-birlarining ahvol-ruhiyasi, kayfiyatidan, fikr-o‘ylaridan, sevinch-tashvishlaridan muntazam xabardor holda yakdil, hamfikir

yashashi hamisha ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivoj bardavomligiga xizmat qilgan. Ko'hna tariximizda bunga misollar ko'p.

Xullas, mana shu fikrlar jismimga shijoat, ijodimga ilhom bag'ishladi desam, mubolag'a yoki balandparvoz gap bo'lmas.

Shunga qaramasdan, ushbu risolada mazkur mavzuni to'laqonli darajada keng va chuqur tahlil etishga da'vo qilmasligimni yana bir karra aytib o'tishim shart. Bu – keksa olimning, mehnat faxriysining bugungi avlod vakillari, ayniqsa yoshlar bilan g'oyibona dildan suhbatlashish asnosida o'zi ma'lum darajada yaqindan bilgan ulkan davlat arbobining Inson, Shaxs, Olim, Rahbar sifatida shakllanish jarayonini hayot zahmatlari-yu hikmatlari ko'zgusi orqali ko'rsatishga baholi qudrat urinishi, xolos.

Istagim – Yangi O'zbekistonning asosiy tayanchi bo'lgan bugungi yetuk va navqiron bo'g'inlar shu mushohadalar orqali o'zlariga ozgina bo'lsa-da, zarur saboq va xulosalar chiqarsinlar, qalblaridagi orzu-umidlar ro'yobining aniq dasturilamallarini belgilab olsinlar. Shuni anglasinlarki, hayotda, ilm-u riyozatda, iqtisod-u siyosatda eng yuksak cho'qqilarga faqat va faqat pok orzu-niyatlar, tinimsiz mehnat, qunt bilan o'qish-o'rganish, qat'iyat va dadil olg'a intilish, ba'zida mardonavor kurashlar orqaligina erishish mumkin. «G'alabaning o'zi kelmaydi, do'stim!» deya xitob qilgan edi o'z davr-u zamonida buyuk shoirlarimizdan biri. Ana shu jangovar shior hali-hanuz o'z dolzarb ahamiyatini yo'qotgan emas.

Bas, shunday ekan, ushbu risola mamlakatimizdagi ko'p millionli o'smirlar-u yoshlarni, talabalarni, ayniqsa, ilm-fanga, siyosat-u iqtisodga, tadbirkorlikka qiziquvchi, muxtasar aytganda, yetuk ziyoli, o'z yurtining taniqli insonlari bo'lib yetishishni qalbiga tukkan o'g'il-qizlarimizni befarq qoldirmaydi degan fikrdaman.

Albatta, ushbu mavzuda o'zimizdagi va, qolaversa, xoriydagi nufuzli siyosatshunos olim va mutaxassislar har jihatdan mukammal fundamental asarlar yaratmoqdalar va kelgusida ham yaratajaklariga

shak-shubha yo‘q. Ularga ijodiy ilhom-u har tomonlama rostgo‘ylik va xolislik tilagan holda qalam tebratishga kirishaman. Ehtimolki, ular o‘z asarlarida mana shu beg‘araz va samimiy mushohadalardan ham istifoda etarlar.

Umuman, ushbu risola uni mutolaa etishni lozim ko‘rgan kishilarda ozgina bo‘lsa-da, ezgu taassurot qoldirsa, o‘zimni baxtli deb hisoblar edim. Ayrim o‘rinlarda takrorlarga, kuchliroq tashbehtar, keragidan ortiq ta‘rif-u tahsinlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsam, buni keksalik hayajoni natijasi sifatida qabul qilishingizni so‘rayman.

Birinchi bob

ZAKOVAT VA SHIJOAT, JUR'AT VA QAT'IYAT

Bugun «Yangi O'zbekiston» degan atama nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki butun dunyoda keng qo'llanilmoqda. Bu istilohni siyosatchilar va davlat arboblari, olimlar-u ijodkorlar, jurnalistlar-u blogerlar, qolaversa, oddiy turistlar va sayohatchilar tilidan deyarli har kuni ko'p martalab eshitish mumkin.

Mening tushunishimcha, odatda «yangi» degan sifat muayyan davlatga nisbatan ishlatilganda ushbu mamlakatda yuz bergan tub o'zgarishlar, chunonchi, undagi inqilobiy o'zgarishlar tufayli endigina shakllana boshlagan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan boshlab, kishilar turmushi va tafakkuridagi teran hamda keng miqyosli evrilishlarni ifodalaydi. Shu ma'noda olib qaraydigan bo'lsak, 1991-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekistonga tatbiqan bu so'z kam istifoda etilgan. Zero, ulkan kommunistik saltanat tarkibidan ajralib chiqib, suveren davlat sifatida o'zining ilk qadamlarini qo'ya boshlagan ona Vatanimiz uchun tubdan yangilanish, ifodali qilib aytganda, ham shakllan, ham mazmunan tom ma'nodagi yangi davlatga, erkin va farovon fuqarolik jamiyatiga evrilish hali orzu edi. Salkam yuz yillik mustamlaka asoratlarini daf'atan bartaraf etish va dabdurustdan: mana biz yangi davlat, yangi jamiyat qurdik, deyish kulgili bo'lar va bunga hech kim ishonmasdi ham.

O'tgan o'ttiz yil davomida bu orzu ro'yobi yo'lida qat'iyat bilan olg'a intildik. Shak-shubhasiz, o'z istiqlolini qo'lga kiritgan, o'zining

milliy davlatchiligi, o‘z Konstitutsiyasi, Davlat madhiyasi, Gerbi-yu Bayrog‘iga ega bo‘lgan buyuk xalq qudrati jo‘sh urdi, uning jahd-u shiddati chin ma’noda olamni mahliyo ayladi. Zero, boshqacha bo‘lishi mumkin ham emasdi. Ajdodlari buyuk kashfiyotlari bilan jahonni lol etgan, davlatchilik, ilm-u fan bobida shonli tarixga ega bo‘lgan el-yurtimiz farzandlari ulug‘ an’analarni sharaf bilan davom ettirishdek tarixiy imkoniyatdan zo‘r ko‘tarinkilik, faxr-iftixor tuyg‘usi bilan unumli foydalanishlari shart va zarur edi. Biroq...

Yuzaga kelgan tarixiy imkoniyatdan qanchalik unumli foydalana oldik? Bu savolning javobi oson va oddiy emas. Taraqqiyotimiz sur’atlarini tahlil etish, tanqidiy baholash asnosida bunga yaqqol ishonch hosil qilinmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining ma’ruza va nutqlarini tinglagan, maqolalari, kitoblarini o‘qigan kishi ko‘p narsani o‘rganadi, ko‘p masalalarni tafakkur ko‘zgidan o‘tkazib, qayta baholashga, yangicha xulosalar chiqarishga jazm etadi. Albatta...

O‘ttiz yillik tariximiz davomida amalga oshirilgan ishlar, chekilgan zahmat-u riyozatlar haqida tom-tom kitoblar yozilgan. Binobarin, bu haqda mufassal to‘xtalib o‘tirmoqchi emasman. Meni hayajonlantiradigan, qalbimni zavq-u shavqqa to‘ldiradigan va qo‘lga qalam olishga undaydigan hol – yangi davrning o‘ziga xos shiddati, bunyodkorlik ishlari sur’atining yil, oy, kun, soat sayin oshib, miqyoslari kengayib borayotgani bilan bog‘liqdir. Ushbu yangi davr, mening nazarimda, yangi hayot, yangi tarix, yangi taraqqiyot bosqichi muqaddimasi sifatida hozirdanoq teran tahlillarga, xolisona va haqqoniy e’tiroflarga munosib bo‘lib ko‘rinadi. Buning ahamiyati juda katta deb o‘ylayman. Shuning uchun ham...

Kamina besh-olti yil davomida shiddat bilan shakllangan va o‘z maqomi, husn-u jamoli, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mantiqan tarixiy haqiqatga aylantirayotgan Yangi O‘zbekiston haqidagi baholi qudrat taassurotlarim va mushohadalarimni bayon etmoqchiman.

Mamlakatni tubdan yangilash, muxtasar va aniq qilib aytganda, Yangi O'zbekistonni yaratish borasidagi ilk bora davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan va xalqimiz tomonidan katta xursandchilik bilan ma'qullangan, jahon afkor ommasi xolisona e'tirof etgan g'oyani boshda chet ellardagi va, hatto o'zimizdagi ancha-muncha odamlar istehzoli tabassum bilan kutib olishgani sir emas. Sababi, ular bu g'oya zamirida qanday yuksak, ayni paytda real marralar mujassam ekanligi, ularni zabt etish uchun qanday omillarga tayanilishi haqida yetarlicha tasavvurga ega emasdilar. Shu bois bu ham jahon siyosat maydonida vaqt-vaqti bilan o'rtaga tashlab turiladigan balandparvoz, populistik shiorlardan biri, deb o'yladilar va yanglishganliklarini tez fursatda tushundilar.

Zero, jahondagi sog'lom fikrlovchi keng jamoatchilik bu borada o'zining xolis va haqqoniy fikrlarini bayon etdi, ilgari surilayotgan g'oya donishmandona, belgilanayotgan ulug'vor vazifalar ijrosi real va hayotiy ekanligini e'tirof qildi.

«Yevronews» axborot agentligi tomonidan ma'lum qilinishicha, Ispaniya matbuoti «O'zbekistonda tadrijiy inqilob boshlanmoqda», deb yozgan, Amerika gazetalarining guvohlik berishiga ko'ra, AQSh rahbariyati «O'zbekistonda yangi davr boshlanayotganligi»ni bashorat etishgan».

Chindan ham har qanday mamlakat ahli o'z oldiga buyuk maqsadlar, ulkan marralarni qo'yar ekan, avvalo, ular qanaqadir bo'shliqda vujudga kelishi va faqat ezgu orzu-niyatni ifodalash bilan cheklanmasligi shart. Ya'ni bu maqsadlar tarixiy tamal va asoslarga ega bo'lishi, hozirgi davrdagi mavjud imkoniyat hamda resurslarga, eng muhimi, butun mamlakat ahlining faol, ko'tarinkilik bilan qo'llab-quvvatlashiga tayanilishi talab etiladi.

Prezidentimiz tomonidan azal-azaldan donishmand allomalar o'lkasi bo'lmish O'zbekistonda «Uchinchi renessans» poydevorini

yaratish borasidagi tashabbusning o‘rtaga tashlanishi ana shu o‘ta muhim savol-u shartlarga munosib javob bo‘ldi. Ya’ni, tarixan Sharqda Uyg‘onish davrlarining vatani bo‘lmish, dunyoga Beruniy, Xorazmiy, Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek singari daholarni yetishtirib bergan mamlakat o‘z shiddatli taraqqiyotining bugungi bosqichida o‘z oldiga mana shunday olamshumul darajadagi sarbaland marralar qo‘yishga to‘lasincha haqlidir.

Ikkinchidan, o‘z tarixida bir necha asrlik inqiroz, tushkunlik, siyosiy tarqoqlik va boshboshdoqlik, mustamlaka va qatag‘onlar asoratlarni boshdan kechirgan va nihoyat o‘z mustaqil davlatini tuzib, uni o‘z avonida, o‘z milliy qadriyatlari asosida rivojlantirish imkoniga ega bo‘lgan ozod va or-g‘ururli elning shahdi, azm-u irodasi, orzu-intilishlari O‘zbekiston uchun eng baland, eng cho‘ng cho‘qqilarni ko‘zlash huquqini bera olishi ayni haqiqatga aylangandi.

Bir paytlar o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan aksar postsovet respublikalar singari biz ham: «O‘zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati!» deya hayqirishni yaxshi ko‘rar edik. Aslida ham shunday deyishga yetarlicha asoslar bor edi. Mamlakatimizdagi Alloh in‘om etgan qulay iqlim-u ob-havo sharoitlari, yer osti va yer usti boyliklari, noyob ma‘dan-u qazilmalar, minglab yillik tajribaga va eng muhimi kamyob zakovat-u nodir mehnatsevarlik qobiliyatiga ega donishmand xalqimiz bilan nisbatan qisqa fursatda jahondagi eng mutaraqqiy davlatlar qatoriga chiqishimiz mumkin edi. Ammo...

Ayrim tahlilchilarning haqqoniy e‘tirozlariga ko‘ra, dastlabki chorak asr davomida respublikamiz o‘zidagi mavjud imkoniyatlardan yetarli foydalana olmagan bor gap. Biroq dilga taskin beradigan bir jihat borki, ana shu imkoniyatlar to‘lasincha boy berilmadi, salohiyat va kuch-qudrat qo‘ldan chiqarilmadi. Haytovur, aksariyat bo‘lagi saqlanib qoldi. Va ana shu mavjud qismi va jahon maydonida fan-texnika taraqqiyoti tufayli kun sayin paydo bo‘layotgan yangi imkoniyatlar

mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda katta sakrashlar qilishi mumkinligini yaqqol namoyon etayotgan edi.

Prezident buni o'z vaqtida ilg'adi va o'z vaqtida katta jur'at va dadillik bilan ulug'vor g'oyalarni ilgari surdi, juda baland, ayni paytda real marralarni belgilab berdi. Bu esa juda muhim. Yuksak, asosli g'oyaning o'rta tashlanishi, murakkab vazifaning o'z vaqt-u furjasida olg'a surilishi, amaliy harakatlarning paysalga solmasdan tezkorlik va hozirjavoblik bilan tashkil etilishi – muvaffaqiyatning boshlanishidir. Shu o'rinda talabalik yillarimda eshitgan va bir umr xotiramga o'rnashgan ikkita nemis maqolini keltirishni istar edim. Ularning birinchisi: «ayle – mit vayle», o'rislarning «tishe yedesh – dalshe budesh» iborasiga ohangdosh bo'lib, o'zbekchasiga taxminan «qimirlagan – qir oshar», deya tarjima qilinishi mumkin. Ikkinchisi esa, xotiram pand bermasa, «frish gevakt ist halb gevone» deya talaffuz etilar, o'rischaga «smelost – goroda beryot», deb o'girilar, o'zbekcha sodda tarjimasi: «jasurlik – shaharlarni zabt etadi» el tilidagi muqobili esa chamasi, «o'ychining o'yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitadi» yoki «ko'z – qo'rqqoq, qo'l – botir», bo'lardi. Lekin...

Davlatimiz rahbarining Yangi O'zbekistonni yaratish yo'lidagi azm-u irodasi haqida gapirar ekanmiz, bu zinhor-bazinhor oddiy tavakkalchilik emasligini yana bir karra ta'kidlab o'tishimga to'g'ri keladi. Uni navqiron yillarida yaqindan bilganim, rahbarlik rutbasidagi ilk qadamlariga bevosita guvoh ekanim va ularni tahlil qilish va baholash imkoniga ega bo'lganim uchun shunday deyapman.

Mening nazarimda, mana shu ulkan orzu – Yangi O'zbekistonni bunyod etish g'oyasi uning qalbida bir lahza, soat yoki kunda dabdurustdan paydo bo'lgan emas. Yillar davomida, mamlakatni qadam-baqadam kezish, mavjud muammolarni yuragidan o'tkazish va ularga yechim izlash asnosida shakllanib, takomillashib borgan va pirovardida yaxlit, mukammal tarzda namoyon bo'laroq yuzaga chiqdi va elimizning bar-

cha aql-idrokli insonlari yuragida aks-sado berdi, butun xalqimiz tomonidan katta xursandchilik, shahd-u shijoat bilan kutib olindi. Holbuki...

O‘tmish saboqlaridan yaxshi ma’lum, hokimiyat tepasiga kelgan ayrim yangi rahbarlar o‘z faoliyatini mamlakatdagi mavjud ahvolni xaspo‘shlash maqsadida kechagi kunni tanqid qilish, qoralash bilan boshlagan. Bu bilan go‘yoki vaqtdan yutishga, taraqqiyot g‘ildiraklarining sust harakatini izohlashga, o‘zidan ertami-kechmi muqarrar so‘raladigan hisobot muddatini imkon qadar ortga surishga uringan. Kechagina soyasiga salom berib yurgan o‘z o‘tmishdoshini oshkora yomonlash va badnom etish, uning safdoshlarini qatag‘on qilishgacha borib yetgan yo‘lboshchilarni ko‘rdik. Ana shunday voqealardan ikkitasini misol tariqasida eslab o‘tsam noo‘rin bo‘lmasa kerak.

O‘shanda endigina maktabni bitkazib, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yosh yigit edim va bu favqulodda voqea tasavvurimda o‘ta murakkab taassurot va o‘chmas iz qoldirgan.

Sobiq SSSRda 1956-yil aprelda bo‘lib o‘tgan va shaxsga sig‘inishni qoralashga bag‘ishlangan mashhur XX qurultoyi va plenumi, unda KPSS Markaziy Qo‘mitasi birinchi kotibi Nikita Sergeyevich Xrushchyov qilgan shov-shuvli ma’ruza butun mamlakatni go‘yoki bir zarb bilan ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi. Kuni kecha yer yuzining beshdan bir qismini egallagan bepoyon mamlakatning butun xalqi but kabi sig‘ingan «dohiy» Stalin nomi ayovsiz qoralandi. Mo‘miyolangan va Lenin jasadi bilan yonma-yon e‘zozlanib, har kuni ming-ming kishilar tomonidan ziyorat qilinib kelgan loshi mavzoleydan chiqarilib, qora yer bag‘riga topshirildi.

Yigirmanchi, o‘ttizinchi, elliginchi yillar qatag‘onlari qurbonlari haqqi hurmati, aksar ziyolilar qatorida kamina ham bugun o‘shanda ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan ish tutilgani, o‘ta qattiqqo‘l hukmdorga nisbatan tarixning o‘zi shunday hukm chiqarganini tasdiqlayman, albat-ta. Ammo...

SSSRda yashovchi aksar yoshlar kabi Stalinni «ulug' dohiy» deb bilgan, endigina institutga kirishga tayyorlanayotgan mendek o'smir yigit bu holatdan butkul sarosimaga tushib, ikkilanib qolgandim. Endi nima bo'ladi, hayot qayoqqa qarab o'zgaradi, otalarimizning jonfidolliklari tufayli tunov kungina qo'lga kiritilgan tinchlikning taqdiri nima kechadi, oddiy xalqning qiyinchilik bilan bo'lsa-da asta-sekin izga tushayotgan turmushi yana izdan chiqib ketmaydimi, yana yo'qchilig-u qahatchilik boshlanmaydimi kabi xavotir-u ishtibohlar yopirilib kelgandi ko'nglimga.

Men o'sha kezlarda o'zimning, ya'ni birgina navqiron yigitning tabiiy taassurotlarini keltiryapman, xolos. Chuqurroq va kengroq olib qaralsa, o'shanda millionlar yuragidan o'tgan tuyg'ularni ifodalashga harakat qilinsa, o'sha davrda ulkan bir mamlakatni larzaga solgan dahshatli bir keskin evrilish sodir bo'lgan. Kechagina osmon-u falakda bo'lgan ulkan bir qadriyat dabdurustdan oyoqlar ostida toptala boshlangandi. Bu esa...

Nafaqat kishilar qalbi, tasavvuri, balki butun mamlakatning ijtimoiy hayoti, taraqqiyotida qattiq silkinishni, ma'lum ma'noda qandaydir boshboshdoqlik, tushkunlikni vujudga keltirgan va bu yuqoridan harchand xaspo'shlanmasin, asta-sekin yaqqol sezila boshlagan edi. Oltmishinchi yillar boshida butun mamlakatda non tanqisligi, ayrim joylarda, hatto ocharchilik yuz bergani shuning kasri edi.

Fikri ojizimcha, o'shanda Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi rahbariyati mamlakatdagi hukmron mafkura mazmun-mohiyatida haddan ortiq keskin o'zgarish yasashga urinib, katta xatoga yo'l qo'ygandi. Albatta, stalinizmning mudhish mohiyatini zarracha bo'lsa-da oqlash fikridan mutlaqo yiroqman. Uning ayanchli oqibatlariga bir kunmas-bir kun albatta haqqoniy baho berilishi kerak edi. Faqat bu darajada shoshqaloqlik va yuzakichilik bilan emas. Dono Sharqda «musulmonchilik asta-sekin», «yetti o'lchab, bir kes» degan bir qarashda o'ta oddiy, biroq

mazmuni judayam chuqur naqlar bor. Ularni unutmagan kishi kamroq xato qiladi.

Oqibat shu bo‘ldiki, stalinizmni shosha-pisha o‘ta keskin qoralab, uning o‘rnini undan afzalroq, qudratliroq yangi mafkura bilan to‘ldirolmagan Nikita Xrushchovning o‘zi ham safdoshlari fitnasining qurboni bo‘ldi. Lavozimidan olib tashlanib, «volyuntarist, avanturist», deya qoralandi. Mamlakat hayotida uning davrida boshlangan «eruvgarchilik» sekinlashib qoldi.

Undan keyin kelgan rahbarlar Stalinning avvalgi maqom-u rutbasini qayta tiklamagan, oshkora sharaflamagan bo‘lsalar-da, sobiq «dohiy»ning suratlari asta-sekin oddiy kishilarning xonadonlarida, mashinalarining salonlarida paydo bo‘la boshladi. Shu tariqa dunyo sahnasida ajabtovur bir tarixiy haqiqat paydo bo‘ldi: marhum hukmdorlarni qoralash, mavzoleylar-u maqbaralarni vayron etish, haykallarni yiqitish mushkul ish emas. Qiyini – insonlar qalbiga o‘rnatilgan «yodgorlik»larga munosabat masalasi. Chinakam ishonch asosiga quriladimi yoxud zo‘ravonlik bilan singdiriladimi, e‘tiqodni o‘zgartirish, ayniqsa, ruhiyatdagi qo‘rquvni, qaramlik va mutelikni yo‘qotish judayam mushkul. Bunga ba‘zan asrlar talab etilsa, ba‘zida mutlaqo imkonsiz harakat bo‘lib chiqadi. Eng odil hakam – vaqt, deyдилar. Uning hukmi oldida tarix ham ojizdir. Binobarin oqil arboblar bunday befoyda ish bilan shug‘ullanmaslikni ma‘qul ko‘radilar. Aksincha o‘z qadamlarini kechagi kun tajriba va xatolarini shoshqaloqlik qilmasdan chuqur, har tomonlama tahlil etgan holda, aniq reja va maqsadlar bilan tashlashni maqsadga muvofiq, deb biladilar.

Ikkinchi misol o‘tgan asrlarning saksoninchi yillaridan va bevosita O‘zbekiston hayotiga doir. Mayda tafsilotlarga berilmasdan gapning indallosini aytaman: O‘zbekistonga salkam o‘ttiz yil rahbarlik qilgan ulug‘ arbob, hassos ijodkor Sharof Rashidov shaxsining vafotidan so‘ng qoralanishi, bir hovuch mansabparast amaldor-u alamzadalarni

hisobga olmaganda, butun o'zbek xalqi tomonidan qahr-g'azab bilan qarshi olindi.

Darvoqe, shu yerda mansabparastlar-u alamzadalar haqida ikki og'iz shaxsiy mulohazalar bildirib o'tishga jazm etaman. Chunki hayotim va faoliyatimda shu toifadagi kimsalarga ham ozmi-ko'pmi duch keldim. Ular hamisha bo'lganlar, hozir ham bor va kelgusida ham bo'lajak. Ular hukmdorlar avji baland chog'lar oyoqlari ostida o'ralashadilar, maddohlik, laganbardorlik, tilyog'lamalik bilan o'z murodlarini hosil qilib, mansablarga minib, unvon-u mukofotlarga erishib yuradilar. Hukmdorning oyog'i toysa yoxud bandalikni bajo keltirsa (ne ajabki, har qanday buyuk rahnamo, mustabid podshoh, hoqon-u fir'avnlr ham Oliy haqiqat qoshida siz-u biz kabi ojiz bandalardir), bas, shu zahoti yuz o'giradilar. Kerak bo'lsa, ayovsiz qoralaydilar, sotadilar. Uning davrida xor-u zor bo'lganliklari haqida sharmandalarcha qasamlar ichadilar. O'zlarini yangi olampanoh oyoqlari tagiga tashlaydilar. Kechagi qasida-yu madhiyalarni yangi zamonga moslab qayta ishlaydilar. Yangi davlat rahbarining shon-u shavkatini sharaflab yangi madhiya-yu qasidalar bitila boshlaydi. Shu boisdan ham azal-azaldan ko'hna sharq allomalari, buyuk mashoyixlar dono hukmdorlarni maddoh-u xushomadgo'ylardan yiroq tutishga da'vat etib kelganlar.

Xuddi birinchi misolda aytib o'tganimdek, ko'p yillik rahbar faoliyatining keskin qoralanishi butun O'zbekiston xalqining kayfiyatiga, o'z-o'zini baholash tuyg'usiga o'ta salbiy ta'sir qildi, hatto aytish mumkinki, g'ururini poymol qildi, or-nomusiga tegdi. Shuning uchun ham oradan, mana, deyarli qirq yil o'tganiga, haq o'z o'rnida qaror topganiga, xalqimizning suyukli farzandi Sharof Rashidov xotirasi elimizda munosib darajada ardoqlanayotganiga qaramay o'sha voqealar xalqimiz tomonidan judayam og'riqli eslanadi. Nechog'lik bag'ri keng, kechirimli el ekanimizga qaramasdan, o'sha ishlar boshida turgan kishilarni afv etishimiz nihoyatda qiyin bo'lmoqda.

Xuddi shu adolatli haqiqat mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan teran anglangani, ya’ni Sharof Rashidov tavaludining 100 yilligi munosabati bilan uning xotirasiga bo‘lgan munosabat ham tamoman yangicha mohiyat kasb etgani xalqimizni chuqur mamnun etdi, desam, fikrimga ko‘pchilik qo‘shilsa kerak. Ayniqsa u tug‘ilib o‘sgan tuman, tahsil ko‘rgan Samarqand dorilfununi Sharof Rashidovning tabarruk nomi bilan atalishi – tarixiy adolatning qaror topishidir. Endilikda bu benazir va buyuk siymo, minglab, o‘n, yuz minglab o‘zbek ziyolilarining g‘amxo‘r-u mehribon, ayni paytda talabchan ustozlari tom ma’noda elimiz faxr-iftixoriga aylandi. Gapning indallosini aytadigan bo‘lsam, davlatimizning bugungi rahbari, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o‘zining siyosat maydoni sari ilk qadamlarini qo‘yayotgan kezlarda ana shu tabarruk siymoning oq fotahasini olganiga shaxsan guvohman. Bu haqda keyingi boblarda muassalroq to‘xtalib o‘tishni niyat qilganim uchun hozir gapni muxtasar etib, mulohazalarim davomiga qaytaman.

Bu misollar asosidagi mushohadalar hamda fikr-mulohazalarimdan kelib chiqadigan xulosam shuki, Yangi O‘zbekiston Prezidenti o‘z yo‘lboshchilik faoliyatini kechagi kunlarni keskin qoralashdan emas, avvalo chuqur va har taraflama tahlil qilishdan, xato va kamchiliklarni dono xalqimizning ko‘ziga tik qarab, mardona aytish bilan birga, ularni bartaraf etishning eng maqbul yo‘llarini el bilan maslahatlashgan holda aniqlashdan, belgilashdan boshlagani, ayni paytda o‘z qalbida uzoq yillar davomida asrab-avaylab kelgan ulug‘vor orzular ro‘yobi sari dadil harakatlarni tezkorlik bilan tashkillashtirishga kirishgani el-u davlatimizning eng katta yutuqlaridan biri bo‘lganligini e’tirof etish, kerak bo‘lsa, takror-takror ta’kidlashdan iboratdir.

Ko‘p yillik ilmiy-amaliy, rahbarlik faoliyatim davomida ko‘plab mamlakatlarga ish yuzasidan xizmat safarlariga yoxud dam olish-u istirohatlarga borishimga to‘g‘ri kelgan. Ana shunday sayohatlarning

biri chog'ida ummonda suzib ketayotgan ulkan tankerlarni ko'rgan edim. Aytishlaricha, bir yo'la bir necha yuz ming tonnalab neft tashuvchi bunday kemalar o'z yo'nalishini aqalli bir necha santimetr ga o'zgartirishi uchun ancha-muncha vaqt hamda masofa kerak bo'larkan. Bu muqoyasadan maqsad shuki, xuddi shunday ulkan davlat kemasi yo'nalishini belgilashning o'zi oson emas va uni salgina bo'lsa-da o'zgartirish, sur'atini tezlashtirishga jazm qilish esa darg'adan katta donishmandlik va benazir jasorat talab etishi ayni haqiqat. Shubhasiz, Yangi O'zbekistonni yaratish g'oyasini ishlab chiqish chog'ida uning ijodkor me'mori bu haqiqatni qat'iyan hisobga oldi.

Jahon siyosatshunosligi tarixi shundan guvoh beradi: davlat rahbari sifatidagi ilk qadamlaridanoq yuksak va keng miqyosli zakovat bilan aniq, uzoqni ko'zlovchi ezgu maqsadlar asosida ish tutish, mudom mar-rani baland olish, mislsiz darajadagi mashaqqatli, biroq real vazifalar belgilash jur'ati hamda ular ijrosi yo'lidagi metin qat'iyat, bitmas-tuganmas jismoniy shijoat singari fazilatlar, tug'ma noyob iste'dod va nodir salohiyatga ega, xalqona qilib aytilsa, Xudo nazariga tushgan kamdan-kam arboblarga xos belgidir. Bunday ulkan shaxslar ana shu fazilatlarini navrasta bolalik chog'laridayoq namoyon etadilar. Ularda bir qarashda zohiran sezilmaydigan, ammo ziyrak va sinchi kishilar, chunonchi, dono ustozlar sergaklik bilan ilg'ab oladigan, botiniy o'ziga xoslik, tengqurlariga o'xshamaydigan kreativ, ya'ni ijodkorlik va tashabbuskorlik, yetakchilik xususiyatlari yashirin mavjud bo'ladi. O'smirlik paytlarida ular kurtak yozadi. Yoshlik davrlarida o'zining ilk g'unchalarini ocha boshlaydi.

Donishmand Sharq jamiyatshunosligi, falsafasi asoslarini o'rganish va Yevropa siyosatshunosligi asoslaridan xabardor bo'lish asnosida ana shu haqda muayyan tasavvurga ega ekanligim bois kamina oltmish yildan ziyod ustoz va murabbiylik faoliyatim davomida shogirdlarim orasidan xuddi shunday xususiyatlar sohiblarini qidirib kelganman. Ne

baxtki, ezgu niyatlarim yo‘ldosh o‘laroq, shunday istagimga muyassar bo‘ldim. Binobarin...

Ijodiy fikrlash mudom yangi va yangi marralar sari olg‘a intilish, zamonaviy, muxtasar istiloh bilan ifodalaganda, kreativlik xususiyatiga ega bo‘lgan ushbu serg‘ayrat insonning hayot yo‘lining eng serzavq navqiron fasliga, shiddatkor yoshlik pallalariga ma‘lum darajada daxldor bir murabbiy sifatida uning davlat boshlig‘i sifatidagi dastlabki qadamlarini sinchiklab kuzatish men uchun hamishagidan ko‘ra ham qiziqarli edi. Zero, bu qiziqish menda bundan qirq yillar avval u bilan tanishib va ilk bor suhbatlashgan chog‘imizda tug‘ilgan va turli vaziyatlar, shart-sharoitlar taqozosiga ko‘ra, yillar sayin tobora kuchayib borgan. Nasib etsa, bu haqda keyingi boblarda mufassal to‘xtalaman. Hozir esa dastlabki qadamlar va ungacha bo‘lgan o‘ta murakkab, mashaqqatli bosqich borasidagi mulohazalarimni davom ettiray.

Rosti gap, Bosh Vazir sifatidagi o‘n uch yillik faoliyati davomida, undan avval bir tuman va ikki viloyat hokimi bo‘lgan kezlarda aholi uni televizor ekranida deyarli ko‘rmagan. Buning sababi, avvalo, uning kamtarligi, ya‘ni o‘z faoliyatini ko‘z-ko‘z qilish istagidan yiroqligi, shuningdek, oz gapirib ko‘proq ish qilishni afzal bilishi bilan bog‘liq, albatta. Shu yillarda uni goh yaqindan, goh uzoqroqdan turib, shaxsan kuzatib borganman. Bundan tashqari o‘sha kezlarda u bilan birga baqamti ishlagan safdoshlaridan ancha-munchasini shaxsan taniyman va yaxshi bilaman hamda ko‘p martalab shu haqda dildan suhbatlashganman. Suhbatdoshlarning har biri uning nechog‘lik o‘zini qiynab, fidokorona ishlagani haqida hayratlanib, qiziqarli dalilli voqealar bilan gapirishgan, ko‘plab aniq-ravshan misollar keltirishgan. U zamonlarda respublikaning eng oliy rahbaridan boshqa biror amaldorning matbuotda ko‘rinishi, fikr-mulohaza yuritishi noma‘qul hol hisoblangan. Shuning uchun ham xalq aksar amaldorlarni tanimas va ularning mashaqqatli kundalik faoliyati haqida tuzuk-quruq tasavvurga ega emasdi. Hozir

buning sabablarini tahlil qilib o'tirish mavridi emas. Shu narsa oydin haqiqatki, endilikda mamlakatimiz ahli respublikadagi yuqori bo'g'in mutasaddilaridan boshlab, deyarli barcha tuman hokimlari va sektorlar, mahallalar rahbarlarigacha yaxshi biladilar. Chunki matbuot, televi-deniyeye va internetda ular faoliyati bamisoli ko'zgudagidek aks etib turishi talab etilmoqda. Davlat rahbari o'z fikr-u amallarida bo'lgani kabi komandasi barcha a'zolari sa'y-harakatlarida oshkoralik va shaffoflik bo'lishiga erishmoqda.

Uning davlat rahbari sifatidagi yuksak minbardan yangragan dastlabki ma'ruza va nutqlari, ilk kitobining o'ziyoq tinglagan va o'qigan kishida o'zgacha bir yengillik, yaxshi kayfiyat, ertangi kunga ezgu umid va ishonch uyg'otganini hatto ancha-muncha nigilistlar ham xolis tan oladilar degan fikrdaman. G'arb jamiyatshunoslari o'ylab topgan «xarizma» degan tushuncha bor. O'zbekchada buni fikri ojizimcha, «o'ziga ishontirish, jalb qilish, mahliyo etish xislati» deb kengroq izohlasa bo'lar. Yana ham anig'ini tilshunos mutarjimlar bilishsa kerak.

Har holda men anglagan ma'nosi shuki, siyosatchi arbobning qalbidagi ezgu niyat, samimiylik, rostgo'ylik, mehr-oqibatga yo'g'rilgan insonparvarlik nuri, avvalo, uning siymosida, ayniqsa nigohlarida yaqqol aks etadi va bu ziyo to'ppa-to'g'ri raiyat yuragiga yetib boradi, unda o'z in'ikosini topadi. Ana shu xislat so'z va ish birligi, aniqrog'i, aytilayotgan gaplar hamda amaliy ishlar uyg'unligi ta'minlanishi, kreativlik, faollik, sog'lom va shaffof hayot tarzi bilan mustahkamlanishi xarizmani yuzaga keltiradi.

Mamlakatimiz Prezidentining yaqinda bosmadan chiqqan «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»¹ kitobini mutolaa etish asnosida beixtiyor uning davlat boshlig'i sifatida chop etilgan dastlabki asarining nomi, mohiyatini tasavvur va tafakkur ko'zgusidan o'tkazdim. Bu asar

¹ Shavkat Mirziyoyev. «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi», Toshkent: «O'zbekiston», 2022.

2017-yilda dunyo yuzini ko‘rgan bo‘lib, «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak»¹, deb atalar edi. Diqqatga sazovor jihati – yangi rahbar bu bilan yuqorida biz baholi qudrat sharhlagan va odamlarni g‘oyat qiziqtirib turgan o‘ta muhim bir savolga javob berardi. Ya’ni ma’lum bo‘ldiki, rahbarlar o‘tgan davrnigina emas, hozirgi, amaldagi faoliyatni har kuni tanqidiy tahlil etishi, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik bilan ishlashi talab etiladi.

Bu talab xalq chuqur qoniqish-u katta ko‘tarinkilik bilan kutib olgan yana bitta tamoman yangi va jangovar shior bilan yanada kuchaytirildi: «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak!»

Prezident bu o‘ta mas’uliyatli qoidani ilgari surar ekan, shu choqqa sovet davrlaridan buyon uzoq yillar amalda bo‘lgan, hanuz jon berishni istamayotgan yaroqsiz byurokratik tizimni sindirishga, chin ma’nodagi xalqchil va demokratik davlat qurishga sidqidildan ahd etganini ko‘rsatdi. Zero...

Sovet davridan odamlar yuragiga mahkam yopishgan shunday mustahkam bir qo‘rquvlar silsilasi bor: «davlat – ilohiy tushuncha, hammamiz davlatnikimiz, mamlakatdagi barcha boyliklar davlat mulki, davlatga qarshi gapirib bo‘lmaydi».

Holbuki, yer yuzidagi aksar mutaraqqiy mamlakatlar allaqachonlar shaxs manfaatini davlat manfaatidan ustun qo‘yib, xususiy mulk ustuvorligini nafaqat qonunda, balki amaliyotda ham real voqelikka aylantirib, bu bilan insonlardagi g‘ayrat-shijoat, ijodkorlik, tashabbuskorlik hissi bilan ishlash ishtiyoqini kuchaytirib, iqtisodiyotda ham, ijtimoiy hayotda ham hayratli darajadagi natijalarga erishgandilar. Biz esa mustaqillikdan so‘ng bu haqda ko‘p gapirgan bo‘lsak-da, amalda kommunistik taqsimotchilik va tekischilik qusurlaridan xalos bo‘lolmadik.

¹Shavkat Mirziyoyev.«Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak», Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.

Prezident Mirziyoyev ushbu masalani butun xalq ko'z o'ngida davlat xizmatchilarining ulkan armiyasiga qarata ko'ndalang qo'ydi. Ifodali qilib aytganda, insonni, uning jamiyatdagi o'rni va manfaatlarini tom ma'noda oldingi o'ringa olib chiqdi. Nainki oldingi o'ringa olib chiqdi, balki to'la asos bilan ayta olamiz: yuksaklikka ko'tardi. Inson qadrini ulug'lash davlat siyosati markaziga qo'yilmoqda. Bu ezgu istak faqat minbarlardan og'zaki gap sifatida aytilayotgani yo'q. Shaxsan Prezidentning o'zi bu haqda viloyatma-viloyat, tumanma-tuman, qishloqma-qishloq, mahallama-mahalla, uyma-uy poy-u piyoda yurish asnosida eng oddiy insonlarning ko'ziga tik qarab aytmoqda.

Bu istakning samimiyligiga hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas. Bu istak – yangi O'zbekiston rahbarining hayotiy a'moli, ya'ni idealigina bo'lib qolmasdan, faoliyatining bosh qoidasi, umrining mazmuni, deyishga to'la asosimiz bor. Loqaq Prezidentimizning keyingi yillarda chop etilgan asarlarining sarlavhalariga nazar tashlaylik.

«Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi», «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari», «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz», «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz», «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi».

Bu kitoblarni hijjalab o'qib chiqqan bir ziyoli sifatida aytamanki, mazmun-mohiyati nomlaridagi ezgu maqsadga aynan mos va, inshaalloh, bu pok niyatlar unga yo'ldosh bo'lgay!

Darvoqe, «buyuk kelajak» degan jumla, ochig'i, yaqin-yaqingacha uzoqdagi mavhum baxt-saodatni ifodalab kelgani uchun ayrimlarning g'ashiga tegar, hatto: «xo'sh, qachon keladi o'sha buyuk kelajak, yuz yildan keyinmi?» qabilidagi istehzolarni ham eshitish mumkin edi. Bu istehzolarga javoban «Farzandlarimiz bizdan ko'ra baxtli yashashi shart» degan yana bir dolzarb va'da bot-bot yangrab turardi. Mazmunan to'g'ri bo'lgan bu iddaolarni inkor etish mumkin emasdi. Shu bilan birgalikda...

Odamlarning aksariyati farzandlari yaxshi, to‘q va farovon, baxtli yashashini mutlaqo inkor etmagan, aksincha astoydil ma‘qullagan holda o‘zlari ham bugun, hozir yaxshi yashashni istar edilar. Qalblaridagi bu haqqoniy istak yo‘g‘rilgan achchiq savollarga javob kutar edilar.

Yurtboshimiz o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq bu savolga aniq va lo‘nda javob berdi: «Kelajak bugundan boshlanishi kerak, zero, bugungi avlodning ham to‘q, farovon hamda baxtiyor yashashga haqqi bor va biz shunga erishishimiz shart» degan qat‘iy talabni ilgari surdi. Bu juda ko‘plarning qalbidagi og‘riqli, armonli savolga berilgan aniq va qat‘iy javob edi. Bu – millionlar yuragida yangi orzu-umidlar uyg‘otadigan olamshumul mujda edi. Ayni paytda bu – juda katta mas‘uliyatni zimmaga olish edi. Bu – o‘ttiz yil davomidagi ish sur‘atlariga nisbatan juda katta sakrash qilishni talab etar edi.

Qarangki, Prezident ana shunday mas‘uliyatni zimmaga olishga jur‘at etdi.

Takror aytaman: men nazariyotchi emasman. Yevropalik ulug‘ allomalardan biri uqtirganidek, ko‘proq hayot daraxtini yashnatish borasida bosh qotirishni xush ko‘raman. «Nazariya quruqdir, do‘stim, lekin yashnar hayot daraxti» degan ekan buyuk nemis mutafakkiri Gyote. O‘zimizning allomalar ham bunga o‘xshash ko‘pdan-ko‘p hikmatli iboralarni aytishgan, albatta. Binobarin, mamlakatimiz rahbariyati ilgari surgan va surayotgan g‘oyalarni uzundan-uzoq sharhlashdan ko‘ra ko‘proq amaliy natijalar haqida muxtasar so‘zlash va fikrlarimni aniq misollar, fakt va raqamlar bilan mustahkamlashga harakat qilaman. Shubhasiz...

Bu ulug‘vor bunyodkorlik ko‘lamlari haqida shunchaki, yo‘l-yo‘lakay to‘xtalib o‘tish mumkin emas. Ularning miqyosi, ahamiyati, xalq ongi-shuuridagi in‘ikosi shu qadar mahobatli va hayratlanarliki, do‘ppi-ni olib qo‘yib, shoshmasdan, sinchiklab, mag‘zini chaqib ko‘zdan kechirish hamda tahlil prizmasidan o‘tkazishga to‘g‘ri keladi.

Xuddi shu jihatlarni hisobga olgan holda, Prezidentning odamlar bugun, hozirdanoq yaxshi yashashi kerak degan qat'iy talabi nechog'lik darajada bajarilayotgani, bu yo'nalishda qanday ishlar amalga oshirilayotgani, buni jamoatchilik qanday e'tirof etayotgani mavzusiga sal keyinroq butun bir bobni bag'ishlashga qaror qildim.

Hozir esa, daf'atan fakt-u raqamlarni qalashtirib, tasavvuringizni toliqtirmaslik uchun ozroq retrografiya bilan shug'ullansam, ya'ni biroz ortga qaytib, yoqimli xotiralarni yodga olib yanada ko'tarinki va xush kayfiyat ulashsam. Zero, ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy o'zining mumtoz romani – «O'tkan kunlar»ida haqli ravishda uqtirganidek: «Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir»¹.

Ajabmaski, ayni zamondagi ulkan siyosat va davlat arbobining mustaqil hayot sari qo'ygan ilk qadamlari haqidagi hikoyam uning bugungi serqirra va sershiddat faoliyatiga oid tasavvurlarni yanada ravshanlashtirsa, ilgari surayotgan ulug'vor g'oyalari naqadar samimiy va hayotiy ekanini yanada chuqurroq tushunishga, ularga sidqidildan ishonishga, ijrosi uchun kamarbasta bo'lishga ko'maklashsa. Shu bilan birgalikda yuqorida Xudo nazar qilgan insonlar va ulardagi betakror xislat-fazilatlar haqidagi fikrlarim jonli misollarda tasdiqlansa.

Qolaversa, yoshlik xotiralari har qanday inson uchun yoqimli va qadrlidir. O'z umri mazmunini sarhisob qilish asnosida hayot yo'lida hamroh-u hamroz bo'lgan, yurakka yaqin kishilarni – ustozlarni, do'st-u birodarlarni esga olishning ajr-u savobi ham bor, albatta.

¹Abdulla Qodiriy. «Tanlangan asarlar». Toshkent: «Sharq», 2014. 4-b.

Ikkinchi bob

ILK UCHRASHUV, TANISHUV, SUHBAT

Mavjud taomillarga ko‘ra, ulkan siyosatchi arboblardan, ayniqsa, davlat boshliqlarining bolalik, o‘smirlik, yoshlik yillari haqida ko‘proq ularning o‘z qalamlariga mansub avtobiografik asarlarda yoxud o‘zlari so‘zlab bergan tarjimai hol asosida taniqli siyosatshunoslar yoxud jurnalistlar yozgan kitoblarda hikoya qilinadi. Shu bois ham azbaroyi kamtarlik yoinki boshqa sabablar bilan ancha-munchalarining navqiron davrlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kam bo‘ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ona xalqimiz siyrati-yu tiynatidan kelib chiquvchi ochiq fe‘l-atvori, o‘z tarjimai holi, yoshlik zamonlari haqida mutlaqo shaffof hikoya qilishni xush ko‘rishini nazarda tutgan va har tugul ustozlik maqomimdan istifoda etgan holda quyidagi voqealarni so‘zlashga jazm etyapman. Nafsilamrini aytganda, ushbu voqealarning aksariyatini muhtaram yurtboshimizning o‘zi saylovchilar bilan uchrashuvlarda, yosh avlod vakillari bilan suhbatlarda bir necha bor muxtasar shakllarda tilga olgan. Kamina ularning ba‘zi birlariga shaxsan guvoh ekanligim bois sal mufassalroq bayon etmoqchiman. Zotan, ichki bir sezgi bu xotiralarda ham bugungi avlod nazdi uchun teran bir hikmat borligini uqtirmoqda.

...O‘tgan asrning yetmishinchi yillari oxirlari yoki saksoninchi yillari boshi edi. Toshkent davlat irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti rektori sifatida ish boshlaganimga hali ko‘p bo‘lmagandi.

Institut yoshlari yetakchisi lavozimiga yangi nomzod tanlash chog'ida o'sha paytlarda kommunistik partiyaning mustahkam tayanchi hisoblangan komsomol tashkiloti shahar, keyin respublika Markaziy Qo'mitasidagi amaldorlar bilan qattiq tortishib qoldim.

Buning sababi – mana shu lavozimdan qator yillardan buyon yuqori idoralarda ishlovchi ayrim mansabdorlarning o'g'il-qizlari uchun o'ziga xos «trampin» sifatida foydalanib kelingan. Ya'ni, biror kattakonning farzandi yoki yaqin qarindoshi qisqagina muddatga tayinlanib, keyin undan balandroq, aniqrog'i, shahar, viloyat, respublika miqyosidagi idoralarga ishga ko'tarib olib ketilgan. Institutning salkam o'n olti ming kishilik yoshlar tashkiloti faoliyati esa o'z oqimiga tashlab qo'yilgan. Bu esa mana shu o'ta mas'uliyatli jabhada istalgan soat, daqiqada g'oyat keskin muammolar kelib chiqishi xavfini tug'dirgan edi.

Men ushbu nihoyat darajada dolzarb va muhim masala bilan institut rahbarligiga kelgan birinchi kunimdanoq shug'ullanayotgan va o'z o'rinbosarlarim, institut partiya tashkiloti yetakchilari bilan kengashgan holda mana shu har jihatdan mas'uliyatli vazifaga chin ma'noda munosib nomzod qidirayotgan edim. Nafsilamrini aytsam, institut rektorligiga tavsiya etishdan oldin men bilan mufassal suhbat o'tkazgan O'zbekistonning o'sha paytdagi oliy rahbari Sharof Rashidov talaba yoshlar bilan ishlashda masalaning xuddi shu jihatiga alohida e'tibor berishim lozimligini uqtirgandi.

– Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti nafaqat Ittifoqda, balki butun dunyodagi eng yirik oliy ta'lim muassasalaridan biri, unda dunyoning yigirmaga yaqin mamlakatidan kelgan talabalar tahsil oladi, aspirantlar, ilmiy tadqiqotchilar izlanish olib boradi. Ularning boshini qovushtirish, ushbu dargohda o'zaro ahillik, hamjihatlik asosidagi sog'lom ta'lim-tarbiya, ilmiy izlanish muhitini yaratish oson ish emas, – degandi u kishi. – Buning uchun kecha-yu kunduz sidqidildan mehnat qilish, halol va adolatli bo'lib,

hushyorlik bilan ish olib borish talab etiladi. Undagi arzimagan bir kichik janjal xalqaro mojaroga sabab bo‘lishi mumkin. Shuni bir daqiqa ham esdan chiqarmang.

Bu menga bildirilayotgan katta ishonch bilan birgalikda o‘ta jiddiy ogohlantirish ham edi. Men talabalar-u tadqiqotchi yoshlari tarkibi o‘nlab davlatlardan kelgan yuzlab millatlarga mansub yigit-qizlardan iborat ushbu baynalmilal jamoadagi barqaror vaziyat uchun boshim bilan javob berajagimni chuqur anglab turardim.

«Barchasini kadrlar hal qiladi!» degan shiorni ayrim olimlar yigirmanchi asr boshlarida kashf etilgan deb hisoblashadi va hatto, o‘sha davr kommunist dohiylaridan biriga nisbat ham berishadi. Menimcha, bu qoida bashariyat ongli ravishda jamoa bo‘lib yashay boshlagan ilk davrlarda tug‘ilgan va asrlar davomida o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘qotmay keladi. Sohibqiron bobomiz Amir Temur hazratlarining mana bu iborasida ushbu aqida o‘zining eng muxtasar va mukammal ifodasini topgan: «Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat‘iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir»¹. Kamina o‘z rahbarlik faoliyatimning dastlabki kunlaridanoq shunga qat‘iy amal qilishga harakat qilar va har bir ish jabhasiga shu sohani avvalo, yaxshi biladigan va yaxshi ko‘radigan, ya‘ni o‘lganining kunidan yoxud vaqtincha emas, tom ma‘noda mehr qo‘yib, jonini berib mehnat qiladigan munosib yetakchilarni tanlashga intilardim. Ayniqsa, tarkibi turli millat va elatlar vakillaridan, turlicha yoshdagi va dunyoqarashdagi, dini va g‘oyaviy e‘tiqodi har xil kishilardan iborat jamoalarga, avvalo, ma‘naviy barkamol, axloqiy jihatdan pok, bilimi mukammal, dunyoqarashi keng, yuksak madaniyatli va eng muhimi, mehr-oqibatli, ya‘ni insonparvar kishilar yetakchilik qilishlari shart degan fikrda qoyim edim.

Shuning uchun ham, ishni eng quyidan boshladim. Ya‘ni, ilm daroghimizning barcha fakultetlarida tahsil olayotgan talabalar, aspirantlar

¹«Temur tuzuklari». Toshkent: «O‘zbekiston», 2015. 8-b.

va tadqiqotchilar, navqiron o'qituvchilar orasidan avvalo, fanlarni a'lo darajada o'zlashtirayotgan, hayotiy pozitsiyasi mustahkam, dunyoqarashi keng, qalbida yetarlicha jur'at-u dadilligi va o'z kuchiga komil ishonchi bor yigit-qizlarni qidirib topish, birma-bir suhbatdan o'tkazish, barcha bo'g'inlarni yuksak talablar darajasidagi yetakchilar bilan mustahkamlashga intildim.

Institut yoshlar tashkiloti rahbari amalda rektor va partiya qo'mitasi kotibidan keyin turuvchi uchinchi shaxs hisoblanar, jamoatchilik asosidagi lavozim hisoblanmay, shu choqqacha unga talabalar orasidan emas, ko'proq o'qishni bitkazgan va yuqorida aytganimdek, kimlarningdir «porloq kelajak sari» intilayotgan qarindosh-u tanish-bilishlari tayinlanib kelgani bois, ular oliygohning ko'p ming kishilik yoshlari bilan yaqindan mustahkam aloqa o'rnata bilmagan, o'rtadagi munosabat rasmiyatchilikdan, turli joriy tadbirlar o'tkazishdan iborat bo'lib kelgan, xolos.

Men bu mas'uliyatli lavozimga nomzodni talabalar orasidan izlash, ya'ni ular qalbini yaxshi his etadigan, ularni to'lqinlantirayotgan, tashvishlantirayotgan muammolarni tushunadigan, shu bilan birgalikda tug'ma liderlik, ya'ni yo'l boshchilik xususiyatiga ega, keng miqyosli mustaqil fikrlovchi, irodali, kerak payti qattiqqo'llik va qat'iyat ko'rsata oladigan yigit topishimiz kerak degan taklifni o'rtaga tashladim. Fakultet dekanlarining tavsiyalariga binoan bir necha nomzodlarni qabul qilib, muloqotda bo'ldim.

– Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti uchinchi bosqich talabasi Mirziyoyev Shavkat Miromonovich, – deya tanishtirdi o'zini ko'rinishdan yoshi yigirmadan endigina oshgan bo'lsa-da, tiyrak va ma'noli ko'zlarida hayotning anchagina murakkab sinovlaridan o'tishga ulgurgani, shular samarasi o'laroq o'ziga ishonch, anchayin dadillik yaqqol aks etib turgan, zich va quyuq sochlari yonboshga hafsala bilan taralgan yoqimtoy chehrali yigit.

U fakulteti yoshlari yetakchisi ekan. Ha, aytgancha, shu o‘rinda fakultet dekanining u haqda aytgan xolisona fikrlarini e‘tirof etmasam bo‘lmaydi. Bu borada avval ham qator suhbatlarda so‘z yuritganman. Chunki xotiramga bir umr muhrlanib qolgan.

– Xudo bergan iqtidori, bitmas-tuganmas g‘ayrati bor. Uni tanlasan-giz yanglishmaysiz, – dedi fakultet rahbari.

Odatimga ko‘ra, biror kishi haqida hali uning o‘zini ko‘rmay turib, yuksak baho eshitsam, darrov ishona qolmayman, aksincha, hushyor tortaman, bu bahoning naqadar xolis ekanligiga mumkin qadar tezroq aniq ishonch hosil qilishga intilaman.

– Tavsiya uchun rahmat. Ammo men tanlanayotgan nomzodni shaxsan o‘zim atroflicha o‘rganib, dildan suhbatlashib ko‘rgachgina bir xulosaga kelaman, – dedim. Ha, aytgancha...

O‘sha kunlarda institut yetakchilaridan biri boshqa nomzodni tavsiya etdi va unga mana bunday ta‘rif berdi:

– Bu yigit har qanday topshiriqni so‘zsiz, aytilganidan ham ziyoda qilib, vaqtida bajaradi, zimmasidagi vazifani ko‘ngildagidek, o‘ta aniq-puxta ado etadi, – degandi dekan. Sirasini aytganda, bu o‘sha davr kommunistik mezonlari asosida belgilangan «navbatchi» baho bo‘lib, o‘z mohiyatiga ko‘ra baholanayotgan shaxsning «ijro intizomi»ga qanchalik rioya etishini aks ettirardi. Biroq men tabiatim va tanlagan soham taqozosidan kelib chiqqan holda, biz tayyorlayotgan kadrlar, ayniqsa ilm sohasining odamlari ko‘proq mustaqil fikrlashi, mudom izlanishdan charchamasligi, puxta hisob-kitobga asoslangan tashabbuskor tavakkalchilikdan cho‘chimasligi, dadil, jur‘atli bo‘lishi darkorligini ko‘p ta‘kidlar edim. Shuning uchun unga:

– Biz buyruqlarni ko‘r-ko‘rona emas, ongli ravishda aql-idrok chig‘irig‘idan o‘tkazgan holda kutilganidan ham ziyoda qilib bajaradigan, ziyarak, dadil, mustaqil qaror qabul qilishdan qo‘rqmaydigan ilm va

amaliyot xodimlarini tarbiyalashimiz lozim, – deya yengil dakki bergan va tavsiya etilgan nomzodni inkor qilgan edim.

Binobarin, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakultetidan kelgan va avval suhbatlashilganlaridan ancha yosh nomzodimiz bilan muloqotni boshlashdan oldin qarshimdagi yigitning mustaqil fikrlashi, o'z qarashlarini nechog'lik jur'at bilan bayon etishi va himoya qilishini alohida sinovdan o'tkazish zarurligi haqida o'ylab turardim.

Odatdagidek muloqotni shoshilmasdan, suhbatdoshim bilan yaqinroq tanishishdan boshladim. Undan o'zi, oilasi, talabalikkacha bo'lgan hayoti va orzu-intilishlari, ya'ni maktabda o'qish chog'idagi o'zlashtirishi, tillarni, ayniqsa rus tilini qay darajada bilishi (bu o'sha davrlarda juda muhim edi), qiziqishlari doirasi, ota-onasining kimligi va kasbi kori, qavm-qarindoshlari-yu do'stlari, saboqdoshlari bilan munosabatlari, institutni bitkazgach, mehnat faoliyatini qay tarzda davom ettirmoqchi ekani haqida mufassal so'zlab berishni so'radim.

Ma'lum bo'ldiki, Shavkat Mirziyoyev – asli qishloq farzandi. Zomin tog'lari bag'rida tug'ilib voyaga yetgan. Tuman markazidagi birinchi o'rta maktabda, turli millat vakillari bo'lgan o'qituvchilardan ta'lim olgan. Suhbatimiz chog'ida u o'z ustoz muallimlari haqida alohida hayajonli minnatdorchilik, mehr-u hurmat bilan so'z yuritishi e'tiborimni tortdi. Bu uning bolalik paytlaridanoq bilimga chanqoqligi, ilm-fanga muhabbati va fidoyi kishilarga nisbatan qalbida alohida izzat-ikromi borligini ko'rsatib turardi.

Uning ajdodlari ana shu yuksak cho'qqili purviqor tog'lar etagidagi vohalarda azal-azaldan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishgan ekan. Bobolari orasida paxtachilik, chorvachilik, g'allachilik sohasida halol mehnat qilib elga tanilgan mirishkor insonlar ko'p bo'lganligini aytdi. Ularning ismi-shariflarini ichki bir g'urur bilan tilga olar ekan, navqiron suhbatdoshimning ko'zlari boshqacha chaqnadi. Ana shu kasbni ulug'lash, dehqon mehnatining mashaqqatlarini yengillashtirish,

zamonaviylashtirish, buning uchun esa fan-texnika yutuqlariga asoslangan holda tubdan mexanizatsiyalashga o‘z hissasini qo‘shish maqsadida shu institut va aynan shu fakultetga o‘qishga kirishga jahd etganini, biroq bu oson bo‘lmaganini, dastlabki urinishi muvaffaqiyatsiz chiqqaniga ham qaramasdan, tushkunlikka tushmaganini, kecha-yu kunduz yana-da qattiqroq o‘qib, puxtaroq tayyorlanib, nihoyat maqsadiga erishganini aytdi. Bundan sezildiki, u o‘zi qat’iyat bilan bag‘riga intilgan ushbu mo‘tabar dargohga ham qalbida o‘zgacha muhabbat, e’tiqod-u sadoqat his etadi.

Ilk so‘zlaridanoq uning barcha qishloq kishilariga xos samimiy, oqko‘ngil va ochiq-oydin fikrlovchi yigit ekani sezilgandi. Alohida bo‘rtib ko‘ringan yana bir xususiyati – u yuragidagi eng nozik his-tuyg‘ularinida yashirib yoki bo‘yab-bejab, ohanjama qilib o‘tirmasdan bajonidil baham ko‘rar va bu bilan suhbatdoshini beixtiyor sehrlab, o‘ziga mahliyo etib qo‘yar, uning samimiy ishonchiga sazovor bo‘lib, yuragini zabt etardi. Ha, xuddi shunday edi. Buni uni o‘sha chog‘lar yaqindan bilgan, o‘qishda yoki ishda yelkadosh bo‘lgan kishilar ham ko‘p ta’kidlashgan. Demak, bu e’tirofni men uning bugungi oliy martabasi, yuksak rif’ati ulviysi taqozosi bilan emas, huv o‘sha qirq yil oldingi suhbat chog‘idagi taassurotlarning xolisona ifodasi sifatida keltiryapman. Nafsilamrini aytganda, uning ayni kunlarda mamlakatimizning eng olis qishloqlarigacha qadam-baqadam kezib, oddiy xonadonlarga kirib, oddiy mehnatkash insonlar bilan suhbatlar chog‘i tez-tez ta’kidlaydigan bir iborasi menga o‘sha, navqiron yigitning navrasta va pok qalbidagi samimiyat xuddi o‘sha paytlardagi singari shaffof va musaffo holatda saqlaganini yorqin isbotlaydi:

«Men ham qishloqdan chiqqan oddiy bir yigitman», degan so‘zni u birinchi saylovda ham, ikkinchi saylov chog‘ida ham saylovchilar bilan uchrashuvlarda bir necha bor takrorlaganini televizor orqali ko‘rdim va undagi o‘sha men ilk tanishuv, dastlabki suhbat chog‘ida kashf etgan

beg'ubor samimiyat yana ham tiniqlashganiga, bamisoli porloq bir mash'al singari porlab turganiga komil ishonch hosil qildim. Mayli, voqealar oqimidan ilgarilab ketmay, birinchi suhbatimizga qaytaylik.

Muloqot asnosida men uning otasi Miromon Mirziyoyevning kasbi vrach-ftiziatr ekanini, Zomindagi sil kasalligiga qarshi kurash shifoxonasiga rahbarlik qilayotganini, onasi rahmatli ham shu kasalxonada ishlagani haqida bilib oldim. Volidasining shu kasallikni kasalxonada bemorlardan yuqtirgani va o'zini asrash-davolashdan ko'ra, boshqalar salomatligi haqida ko'proq jon kuydirgani, fidoyi bo'lgani uchun ham bevaqt vafot etib ketganidan voqif bo'ldim. Bundan qattiq ta'sirlandim. Biz fidoyilik, jonini jabborga berib ishlash degan jummalarni ko'p ishlatamiz. Osongina, og'zimizning bir chekkasidan chiqib ketaveradi. Holbuki, mana shu tushunchalarning zamirida qanchadan-qancha shifokorlar, olimlar, harbiylar, uchuvchilar, xullas, turli kasb egalarining bevaqt vafotlari, qahramonona halok bo'lishlari bilan bog'liq fojiali voqea-hodisalar mujassam ekanini hamisha ham chuqur o'ylamaymiz. Ayni kunlarda Prezidentning mamlakatimizda tibbiy xizmatni keskin rivojlantirish yo'lida tinim bilmayotgani, vatandoshlarimiz salomatligi haqida bunchalar jonkuyarlik, bu qadar qat'iyat bilan g'amxo'rlik qilayotgani, bu masalani takror-takror muhokamaga qo'yayotgani, bir jumla bilan aytganda, shu yo'lda tub ijobiy natijalarga erishishga qat'iy bel bog'lagani sabablari uning bolalikdagi ana shu achchiq armoniga borib taqalsa ne ajab.

Angladimki, suhbatdoshim validai muhtaramasidan to'qqiz yoshida judo bo'lgan. Bu juda alamli. Axir dunyoda ona mehrining o'rnini bosuvchi na moddiy, na ma'naviy ne'mat bor. Bu kemptikni hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi.

Ana shu og'ir musibat damlaridagi his-tuyg'ular ulug' shoirimiz Abdulla Oripovning quyidagi satrlarida nihoyatda ta'sirchan ifodalangan:

*«Makonda lomakonsan, endi qaydan izlagaydurman,
Fig‘onim kimga aytib, kimga sendin so‘zlagaydurman.
Birovlar motamida oh-u faryod aylagan erdim,
Seningchun, ey g‘aribim, ich-ichimdan bo‘zlagaydurman»¹.*

Onasiz o‘shish qismati farzandni tez ulg‘aytiradi. Zero, u turmushning oddiy, kundalik noo‘ng‘ayliklaridan boshlab, hayotdagi katta qiyinchiliklari murakkab muammolar bilan barvaqt to‘qnashadi. Albatta, sag‘ir qolgan bolalarga tuqqan onadan kam bo‘lmagan darajada mehr berib, har tomonlama yetarli g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, ularning chinakam mehr-muhabbati va bir umrlik minnatdorligiga sazovor jannati musulima ayollar ko‘p. Ular qoshida hamisha ta‘zim bajo keltirish farzdir. Ammo tuqqan ona o‘rnini hech kim va hech narsa hech qachon bosolmaydi. Undan judo bo‘lish Yaratganning inson bolasiga yuboradigan eng murakkab sinovlaridan biridir.

Shu ma‘noda suhbatdoshim ko‘nglidagi ana shu kemtik bir nuqta uning teran bir anduh singib ketgan shafiq ko‘zlarida bilinar-bilinmas zohir bo‘lib turar edi. Bunday kishilar odatda mutaassir va rahmdil, keskin qarorlar qabul qilishda anchayin ehtiyotkor bo‘ladilar. Ana shuni nazarda tutib, men mavzuni rahbar odam zarurat tug‘ilgan kezlarda nechog‘lik darajada qattiqqo‘l bo‘lishi mumkinligi va lozimligiga burdim. U fikrimni tasdiqlash barobarida: «Har qanday vaziyatda adolat va haqqoniyatni esdan chiqarmaslik kerak» degan fikrni imkon qadar madaniyatli qilib, yotig‘i bilan bildirishga urindi.

Gap orasida unga: «Rahbar xodim uchun bir sutkada qancha uyqu yetarli bo‘lishi mumkin?» degan kutilmagan va biroz g‘alati savol berdim. U shoshib qolmadi. «Agar o‘zi sog‘lom, uyquasi samarali bo‘lsa, ikki-uch soat kifoya qiladi» dedi u sira ikkilanmasdan.

Bu men kutgan javob edi. Chunki padari buzrukvorim misolida men xuddi mana shunga guvoh bo‘lgan edim.

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

Rahmatli otam, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Sotsialistik Mehnat Qahramoni, nafaqat Xorazm viloyati, balki mamlakatdagi eng yirik jamoa xo'jaliklaridan birini uzoq yillar idora qilgan Iskandar Do'sov ana shunday ishlar edi. Barcha, jumladan, biz, farzandlar uni mudom tik oyoqda mudom harakatda ko'rardik va qachon, qancha uxlaganini bilolmay, hayron bo'lib yurardik. Holbuki, otam urushdan yarador bo'lib qaytgan tanasidagi og'ir jarohatlar muttasil azob berardi.

Yosh hamsuhbatimning uyqu haqidagi qat'iy ishonch bilan aytgan gapimi yo shu munosabat bilan padari buzrukvorimning tabarruk siyomosi ko'z oldimga kelgani boismi, bu galgi muloqot avvalgilaridan ancha cho'zildi. Men o'rta yangi-yangi, ba'zilari o'zim uchun ham birinchi marta ko'ndalang bo'layotgan savollar tashlar ekanman, undan javob kutish bilan birgalikda ko'nglimdan: «Xo'sh, menimcha qanday?» degan fikr o'tardi. Boshqacha aytganda, qo'yilayotgan savollarga u bilan birgalikda eng to'g'ri, yagona javobni topishga o'zim ham harakat qilar edim. Chamasi, buning sababi, suhbatimizning ilk jumlaridanoq ushbu yigitga nisbatan ko'nglimda ixtiyorsiz ravishda tug'ilgan va muloqot jarayonida tobora mustahkamlanib borayotgan xayrixohlik, yaqinlik hissi bilan bog'liq edi.

Ko'ngil sezadi. Bundan bir muddat avval, Mustaqillikning o'ttiz yilligi arafasida ana shu eng ulug', eng aziz bayram munosabati bilan o'tkazilgan va «Nuroni» gazetasi sahifalarida e'lon qilingan suhbatda men shu haqda gapirgan va bu sezgini insonga Parvardigor tomonidan in'om etilgan eng bebaho boylik, deya ta'riflagan edim. Shu o'rinda mazkur e'tirofni yana bir marta takrorlash va qisqacha tahlil etishni istar edim.

Yashirib, nosamimiylik qilib o'tirishni istamayman, hamma zamonlarda, hamma vaziyatlarda va ishlarda bo'lgani kabi, o'sha kunlarda mazkur lavozimga nomzod tanlash va tayinlash borasida yuqoridan,

yonboshdan va quyidan ko‘plab kishilardan iltimoslar bo‘lgan, ularning ayrimlari qiyolmaydigan, kelgusida qaysidir ma’noda kerak bo‘lishi tayin odamlar edi. Qolaversa, men ularning bir nechasiga masalani imkon qadar ijobiy hal etishga va’da ham bergan edim. Ammo...

Suhbat asnosida ko‘nglimning tubtubida «Sen izlagan nomzod aynan mana shu yigit» degan g‘oyibona sado baralla yangrab turar edi. Biroq uni tavsiya etishni hech kim iltimos qilmagan, surishtiruvimga ko‘ra, ming bir mashaqqat ila o‘qishga kirishdan boshlab, fanlarni o‘zlashtirishi, ilmiy tadqiqotga qiziqishi va yosh olimlarning nafaqat institut, balki shahar, respublika miqyosidagi konferensiya-anjumanlarida qiziqarli hamda dolzarb mavzulardagi ma’ruzalar bilan chiqishi, fakultet ijtimoiy hayotidagi faol ishtiroki – hamma-hammasi uning, avvalo, Xudo bergan tug‘ma iqtidori, bu qobiliyatni yuzaga chiqarish yo‘lidagi dadil shaxsiy sa’y-harakati, qiziquvchanligi va intiluvchanligi, vaqtdan unumli foydalanishi bilan bog‘liq edi.

Ana shu lahzalarda padari buzrukvorim ish tutumiga xos va hamisha yuragimning to‘rida turuvchi teran ma’noli bir ibora esimga keldi: «Mas’uliyatli lavozimga munosib kishilarni kimdir iltimos qilishi shart emas, zarur bo‘lsa, biz o‘zimiz ulardan iltimos qilib, ishga taklif etishimiz kerak» derdilar u kishi.

Yuqorida «xarizma» degan ajnabiycha bir istiloh haqida gapirib o‘tgandim. Yana o‘sha tushunchaga qaytib, o‘zimga o‘xshash aksar insonlardagi bir holatga guvohlik beraman: ular uchun birinchi taassurot ko‘pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ya’ni bir odamni birinchi muloqot chog‘ida yoqtirsa, ko‘nglida umrbod ana shu his ustuvor bo‘ladi. Aksi bo‘lsa, ya’ni ilk uchrashuv yoki suhbatdayoq xushlamasa, keyin ham qabul qilishi dushvordir.

– Sizni institut yoshlar yetakchisi lavozimiga tavsiya etishga qaror qildim. Shunga nima deysiz? – savol nazari bilan sinovchan qaradim suhbatdoshimga. Ko‘p hollarda, bunday taklif bildirilgan kishi darhol:

«Ishonchingizni sharaf bilan oqlashga va'da beraman» deya baland-parvoz ohangda minnatdorchilik bildiradi. Ayrim amalsevar uddaburo kimsalar: «Bir umr xizimatingizdamiz» degan mahramona qo'shimcha ham qiladilar.

Mening suhbatdoshim esa biroz hayajonlanib:

– Bu juda mas'uliyatli vazifa, men hali talabaman, eplashim qiyin, – degan samimiy kamtarlik va bir qadar ikkilanish bilan javob berdi. Va bu kamsuqumlik, ikkilanishning samimiyligiga ishonmaslik mumkin emasdi. Hali uchinchi bosqichda o'qiyotgan talaba yigitning qariyb o'n olti ming kishilik, ifodali qilib aytganda, yoshlar armiyasiga qo'mondonlik qilishga dabdurustdan jazm etishi qiyin. Albatta, kaltabin va mas'uliyat nimaligini hali yaxshi tushunmaydigan ayrim yoshlar o'ylab ham o'tirmasdan darhol: «ishonchingizni sharaf bilan oqlayman yoxud bu yaxshiligingizni bir umr unutmayman, hamisha xizimatingizni qilaman», deb yuborishi mumkin. Yoki «yuqorida» tankasi bor va bu vazifaga vaqtinchalik ish, ertangi kattaroq mansablar uchun tramplin, deb qarovchi «otasining bolasi» uchun bunday kamtarlik va ikkilanish hissiyoti mutlaqo begona. Hayotim davomida shunday mansabparast kaslarga duch keldimki, nomi lavozim, tagida mashina, qishda issig'-u yozda salqin kabinet va chiroyli kotiba bo'lsa bas, shug'ullanadigan sohasi-yu bajaradigan vazifasining zarracha ahamiyati yo'q. Undaylar bugun kommunal xo'jalik, ertaga tibbiyot, indin madaniyat tarmog'iga sira top tortmasdan burun suqaveradilar. Taniqli hajvchi adibimiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi Ne'mat Aminovning «Yolg'onchi farishtalar»¹ kitobida mamlakat tanasiga tushgan ana shunday «qurt»larning bir qarashda beozorgina ko'rinuvchi «rahbarlik faoliyati» jamiyat taraqqiyotiga, haqiqat va adolat mezonlariga naqadar katta zarar yetkazishi hajv tig'i ostida judayam haqqoniy ko'rsatib berilgan. Bu asar o'sha paytlar juda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan, turli darajadagi

¹Ne'mat Aminov. «Yolg'onchi farishtalar». Toshkent, 1986-y.

o‘zini hurmat qiluvchi rahbarlar uni o‘qib, o‘zlariga tegishli xulosalarni chiqarib olgandilar.

Albatta, men o‘zim tanlagan mana shu yigit nomzodini ilgari surish bilan talaba yoshlar o‘rtasida ijtimoiy adolatga ishonch tuyg‘usi kuchayishinigina ko‘zda tutayotgan emasdim. Shu bilan birgalikda har qanday esli-hushli rahbar singari yonimda mening yelkamdagi yukning bir qismini o‘z yelkasiga olib, zimmamdagi mas’uliyatni salgina bo‘lsa-da yengillashtiradigan, murakkab daqiqalarda o‘zini ayamadan astoydil qo‘llab-quvvatlaydigan ishonchli, sadoqatli hamkor, do‘st, shogird orttirishni xohlar edim. Buni ochiq aytishim shart.

– Ikkilanmang. Qo‘llab-quvvatlaymiz, kerak bo‘lsa, yordam bera-
miz, muhimi, mana shu ishonchga sidqidildan munosib bo‘lishga harakat qilishingiz zarur, – dedim men va bir oz kulumsirab: – Hali...
ungacha yuqoridagilarning roziligini olishimizga to‘g‘ri keladi. Ular esa... osonlikcha jon bermaydi.

Shunday deyayotganim tasodifiy emasdi. Yoshlar tashkiloti shahar, qolaversa, respublika Markaziy qo‘mitasi kadrlar borasida o‘zining mustaqil siyosatini yurgizar, kompartiya idoralari esa bu borada uni qattiq qo‘llab-quvvatlardi. Binobarin, «gorkom komsomol» va, ayniqsa, «O‘zLKSM» Markazqo‘mining aytgani aytgan-degani degan, hisoblanardi.

Oradan ko‘p yillar o‘tgan bo‘lsa-da, o‘sha davrning kadrlarni tanlash, tarbiyalash va tayinlash borasidagi o‘ziga xos jihatlar haqida iloji boricha xolislik bilan to‘xtalib o‘tishni joiz, deb hisoblayman. «Nomenklatura» degan istiloh bugungi kun yoshlari uchun notanish. Biroq o‘sha davrda bu so‘zning salmog‘i juda katta edi. Ya’ni, mamlakat boshqaruvi tizginiga mutlaq egalik qiluvchi kompartiya idorasining biror bo‘g‘ini kadrlar zaxirasi ro‘yxatiga ilinish, nomenklaturaga kirib olish hisoblanar, biroq bu oson emasdi. O‘sha davrlarda yashagan keksa ziyolilar o‘zbekchaga «Oltin yoshlar» deb tarjima

qilinuvchi «Zolotaya molodyoj» degan iborani yaxshi eslasalar kerak. Buning ma'nosi kommunistik partiyaning tuman, viloyat va respublika miqyosidagi idoralarida ishlovchi rahbar xodimlarning farzandlari tug'ilgan kunlaridanoq alohida qulaylik va imtiyozlarga ega bo'lar, maxsus yasli va bog'chalarda tarbiyalanar, maxsus maktablarda o'qir va mamlakatning Moskva, Leningrad va boshqa markaziy shaharlaridagi nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olar, o'qishni tugallagach, avval komsomol, so'ngra partiya tashkilotlariga ishga qabul qilinib, porloq kelajagi ta'minlanar edi. Rosti gap, bizning institutni bitirgan mutaxassislar orasida qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi, irrigatsiya, melioratsiya sohasida ishlash asnosida o'zini ko'rsatib, ishlab chiqarish hamda partiyaviy idoralardagi yuqori lavozimlarga ko'tarilgan xodimlar ko'p edi va bu hol ta'lim dargohimizga ana shu tarmoqlarga sidqidildan qiziquvchi qishloq yigit-qizlari bilan bir qatorda amaldorlikka intiluvchi boyagidaqa yoshlar ham kirib qolgan va ularning fikr-u zikri tahsilni bosh qotirmasdan bitkazib, bel og'ritmasdan katta mansablarni egallashdan iborat edi.

Achinarlisi, ularning aksariyati bamisoli issiqxonalaridagi tuvalklarda o'sgani, alohida imtiyozlarga ega rus tilli maktablarida o'qigani uchun o'zbek tilini bilmas, mahalliy aholi turmushini, undagi tashvish-u muammolarni tasavvur ham etolmas, shunga qaramasdan bir amallab diplom olishar, tanish-bilish orqali komsomol-u partiya tashkilotlariga joylashib olib, o'zlarini qozon boshidagi bakovullar singari his etishardi.

– Tanlagan nomzodingiz hali talaba ekan, bu mas'uliyatli jabhada ishlashga yoshlik qiladi, tajribasi yo'q, shuning uchun yaxshisi, biz tavsiya etgan, tashkilotimizning kadrlar zaxirasida turgan aspirant yoki yosh tadqiqotchilardan biriga to'xtalishingizni maslahat beramiz, – dedi men telefon orqali muloqot qilgan ana shunaqa kibrli mulozimlardan biri.

– Aql yoshda emas, boshda, uka, biz bu nomzodga to‘xtalishdan oldingi institutdagi ko‘pchilik talabalar, qolaversa, siz aytayotgan aspirantlar-u tadqiqotchilar bilan birgalikda professor-o‘qituvchilarning fikrlarini inobatga olganmiz.

– Bunga haqingiz bor, lekin siz birinchi navbatda bizning fikrimiz bilan hisoblashishingiz shart...

Tushundimki, bu yosh byurokrat bilan bahslashib o‘tirishning foydasi yo‘q. Ammo fikrimda qoyim turardim va qarorim qat‘iy edi. Shuning uchun avval shahar partiya qo‘mitasiga chiqdim. U yerdagi ehtiyotkor xodimlardan biri yuqori komsomol tashkiloti bilan hisoblashib, kelishib ishlash lozimligini «maslahat» bergach, Markazqo‘mning mafkura bo‘yicha kotibi, ustozim Oqil Umrzoqovich Salimovga murojaat etishga majbur bo‘ldim.

Xuddi bugungiday aniq esimda, u kishi fikrimni diqqat bilan eshitdi. So‘ngra:

– Tavsiya etilayotgan nomzod ishonchni oqlashiga imoning komilmi? – deb so‘radi.

– Komil! – deya javob qaytardim.

– Institut uchun sen javob berasan, uning rahbar kadrlari bilan sen ishlashasan, shuning uchun birinchi navbatda sen tavsiya etgan nomzodga ishonch bildirilishi lozim, men buni ularga tushuntirib qo‘yaman, – dedi odatdagiday qat‘iyat ila.

Shu tariqa mo‘ljallagan nomzodimizni bir muncha qiyinchilik bilan yuqoridagilarning tasdig‘idan o‘tkazib, institut yoshlar tashkilotining umumiy yig‘ilishiga olib chiqdik. Yoshlar nomzodimizni katta xursandchilik bilan qarshi oldilar. Chunki bu lavozimda yaqin orada talabalar safidan chiqqan, ularning tashvish-u muammolarini o‘zlarichalik yaxshi tushunadigan nomzod tanlanmagan edi. Eng muhimi, tengqurlarining aksariyati o‘qishda ilg‘or, ilmiy to‘garaklarda peshqadam, jamoat ishlarida faol, hamsaboq do‘stlar bilan munosabatda

jonkuyar bu yigitni yaxshi tanishar va hurmat qilishardi. Saylov natijalari ham shunga monand bo'ldi. Asosiy ko'pchilik munosib nomzodga astoydil ishonch bilan ovoz berdi.

Shavkatjon a'lo kayfiyat, g'ayrat-shijoat bilan ish boshlar ekan, bir ozgina xavotir ham bildirdi. Xavotirining boisi tushunarli edi. Yuqorida tilga olingan ayrim kishilar uni nayza bilan qarshi olishlari mumkinligidan tashvishlanayotgan edi.

– Shunday ishlashimiz kerakki, hech qanday e'tirozga o'rin qolmasin, – dedim men. – Ana shunda vaqti kelib o'shalar ham o'z xatolarini tushunadilar, tan beradilar va do'stlik qo'lini cho'zadilar...

Xuddi shunday bo'ldi ham. Institutimiz yoshlar tashkiloti nisbatan qisqa fursatda nafaqat Toshkent shahri, respublika, ittifoq, hatto xalqaro miqyosda o'zining munosib o'rnini egalladi. Uning yetakchisi yoshlarning respublika, ittifoq bo'yicha o'tkazilgan nufuzli anjumanlarga delegatlikka saylanib, ularda e'tiborga sazovor chiqishlar qilib, o'zining o'tkir zehni, aql-zakovati, rahbarlik iqtidorini yaqqol namoyon eta boshladi. Yoshlar tashkilotining eng yuqori bo'g'inlarida ishlovchi rahbarlardan tortib, xodim va mulozimlar bundan mamnunliklarini yashirmadilar. Bir necha marta institut rektoratiga o'z qizg'in minnatdorliklarini bildirganliklariga shaxsan guvohman. Haqiqatda ham institutimiz yoshlarining o'qish davomatida, ilmiy izlanishlar bobida, shuningdek, bevosita respublika dalalarida olib boriladigan amaliyot jarayonlarida erishayotgan natijalaridan quvonmaslik, faxrlanmaslik mumkin emasdi.

Bu esa o'z navbatida institut obro'siga obro' qo'shdi, uning faqat respublika yoxud sobiq ittifoqdagina emas, yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridagi nufuzini yanada oshirishga, mamlakatimizning turli burchaklaridan, shuningdek, chet ellardan ko'plab yoshlarni talabalik, aspirantlik, tadqiqotchilikka jalb etishga muhim omil bo'ldi.

Ushbu tafsilot va mulohazalarni bugun, oradan shuncha yillar o'tgach, azbaroyi hikoyam qahramonining yuksak martabasi haqqi-hurmati

uchun yozayotganim yo‘q. Barchasi haqiqat va mutlaqo samimiy fikrlar. Kimningdir bunga zarracha shubhasi bo‘lsa, kutubxonaga kirsin va institut tarixiga oid vaqtli matbuotda e‘lon qilingan ko‘plab maqolalar, solnomalar-u risolalarni sinchiklab o‘qib ko‘rsin. Mana shunday kitoblardan biri 1984-yilda nashr etilgan bo‘lib «Mehnat Qizil Bayroq ordenli Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti» deb nomlangan va mazkur dargohning 50 yilligiga bag‘ishlangan¹. Ushbu salmoqli risolada oliygohning yarim asrlik shonli yo‘li to‘g‘risida mufassal hikoya qilingan, uning beshigini tebratgan tarixiy shaxslar, ayni kunlardagi qaynoq hayoti, dars berayotgan professor-o‘qituvchilar, tajribali olimlar-u yosh tadqiqotchilar, rahbar xodimlar, jumladan, yoshlarning mohir yetakchisi faoliyati haqida ham xolis va haqqoniy fikrlar bildirib o‘tilgan.

Kitobim qahramonining yoshlar yetakchisi sifatidagi serqirra faoliyati, o‘qishda va ilmiy izlanishda qo‘ygan keyingi dadil qadamlari xususida fikr yuritish barobarida o‘zining juda boy tarixi va ulkan nufuziga ega, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi, qolaversa, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalariga juda ko‘plab yetuk mutaxassislarni, chunonchi, mustaqil davlatimizning amaldagi rahbarini tarbiyalab yetishtirgan, jumladan, o‘zimning hayotimda tub burilish yasagan, o‘chmas iz qoldirgan mana shu tabarruk dargoh haqida, ruxsat bersangiz, hikoyamning uchinchi bobida batafsil so‘zlab bersam.

Ha, aytganicha, yoshlar yetakchisining dastlabki ish kunlarida unga bergan boyagi maslahatimga qo‘shimcha tariqasida aytilgan va undan keyin ham ko‘p marta takrorlangan bir qat‘iy talabimni ham mavridi kelganida aytib o‘tmasam bo‘lmas.

– Jamoat ishlarida qatnashish, siyosiy faoliyat, albatta, juda muhim, bu kishining shaxs sifatida shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

¹«Ордена Трудового Красного знамени Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства». Ташкент, 1984.

Biroq birinchi vazifa – qunt bilan o‘qish, tanlangan kasbni ipidan ignasigacha puxta o‘rganishdan iborat. Shu bilan birgalikda, ilmiy izlanishlarni ham aslo tashlab qo‘ymaysiz, – dedim men.

– Albatta, – dedi u va bunga qat’iy amal qildi.

Hozirgina tilga olingan kitobda yosh olimning o‘z tengqur do‘stlari va hamkasblari bilan birgalikda ilmiy tadqiqotchilik borasidagi faoliyati ham suratli lavhalarda aks etgan.

Sal keyinroq yana bir muhim va qiziqarli voqea yuz berdi. Institutga uning yubileyi munosabati bilan O‘zbekiston kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi birinchi kotibi, muhtaram ustoz Sharof Rashidov boshliq rahbarlar tashrif buyuradigan bo‘ldi. Biz bu tashrifga imkon qadar har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘rishga harakat qildik.

– Yonimda turasiz, Sharof Rashidovich sizni ko‘rsa xursand bo‘ladi, – dedim institut yoshlari yetakchisi Shavkat Mirziyoyevni chaqirib. Bunday deyishimning boisi bor edi. Sal avvalroq bo‘lgan va respublika rahbari ishtirok etgan anjumanlarning birida yig‘ilish ahli nomidan o‘sha davrlar urfiga ko‘ra, KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi va uning Bosh kotibi Leonid Ilich Brejnev nomiga yozilgan maktubni o‘qib eshittirish uchun minbarga yoshgina quyuq sochli qorako‘z bir yigit chiqqan va rus tilidagi ushbu Murojaatnomani juda chiroyli talaffuz bilan o‘qigan, Sharof Rashidovich bunga e’tibor bergan, yig‘ilishdan so‘ng o‘sha yigitni chaqirib, suhbatlashgan, qayerdan ekanini, rus tilini qanday qilib bu qadar yaxshi o‘rgangani va shirin talaffuz etishi bilan qiziqqandi. Yigit o‘zini tanishtirib, Zomin tumanidan ekani va u yerdagi birinchi maktabda o‘qiganini aytgan, Sharof Rashidovich bundan xursand bo‘lib, kaminaga: «Bu o‘g‘limizning bilimi va ilmiy salohiyatini rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash kerak» degan maslahat va topshiriqni bergan edi.

Bu gal ham xuddi kutganimizdek bo‘ldi. Uchrashuvdan so‘ng Sharof Rashidov institut ahli bilan do‘stona suhbatlashish asnosida

yoshlarimiz yetakchisiga ham e’tibor qaratdi va ilmiy tadqiqotlari, jamoatchilik sohasidagi ishlari qanday ketayotgani bilan astoydil qiziqdi, qunt bilan mehnat qilishi, tinmay izlanishi lozimligini uqtirdi, kelajakdagi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi. Menga esa bu borada alohida e’tiborli bo‘lishni uqtirdi. «Bu yigitdan yaxshi olim, mohir rahbar chiqadi» dedilar muxtasar qilib.

Shu o‘rinda xalqimizning yana bitta bir qarashda oddiy, lekin ma’nosi nihoyatda keng va chuqur, ma’lum darajada ilohiy mazmunga ega bir maqoli esimga keldi. «O‘xshatmasdan uchratmas», deyдилar. Bu bejiz emas. Ne ajabki, mening hayotimda tub burilish yasalishiga sabab bo‘lgan ulug‘ va tabarruk inson, zukko va dabir, ya’ni ustoz rahbar Sharof Rashidov yosh umidli shogirdim istiqboliga ham katta umid hamda ishonch bilan qaradi. Bu esa uning betakror zakovati, valiymonand arbob bo‘lganligining yana bir isbotidir.

Bu esa mening qalbinga faxr-u g‘urur bag‘ishladi. Chunki hali o‘zim ham nisbatan yosh rahbar hisoblanardim. Respublika rahbarining bu e’tibori ayni paytda kadrlar bilan ishlash sohasidagi dastlabki sa’y-harakatlarim to‘g‘ri bo‘lib chiqqanligining e’tirofi edi.

Shular haqida yozayapman-u ko‘nglimdan ayni shu o‘rinda hikoyamda muayyan lirik chekinish qilish, bugina emas, unga alohida bir bob qo‘shib, mamlakatimiz tarixida o‘zining munosib o‘rniga ega, xalqimiz qalbida mangu o‘chmas iz qoldirgan mana shu buyuk davlat va siyosat arbobi, ulkan ijodkor, benazir shaxs haqida biroz mufassalroq to‘xtalib o‘tish lozim degan istak bot-bot o‘tayotir. Shoyad, bu nafaqat mening, balki shu benazir alloma nazariga tushgan barcha insonlarning shogirdlik burchi, o‘z taqdirida muhim, kerak bo‘lsa, hal qiluvchi rol o‘ynagan mo‘tabar murabbiyga minnatdorligi belgisi sifatida qabul qilinsa. Nafsilamrini aytganda, bu ushbu asardan ko‘zlangan maqsadga va uning qahramoni qarashlariga ham mantiqan muvofiq keladi degan umiddaman. Zero, Shavkat Miromonovich mamlakatimiz tarixi, uning

rivojlanish bosqichlari haqida gapirganda Sharof Rashidov nomini alohida hurmat-e'tibor bilan tilga olishi hech kimga sir emas. Keng ma'noda yurtboshimiz mana shu ulug' insonni o'zining oq fotiha bergan ustozlaridan biri deb hisoblashini ham yashirmaydi. Ajabmaski, u yoshlik yillaridan mana shu ulkan tarixiy siymo, betakror shaxs, benazir ijodkor va beqiyos insonga o'xshashni, uning yo'lidan borishni orzu qilgan bo'lsa.

Ochig'i, davlatimizning bugungi rahbari faoliyatini uzoq yillardan buyon xayrixohlik ila kuzatish va mushohada etish asnosida unda Sharof Rashidovga xos bebaho fazilatlarni ko'p ko'rdim. Ana shu uyg'unlikning yangi zamon taqozosiga ko'ra yanada mukammallashayotgani, yangi davr talablariga binoan yangicha fazilatlar yuzaga chiqayotgani ham bor gap va ular haqida navbatdagi boblarda alohida, batafsil to'xtalaman. Hozircha esa...

Shavkat Mirziyoyevdek zakovatli, jur'at-jasoratli, g'ayrat-shijoatli, sabot-qat'iyatli, yurtparvar-u xalqsevar rahbarni ta'lim berib, kamol toptirgan muazzam va muhtaram ilm dargohi, uning qisqacha tarixi, rivojlanish bosqichlari, bugungi a'moli va husni jamoli xususida bir-ikki og'iz fikr yuritsam. Menimcha, bu ushbu hikoyam mazmun-mohiyatiga putur yetkazmasa kerak, bil'aks, faoliyati xususida so'zlanayotgan ulkan siymo portretiga chizgilar yanada to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi, deya umid bildiraman.

Uchinchi bob

KO‘NGIL SEZGISI – YARATGANNING BEBAHO IN‘OMI

Alqissa, yuqorida aytib o‘tganimdek, 1978-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga rektorlikka tayinlandim.

Hayotimning nafaqat mamlakatimiz, hatto sobiq Ittifoq, ya‘ni hozirgi postsovet davlatlari hududida, balki butun dunyoda o‘zining salmoqli o‘rniga ega bo‘lgan ana shu tabarruk ilm dargohi bilan bog‘liq qismi haqida hikoya qilish men uchun juda maroqli. Fikrimcha, ushbu hikoya aksar yosh kitobxonlar uchun ham muayyan darajada jozibali tuyulsa, ajablanmaslik kerak.

Buning sababi – mustaqil hayotga intilayotgan, o‘z idealidagi maqsadlar va qalbidagi yuksak orzularning amalga oshishiga yo‘l ochuvchi munosib kasb egallash ustida bosh qotirayotgan yoshlar ulug‘ insonlar, mamlakat tarixida o‘chmas iz qoldirgan kadrlar yetishib chiqqan ta‘lim dargohlariga alohida diqqat-e‘tibor bilan qaraydilar. Nafsilamrini aytganda, dunyo siyosatida o‘z o‘rnini topgan ulkan davlat arboblari yetishtiruvchi bunday oliy o‘quv yurtlarining tarixi, bugungi faoliyati keksa-yu yosh, xullas, barcha uchun qiziqarli hisoblanishini ta‘kidlab o‘tirmasam ham bo‘lar.

Albatta, davlatimiz, xalqimiz uchun Shavkat Miromonovich Mirziyoyevdek rahbarni yetishtirib bergan ushbu ta‘lim dargohiga, uning ulkan va ahil jamoasiga butun mamlakatimiz ahli nafis bir mehr, samimiy bir hurmat bilan qaraydi. Bu esa ushbu jamoaga cheksiz

faxr-iftixor tuyg'usini bag'ishlash bilan birgalikda zimmasiga katta mas'uliyat ham yuklaydi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bu institutga ishga kelishga, ayniqsa bunday mas'uliyatli tayinlovga darhol rozi bo'lmagan, bir qadar ikkilangan edim. Zero, keng va chuqur, kelajagi porloq ilmiy tadqiqotlar va amaliy izlanishlarga ixtisoslashgan yirik bir muassasa rahbari edim va muhimi, o'zim yaxshi biladigan sohada katta ishtiyoq bilan kun-u tun tinim bilmay mehnat qilayotgandim.

Olimlar yaxshi biladilar. O'zining uzoq yillik orzu-intilishlari mevasi bo'lajak, ayni paytda amaliyot uchun ahamiyati o'ta muhim bo'lgan kashfiyotlar ustida ishlayotgan kishi o'zini bepoyon dengizdagi baliqdek his etadi.

– Qator yillar davomida oldin pedagogika, so'ngra ilmiy tadqiqot institutida ishlab, yoshlarga ham ta'lim-tarbiya berish, ham ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida yetarlicha tajriba to'pladingiz. Shuning uchun sizni nafaqat respublika yoki mamlakat, qolaversa, jahondagi ulkan ilm dargohlaridan biriga yuborishga qaror qilindi. Bu respublika rahbariyati va shaxsan Sharof Rashidovichning sizga nisbatan katta ishonchi va ayni payda o'ta og'ir mas'uliyatdir. Buni yaxshi tushunasiz va shunga monand ishlaysiz degan umiddamiz, – deyishdi Markaziy Komitetda.

Bu chindan ham menga bildirilgan juda katta ishonch, ayni paytda respublika hukumatining mendagi ilmiy – pedagogik hamda boshqaruvchilik salohiyati va tajribasining e'tirofi va ayni paytda muhtaram ustozlar alohida ta'kidlashganidek, o'ta zalvorli mas'uliyat edi.

Shuni inobatga olgan holda, ko'nglimdagi dastlabki ikkilanishlarni bir chetga surib, qat'iy fikrga keldim. Bu qat'iyat natijasida qalbimda yangicha bir jur'at paydo bo'ldi va bu his ruhimga dadillik, jismimga kuch-g'ayrat baxsh etdi. Va...

O‘sha lahzalarda yuragimdan o‘tgan yana bir tuyg‘u haqida bot-bot eslab, gapirib yuraman. Bu tuyg‘uni ilmiy tilda intuitsiya deyishadi. Men oddiy, o‘zbekcha qilib, ko‘ngil sezgisi, deb atayman. Ya’ni yangi vazifaga tayinlanib, yangi dargohga, yangi jamoa istiqboliga yo‘l olar ekanman, ko‘nglimning tub-tubida bu yerda bir umrlik qadrdonlarga aylanajak ko‘plab yaxshi insonlarga duch kelaman, yetuk olimlar, donishmand murabbiylar, kelajakda ilm-u fan, siyosat-u iqtisodda ulkan cho‘qqilarni egallab el-yurt koriga yarovchi yigit-qizlar bilan uchrashaman, birgalikda ahillig-u jipslikda ishlayman, ularning sevinch-u tashvishlariga sherik bo‘laman degan teran bir sezgi bor edi. Shu ma’noda...

Ushbu boy tarix va ulkan ilmiy salohiyatga ega ta’lim va ilmiy-tadqiqot dargohiga ishga kelish hayotimning eng muhim burilish nuqtalaridan, tafakkurim va zehniyatimda ajabtovur evrilishlar yasagan voqea, desam, yanglishmasam kerak. Ochig‘i, uning tabarruk ostonasiga qadam qo‘yar ekanman, yuragimni cheksiz faxr-u g‘urur bilan birgalikda qattiq hayajon va, hatto biroz qo‘rquv ham chulg‘agan.

Zotan, ushbu ilm dargohining, avvalo, O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma’rifiy hayotidagi o‘rni va roli, zalvori va salobati judayam ulkan edi. O‘zbeklardan chiqqan buyuk allomalardan biri bo‘lmish akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy, shuningdek, jahonga mashhur bir qator rus va boshqa millatlarga mansub taniqli olimlar tamal toshini qo‘ygan, O‘zbekistondek agrar respublika uchun tayyorlaydigan mutaxassisliklari jihatidan eng oldingi o‘rinlarda turuvchi, sobiq SSSRdan tashqari, dunyodagi 30 dan ziyod mamlakatdan kelgan aspirant-u talabalar tahsil oladigan ulkan dargoh hisoblanardi.

Unda qariyb mingga yaqin professor va o‘qituvchilar ishlagan, o‘n besh mingdan ziyod talaba tahsil ko‘rgan. Toshkentdagi asosiy o‘quv bazasidan tashqari Qarshi va Yangier shaharlarida filiallar, Samarqandda o‘quv-tayanch bo‘limi faoliyat ko‘rsatar, uni bitkazib, qishloq va suv

xo'jaligi uchun benihoya muhim ahamiyatga ega kasblarni egallagan yigit-qizlar O'zbekistondan tashqari, yer yuzining agrar soha bilan shug'ullanuvchi barcha mamlakatlarida ishlashardi.

O'qituvchi-pedagoglarimizdan ellikdan ortiq kishi fan doktori, 23 nafari professor, 300 ga yaqini fan nomzodlari va dotsentlar edi.

Ruxsatingiz bilan atigi bir nechagina raqam keltirsam: 1983-yilda institutning 14 fakulteti, shu jumladan, filial va bo'limlarida yuzga yaqin millat-u elatlarga mansub 15,5 ming talaba tahsil olgan. Shulardan 500 ga yaqinini Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining 37 mamlakatidan kelgan yigit-qizlar tashkil etardi.

Ushbu kitobni yozishga kirishar ekanman, institut tarixi, rivojlaniish yo'llari haqida hikoya qiluvchi bir necha risola, albom va spravochniklarni ko'zdan kechirishimga to'g'ri keldi. Ruxsat etsangiz, quyida ulardan olingan ayrim fakt va raqamlarni keltirib o'tsam.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining mustaqil oliy ta'lim dargohi sifatidagi faoliyati sovet davridagi rasmiy solnomalarda 1934-yil 17-sentabrdan hisoblanib kelingan bo'lsa-da, aslida uning tashkil etilish tarixi mohiyatan sal ilgariroq boshlangan. Ya'ni, u 1920-yil 7-sentabrda tashkil etilgan, Turkiston davlat universiteti tarkibida «Qishloq xo'jaligi» va «Texnika» fakultetlari negizida shakllangan va 1922-yilda universitetning «Texnika» fakulteti respublikadagi mavjud sharoiti va tegishli kadrlarga bo'lgan katta ehtiyoj hisobga olingan holda muhandis-melioratorlar fakultetiga aylantirilgan.

Keyinroq O'rta Osiyo davlat universiteti deya nomlangan ushbu oliygoh qishloq xo'jaligi fakultetining mashinasozlik bo'limi 1930-yilda qayta tashkil etiladi va Qishloq xo'jaligi instituti tarkibida qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fakulteti tashkil topadi. O'rta Osiyo politexnika instituti suv xo'jaligi fakulteti 1931-yilda O'rta Osiyo suv xo'jaligi muhandislari institutiga aylantiriladi.

Markaziy Osiyoning geografik sharoiti, yilning to‘rt fasli mujassamligi, qulay iqlimi va beminnat quyoshi sug‘orma dehqonchilikning rivoji uchun muhim omil edi. Istiqbolda sohaning ustuvor taraqqiyotini ta‘minlashda irrigatsiya, melioratsiya va mexanizatsiyani o‘zaro hamohang rivojlantirish zarurati davr taqozosi bo‘lib qoldi.

«Tarixiy voqelik 1934-yil 17-sentabrda sodir bo‘ldi. O‘rta Osiyo Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari institutini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Ushbu institut O‘rta Osiyo Irrigatsiya muhandis-texnik instituti va O‘rta Osiyo Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish institutlarining qo‘shilishi natijasida yuzaga keldi»¹.

Mustaqil institut shaklida ish boshlaganidan keyin ushbu ta‘lim dargohiga sobiq SSSRning barcha yirik ilmiy-pedagogik markazlaridan yetuk olimlar taklif etilgan. Xalqimizning ulug‘ allomalaridan bo‘lmish akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy, professorlar V.V. Poslavskiy, Ye.P. Zalesskiy, L.K. Korevitskiy, M.Ya. Gromov, S.M. Suxanov, N.V. Makridin, N.I. Kamenev, A.N. Askochenskiy, N.A. Yanishevskiy, A.N. Ivanov shular jumlasidan edi. Bundan tashqari ko‘plab dotsentlar, fan nomzodlari ishlar edilar.

Institut o‘zining ilk qadamlaridan boshlab O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislar yetkazib berishga kirishdi. Bu mutaxassislar O‘zbekistondagi ulkan tarixiy loyihalar – Mirzacho‘l va Qarshi dashtlarini o‘zlashtirish, Katta Farg‘ona kanali, Farhod, Kattaqo‘rg‘on suv ombori va shunga o‘xshash ko‘plab ulkan loyihalar asosidagi tarixiy inshootlarni bunyod etishda bayroqdor bo‘ldilar.

O‘tgan asrning saksoninchi yillari institutning chinakam gullab-yashnash davri edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuqorida

¹ «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» TIQXM-MI» 1922 (1934) – 2020. Toshkent, 2020. 78-b.

ta'kidlanganidek, bu davrga kelib, talabalar soni qariyb o'n olti mingga yaqinlashgan, institut dunyodagi shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi oliy ta'lim dargohlari o'rtasida yetakchi o'rinlarga chiqqani uchun jahonning o'nlab mamlakatlarida yashovchi yigit-qizlar aynan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti diplomini olishga ishtiyoq bildirar, shu yerga intilar edilar.

Shu bilan birgalikda ushbu dargoh qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, yer tuzish, melioratsiya singari o'ta muhim sohalarga oid dolzarb ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan, ularning natijalari amaliyotga dadil tatbiq etiladigan o'ziga xos ilmiy-amaliy markazga ham aylangandi. Bittagina raqam: 1980 – 1983-yillarda ilmiy ishlanmalar natijasida yaratilgan ixtiro va kashfiyotlarga 100 ga yaqin mualliflik guvohnomalari olingan. Muhimi, bu ixtirolarning deyarli barchasi ishlab chiqarishga tatbiq etilgandi. 20 dan ziyod tadqiqotchi doktorlik, 40 kishi nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish arafasida edi...

Tasavvur eting, bunday ulkan jamoani birlashtirish, ayniqsa, jism-u jonida yoshlik shiddat-u shijoati to'lib-toshgan yovqur va serhayajon yigit-qizlarning boshini qovushtirish, bugungi ibora bilan aytganda, turli yot ta'sirlardan asrash, asosan, aniq fanlarga tayanuvchi murakkab kasb-u ixtisoslarga qunt bilan o'rgatib, sa'y-intilishlarini to'g'ri yo'naltirishning o'zi bo'lmasdi, albatta. Shularni hisobga olgan holda, bu borada institut yoshlar uyushmasi hal qiluvchi rol o'ynashini yaxshi tushunardim va ana shu tashkilotga qattiq tayanardim, binobarin, uning rahbari alohida tashkilotchilik iqtidoriga, talabalar o'rtasida yuksak obro'-izzatga, barcha yigit-qizlar havas qiladigan betakror insoniy xislat-fazilatlariga ega bo'lishi lozimligiga alohida e'tibor qaratar edim. O'zlaringiz o'ylab ko'ringlar: salkam qirq mamlakat, yuzdan ziyod millat, turlicha diniy e'tiqod vakillari, turfa dunyoqarash-u tarbiya

darajasidagi yoshlar qalbiga yo‘l topishning o‘zi bo‘lmaydi. Yoshlar masalasida yo‘l qo‘yilgan arzimas bir xato esa barcha zamonlarda nechog‘lik xatarli oqibatlarga olib borishi mumkinligi esa tarix-u yaqin o‘tmish saboqlarida bizga ma’lum va ravshan.

Shu tariqa yuqorida aytib o‘tganimdek, qunt bilan izlanib, institut talabalarining ko‘pchiligi bilan bevosita muloqotlar o‘tkazib, nihoyat qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash fakultetidan xuddi ko‘nglimdagi orzu-niyatlarga, ulkan rejalarga monand, jamoamiz ahilligi va hamjihatligini mustahkamlagan holda, institutimiz oldida turgan yuksak talablarga mos keladigan nomzodni topishga muvaffaq bo‘ldim. Uning kim ekanligi haqida endi yetarlicha tasavvur hosil qildingiz, deb o‘y layman.

Hamonki institut haqida mumkin qadar batafsil hikoya qilishga jazm etdim, uning yetakchi bo‘linmasi hisoblanmish va qahramonim bevosita tahsil olgan qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash fakulteti xususida ham salgina kengroq to‘xtalishni ma’qul topaman.

Ushbu fakultet institut mustaqil ta’lim dargohi sifatida paydo bo‘lishida hal qiluvchi rol o‘ynagan, binobarin uning asosini tashkil etuvchi, ayniqsa sohadagi amaliy ahamiyati jihatidan eng oldingi o‘rinlarda turuvchi bo‘linmalardan hisoblanardi. 1983 – 1984-yillarda unda qariyb bir ming olti yuz nafardan ziyod talaba tahsil olar, shulardan yuzga yaqini Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi qit’alaridagi 20 ga yaqin mamlakatlardan kelgan xorijiy yigit-qizlardan iborat, o‘qituvchi va ilmiy xodimlar soni yuzga yaqin edi. O‘tgan yillar davomida bu fakultet ishlab chiqarishga o‘n mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab bergan, bu borada professorlar M.V. Sablikov, Ye.K. Baturin, G.A. Koshevnikov, S.P. Po‘latov, M.I. Landsman, dotsentlar N.V. Sablikov, V.V. Bulkin, N.P. Polekutin, V.A. Ivanov, A.X. Haydarov singari ustozlarning hissasi beqiyos edi. Ushbu ahil jamoaga dekan S.G. Muhammadjonov mohirona rahbarlik qilardi.

Fakultetda talaba yoshlarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish hamda ularning bilim va ko'nikmalarini ishlab chiqarish, xususan, paxtazor-u g'allazorlarda amaliy sinovdan o'tkazish uyg'un tarzda olib borilardi. Birgina 1983-yilning o'zida salkam 300 talaba mahalliy va xalqaro miqyosdagi turli ilmiy anjumanlarda o'z ma'ruzalari, ilmiy tadqiqotlari taqdimotlari bilan ishtirok etgandi. Ularning amaliyotdagi faoliyatlari ham diqqatga sazovor edi. Chunonchi 1981 – 1984-yillarda paxta yig'im-terimi mavsumida fakultet yoshlari yetakchiligida butun institut talabalaridan 36 ta mexanizatsiya va ta'mir otryadlari tuzilib, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida 2500 dona texnika uskunalari ta'mirlangan, jami 200 tonnadan ziyod paxta xom ashyosi terib olingan, qariyb yuz ming sentner don yanchilgan, 4500 gektar yer haydab berilgan. Fakultet ahli mamlakatdagi yirik traktorsozlik korxonalarini bilan amaliy hamkorlikda ish olib borar, ularda mahsulot sifatini oshirishda o'z ilmiy ishlanmalari va bevosita ishtiroklari bilan faol qatnashardilar.

Biz yoshlar sardori lavozimiga loyiq ko'rgan yigit mana shunday ulkan fakultet, aniqrog'i, ilm va amaliyotni o'zida mukammal mujassam etgan yirik ta'lim markazi vakili edi. A'lo o'qish bilan birga fakultet jamoat ishlaridagi eng faol, chin ma'nodagi lider, ya'ni yetakchi va peshqadam talabalardan hisoblanardi. Suhbatlarimiz davomida men undan nega aynan shu fakultetni tanlaganini ko'p marta, takror-takror so'rganman. U o'smirlik yillaridan boshlab o'zbek dehqonlari, ayniqsa paxtakorlari mehnatining naqadar mashaqqatli ekaniga bevosita guvoh bo'lgani, ko'nglida ana shu og'ir, zahmatli yukni sal bo'lsa-da yengillashtirish, qishloq xo'jaligidagi o'ta og'ir jarayonlarni texnika zimmasiga yuklash bilan bog'liq orzular paydo bo'lgani va bora-bora bu orzu uni mana shu institut, mana shu fakultet sari yetaklab kelganini, ammo o'qishga kirish oson bo'lmagani, dastlabki urinishi muvaffaqiyatsiz chiqqani, biroq u bundan tushkunlikka tushmasdan yanada qattiqroq

o‘qib-o‘rganib, tayyorgarlik ko‘rib, nihoyat ushbu nufuzli ta‘lim dargohi talabasi bo‘lishdek baxtga erishgani haqida takror-takror samimiyyat va faxr bilan zavqli gapirar edi. Bu menga juda yoqar, chunki xuddi o‘zimning bolalik va o‘smirlikdagi o‘y-fikrlarim, orzu-niyatlarimga aynan o‘xshash edi. Odamlarni aynan orzu-niyatlar uyg‘unligi ham uchrashtiradi, yaqinlashtiradi, birlashtiradi, taqdirlarini tutashtiradi, desam adashmasam kerak. Nazarimda, dono xalqimizning: «o‘xshatmasdan uchratmas» degan maqolida ham xuddi shu ma‘no tajassum topgan. Taqdir taqozosi, aniqrog‘i, Parvardigor xohish-irodasi ila uchrashgan, bir maslak, mushtarak orzu-niyatlar yo‘lida birga mehnat qilganlar albatta, murod-u maqsadlariga yetadilar. Yaratganning oliy haqiqati shunday.

Birga ishlay boshlaganimizdan so‘ng oradan ko‘p o‘tmayoq chindan ham yanglishmaganimni, bu yigitni menga Allohning o‘zi yetkazganligini yaqqol angladim. U darhol talaba yoshlar davomati, ilmiy ishlarga qiziqishi, amaliyotdagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorgarlik, bo‘sh vaqtni tashkil etish va hokazolar bilan bog‘liq bizni qiynab turgan ko‘pgina muammolarimizga birin-ketin yechim topa boshladi. Tez orada institut yoshlari o‘rtasidagi ma‘naviy-axloqiy muhitni tubdan sog‘lomlashtirishga, talabalarning fanlarni o‘zlashtirish foizlari yuksalishiga, dunyoqarashlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berishi, sport-sog‘lomlashtirish, madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda, ilmiy anjumanlardagi ishtiroki keskin kengayishiga erishildi. Buning natijasi o‘laroq, jamoamizning respublika, sobiq Ittifoq, qolaversa, dunyo mamlakatlaridagi ta‘lim dargohlari o‘rtasidagi nufuzi to‘xtovsiz oshib borishiga erishildi. Xalqona qilib ta‘riflasak, uning poyqadami xush keldi. Institutimiz obro‘sig a obro‘ qo‘shilib, nomi tilga tushdi, tarixiy «TIIMSX» – Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti 80-yillarning eng peshqadam oliy ta‘lim muassasalari qatorida tilga olinadigan bo‘ldi.

Tabiiyki, bu meni ana shu zakovatli, serg'ayrat tashkilotchi, ayni paytda o'ta kamtarin va jiddiy yigitning kelajagi xususida astoydil o'ylashga undar, ko'nglimda tahsil nihoyasidan so'ng uni institutning o'zida olib qolib, ilmiy ishga jalb etish kerakmi yoki darhol markaziy oliy o'quv yurtlaridan birortasiga aspiranturaga jo'natish yoxud dastlab ishlab chiqarishda tajribasini mustahkamlab, so'ngra siyosat sohasiga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'larmikan degan turfa fikrlar aylanardi.

Hech kimga sir emas, mamlakatimizdagi nufuzli oliy ta'lim daroghlaridan biri hisoblanuvchi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutini bitkazib, ishlab chiqarishda o'z mutaxassisligi bo'yicha ish boshlagan, faoliyatini qunt bilan muvaffaqiyatli davom ettirgan yigit-qizlar orasidan qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, suv xo'jaligi, melioratsiya sohalarining tuman, viloyat, respublika, hatto Ittifoq miqyosidagi taniqli rahbarlari ko'plab yetishib chiqqan. Men shu jihatni hisobga olgan holda fikr yuritardim va yoshlarimiz yetakchisida mujassam bo'lgan serqirra iqtidor va noyob salohiyatni ko'rganim va bilganim uchun uning kelajakda el-yurt boshidagi porloq yulduz bo'lishini orzu qilardim va bunga qat'iy ishonardim.

Yuqorida aytib o'tganimdek, o'zi bilan ko'p bora suhbatlashib, uning bolalik chog'laridan taqdirning murakkab sinovlaridan o'tib chiniqqanini, xuddi menga va boshqa millionlab o'zbek yigit-qizlariga o'xshab o'smirlik chog'laridan paxtakorlig-u hasharchilik mashaqqat-u uqubatlarini boshdan kechirgani, shuning natijasida ko'nglida ushbu sohani mexanizatsiyalash asosida dehqonlar mehnatini yengillashtirish, shu bilan bir qatorda keyingi paytlarda ko'p tilga olinganidek «majburiy mehnat»ga barham berish orzu-istagi tug'ilganini bilib, bitiruv imtihonlari nihoyasiga yetayotgan kunlarda yana bir karra muloqot qildim. Ko'nglidagi orzu-niyatlarni, ayni paydagi fikri-yu istagini bilay, dedim.

U olimlikka qiziqishi, agar imkon berilsa, institutda qolib, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ilmiy izlanishlarini davom ettirish niyatida ekanini aytdi.

Ko‘zidagi komil ishonch va ruhidagi qat’iyatni ko‘rib, unga bo‘lgan mehrim yanada kuchaydi. Zero, hali aytib o‘tganimdek, u bilan dunyoqarashlarimiz o‘xshash, orzu-intilishlarimiz mushtarak edi. Bu esa insonlarni yaqinlashtiradi. Tarixiy va ayni zamonlardagi ko‘plab misollarga tayangan holda, sirasini aytadigan bo‘lsak, ustoz-shogirdlik an’anasining zamirida ham aslida aynan mana shunday fikriy uyg‘unlik va dunyoqarashlardagi mushtaraklik, maqsadlar o‘xshashligidan iborat tushunchalar silsilasi yotadi. Xullas, shundan so‘ng yigitning otasi bilan fikrlashib, uni o‘qishni bitirgach, institutda olib qolishga, ilm va tashkiliy-siyosiy faoliyatni uyg‘un tarzda davom ettirishi ustida jiddiy maslahatlashib olishga uzil-kesil qaror qildim. Zero...

«Ota rozi – Xudo rozi» deydi dono xalqimiz. Uning institutda qolib ishlashiga avvalo, padari buzrukvori ruxsat etishi, shuni astoydil xohlab, oq fotiha berishi talab etilar, zero shaharda yashash, uy-joy, turmush muammolarini yechish oson emasdi. Garchand institut rahbariyati yosh olim va siyosat arbobini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyor bo‘lib turar, zero u o‘z odamgarchiligi, chinakam namunali fe‘l-atvori bilan butun jamoamizning mehr-hurmatini qozonib ulgurgan edi.

Esimda, yoshlarimiz yetakchisi bitirish imtihonlarini topshirayotgan kunlarning birida iltimosimga binoan uning otasi – Miromon aka huzurimga keldi. U bilan yurakdan uzundan-uzoq suhbat qurdik.

Men unga o‘g‘lini institutda ishga olib qolishga qaror qilganimizni aytdim. Shavkatjonning istiqboli porloq ekani, ilmiy-pedagogik sohada ham, ijtimoiy-siyosiy faoliyat bobida ham nasib etsa, katta cho‘qqilarni zabt etajagi muqarrar ekanligini tushuntirishga harakat qildim.

«Sa’dullajon, – dedi u kishi, – avvalo, sizga bizning farzandimizga ko‘rsatgan ulkan ishonchingiz uchun katta rahmat,

lekin oilamiz katta, qishloqda turmush qanday murakkab ekanini o'zingiz yaxshi bilasiz, oilada ishlaydigan bitta menman, boshqa toparman-tutarmanimiz yo'q. Ruxsat etsangiz, o'g'limni qishloqqa olib ketsam, ixtisosligi bo'yicha ishlasa, qanotimga kirib, opasi va ukalariga bosh bo'lib, ro'zg'or tashvishlarining bir tomonini ko'tarsa, deb niyat qiluvdim, biz ham keksayib qoldik axir. Ilmiy-pedagogik ishning ham, ijtimoiy-siyosiy faoliyatning ham keyinroq mavridi kelar».

Albatta, men u kishining holatini tushunib turardim. Uning bu so'zlarida avvalo farzandiga nisbatan cheksiz otalik mehri mujassam edi. Yosh kadrimiz padari buzrukvorining oldida bo'lib, oilasiga moddiy jihatdan yordam berish asnosida o'zining o'sha davrlar uchun ham ancha noyob hisoblangan ixtisosi bilan o'ta kerakli mutaxassis sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ning muhim bir tarmog'ida ishlab, siyosiy hayotga faol aralashib, o'z iqtidori va mehnatsevarligiga tayangan holda o'sib-ulg'ayishi, faxrlanarli darajadagi martabalarga erishishi, ilmiy faoliyat bilan sal keyinroq shug'ullanishi ham mumkin edi. Ammo...

Men uning ayni damlarda g'ayrat bilan olib borilayotgan ilmiy faoliyatni daf'atan tark etishini, talabalik yillaridayoq boshlagan izlanishlari uzilib qolishini istamasdim. Avval ilm dovonlarini zabt etsa, undan so'ng amaliyotda ishlasa, yanada ulug'vor maqsadlar sari intilsa yanglishmaydi, deb o'ylar edim. Tashkilotchilik, rahbar sohasida ishlab, xalqimizga xizmat qilsa, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shsa va xohlagan paytida yana ilmiy-pedagogik faoliyat bilan ham shug'ullansa, derdim. Shuning uchun...

Men bu taklifga rozi bo'lmadim va uning institutda ishlashi lozimligini qat'iy turib talab etdim, otaga, oilaga shu yerda ishlab ham madadkor-u ko'makchi bo'lish mumkinligini uqtirishga urindim. Suhbat pirovardida qat'iy qilib mana bunday dedim:

«Oqsoqol, u endi faqat sizning o‘g‘lingiz emas, bizning institutimizning ham farzandi! Mana ko‘rasiz, u ilm yo‘lidan ketsa, shubhasiz, yetuk olim bo‘ladi! Uning alohida iqtidori, salohiyati bor. Siz va biz duo qilib, qo‘llab-quvvatlasak, u elimizning, yurtimizning faxri bo‘ladi! Bilasizmi, men uni kimga o‘xshataman? Bu yigitda buyuk yurtdoshingiz Sharof Rashidovning nafasini sezaman... Sharof Rashidov uning yoshida frontda – o‘q-yomg‘irlar ostida kezman, so‘ngra xalq xizmatida bo‘lib, Samarqandda, Toshkentda mas’uliyatli vazifalarda ishlagan va natijada el-u davlatimizning faxriga aylangan. Menga Sharof Rashidov bilan ko‘p bor ko‘rishish, bebaho maslahatlarini olishga muyassar bo‘lish nasib etdi. Ayniqsa, shu institutga rahbar qilib jo‘natishda aytgan gaplari qulog‘im ostidan hech qachon ketmaydi: «Inson umri abadiy emas, lekin uning umrini shogirdlari uzaytiradi!» deganlar. Farzandingiz ana shu ulug‘ insonning nazariga tushdi, duosini oldi. Shuning uchun u ilm sohasidagi faoliyatini davom ettirmasa bo‘lmaydi!»

Shogirdimning padari buzrukvori ko‘pni ko‘rgan, katta hayotiy tajribaga ega, umrini dunyodagi eng sharaflilik kasblardan biri bo‘lgan shifokorlikka bag‘ishlagan olijanob va bag‘rikeng inson edi. Qolaversa, Mirziyoyevlar oilasida Sharof Rashidovga nisbatan alohida mehr borligi va hurmat-e‘tiqod naqadar baland ekanligi darhol sezildi, qarshimda oyoq tirab turgan otaxon birdaniga yumshadi, kayfiyati o‘zgardi, keyingi gaplarimiz o‘z-o‘zidan qovushib ketdi:

«Men ham Sharof Rashidovich bilan bir necha bor ko‘rishish, u kishining ko‘pgina qimmatbaho o‘gitlarini olishga muyassar bo‘lganman, bu ulug‘ insonning har bir so‘zi bizning oilamiz uchun ham muqaddas!» – dedi Miromon aka va o‘g‘lining institutda qolib ishlashiga chin ko‘ngildan rozilik berdi.

Xayrlashar ekanlar, niyatni muxtasar qilib: «Endi, Sa‘dullabek, siz ham oilamizga a‘zo bo‘ldingiz, shogirdingizning istiqboli yo‘lida

yordam-u qimmatli maslahatlaringizni ayamaysiz degan umiddaman», – dedi.

Shu tariqa ulug'larning nomi, aytgan so'zlari-yu bildirgan tilaklari hikmati, bir og'iz o'giti bizning niyatimizni qovushtirgan, katta maqsad yo'lidagi kurashlarda bizning sa'y-harakatlarimizni birlashtirgan, yakdil qilgan. Ko'rdimki, Miromon Mirziyoyev ham oddiy otaxon emas, har bir so'zida purhikmat donishmand insonligi namoyon edi!

Albatta, o'sha, sobiq Ittifoq davlati kuch-u iqtidorda bo'lgan kezlarda mubohasamiz sababchisi bo'lgan yigit oradan yillar o'tgach mustaqil mamlakatning Prezidenti bo'ladi, desa birov ishonishi nari tursin, bu haqda xayol surishning o'zi bamisoli bir ertakdek tuyulardi, deyish mumkin. Ammo men yuqorida aytdim. Inson qalbi sezadi, his etadi. Bu hodisani xalqimiz oddiy tilda «Xudo ko'nglimga soldi» deb ifodalaydi. Xudo ko'nglingizga solgan ekan, demak, qarshingizdagi kishining manglayida tole yulduzi porlab turganini qalb ko'zi bilan ko'rasiz. Ichki intuitsiya bilan his etasiz. Ana shu yulduz shu'lasini sofdil insonlar qalbida ezgu niyatlarni tug'diradi, shu tolening ro'yobiga esh, yo'ldosh bo'lishga undaydi. Bundan tashqari, har qanday ezgu orzu-niyat, tilak bo'm-bo'sh joyda tug'ilmaydi. Unda shubhasizki, ma'no va mantiq, asos bo'lishi lozim. Xalqimizning: «Alloh niyatingga yo'ldosh qilsin» degan duosi, hikmatli iborasi zaminida ham aynan shu asos va mantiq yotadi.

Shu tariqa yosh Shavkat Mirziyoyev o'qishni tugallagach, institutda ishga olib qolindi va o'z ilmiy hamda ijtimoiy-siyosiy mehnat faoliyatini qunt bilan davom ettirdi.

Ochig'ini aytaman, o'sha kezlarda institutda ishga qolish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqi qandaydir imtiyoz yoxud darhol yorqin kelajak eshigini ochib beradigan ulkan imkoniyatlar silsilasi emasdi. Ayniqsa, uzoq qishloqdan kelgan yoshlar uchun aksincha, bu kechagi och-yupun talabalikning mashaqqatlari ikki-uch hissa oshgan davomi edi, xolos. Aspirantlik, oddiy o'qituvchi yoki tadqiqotchi bo'lish

degani, ijodkorlar tili bilan ifodali qilib aytilsa, arzimagan maosh olib, qattol sovet davrining mudhish kashfiyotlaridan biri bo‘lmish «propiska» degan muammoni hal etolmay, melisaning muttasil tekshiruv hamda ta’qiblaridan yashiringan ko‘yi ijaraxonalarda sarson-sargardon o‘laroq, ilmning metin xarsanglarini bamisoli tish bilan kemirishni anglatardi. Bunday uqubatlarga har kim ham dosh berolmaydi. Sarsonliklarga chidolmay, qo‘l siltab ketib qolganlar qancha.

Hikoyam davomida qat’iyat degan istilohni ko‘p ishlatayotganimni sezgan bo‘lsangiz kerak. Mening nazarimda uning mohiyatiyu ahamiyati iroda, sabr-bardosh, matonat kabi muqaddas tushunchalardan kam emas.

Aynan ana shu – qat’iyat hamdam o‘laroq, qahramonimiz mashaqqatlarni yengdi, yoshlar yetakchiligidек o‘ta mas’uliyatli vazifa bilan birgalikda g‘oyat dolzarb mavzuda ilmiy ish olib borib, nomzodlik dissertatsiyasini yozishga kirishdi. Dissertatsiya mavzusi uning bolalik chog‘larida tug‘ilgan musaffo orzusiga monand bo‘lib, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashning, shu asosda dehqon faoliyatini ilmiy tashkil qilish, ota-bobolarimiz ko‘p asrlar davomida chekib kelayotgan mashaqqatli qo‘l mehnatini kamaytira borib, pirovardida bu ishni to‘lasincha texnika zimmasiga yuklashga qaratilgan edi.

Shunisi hayratlanarli va alohida e’tirofга loyiqki, u dissertatsiya yozish jarayonida uning mavzusi bo‘yicha amaliy tajribalar o‘tkazish, ya’ni dalama-dala yurish zarurati tug‘ilgan kezlarda ham buning uchun ortiqcha vaqt, imkoniyat va qulaylik yoki imtiyoz so‘ramas, barchasiga ulgurar, fursat topib, kerakli ishlarni vaqtida ado etardi. Bunday matonatga tan bermaslik, havas qilmaslik mumkin emasdi.

Dissertatsiya muvaffaqiyat bilan himoya qilindi, uning amaliy ahamiyati yuqori baholandi. Shuning samarasi o‘laroq yosh tadqiqotchiga ushbu dolzarb mavzu ustida ishlashni davom ettirish, ya’ni doktorlik dissertatsiyasini tayyorlashga kirishish tavsiya etildi.

Shavkat Mirziyoyev fan nomzodi bo'lib, institut rahbariyati tarkibiga kirib, zimmasidagi yumush-u tashvishlar yana bir necha karra ortganiga qaramasdan, ilm va tashkilotchilik faoliyatini mushtarak olib borar ekan, nafaqat institutda, balki tuman, shahar va qolaversa, respublika miqyosida asta-sekin tanilib borar, biz – ustozlar, jamoadoshlar, safdosh do'st-u birodarlar bundan behad mamnun edik. Ulug' siymolar nazariga tushgan, ezgu niyatiga sazovor bo'lib, oq fotihasini olgan bu bilimdon va tashkilotchi yigitning katta siyosat sahnasiga chiqishiga tilakdosh edik. Biroq...

Ayni o'sha kunlarda O'zbekiston rahbari, buyuk arbob, ulug' alloma va ijodkor Sharof Rashidov vafot etdi. Respublika boshqaruvi ayrim arboblarning irodasizligi tufayli izdan chiqdi. Jafokash xalqimiz boshiga «paxta ishi» atalmish qora kunlar keldi. Minglab rahbarlar nohaq ishdan olindi, qatag'on qilindi, o'n minglab begunoh paxtakor dehqonlar tuhmatga uchrab qamoqlarga tashlandi. Butun bir millatga qora tamg'a bosishga urinish bo'ldi. Xayriyatki, qora kuchlar buning uddasidan chiqolmadilar. Mard va matonatli elimiz davr-u taqdirning yana bir murakkab sinovini sharaf bilan yengib o'tdi. Unga qasd qilganlar past bo'ldi. Ezgulik dushmanlari shum niyatlariga erisholmadilar. Nohaq tuhmatga uchragan minglab yurtdoshlarimiz ozodlikka chiqib, o'z oilalari bag'riga qaytishdi. Mayli, o'tgan ishga salavot, deyдилar.

U kunlar haqida tom-tom kitoblar, xotiranomalar yozilgan, kinofilmlar yaratilgan. Shu bois mufassal to'xtalib o'tirmayman. Qolaversa, tariximizdagi bu murakkab davrning haqqoniy bahosini donishmand va oliy hakam Vaqtning o'zi berajak. Avlodlar esa uning xulosasidan saboq olajak.

Kamina 1986-yilda rektorlikdan bo'shab, institutdagi yetakchi laboratoriyaga rahbarlik qila boshladim. Boshqacha aytganda, yana o'zim sevgan ilmiy ishlar, muhim tadqiqotlar bilan bevosita va yaqindan shug'ullanishga kirishdim. Bu esa yuqorida aytib o'tib ketga-

nimdek, o‘zining quvonchli samaralarini berdi. Uzoq yillik izlanishlar natijasidagi kashfiyotlar, amaliy ishlanmalar yuzaga chiqdi. Alohida aytib o‘tishim lozim, ana shu kezlarda Shavkat Mirziyoyev bilan munosabatlarimiz yanada yaqin, samimiy tus oldi. U bu paytda institut rektori o‘rinbosari sifatida vaqti o‘ta ziq bo‘lishiga qaramasdan mun-tazam ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashga vaqt topar, ilmiy tadqiqotlarimga astoydil ko‘maklashishga, qo‘llab-quvvatlashga harakat qilar, xullas, qadrdonlik rishtalarini uzish nari tursin, zarracha taranglashtirishga aslo yo‘l qo‘ymasdi. Zero, u tabiati, fe‘l-atvoriga ko‘ra, atrofidagi kishilarga mavqe-martabasiga qarab emas, odamgarchiligi, do‘st-u qadrdonlik qoidalariga asosan muomala qilish, munosabatda bo‘lishni o‘zining hayotiy qoidasiga aylantirganini biz – hamkasb-u yelkadoshlar yaxshi bilardik, bunga allaqachonlar qat‘iy ishonch hosil qilgandik.

Abu Nasr Forobiy aytadi: «Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, xiyonat, makr-hiyladan uzoq bo‘lsin, diyonatli bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin».

Mana shu ulug‘ hikmatni kamina bir daqiqa ham yoddan chiqar-maslikni, unga qat‘iy amal qilish o‘zimning hayotdagi asosiy shiorim, deb bildim. Qarangki, Shavkat Mirziyoyev bilan o‘sha yillardagi mu-nosabatlarimiz asnosida u ham buyuk allomalarimizning hikmatlarini, o‘g‘itlari va ta‘limotlarini chuqur bilishi hamda og‘ishmay amal qilishi-ga ko‘p bora imon keltirdim.

O‘sha yillarda yosh va intiluvchan olim Shavkat Mirziyoyev bilan ilm, amaliyot, iqtisod va siyosat haqida ko‘pdan-ko‘p maroqli suhbatlar qurganmiz. Chunki endi yana ham yaqinroq sirdosh bo‘lib qolgandik. Aniqrog‘i, u institutdagi barcha yoshi ulug‘ ustozlarga izzat-hurmatni

bir daqiqa ham unutmaz, ayniqsa menga mehri, g'amxo'rligi bo'lakcha edi. Ehtimol, bu kamina ham o'sha kezlarda Markazdan kelgan desantchilar yo'rig'iga yurmaganim uchun irodasi bo'sh, qat'iyatsiz mahalliy kattakonlar tomonidan nohaq ranjitilganim bilan bog'liq bo'lgandir. Umuman...

Unga xos yana bir bebaho insoniy fazilatni alohida ta'kidlab o'tmaslikka haqqim yo'q. Bu – hayotda qiyinchilikka duch kelgan, yoki zamona zo'rlari tomonidan ta'qibga uchragan kishilarga, ayniqsa, taqdirida muayyan kemtiklik mavjud nogiron, bemor-u xasta, jismoniy nuqsonli insonlarga nisbatan alohida bir shafqlik tuyg'usi. Ana shu tuyg'uning tabiatidagi oddiy odamgarchilik, ustozlarga, umuman, kexsa yoshdagi kishilarga mehr va hurmat, do'stlarga sadoqat, yoshlarga ayniqsa, kichkintoylarga g'amxo'rlik kabi xislatlar bilan uyg'un tarzda yaxlit va mukammal zohir bo'lishi, shubhasiz, uning buyuk shaxs, ulkan siymo sifatidagi siyratini yaqqol yoritib, qiyofasidan beixtiyor xayrixohlik uyg'otuvchi o'ziga xos ziyo taratib turadi. Bu – shunchaki chiroyli so'zlar emas. Bu ayni haqiqatning o'zginasidir. Buni u bilan aqalli bir martagina yuzma-yuz baqamti kelib, loaqal ikki og'iz suhbatlashishga muyassar bo'lganlar eng oddiy kishilardan tortib, taniqli olimlar, akademiklargacha behad hayrat va beg'ubor havaslarini yashirmasdan alohida ta'kidlashgan.

Albatta, buni barcha birdek his qilishi, bir xil e'tirof etishi qiyin. Zero, odamlar turfa, dunyoqarashlar turlicha. Binobarin...

Shavkat Mirziyoyev Prezident vazifasini bajarishga kirishgan birinchi kunlaridanoq o'z faoliyatini xalqning ana shunday turfa qatlami orasiga yurishdan, chunonchi, maktablar va bolalar bog'chalari, turli yo'nalishdagi, jumladan eng og'ir bemorlar davolanadigan kasalxonalar, yetimxonalar-u mehribonlik uylari, qariyalar va nogironlar parvarishlanadigan pansionatlarga borishdan boshlaganini, asrlar davomida nainki kattakonlar, balki mundayroq amaldorlar qadami

yetmagan, e’tibor-u nazarlardan chetga qolib kelayotgan maskanlarga tashrif buyurishini «populizm» deya baholagan ayrim badbin kishilar ham bor edi. Ular tez orada yanglishganliklarini tushundilar deb o‘ylayman. Chunki qisqa fursatning o‘zidayoq bunday yurishlar bir-ikki bor, xo‘jako‘rsinga qilinmayotgani, balki bu davlat rahbari ichki siyosatining oldingi o‘rinlaridan birida turgan doimiy, kerak bo‘lsa, kundalik ish ekanligi ravshan ayon bo‘lib qoldi. Hammasidan ham hayratlantiradigani – Prezident muayyan bolalar uyi yoki mehribonlik maskanida bo‘lib, u yerdagi shart-sharoit bilan erinmasdan sinchiklab tanishib, muammolarni aniqlab, bu yerda istiqomat qilayotganlarning fikr-mulohazalari, arz-u shikoyatlarini diqqat bilan eshitib, mutasaddi rahbarlarga masalani yechishning aniq yo‘l-yo‘riqlarini hamda muddatini ko‘rsatib, belgilangan vaqtdan so‘ng bu yerga takroran tashrif buyurib, ana shu topshiriqlar ijrosini shaxsan tekshirgani, bundan shu joy ahli nechog‘lik qoniqish hosil qilgani bilan qiziqishi bo‘ldi. Oliy darajadagi rahbarning bunday qunt-e’tibori va sa’y-harakatini ko‘rgan kishi uning qalbidagi rahm-shafqat, mehr-muruvvat tuyg‘ulari teran samimiyat va men yuqorida ko‘p takrorlagan mustahkam qat’iyatga asoslanganiga tan bermay iloji yo‘q edi.

Xo‘sh, bunday yuksak insoniy tuyg‘ularning manbalari qayerda, ildizlari nimalarga borib taqaladi?

Fikrimcha, bu avvalo, mehnatkash va dono xalqimizdagi eng betakror xislatlarga uyg‘un va mushtarakdir. Jahon ahli «o‘zbek» deganda bag‘ri keng, mehmondo‘st, ahdiga sodiq, og‘zidagi bir burda nonini ham qardosh birodarlar bilan baham ko‘rishga intiluvchi ko‘zi to‘q, niyati pok, oqko‘ngil va ochiq chehrali millatni tushunishi hech kimga sir emas. Ammo...

Jonajon elimiz tarixda erishgan ulkan g‘alabalar, davlatchilik, ilm-u fan, me’morlik va binokorlik, badiiy ijod sohasidagi olamshumul yutuqlar, keyin esa kaltabin hukmdorlarning xalqdan ayrilib, o‘zaro

hokimiyat talashishga berilishi orqasidan yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlik, boshboshdoqlik oqibatida mustamlaka asoratiga tushish, shuning natijasida asrlar davomida chekilgan uqubatlar, ko'rilgan xo'rliklarning achchiq saboqlari va dunyoni hayratga solgan ajdodlarimiz yuksakligiga erishish, mustaqil davlatimizni, ozod xalqimizni jahonda peshqadam o'rinlarga olib chiqish orzusi ham har birimizning qalbimizdan chuqur joy olgan.

Buni teran anglagan donishmand olim, tajribali rahbar hokimiyat tepasiga kelgan ilk daqiqalaridanoq mana shu ulug' va jafokash millatning qaddini ko'tarish uchun avvalo har bir vatandosh ko'ngliga yo'l topishga azm-u shijoat aylaganida teran va mutlaqo haqqoniy mantiq bor.

Yana bir karra, aniq misollar vositasida ta'kidlayman, ilmiy istiloh bilan filantropik, oddiy tilda judayam tushunarli tarzda insonsevarlik, deb izohlanuvchi bu xossa unda olim va rahbar sifatida endigina shakllanayotgan paytlaridayoq yaqqol namoyon edi.

Ha, aytgancha, institut rektorligidan ozod etilganimdan so'ng o'rnimga muhtaram ustozim uzoq yillar O'zbekiston Kompartiyasi Markazqo'mi kotibi, undan so'ng respublika Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimlarida ishlagan Oqil Umrzoqovich tayinlandi. Shu bois men va qolaversa, institutning boshqa barcha rahbarlari buni quvonch va qoniqish bilan kutib oldik. Zero, bazaviy kasbiga ko'ra muhandis olim, texnika fanlari doktori, ulkan hayotiy va ko'p yillik rahbarlik tajribasiga ega bu inson biz boshlagan va olib borayotgan ishlarni avvalgidan-da ziyod darajada davom ettirishi, yanada yuqori pog'onalarga ko'tarishiga ishonchimiz komil edi. Shunday bo'ldi ham. U kishi institutni mohirona boshqardilar, jamoani yanada jiplashtirib, yanada ulkan marralarni egallash sari safarbar etishga bosh-qosh bo'ldilar. Ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish bilan birgalikda muhim yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirish choralarini ko'rdilar. Jumladan, men boshliq laboratoriyada ilmiy ish-

larni qunt bilan davom ettirishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berdilar. Tashkiliy-siyosiy sohada ham izchil ish olib borildi. Shavkat Mirziyoyev esa shu orada institut partiya qo‘mitasi kotibi, prorektor vazifalarida ishlab, Oqil Umrzoqovichning eng yaqin safdoshi sifatida bu borada alohida jonbozlik, tashabbuskorlik ko‘rsatdi, rektor muovini, muayyan muddat rektor vazifasini bajaruvchi lavozimlarida ishlash jarayonidan rahbarlik iste’dodining yangi qirralarini namoyon etdi.

Sirasini aytganda, Oqil Umrzoqovich jamoamizdagi barcha yetuk olimlar, professor-o‘qituvchilar, ayniqsa iqtidorli yoshlarga o‘z bilim va mahoratini ko‘rsatish uchun keng yo‘l ochdi. Ammo...

Saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida nihoyatda keskinlashib ketgan qatag‘on mashinasi respublikaning oliy idoralarida ishlagan barcha rahbar xodimlar qatorida muhtaram ustozimizni ham o‘z komiga tortdi...

Bundan besh yillar oldin Oqil Umrzoqovich teleko‘rsatuvlardan birining muxbiri savollariga javob qaytarish asnosida o‘sha kunlarni eslar ekan, og‘ir damlarda o‘ziga ruhan madadkor bo‘lgan, oilasidan muttasil xabar olib turgan eng sodiq do‘stlar, shogirdlar haqida gapirib, birinchi navbatda Shavkat Mirziyoyevni tilga oldi. Bu – kimgadir yaxshi ko‘rinish maqsadida aytilgan gap emas. Bu – ayni haqiqat va bunga o‘zim shaxsan guvohman. Holbuki...

Vaziyat juda murakkab edi. Katta-yu kichik rahbarlar birovlardan hol so‘rash nari tursin, o‘z mavqeini saqlash umidida soyasidan hadiksirab, hatto... otasining janozasida qatnashishga qo‘rqib yurgan paytlarda bunday qila olish oson emasdi. Bunga har kimning ham jur‘at-jasorati yetmasdi.

Tarixdan yaxshi bilamiz, yigirmanchi, o‘ttizinchi, elliginchi yillar qatag‘onlari davrlarida tizim qahriga uchragan mahkumlar, ularning oilalari holidan xabar olish, ularga ko‘mak, loaqal dalda berishga jur‘at qilish nainki mansabi, ishi, balki o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yish bilan

barobar edi. «Falonchi xalq dushmanining sherigi yoki dumi ekan» degan tuhmat bilan qamalganlarning soni kammi?

Saksoninchi yillar o'rtasida O'zbekistonda ana shunday tahlikali sharoit vujudga kelgandi. Binobarin har qanday kishi, qanchalik komil va qay darajada solih-u sodiq bo'lmasin, vaziyat bilan hisoblashishga majbur. O'z jonini saqlash instinkti har birimizga xos. Biroq...

Ana shunday sharoitda yosh, endigina o'sib kelayotgan navqiron rahbar yigit o'z istiqboli, siyosiy karyerasini o'ylab o'tirmadi. U ajdodlaridan meros va qon-qoniga singib ketgan muqaddas qadriyat – mehr-oqibat da'vatiga quloq soldi. Odamgarchilik deb atalmish oddiy, ayni paytda eng buyuk, eng mo'tabar xislatni yorqin namoyish qildi. Zotan, odamgarchilik – biz boyadan beri tahlil etishga harakat qilayotgan fazilatlarning oliy namunasi, shoirlar ta'biri bilan ifodalaganda gultojidir. Zamonamizning ulkan ijodkorlaridan biri Muhammad Yusuf:

*«O'tar inson yaxshi yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur...»*

deb yozganida ming karra haq edi, deb o'ylayman.

Yaratganga shukrlarkim, o'zbeklar, O'zbekiston va uning ko'p millatli xalqi boshiga tushgan kulfatlar arib, elimiz ozod, yurtimiz mustaqil bo'ldi. Nohaq tuhmatga uchraganlar oqlanib, yuzlari yorug' bo'ldi. Shular jumlasida hurmatli Oqil Umrzoqovich Salimov bor edi. U kishi institut rektorligiga tiklanganlaridan keyin ham ancha yillar birga ishlashdik. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev institut siyosiy yetakchisi, rektor muovini sifatida uning yonida turdi. Tashkilotchilik iqtidorini yanada yorqin namoyish etdi. Shuning samarasi o'laroq o'z istiqlolini qo'lga kiritishga intilayotgan jafokash O'zbekistondagi ham shaklan, ham mazmunan yangicha siyosat maydoniga dadil kirib keldi. Bu jara-

yonning qanchalik murakkab kechgani haqida kelgusi bobda mufassal hikoya qilaman.

Darvoqe, Oqil Umrzoqovich Salimov qadr don dargohimizni 1986 – 1992-yillar davomida boshqardilar. Institut O‘zbekiston mustaqilligidan so‘ng mamlakatimizdagi yetakchi oliy ta‘lim dargohlaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga minglab yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlab berishga kirishdi. Bugunga kelib uning yuksak ilmiy-pedagogik salohiyatga ega bo‘lgan ahil jamoasi ana shu faxrli hamda mas‘uliyatli vazifani sharaf bilan uddalamoqda. Bu borada uning bag‘rida kamol topgan suyuqli farzandi, respublikamizning amaldagi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi hukumat rahbariyati ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rlik va yordam alohida muhim ahamiyat kasb etayotganini ta‘kidlab o‘tish o‘rinli, deb o‘ylayman.

Albatta bugungi yorug‘ kunlarga yetish oson bo‘lgani yo‘q. Bu yo‘lda qancha kurashlar olib borildi, tinimsiz mehnat qilindi, mashaqqat-u zahmatlar chekildi. Muhimi, ular bejiz ketmadi.

To'rtinchi bob

QUTLUG' QADAMLAR

Mustaqillik arafasidagi sergʻuluv yillarning har bir oyi, kuni haqida soatlab gapirish mumkin.

1990-yil boshida O'zbekiston tarixida birinchi demokratik saylovlar o'tkazilajagi, unda avvalgi paytlardagi singari yakka-yu yagona hukmron partiya, aniqrog'i, hukumat emas, ikkita firqa, undan tashqari aholi orasidan chiqqan tashabbuskor guruhlar ham nomzod ko'rsatish huquqiga ega bo'lajagi haqida gap-so'zlar paydo bo'ldi. Aholining saksoninchi yillar o'rtalaridan boshlab mustahkam shakllanib borgan siyosiy faolligi o'zining avj nuqtalariga chiqdi. Respublikamizning butun hududi, markaziy shaharlaridan tortib eng chekkadagi uzoq qishloqlarigacha siyosiy faollashuv jarayonidan chetda qolmadi.

Ushbu saylovlarga respublika miqyosidagi tayyorgarlik, uning o'tkazilish jarayoni haqida ko'plab hujjatli, xronologik risolalar, ularda bevosita ishtirok etgan tarixchi olimlar, siyosatshunoslar-u jurnalistlarning xotiranomalari, esdalik asarlari yozilgan. Binobarin, umumiy gaplarni bir chetga surib, o'zim ishlagan institut doirasidagi voqealar haqida imkon qadar mufassal to'xtalishga harakat qilsam to'g'ri bo'lar.

Barcha joylardagi kabi institutimizda ham respublika Oliy Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish harakati jadal boshlandi. Olim-u mu-rabbiylarimiz, ko'p ming sonli talabalarimiz ilk bora yangicha usulda o'tkazilayotgan umumxalq saylovlarida faol qatnashish, parlamentga

o‘zimizning jamoa vakili bo‘lgan eng munosib nomzodni ko‘rsatish ishtiyoqi bilan yonardilar.

Xo‘sh, bu nomzod kim bo‘lishi kerak?

Ana shu savolga ahil jamoaning oqsoqol kayvonilaridan boshlab, yovqur va shiddatli yoshdagi talaba yigit-qizlarigacha yakdillik va komil ishonch bilan javob berdilar: Shavkat Mirziyoyev!

Ha, ko‘p ming sonli institut jamoasining jo‘rovoz fikri ana shunday bo‘ldi va bu mutlaqo tasodifiy emasdi. Ko‘pni ko‘rgan ahil olimlar jamoasi mamlakat parlamenti a‘ziligiga aynan uni munosib, deb hisoblar, uning o‘zi esa bunday ishonchga ko‘p yillik fidokorona mehnati, bilimi, aql-zakovati tufayli sazovor bo‘lgan edi. Tevarak-atrofidagi Mirzo Ulug‘bek tumaniga qarashli boshqa ziyolilar maskanlari, zavod-u fabrikalar, xullas, keng jamoatchilik vakillari ham bu taklifni bajonidil ma‘qulladilar hamda bu xayrli tashabbusga astoydil bosh qo‘shdilar.

Ilk bora muqobillik asosida o‘tkazilayotgan saylovlarda g‘olib chiqish esa hazilakam ish emasdi. Raqiblar ham chakana kishilarmasdi axir. Ulardan biri, adashmasam, respublikaning o‘sha paytdagi, ifodali aytganda, «og‘ir vaznli» rahbarlaridan, ya‘ni eng yuqori boshqaruv tizimi – Markazqo‘m byurosi a‘zosi, Turkiston harbiy okrugi rahbari, bevosita Moskvaga bo‘ysunuvchi generallardan biri edi. Binobarin, unga «administrativ resurs» yordami va qo‘llab-quvvatlashi keragidan ortiq darajada kafolatlangan, g‘alabasiga deyarli hech kim shubhalanmasdi.

Shavkat Mirziyoyev tarafdorlarining asosiy qismini esa yuqorida aytganimdek, Mirzo Ulug‘bek tumani ahlining ziyoli qatlami, ayniqsa milliy uyg‘onish shavqi-sururi bilan yonayotgan yoshlar tashkil etardi. Ular vujudga kelgan imkoniyatdan unumli foydalanish uchun kun-u tun tinim bilmadilar, targ‘ibot va tushuntirish ishlari oqilona va xolisona olib borildi.

Natija shunga yarasha bo‘ldi. Yosh nomzod katta ustunlik bilan g‘olib chiqdi. Endi o‘ylasam, o‘sha ilk g‘alabani o‘zida ilohiy bir ramz

bor ekan. Ta'bir joiz bo'lsa, unda ona yurtimizning yorug' kelajagi, bugungi dorilomon, kun sayin obod-u farovon bo'lib borayotgan kunlarimizning muqaddimasi aks etgan ekan.

Nomzodimizning g'alabasini faqat va faqat institut ahlining shijoati ta'minladi, demoqchi emasman. Avvalo, Parvardigor inoyati edi bu shubhasiz. O'zbekiston deb atalmish ulug' mamlakat hayotida tub burilish yasalgan o'sha kezlarda ana shu suronli davrning, olamshumul evrilishlarning bevosita ishtirokchisi, kamarbasta faoli bo'lish har kimga ham nasib etaveradigan tole emas. Buning uchun Alloh nazariga tushgan bo'lishi kerak, kishi.

Bundan tashqari bizning nomzodimiz faqat institutning o'zida emas, u joylashgan Mirzo Ulug'bek tumani, muazzam poytaxtimiz bo'lmish Toshkent shahri, qolaversa, butun respublikaga tanilib ulgurgan yirik shaxs darajasiga yetib ulgurgandi bu paytlar. Yuqorida men institutimizning respublika qishloq xo'jaligi hayotidagi o'rni va roli, unda tahsil olayotgan yigit-qizlarning talabalikning ilk pallalaridanoq dala, dehqonchilik, xullas, amaliyot bilan uyg'un tarzda ulg'ayishi, o'qishni bitirib chiqib, ayni paytlarda o'lkaning barcha burchaklaridagi katta-yu kichik xo'jaliklar, tashkilot-u idoralarda mutaxassis-u rahbarlarning haqli ravishda egallagan nufuzi haqida to'xtalib o'tgandim. Shuning uchun takrorlab o'tirmoqchi emasman. Nafsilamrini aytganda, asosan, agrar faoliyat bilan shug'ullanuvchi respublika aholisining ushbu institut, unda ishlovchi barcha professor-o'qituvchilar, olim-u murabbiylar, rahbar-u tashkilotchilarga hurmati baland, munosabati samimiy edi.

Bundan tashqari nomzodimiz ilmiy-pedagogik ishni samarali ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan qo'shib olib borgani, ya'ni avval institut yoshlari sardori, keyin siyosiy yetakchi sifatida mamlakat miqyosidagi tadbirlarda mazmun-mohiyati diqqatga sazovor chiqishlari, e'tiborga molik taklif-mulohazalari bilan tanilgan, jamoatchilikning ham nazariga

tushgan, xullas, respublika siyosiy hayotida o‘zining muayyan munosib o‘rniga ega edi.

Shu bilan birgalikda, saylovlar arafasida o‘tkazilgan targ‘ibot-tashviqot kampaniyasida uning yonida turib, jonbozlik ko‘rsatgan safdosh do‘stlari, hamkasblari, mahalladosh, tumandosh birodarlar xizmatini ham aslo unutish mumkin emas.

Muhimi, nomzodimizning saylovoldi uchrashuvlarida o‘zi ko‘zlayotgan maqsadini, zimmasiga yuklanajak mas‘uliyatni teran his etgan holda, ortiqcha balandparvoz gaplar-u quruq va‘dalarga berilmasdan komil ishonch bilan fikr yuritishi, har qanday savolga lo‘nda, tushunarli va ishonarli javob qaytarishi bilan saylovchilarning mehrini qozona olayotgan edi.

Ochig‘i, o‘sha kunlarni takror ko‘z oldimga keltirar ekanman, zavqlanib, jo‘shib ketaman. Salkam bir yarim asrlik istibdod iskanjasida yashagan xalq uning so‘zi, xohish-irodasi chin ma’noda ahamiyat kasb etayotganini anglab yetgan va bu tarixiy imkoniyatdan unumli va oqilona foydalanishga astoydil harakat qilib, o‘zining haqiqiy jonkuyarlarini, munosib vakillarini saylashga shijoat bilan bel bog‘lagan edi. Buning natijasida...

Oliy Kengash tarkibi uzoq yillar davom etgan siyosiy turg‘unlik davrlaridagi singari to‘lasincha kommunistik partiya belgilagan bosh yo‘nalishga og‘ishmay amal qiluvchi tartib-intizomli, yuvosh va some deputatlardan iborat emas, ancha-munchasi o‘zining mustaqil va ko‘pchiliknikidan farqlanuvchi fikriga ega deputatlardan iborat edi.

Bu esa amaldagi rahbariyatdan yangicha sharoitda yangicha ishlashni, ya‘ni faqat o‘z irodasini o‘tkazishga urinmasdan turfa fikrlarni tinglash, farqli qarashlarni hazm etishni, zarur paytda yon berishni, xullas, yetarlicha qayishqoq bo‘lishni talab etar, qisqa qilib aytganda, yoqadimi-yoqmaydimi, demokratiya qoidalariga amal qilishni kun tartibiga qo‘ygandi.

Kompartiyaning byurokratik buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv uslubi sharoitida bunga darhol erishishing iloji yo'q edi, albatta. Shuning uchun ham mohiyatan yangicha bo'lgan, ilk bora yakkapartiyaviylik usulidan voz kechgan holda shakllangan parlament ish maromiga yangicha mazmun bag'ishlash bilan birgalikda mo'tadillikni saqlash oson emasdi. Bahs-munozaralar harorati goho o'ta yuqori darajaga chiqardi.

Shavkat Mirziyoyev Oliy Kengash deputati sifatida faoliyat ko'rsatgan pallalarda, nazarimda, undagi yana bir o'ziga xos xususiyat yuzaga chiqdi. Bu uzoq yillar davom etgan siyosiy turg'unlikdan so'ng banogoh paydo bo'lgan turfa fikrlik, so'z erkinligi sharoitida o'zini munosib darajada tuta olish, ya'ni boshqalar iddaosini toqat bilan tinglash, yengiltak ritorikadan uzoqda turish, eng muhim gaplarni eng muhim va zarur pallalarda o'rta tashlay olish, oddiy qilib aytganda, mas'uliyatli paytlarda og'ir-vazminlik ko'rsata olish xislati edi. Buni turlicha qarashlardagi deputatlar ham, Oliy Kengash rayosati ham, qolaversa, mamlakatning o'sha davrdagi rahbariyati ham ko'rib-bilib turar edi. Shu boisdan ham unga Oliy Kengashning muhim boshqaruv tizimlaridan biri bo'lmish mandat komissiyasiga rahbarlik qilish ishonib topshirildi. Ushbu komissiya raisligini amalga oshirish asnosida u eng murakkab vaziyatlarda ham yagona to'g'ri va maqbul yo'lni topishga harakat qildi va shunga erishdi. Eng murakkab, bahs-munozarali va ziddiyatli lahzalarda o'zini munosib darajada tutdi. Pragmatik uslubda, og'ir-bosiqlik, ishchanlik bilan faoliyat ko'rsatdi. Bu xususiyat inobatga olinib, tez orada u Toshkent shahri-ning yirik va markaziy hududlaridan biri bo'lgan Mirzo Ulug'bek tumaniga hokimlikka tavsiya etildi. Qadrdon tuman ahli uni katta xursandchilik bilan qarshi oldi.

Yaxshi eslayman, u o'zi yaxshi bilgan, ya'ni o'qigan maskani, ishxonasi, yashash joyi shu yerda bo'lgan tuman rahbarligiga kirishar ekan, mehr-u hurmat va mas'uliyatni his etgan holda, katta ishtiyoq,

g‘ayrat-shijoat bilan ish boshlagandi. Zero, u ushbu tuman miqyosidagi mavjud muammolardan bevosita xabardor edi, ularni bartaraf etish ustida hali institutda ishlash chog‘ida ham ko‘p o‘ylar, majlislarda gapirar, taklif-mulohazalar bildirardi. Mana endi hamonki taqdirning o‘zi unga ana shu g‘oyalarini hayotga tatbiq etish imkonini bergan ekan, demak endi butun bilimi, rahbarlik iqtidori va mahorati, kuch-g‘ayratini sarflab ishlashi zarurligini u chuqur anglar va zimmasidagi lavozimga juda katta mas‘uliyat hissi bilan qarar edi.

Albatta, qaysi bo‘g‘indaligidan qat‘i nazar, har qanday rahbar har qancha zakiy, mohir-u serg‘ayrat bo‘lmasin, zimmasidagi vazifalarni yolg‘iz o‘zi bajarar olmaydi. Xuddi shunday bu murakkab vazifalarni ko‘ngildagidek ado etish uchun faqat buyruq bajaradigan ijrochilarning jismoniy yelib-yugurishlarining o‘zi kifoya qilmaydi. Bilimli, salohiyati kuchli, sog‘lom fikrli va xayrixoh, sodiq va to‘g‘riso‘z safdoshlar kerak bo‘ladi ushbu mashaqqatli yumushlarda.

Yosh hokim bu haqiqatlarni unutmadi. Ularga amal qilish bilan birga yangi davr mazmunidan kelib chiquvchi yangicha uslub va yondashuvlarni izlashga, topishga va o‘z faoliyatiga qunt bilan joriy etishga intildi. Zotan, hokimlik degan boshqaruv institutining o‘zi o‘lkamiz va xalqimizga tarixan tanish bo‘lsa-da, mustaqil O‘zbekiston uchun mohiyatan mutlaqo yangilik edi. Shu boisdan ham bu jabhada ish boshlagan ancha-muncha xodimlar tez orada jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ygani ham sir emas. Hokim degan istiloh zamiridagi tushuncha mazmuni ayrimlar uchun o‘z tasarrufidagi hamma kishilar va hamma narsalar ustidan mutlaq hukmronlikni, xalq iborasi bilan aytganda, «o‘zi xon, ko‘lankasi maydon»likni ifodalagan holatlar ham bor. Bunday rahbarlar uzoq ishlolmadilar. Chunki hokimlik hukm emas, ish yuritish, ish yuritganda ham buyruqbozlik bilan emas, jonbozlik, ya‘ni fidoyilikning, tashabbuskorlikning shaxsiy namunasi ko‘rsatish bilan mehnat qilishdan iborat ekanligini yetarlicha tushunmadilar.

Yana bir muhim jihat: hokim rasman xalq deputatlari mahalliy kengashlari bilan maslahatlashgan holda ish tutishi belgilangan bo'lsa-da, amalda ko'plab muhim masalalarda yakka holda qarorlar qabul qiladi. Bu esa, tabiiyki, undan juda katta bilim, yuksak aql-zakovat, dadillik va qat'iyat sohibi bo'lishi zarurligidan tashqari, mamlakat rahbariyati olib borayotgan siyosatni aniq bilish va unga og'ishmay amal qilishni, ayni paytda qo'l ostidagi xodimlar, ayniqsa, yetuk mutaxassislar fikri bilan mudom qiziqishni, hisoblashishni, dono xalqimiz ta'biri bilan aytganda, «bir kattaning, bir kichikning gapiga kirish»ni talab etadi. Ana shuni unutmagan, kibr-u havoga berilmagan, bag'ri kenglikni unutmagan rahbarning yuzi hamisha yorug'dir. Shavkat Mirziyoyev tuman hokimi bo'lib ishlar ekan, ana shu qoidalarga amal qildi. Katta-yu kichikka birdek samimiy, haqqoniy va adolatli muomalada bo'ldi. Kibrga, gina-kuduratga zarracha ham yo'l qo'ymaslikka intildi.

O'sha paytlar u bilan bevosita yonma-yon ishlashgan kishilarning yozma yoxud tele-video xotiranomalarida qayd etilishicha, yosh hokim bir vaqtlar unga nisbatan adolatsizlik qilgan kishilarni sidqidildan kechirib, ularga ishda o'zini ko'rsatishga imkon bergan, haqiqatda ham ishonchni oqlaganlarini sira ikkilanmasdan yana-da yuqori, mas'uliyatli lavozimlarga ko'tarishga harakat qilgan. Ya'ni kek saqlamagan, ish manfaatini shaxsiy his-tuyg'ulardan baland qo'ygan. Tumandagi har bir fuqaro ko'ngliga yo'l topishga, imkoni doirasida beg'araz ko'maklashishga, ayniqsa beva-bechoralar boshini silab, mushkulini oson qilishga intilgan. Bunga juda ko'plab misollar keltirish mumkin.

Darvoqe, bundan sal oldin, saylovlar arafasida saylovchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarda Shavkat Miromonovich tumanda ishlab yurgan kezlarida qanday to'siqlar, nechog'lik murakkab vaziyatlarga duch kelgani va ulardan qay tarzda chiqib ketishga muyassar bo'lgani haqida qiziqarli lavhalar so'zlab bergani ko'pchilikning esida bo'lsa kerak. Muhimi, u zimdan va hatto, oshkora dushmanlik qilishga uringanlarning

xatti-harakatlariga ham munosib, yaxshilik bilan, o‘zining halol va matonatli mehnati bilan javob qaytardi.

Kamina bu paytda Toshkent Farmatsevtika instituti rektori bo‘lib ishlayotganim, o‘zimga yarasha yumush-u tashvishlar yetarli ekani bois u bilan nisbatan kamroq ko‘rishgan bo‘lsam-da, qizg‘in va samarali faoliyatini sinchiklab, xayrixohlik bilan kuzatib borardim va ezgu ishlaridan ogoh bo‘lib, astoydil sevinardim. U esa harchand ishi ko‘pligiga qaramasdan ustozlar, do‘st-u birodarlar hol-ahvolidan xabardorlikni ham aslo unutmasdi.

Shularning hosilasi o‘laroq, u qisqa fursatda tuman ahlining samimiy mehr-hurmatini qozondi. Ayni paytda o‘zining keng miqyosda va mustaqil fikrlovchi, ko‘lamli idora etish imkoniyatiga ega, tinib-tinchimas va ishlab charchamaydigan yetakchi sifatidagi salohiyatini mamlakat oliy rahbariyati ko‘z o‘ngida yorqin namoyon etdi. Buning natijasida yanada kattaroq va mas‘uliyatliroq ishonchga sazovor bo‘lib, Jizzax viloyatiga hokimlikka tayinlandi.

Bu unga bildirilgan juda katta ishonch edi. Poytaxtdagi harchand katta bo‘lmasin, har qalay tumanni boshqarish bilan viloyatni, aniqrog‘i, hudud jihatidan yevropadagi ayrim davlatlarga teng keladigan, mamlakat ichidagi mo‘jaz bir mamlakatni, Vatan ichra kichik vatanni idora qilish o‘rtasida ancha jiddiy farq bor. Avvalo, mohiyatan yangicha hokimlik tizimida nisbatan qisqa muddat ishlagan kadrni bunaqa vazifaga yuborish uchun uning bu ishni uddalashiga yetarlicha ishonch hosil qilingan bo‘lishi lozim. Qolaversa, bunday ulkan mas‘uliyatni zimmaga olishga har kimning ham yuragi dov bermaydi. Lekin respublika rahbariyati uning tuman hokimligidagi rahbarlik faoliyatini, iqtidor va salohiyatini har taraflama o‘rganib, sinovdan o‘tkazib, natijalarni baholab, ana shunday xulosaga kelgan va uni yangi lavozimda ona-Vatanning muhim bo‘lagi bo‘lmish ota yurtni obod etish yo‘lida komil ishonch va shiddat-shijoat bilan ishlashga ruhlantirgandi.

Har bir inson, jumladan, har qanday rahbar uchun kindik qoni tomgan tabarruk tuproqni gullatish, o'zini ulg'aytirgan el xizmatida bo'lish, koriga yarash imkoni avvalo, katta baxt. Ikkinchi tarafdin buning o'ta og'ir yuki, ya'ni alohida mas'uliyati bor. Zero, odamlar sendan o'zing o'ylaganingdanda ko'proq narsa kutadilar. Shuning uchun avvalgidan ham ko'ra qattiqroq ishlashga to'g'ri keladi.

Umuman olganda ham, yetarlicha iqtidor, muayyan ish tajribasiga ega bo'lsa ham hali qirqqa kirmagan yigit uchun ko'lami jihatidan oldingidan juda keng, hududi katta, xo'jaligi sertarmoq, qolaversa, anchagina qismini cho'ldan o'zlashtirilgan yerlar tashkil etuvchi joyda ilgarigidek darhol yuksak natijalar ko'rsatish va mahalliy aholini rozi qilish, ayniqsa respublika rahbariyatining e'tirofiga sazovor bo'lish oson emasdi. Lekin ne ajab va saodatkim, u shunga erisholdi. Buni...

Do'stlarki turgan gap, hatto... uzoq-yaqindagi muxolif fikrli kishilar ham tan olayotgani ham bor gap.

Kamina donishmand elimizning «Birni ko'rib shukr qil, birni ko'rib fikr qil» degan maqolini juda yaxshi ko'raman va unga amal qilgan holda mamlakatimizda yaqin o'tmishda, shuningdek, bugun amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi turfa qarashlar, xolis-u noxolis baholarnida kuzatib boraman. Bugun buning uchun uzoqqa borishning hojati yo'q. Kompyuter va hatto telefoningiz ekranini yoqib, internet sahifalarini varaqlash, ijtimoiy tarmoqlarni ko'zdan kechirish kifoya. O'zimizning yurtda yoxud xorijda yashovchi ko'plab jurnalistlar, blogerlar, yutuberlar e'lon qilayotgan axborotlar qalashib yotibdi. Albatta ular oqimi ichidan bama'ni, haqqoniy munosabat aks etgan xabar-u daraklarni, tafsil-u tahlillarni topish uchun yetarlicha fahm-farosat, aql-zakovat kerak bo'ladi.

Bir kuni yutub tarmog'i orqali tarqatiladigan videokanallardan birida asli Jizzaxda tug'ilib o'sgan, o'sha yerda matbuot sohasida ishlagan va keyinchalik xorijga ketgan va hozir o'sha yerda yashab, asosan

tanqidiy chiqishlar qilib turadigan bir jurnalist yigit anchayin mashhur saytlardan biriga intervyu berar ekan, suhbatdoshini hayratga solaroq, Shavkat Mirziyoyevning Jizzaxda hokimlik chog‘ida qilgan ijobiy ishlari haqida gapira boshladi. Xususan, viloyatdagi drama teatrini tubdan ta‘mirlashga shaxsan bosh-qosh bo‘lgani, ijodiy truppaga katta amaliy yordam ko‘rsatgani, teatr qayta ochilib faoliyat ko‘rsata boshlagach, o‘zi oilasi bilan uning spektakllarini tomosha qilishga muntazam kelib turgani va boshqa turli bo‘g‘inlardagi rahbarlarni mana shunday «madaniy yurishlar»ga o‘rgatgani, umuman, viloyat hokimining madaniyat va ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, sport, sog‘liqni saqlash tizimlariga doimiy e‘tibor bilan qaragani, ziyolilar bilan tez-tez muloqot qilib turganini aytdi va azbaroyi xolislik talabiga ko‘ra «bularni e‘tirof etishga majburman» deya alohida ta‘kidladi.

Bu chekkadagi kishining fikrlari, albatta. Viloyat ahli orasidan istagan bir sohada ishlovchi kishi bilan suhbatlashsangiz, sizga bundan-da qiziq, ibratli misollarga to‘la hikoyalar so‘zlashi mumkin. Bir jumla bilan aytganda, viloyat ahlining yaxshi ishlab, yaxshi yashab, yaxshi hordiq chiqarishi uchun mukammal shart-sharoit yaratish hokimning birinchi galdagi dolzarb vazifasi bo‘lgan.

Kamina fikrimni iqtisodiyot, ayniqsa qishloq xo‘jaligida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan isbotlash uchun uzundan-uzoq tafsilotlarga berilmoqchi, statistik raqamlar keltirmoqchi emasman. Bittagina dalil bilan cheklanaman: ya‘ni Jizzaxdan keyin u aholisi soni jihatidan respublika viloyatlari orasida birinchi o‘rinda turuvchi, iqtisodiyoti naqadar zalvorli Samarqand viloyatiga hokim qilib yuborilishi uning faoliyatiga berilgan aniq va munosib baho, deb o‘ylayman.

Balkim kimlargadir erish tuyular, ammo shunday bir muqoyasa qilishga jazm etaman: o‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminni obod, elini shod eta olgan shiddatkor va serg‘ayrat rahbar oliy rahbariyat xohish-irodasiga ko‘ra, endi Prezident tavallud topib ulg‘aygan kishvarul ma‘voni

iqtisodiy ravnaq toptirish, ma'naviy, madaniy va ma'rifiy jihatdan gullatishu yashnatish uchun safarbar etishga loyiq ko'riladi. Shu qisqa izohning o'zi ko'p narsani oydinlashtiradi, ko'plab savollarga javob beradi, menimcha.

Xalq deputatlari viloyat kengashining o'sha, adashmasam, ikki minginchi yillar boshida bo'lgan va yangi hokimni tasdiqlashga bag'ishlangan sessiyasida davlat rahbari uning oldida turgan o'ta dolzarb vazifalar haqida gapirar ekan, majlis qatnashchilari, qolaversa, ushbu anjumanni televizor orqali kuzatayotgan butun mamlakat ko'z o'ngida undan:

– Sog'ligingiz yaxshimi? – deb so'ragan va yangi hokim: – Yaxshi, – deya qisqa, aniq va ishonchli javob qaytargan edi. Ko'pchilik qatori biz, unga yoshlik yillaridan buyon qadrdon bo'lgan ustozlar, yor-u do'stlar undagi ana shu komil ishonch va qat'iyatni sevinch, mehr va qoniqish bilan qarshi olgan va unga yanada mustahkam salomatlik va omadlar tilagandik o'shanda.

Millionlar nigohidagi bu qisqa dialogning zamirida yuklanayotgan mas'uliyatning butun zalvori-yu salobati va ushbu mas'uliyatni zimmasiga olayotgan kishining o'z salohiyati, kuch va imkoniyatlariga bo'lgan ishonch-u qat'iyati yaqqol tajalliy topgandi. Chindan ham...

Samarqand – yer yuzining sayqali, uni yetti iqlim ahli biladi, uni loaqal bir bora ko'rishga, ertakmonand shaharning tengsiz va betakror osori atiqalarini tomosha qilishga intiladi. Shu bois qishin-yozin, qo'yingki, yilning to'rt faslida u har kuni, har soat xorijlik sayyohlar-u yurtimizning barcha burchaklaridan kelgan mehmon-u ziyoratchilar bilan gavjum. Ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning havo, temir yo'l, avtomobil darvozalari har dam-u har lahza tirband, ko'cha va maydonlari, bozor-u do'konlari, muzey va istirohatgohlari, ayniqsa asrlarga guvoh me'moriy yodgorliklaridan odam arimaydi. Ularga yuqori sifatli turistik xizmat ko'rsatish, o'z sayohat-u safarlarini chuqur qoniqish va a'lo kayfiyatda yakunlab, bu yerga yana qaytib kelish fikri

bilan ketishlariga erishish uchun turli-tuman tarmoqlarning bir-biriga uzviy bog‘liq butun bir silsilasi bamisoli soat murvatlari singari to‘xtovsiz va aniq ishlab turishi shart.

Bundan tashqari mamlakatimizga tashrif buyuradigan oliy darajali mehmonlar – davlat boshliqlari, Prezidentlar-u bosh vazirlar, parlamentlar rahbarlari-yu dunyoga taniqli siyosatchi arboblari Samarqandni ko‘rmay qaytmaslikka harakat qiladilar. Ularni xalqaro mezon-u me‘yorlar darajasida kutib olish, izzat-ikrom ko‘rsatish, kuzatib qo‘yish talab etiladi.

Bu bittagina shaharning o‘zida qilinadigan ishlar. Undan tashqari yana ikki milliondan ortiq aholi yashovchi o‘n beshta tuman, o‘nlab shaharchalar, yuzlab-u minglab qishloqlar. Xullas...

Samarqandda ishlashning o‘ziga xos jihatlari va alohida mas’uliyati borligi ta’kidsiz ham ayon.

Ijodkor do‘stlarimdan birining aytishicha, o‘sha paytlar samarqandlik katta-yu kichik rahbarlar orasida g‘alati bir savol yurar ekan: «Hokim qachon uxlaydi, umuman, dam oladimi o‘zi?»

Chunki u sutkaning mutlaqo kutilmagan paytida muayyan rahbarga muayyan dolzarb masala bo‘yicha qo‘ng‘iroq qilib hisob so‘rashi yoxud viloyatning uzoq bir burchagiga aqlga sig‘maydigan darajada tez yetib borishi va ishlarning ahvolini tekshirib qolishi turgan gap edi. Bu bir jihatdan.

Ikkinchidan, u hamisha eng o‘tkir, eng keskin masalalarni oldingi o‘ringa qo‘yar, ularni yechishni hech qachon paysalga solmas, imkon qadar tez va oqilona hal etishga harakat qilar, bu yo‘lda sira ikkilanmas, xavf-xatarlardan cho‘chimasdan dadil, zarur holatlarda jasurlik bilan kirishar edi.

U bilan bevosita birga ishlashgan, «Nuroni» jamg‘armasi Samarqand viloyat kengashi raisi, O‘zbekiston Qahramoni, rahmatli birodarimiz Hasan Norbekovich Normurodovning xotirlashicha, o‘sha

paytlarda viloyatning tog'li tumani Urgutda ikki qishloq aholisi yer-suv talashishi oqibatida o'ta keskin mojaro yuzaga keladi. Janjalga zimdan buzg'unchi va vayronkor kuchlar aralashib, uni qurolli to'qnashuvga aylantirishga urinadilar. Orada qon to'kilishi, odamlar qurbon bo'lishi xavfi tug'iladi.

Bunday paytda ba'zi rahbarlar sarosimaga tushib qoladilar, darhol yuqoridan yordam so'rash, kuch ishlatar tizimlarni jalb etish haqida o'ylaydilar.

Shavkat Mirziyoyev esa odamlar orasiga borishga, ular bilan yuzma-yuz gapirishib, muammoni yaxshilikcha, tinch yo'l bilan hal etishga qaror qiladi va buning uddasidan chiqadi.

Fikrimcha, har qanday mushkul muammoni aql-idrok bilan yaxshilikcha hal qilish istagi uning fe'l-atvoridagi ehtiyotkorlik bilan emas, biz yuqorida bir necha bor takrorlagan ilmiy ta'bir bilan aytganda, filantropiya, oddiyroq izohlansa, insonparvarlik tuyg'usi bilan bog'liq. Chamasi mashoyixlarimizning: «Yetti iqlimning boj-u xiroji bir go'dakning ko'z yoshiga arzimaydi» degan benazir hikmati uning qon-qoniga singib ketgan hayotiy aqidadir.

Albatta, o'ta zarur vaziyatlarda uning yetarli darajada qattiqqo'llik ko'rsatishi, fikrida qoyim turishiga ham ko'p bor guvoh bo'lganman. Qoyil qoldiradigan tarafi shundaki, bu chora aynan eng kerakli, ya'ni shundan boshqa yo'l yo'q (bo'lmagan) vaziyatlarda qo'llangan va bu uning insonparvarlik aqidasiiga zid kelmasligiga erisha olgan. Ana shu muvozanatning hech qachon buzilmasligiga erishgani, bu borada Yaratganning o'zi uni qo'llagani, iroda, sabr-bardosh, qat'iyat ato etgani uchun ham uning siyosiy yo'li oydin bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Samarqand viloyati hokimligidan keyin u respublika Bosh vaziri vazifasiga tayinlandi. Shu faktning o'zi qadimiy va hamisha navqiron Zarafshon vohasidagi faoliyatiga berilgan yuksak baho edi, desak mubolag'a bo'lmas.

O‘zbekiston Oliy Majlisining uni mamlakat miqyosidagi eng oliy lavozimlardan biriga tasdiqlagan sessiyasi tafsilotlari, unda respublikamizning birinchi Prezidenti bildirgan fikrlar bilan internet tarmoqlari orqali mufassal tanishish mumkin. Shuning uchun bu voqeaga alohida to‘xtalib o‘tirmayman. Faqat bir narsani ta’kidlab o‘tishni istardimki, u ketma-ket ikki viloyatda ishlab ulgurgan bo‘lsa-da, poytaxtga nisbatan tez, ya’ni birmuncha qisqa fursatda qaytib keldi. Ammo...

Ushbu nisbatan tez va qisqa muddat zamiridagi nainki har bir yil yoki oy, har bir kun, soat, daqiqa-yu soniyaning o‘z salmog‘i, keng va teran mazmun-mohiyati mavjud va bu oliy rahbariyatga ham, u bilan birga ishlashgan safdoshlariga ham, qolaversa, oddiy mehnatkashlarga ham oynaday ravshan bo‘lib turar va aynan mana shu shaffoflik unga mamlakat miqyosidagi bu darajadagi yuksak va mas’uliyatli vazifani komil ishonch bilan topshirishni taqozo etgandi. Va...

Chin ma’nodagi yetakchi, rahbar faoliyatining baho mezonlari qayerda qancha ishlagani bilan emas, qanday ishlagani bilan belgilanajagi borasidagi azaliy haqiqat u Bosh vazir lavozimiga o‘n uch yil mobaynida ketma-ket uch marta lozim ko‘rilgani bilan yana bir karra o‘z tasdig‘ini topdi.

Buning eng birlamchi, eng oddiy, eng tushunarli bitta sababi bugun Bosh vazir lavozimida ishlayotgan, endilikda o‘zi xohlaydimi-yo‘qmi, katta mansabdor, ulkan davlat arbobi sifatida kundalik «qora mehnat»dan ancha baland turishi lozim, aniqrog‘i, shunga majbur hisoblanadigan Shavkat Mirziyoyev amalda hali hanuz huv o‘sha, men ilk bora tanishib, suhbatlashib, keyin birga ishlashib, bevosita ko‘rib, bilib, ishonch hosil qilgan hayratomuz darajadagi ishchanlik xususiyatini, g‘ayrat-shijoati va tinib-tinchimaslik fazilatini zarracha kamaytirmagani, aniqrog‘i, hamon shahar-u qishloqlar-u dala-dashtlarni poy-u piyoda qadam-baqadam kezishdan erinmasligi, eng mayda muammolarnida ildizigacha o‘rganib, yechish yo‘l-yo‘rig‘ini o‘z

vaqtida aniq belgilashdan ijirg'anmasligiga borib taqalardi nazarimda. U mudom xalq orasida, oddiy odamlarning ro'parasida edi va umum-milliy, umumdavlat ahamiyatiga molik masallar bilan bir qatorda juda oddiy va o'ta muhim muammolarni yechishga vaqt-u imkon topardi. Zero, buni ko'rmaslik, e'tirof etmaslik, tan bermaslikning iloji yo'q edi.

Ayrim kuzatuvchilar orasida o'sha yillarda u ko'proq qishloq xo'jaligi, aniqrog'i, poytaxtdan chetroqdagi muammolar bilan band edi degan fikr yuradi. Bu iddaoda ma'lum darajadagina jon bor, xolos. Ya'ni u qishloq xo'jaligidagi bitmas-tuganmas muammolarni yechish bilan birgalikda, avvalo, Bosh vazirning Konstitutsiya va tegishli qonunlarda, xizmat vakolat-u majburiyatlari haqidagi yo'riqnomalarda belgilangan vazifalarini bekam-u ko'st bajarishi shart edi va buni uning o'rniga hech kim kelib qilib bermasdi. Hamma gap shundaki, u o'z zimmasidagi tog'day vazifalar bilan birgalikda, ularga qo'shimcha ravishda mana shu o'ta og'ir va mas'uliyatli sohaga javobgarlikni ham olgan, buni uddalash uchun esa yigirma to'rt soat tinimsiz ishlash kerakligini bilar va shunday qilardi.

Imonim komilki, aynan shuning uchun ham u mana shu mamlakatingimiz iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutuvchi tarmoq hayotini, undagi muammolarni yanada mukammal bilish imkoniga ega bo'lgan, ularni yanada chuqurroq, ipidan-ignasigacha o'rgangan, og'riqli masalalarni yuragidan o'tkazgan, ularni hal etishning eng maqbul choralarini izlagan va Prezidentlikka kelganidan so'ng buni darhol kun tartibining boshiga qo'yganligida, shu sohada eng to'g'ri, eng oqilona islohotlarni boshlashga dadil kirishganida teran mantiq bor.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o'n to'qqizinchi asr ikkinchi yarmidan boshlab, mahalliy xalq vakillari faqat va faqat qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishga majburlanganligi, aniqroq va qattiqroq qilib aytsak, mamlakat arzon xom ashyo bazasiga, aholisi esa arzon ishchi kuchiga aylantirilgani, ya'ni

paxtaga qul qilingani, bir zamonlar o‘z ilmiy salohiyati bilan dunyoni qoyil qoldirgan, matematika, astronomiya, jo‘g‘rofiya, tibbiyot singari fanlar sohasida yer yuzida yetakchilik qilgan, ayniqsa algoritmi kashf etib, bugungi shiddatkor texnologik taraqqiyotning asosini yaratgan buyuk ajdodlarning avlodlari texnologik jihatdan o‘ta qoloq, asosan, qo‘l mehnatiga tayanuvchi tarmoq mardikorlari qilib qo‘yilgani, navras-ta nihollari bo‘lmish maktab o‘quvchilari o‘qish-o‘rganish o‘rniga yil bo‘yi daladan chiqarilmay majburiy mehnat iskanjasiga solingani hech kimga sir emas.

Shu sohani ancha yaqindan bilganim uchun bu haqda kengroq fikr yurityapman va qanchalik yoqimsiz bo‘lmasin, mulohazalarimni o‘tgan davrlarda yuraklarga o‘rnashgan chuqur nadomat bilan boshlayapman. Yuqorida to‘xtalib o‘tganidek, qishloq xo‘jaligidagi og‘ir qo‘l mehnatini kamaytirish, sohaga mexanizatsiyani keng joriy etish borasidagi sa‘y-harakatlar yetarli emasdi. Moskva O‘zbekistonda yetishtirilayotgan paxta xom ashyosi miqdorini yil sayin oshirib borishni talab etar, ayni paytda bu sohani modernizatsiyalash, texnika bilan yetarlicha qurollantirish, diversifikatsiyalash haqida mutlaqo qayg‘urmasdi. Oqibatda paxtani yetishtirish ming mashaqqat, azob-uqubatga aylangan, hosilni yig‘ishtirib olish ba’zida yil oxiridagi qattiq sovuq tushgan kunlargacha davom etar, binobarin, nainki talabalar-u maktab o‘quvchilari, kerak bo‘lsa, bog‘cha tarbiyalanuvchilarigacha dalaga chiqib, jafokash ota-onalari yonida turib paxta terishiga to‘g‘ri kelardi. Zararli ta’sirga ega kuchli kimyoviy preparatlarni ayovsiz ishlatish oqibatida dalada ishlovchilar o‘rtasida turli yuqumli xastaliklar, ayniqsa gepatit, ya’ni sariq kasalligi avj olgandi. Bu dardlar tarqalishining oldini olish borasida qayg‘urilmas, vaqtida muolaja qilish esa ayanchli ahvolda edi. Ba’zan, hatto og‘ir kasallarni shoshilinch operatsiya va muntazam muolaja qilishi shart bo‘lgan shifokorlarni daladan paxta terib yurgan holatda topardingiz. Shukrki,

endilikda bu ayanchli manzara aksar yoshlarimiz uchun ertak bo'lib tuyuladi. Ammo...

Hatto mustaqillikdan so'nggi qariyb chorak asrdan ziyod davrda ham bu og'ir va sharmandali illatdan qutulish qiyin bo'ldi.

Sirasini aytganda, ushbu sohadagi islohot va o'zgarishlar hozir oson bo'layotgani yo'q. Yuz yillar davomida iqtisodiyotimizning qon-qoniga, suyak-suyagiga singib ketgan bu ayanchli holatni bartaraf etish uchun tub islohotlar o'tkazishga to'g'ri kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining bu yo'ldagi qat'iyati o'zining salmoqli samaralarini namoyon etayotganini butun xalqimiz, qolaversa, dunyo jamoatchiligi yaqqol ko'rib turibdi.

Qishloq xo'jaligining barcha sohalarida klaster tizimining joriy etilishi, birinchi navbatda, undagi asosan qo'l mehnatiga asoslangan jarayonlarni modernizatsiyalashga yo'l ochdi va bu majburiy mehnat, ayniqsa bolalarni dala yumushlariga jalb etishni tamoman to'xtatishga imkon berdi. Qayta ishlash sanoatini qishloqqa yaqinlashtirdi. Bir paytlar paxta xom ashyosi tola shaklida deyarli yuz foiz suv tekin eksport qilingan bo'lsa, keyingi olti yil mobaynida ko'rilgan keskin choralar natijasida deyarli yuz foiz o'zimizda qayta ishlanmoqda. Respublikadagi deyarli har bitta tumanda kamida bittadan ip yigirish, to'qimachilik korxonalarini, aksariyatida tayyor mahsulot, jumladan, eksportbop sifatli va xaridorgir kiyim-kechaklar tikiladigan fabrikalar ishga tushdi. Minglab, o'n-yuz minglab qishloq yoshlari, xotin-qizlar ularga jalb etilib, kasb-hunarli, ro'zg'origa baraka kiritadigan darajada daromadli bo'ldilar.

Eng muhimi, Shavkat Mirziyoyevning qat'iyati va oqilona siyosati samarasi o'laroq, paxta yakkahokimligiga chin ma'noda barham berildi. Bir zamonlardagi singari: «daromadi qay darajadiligining ahamiyati yo'q, muhimi, paxta uzoq muddat saqlash mumkin bo'lgan va hamisha xaridorgir mahsulot» degan tor va kaltabin qarashdan

voz kechildi. Paxtani taxmin-u tavakkalchilik bilan emas, o‘zimizdagi qayta ishlash sanoati ehtiyojlarini qat’iyan hisobga olgan holda yetishtirishga kirishildi. Tabiiyki, buning natijasida yuz ming gektarlab yerlar bo‘shadi va ularda kundalik hayotimiz uchun zarur bo‘lgan, import o‘rnini bosuvchi o‘ta muhim mahsulotlar yetishtirish imkoni tug‘ildi.

Bugungi kunda dasturxonlarimizni yil bo‘yi anvoyi noz-ne‘matlar bilan uzluksiz ta‘minlash real voqelikka aylandi. Minglab gektar maydonlarda barpo etilgan issiqxonalarda eng oddiy limon, qulupnay, pomidor, bodring, bulg‘or qalampiri yoxud baqlajon-u tomosha qovoqdan tortib, faqat tropik mamlakatlarda o‘sovchi, shu choqqacha yuz foiz import qilingan apelsin-u mandarin, banan, ananas, kivi, avokadogacha muvaffaqiyat bilan parvarishlanib, salmoqli hosil olinmoqda. Buni bozorlarimizdagi manzara o‘zgarganidan ham yaqqol sezish mumkin. Bugina emas...

Sabzavot mahsulotlari, meva-cheva eksporti bo‘yicha O‘zbekiston shaxdam qadamlar bilan ilgarilamoqda. Yaqin hamkorimiz bo‘lgan Rossiya va, qolaversa, Yevropaning boshqa ko‘pgina davlatlarida aynan serquyosh O‘zbekiston pomidor-bodringlari-yu o‘rik-giloslari xaridorgirlik borasida birinchi o‘rinda turishi bugun hech kimga sir emas. Zero, saxiy quyosh, toza havo, musaffo va serhosil tuproqli zaminimiz, zilol hamda foydali minerallarga boy suvimizdan bahramand bo‘lib yetishgan bizning anvoyi mahsulotlarning shifobaxsh xossasi jahon ahli uchun isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Ba’zida Rossiya ommaviy axborot vositalarida boshqa mamlakatlardan keltirilgan ayrim mahsulotlarni xaridorlarga manzur qilish uchun atay «O‘zbekistonniki» deya sotishga urinilayotgani haqidagi g‘alati xabarlarini o‘qib qolasan, kishi. Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Chunki mirishkor o‘zbek dehqoni dalasida ungan noz-ne‘mat dovrug‘i bugun butun dunyoni zabt etib ulgurdi.

Chorvachilik, parrandachilik sohasidagi to‘kin-sochinlik endilikda biz har kuni ko‘rib, ko‘zimiz o‘rganib qolgan haqiqat. Ming bora shukr, bozorlarimiz mol va parranda go‘shiti, baliq mahsulotlariga to‘la.

Holbuki, bu ma'murchilik va farovonlik zamirida ham keyingi yillarda qunt bilan olib borilayotgan sobitqadam siyosat yotibdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan tadbirkorlar-u fermerlarga beriladigan madad va imtiyozlarni kengaytirish borasida o'ta muhim hukumat qarorlari qabul qilindi. Ularni hayotga tatbiq etish bilan shug'ullanuvchi yangi tuzilmalar barpo etildi. Bundan tashqari har bir oilaning bolasi go'sht-sut, tuxum yeb, iligi to'q va baquvvat bo'lib o'ssin, buning uchun har bir xonadonda aqalli bitta sigir, bir necha qo'y-echki, kamida besh-o'nta tovuq, iloji bo'lsa, o'rdak-g'oz, bedana boqilsin, odamlarga bu borada moddiy va amaliy yordam ko'rsataylik, bilmasa o'rgataylik, ko'maklashaylik degan oddiy, ayni paytda nihoyatda muhim insoniy tashabbus aholi ko'ngliga xush keldi, undagi yaxshi ishlab yaxshi yashashga bo'lgan ishtiyoqni keskin oshirdi.

Baliqchilik sohasi amalda noldan tiklandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Orol fojiasi, umuman, diyorumizdagi daryolar suvi yillar sayin kamaygani va eng yomoni, e'tiborsizlik va loqaydlik oqibatida xalqimizning «luqmai halol» deya e'zozlanuvchi ushbu bebaho ne'matga bo'lgan ehtiyoji yetarlicha qondirilmay kelindi. Bozor-u do'konlarda uning xillari kamayib ketdi. Borlari ham zahardan qimmat bo'lib, oddiy aholining cho'ntagi ko'tarolmay qoldi.

Mamlakat rahbarining g'oyasi, bevosita tashabbusi bilan bu tarmoqni tubdan rivojlantirishning aniq va real strategiyasi ishlab chiqildi va zudlik bilan hayotga tatbiq etila boshladi. Endilikda yurtimizda azaldan boqib kelingan sazan, sudak, jerix, laqqa-yu do'ng peshona kabi baliqlardan tashqari anchayin kamyob hisoblangan forel, osyotr, keta va hokazo singari qimmat xillari yetishtirilmoqda, ularning shifobaxsh ikralari dasturxonlarimizning doimiy ko'rki bo'lib qolayotir.

Bu fikrlarning isbotini ko'rish uchun markaziy shaharlardagi ulkan supermarketlarni qo'ya turing, eng chekka tuman-u qishloqlardagi mini-marketlarga kirsangiz kifoya.

Qishloq xo‘jaligining tubdan diversifikatsiya qilinayotgani Prezident Shavkat Mirziyoyevning agrar sohani naqadar chuqur o‘rgan-gani, uning kechagi kuni, buguni va istiqbolini mukammal bilishini ochiq-oydin ko‘rsatib turibdi. Albatta, bir yarim asr davomida paxta monokulturasi iskanjasida bo‘lgan va asosan, ekstensiv, ya‘ni ko‘p xarajat qilib kam hosil va daromad olish qismatiga ko‘nikib qolgan qishloq xo‘jaligini tamoman yangi izga ko‘chirish, tobora ko‘proq paxta olish uchun shafqatsiz ravishda ishlatilgan va buning oqibatida holdan toygan, sho‘rlangan yerlarni boshqa, iqtisod uchun foydali, ekologik nuqtai nazardan bezarar, aholi ehtiyojlariga mos ekinlar yetishtirishga, ulardan yuqori hosil olishga erishish, tarmoqni qoloqlik va boqimandalik girdobidan olib chiqish, yetarlicha daromad, arzirli foyda keltiradigan sohaga aylantirish, unga bog‘langan millionlab kishilarni kambag‘allik girdobidan olib chiqish oson ish emas. Ayrim mamlakatlarda bunga ko‘p yillar kerak bo‘lgan.

Shunisi qoniqish bilan e‘tirof etilmoqdaki, dehqonchilik borasida ming yillik an‘analar va boy tajribaga ega bo‘lgan xalqimiz davla-timiz rahbarligining oqilona siyosati va bevosita jonkuyarlik bilan qo‘llab-quvvatlashi natijasida bu muammoni nisbatan qisqa muddatlar-da muvaffaqiyatli hal etmoqda.

Shuning natijasida mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligiga, aho-lini keng ehtiyoj mol-mahsulotlari bilan uzluksiz va yetarli darajada ta‘minlashga erishildi.

Ko‘pni ko‘rgan keksa kishi, olim va mutaxassis sifatida shuni ko-mil ishonch bilan ayta olamanki, bugun O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi intensiv taraqqiyot yo‘liga tushmoqda. Yaqin yillar mobaynida u hozir muvaffaqiyat bilan ishlab chiqarilayotgan noz-ne‘matlarga qo‘shimcha suratda yer yuzidagi turfa iqlim sharoitlariga moslashgan xilma-xil mahsulotlarning deyarli barchasini yetarli miqdorda yetishtirish, katta hajmlarda eksport qilib, yetti iqlim ahlining hayratli e‘tirofiga sazovor

bo'lishiga shubha yo'q. Zero, serquyosh o'lkamiz tabiati va keyingi yillarda yaratilgan shart-sharoitlar, orttirilayotgan boy tajriba, buning uchun bemalol imkon beradi. Eng muhimi...

Paxtakor-u g'allakor dehqon, bog'bon-u sohibkor, polizchi-yu chorvador, parrandaboqar-u baliqchi, xullas, o'z umrini, orzu-umidlarini qishloq xo'jaligi bilan bog'lagan har bir inson, ayniqsa yoshlar uchun keng imkoniyatlardan foydalangan holda erkin mehnat qilish uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilmoqda. Darvoqe, erkinlik haqida alohida to'xtalib o'tish mavridi keldi chog'i...

Kitobxonimni faqat iqtisodiyot masalalari haqidagi uzundan-uzoq mulohazalarim bilan zeriktirib yubormaslik maqsadida mana shu, uzoq-yaqindagi ko'pchilik uchun anchayin jozibali, ayni paytda hamisha ko'pdan-ko'p qizg'in munozaralarga sabab bo'luvchi mavzu yuzasidan baholi qudrat fikr yuritishga urinib ko'rmoqchiman. Sahv ketsam, ma'zur ko'rarsiz.

«Erkinlik – qanchalar totli kalom bu!» degan Lotin Amerikasi san'atkorlari ishlagan kinofilm bo'lar edi o'tgan asrning yetmishinchi yillarida. Qiziqib, suyub tomosha qilganmiz. Lekin...

Mazmun-mohiyatini o'sha davrlardagi tasavvurlarimiz bilan anglaganmiz. «Yer yuzida odam bolasi bizdagichalik erkin nafas oladigan boshqa mamlakat yo'q» mazmunidagi balandparvoz qo'shiqlarni jo'rovoz bo'lib kuylab yurganmiz. Ozodlik, mustaqillik, inson erki deganda, «buyuk sovetlar ittifoqi fuqarosi bo'lish»ni anglaganmiz. Baxt-saodat mazmuni shunda deb o'ylaganmiz.

Chin erkinlik ma'nosini bugungi davr ahli yaxshi biladi. Ushbu umumbashariy bebaho qadriyat, agar ta'bir joiz bo'lsa, inson hayoti-ning jon tomirini tashkil etuvchi tiriklik zarurati endilikda butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazidagi eng asosiy tushunchalardan, mamlakatlar taraqqiyoti sharti va darajasining mezonlaridan biri hisoblanadi.

Beshinchi bob

ERKINLIK QUDRATIGA TAYANIB

Shubhasiz, Shavkat Mirziyoyevning Prezident sifatidagi ilk va dadil qadamlaridan biri – huquqiy erkinliklar va ayniqsa, fikr va so‘z erkinligini amalda keng joriy etilgani, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Bugina emas, eng muhimi, ana shu fikr va so‘zni bemalol aytish huquqini ta‘minlash bilan birgalikda uni tinglash, eshitish vaziyati yuzaga keltirildi va bu boradagi eng asosiy tashabbuskor Prezidentning shaxsan o‘zi bo‘ldi.

Respublika Prezidentining Xalq qabulxonalari tashkil etilishini mana shuning amaldagi ko‘rinishi, jonli isboti sifatida ko‘rsatish mumkin.

Albatta, har bir fuqaroning bu boradagi huquqlari barcha zamonlardagi konstitutsiyalar-u qonunlardan tushmay kelgan. Ammo...

«Rossiyaning baxtsizligi mavjud qonunlarining nomukammalligida emas, ularga amal qilinmasligidadir» deya yozg‘irgan ekan ulug‘ rus adibi va siyosat arbobi Mixail Yevgrafovich Saltikov-Shchedrin. Darhaqiqat, qonunlar hamisha chiroyli, xalq ko‘ngliga taskin beradigan qilib yoziladi. Ularni hayotga tatbiq etish, so‘zsiz bajarish borasida ham maftunkor, quloqqa yoqadigan so‘zlar ko‘p aytiladi. Ammo...

Bizda ham yaqin-yaqingacha fikr, so‘z erkinligi haqida ko‘p va xo‘b gapirib kelingan. Ammo o‘rislar iborasi bilan aytganda, xaloyiq jim, mudom sukunat ichra yashagan. Bu borada qattiq taqiqlar, keskin ta‘qiblar o‘rnatilgan edi, desak to‘lasincha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Lekin...

U zamonlarda katta amaldorlar yoppasiga el orasiga kirib: «Qani, aytinglar, kimning nima gapi bor?» deya shahar-u qishloq kezib, uy-uy kirib yurishini, qaysidir viloyat yoki tuman hokimining sharoiti og'ir bir mahallaga borib, o'sha yerga vagon-uy qo'yib, yashab, muammolarni joyida, boshida turib hal etish bilan shug'ullanishini tushda ham ko'rish mumkinmasdi. Hozir ham kimlargadir bunaqa ishlar arzon populizm bo'lib ko'rinadi. Lekin bitta narsa aniq, shu «populizm» natijasida aqalli bitta xonadonning shikast-rexti tuzatilsa-yu oilaning mushkuli osonlashsa, bittagina mahallaning yo'li asfaltlansa, shunday vosita ham maqsadni oqlaydi. Ya'ni boshda kimlargadir quruq va'da bo'lib ko'ringan narsa amaliy natijaga aylanar ekan, bu endi populizm emas, so'z va ish birligi degan haqqoniy bahoni olishi shart. Aslida...

Va'da va amal, so'z va ish birligiga putur yetishining eng asosiy sabablaridan biri ham aynan xalq dardini bilmaslik, his etmaslik, aniqrog'i, buni uning o'zidan eshitmaslikdir. Modomiki, xalq o'z yog'iga o'zi qovrilib, amaldor byurokratiya esa o'z o'lchamlari ichida yashar ekan, o'rtadagi samimiyat yo'qolib, norozi sukunat va jimlik kuchayib, jarlik tobora kengayib boradi. Albatta...

Bizning dono va sabr-bardoshli xalqimiz inobatga olinmaydigan fikr, eshitilmaydigan so'zni aytish befoydaligini bilgani uchun ham uzoq yillar davomida sukut saqlab keldi. Buning o'rniga tirikchilikni, bola-chaqasini boqishni o'yladi.

«O'zbek xalq maqollari» kitobini varaqlasangiz, donishmand va ijodkor elimizning juda ko'plab ajoyib kashfiyotlariga duch kelasiz.

«Avval o'yla, keyin so'yla», «Yetti o'lchab, bir kes», «Yig'lab borsam, ho'ngrab chiqdi», «Onangni qozi so'ksa, dardingni kimga aytasan», «Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga», «Men nima deyman-u qo'bizim nima deydi», «Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit», «Sabr tagi – sariq oltin», «Gap kelganda otangni ayama», «O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir» va hokazo.

Asrlar davomida shakllanib, sayqallanib kelgan bu hikmatli iboralar ayni hayotning o‘zidan olingan va ularning zamirida es-hushli inson muayyan vaziyatda qanday yo‘l tutishi lozimligi aniq-tiniq qilib belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizning barcha viloyatlari, tumanlarida Prezident Xalq qabulxonalari ochilishi va ularda odamlarning arz-u shikoyatlari bajonidil tinglanib, rostakamiga hal etila boshlashi, mening nazarimda xalqimiz hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlardan biridir. Bu men yuqorida tilga olgan jarlik ustiga shunchaki ko‘prik soldi emas, shu o‘pirilish o‘rnini to‘ldirish, bo‘shliqni yo‘qotish yo‘lidagi eng to‘g‘ri va xalqchil tadbir bo‘ldi. Odamlar hukumat ularning dardi bilan chinakamiga qiziqadigan, so‘zini eshitadigan zamon kelganiga ishonch hosil qila boshladilar. Alamli sukutga barham berib, o‘z ko‘ngillarini ochishga, yuraklaridagi so‘zlarini aytishga jazm etdilar.

Shu ma’noda mening fikrimcha, Prezident Xalq qabulxonalari – mamlakatimizda so‘z erkinligi qaror topa boshlashining eng muhim shartlaridan, tayanch nuqtalaridan biri bo‘ldi. Buning hosilasi o‘laroq, ommaviy axborot vositalari jonlana, dadillasha boshladi. Ayniqsa internet tarmoqlari peshqadamlilikni qo‘lga kiritdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari rost gaplarni aytayotgani, har qancha achchiq bo‘lmasin, haqiqatni ko‘rsatishga intilayotgani, kamchilik va nuqsonlarni ochiq tanqid qilayotgani bor gap. Endilikda bu borada taqiqlangan mavzular deyarli yo‘q.

Jamiyatning ziyoli qismi, ijodkorlar, olimlar, o‘qituvchilar-u shifokorlar, qo‘yingki, jamiyatning barcha qatlam va toifalariga mansub kishilar, turli kasblar egalari o‘z sohalaridagi muammolar haqida oshkora mulohaza yuritish, hattoki Prezident bilan bevosita muloqotlar chog‘ida bu haqda unga shaxsan aytish, shaxsan yordam yoki maslahat so‘rash imkoniga ega bo‘ldilar. «Zangori ekran» orqali

bunday muloqotlarni ko'rgan aholi hayotimizdagi o'zgarishlar muqarrar ekaniga amin bo'lmoqda.

Ushbu bobga qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shu narsa oynaday ravshan bo'lib turibdiki, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Prezidentligi davrida O'zbekistonga tamoman yangicha fasl – iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy, ilmiy-ma'rifiy iqlim kirib keldi. El-u xalqimiz ana shu eruvgarchilik iqlimining iliq va tiniq epkinlaridan erkin nafas ola boshladi. Tom ma'nodagi erkin fikrlash, erkin so'zlash muhiti yuzaga keldi. Odamlar uyda bir gap-u ko'chada boshqa gapni gapirmasdan dard-u hasratini, muammolarini ochiq-oshkora ayta boshladi. Chunki buni tinglaydiganlar topildi. Xalq bilan nafaqat Prezident qabulxonalari yoki majlis-mashvaratlarda, balkim bevosita mahallasiga, uyiga borib, uchrashib, suhbatlashib, arzini eshitib, muammosini joyida, vaqtida hal etish yo'lga qo'yildi. Mahallabay, xonadonbay ishlash tizimlari vujudga keldi. Bu kimlargadir, qanaqadir mayda ishlar bo'lib ko'rinishi mumkin. Lekin ulug' mutafakkir allomamiz hazrati Alisher Navoiy yozganlar-ki, osmonda quyosh bo'lib porlagandan ko'ra, bir kambag'alning o'chog'idagi qumg'onini qaynatguvchi cho'g' bo'lgan afzaldir. Boshqacha aytganda, eng ulkan va mushkul muammolar yechimi xalqning eng oddiy tashvishlarini yengillashtirish, muammolarini hal qilishdan boshlanadi.

Xuddi shu ma'noda mamlakatimiz aholisi uchun eng dolzarb hisoblanadigan, lekin yillar davomida yashirishga urinib kelingan kambag'allik muammosi haqida ochiqcha aytilib, munozara yuritilib, unga qarshi keskin kurash boshlanganini chin ma'noda inqilobiy hodisa, deyish mumkin. Aynan shu muammodan kelib chiquvchi yana bir vazifa – aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi davlat siyosatining oldingi o'rinlariga qo'yilgani, qisqa muddat ichida bepoyon yurtimiz ulkan qurilish maydoniga aylantirilib, uzoq yillar boshpanasizlik uqubatini boshdan kechirgan minglab, o'n, yuz

minglab oilalar Vatan ichra o‘zining mo‘jaz vataniga ega bo‘lganliklari ayni haqiqat.

Qishloq xo‘jaligi ravnaqi, paxta yakkahokimligining butkul tugatilishi, chigit ekishdan boshlab, g‘o‘za parvarishi, yig‘im-terim, tolani ajratish, kalava yigirish, mato to‘qish va nihoyat uni tayyor mahsulotga aylantirishdek uzluksiz silsila yaxlit shu yerda, o‘zimizda, ishlab chiqarishning yangicha uslubi – klaster tizimi tomonidan bajarilishi, ko‘p zamonlar davomida dehqonning kosasini oqartirmagan paxta tolasini xom ashyo tarzida sotish tajribasiga uzil-kesil barham berilgani bag‘oyat ulug‘ ish bo‘ldi. Bu haqda yuqorida to‘xtalgan edim. Biroq mavridi kelgani uchun yana bir bora eslatib, ta‘kidlab o‘tishni istayman. Zero, shu asosda qishloq aholisining turmush sharoitlarini tubdan yaxshilash vazifasi kun tartibining boshiga qo‘yildi va dadil sa’y-harakatlar tezda o‘z samarasini ko‘rsatdi.

Oltinchi bob

«BIR SO'Z DEGILKI, ROST BO'LSIN...»

Demokrat shoirimiz Muhammad Amin Muqimiyning shunday o'tli satrlari bor:

*«Muqimiy Muhyiga bir so'z degilki, rost bo'lsin,
Kelar albat seni ham yo'qlagudek bir zamon yaxshi...»*

Ushbu baytni keltirishim va, umuman, mazkur bobni yozishdan yagona maqsadim – qo'lingizdagi kitobning mazmun-mohiyati, uning qahramoni faoliyati haqida bildirilayotgan fikrlar xolis va samimiy ekanligini yana bir karra ta'kidlash va shuning barobarida ayrim mulohazalarni bildirib o'tishdan iborat.

Tabiiyki, nafaqat ijodkor jurnalistlar, balki har bir ziyoli, qolaversa, mamlakatning har bir fuqarosi uchun davlatning amaldagi rahbari faoliyati, ayniqsa, uning g'oyalari asosida, bevosita rahbarligi va shaxsan ishtirokida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar haqida so'zlashning g'oyat murakkab jihati bor. Ya'ni xolislik mezon-u me'yorlaridan zarracha chetga chiqish mumkin emas. Aks holda, bu qandaydir tama yashiringan maddohlik, xushomadgo'ylikka o'xshab qolishi mumkin. Buning ustiga, muhtaram Prezidentimizning o'zi quruq maqtovlarga qarshi ekanini, ko'proq mavjud muammolar, kamchilik va nuqsonlar haqida gapirish va yozish zarurligini ko'p bor takrorlamoqda. Qarsakbozlik,

hamd-u sano, madhiyabozlik yaxshilikka olib bormasligini alohida ta’kidlayotir. Deputatlarga, jurnalistlarga, blogerlarga qayta-qayta uqtirmoqdaki, haqiqatni aytishdan, mavjud kamchilik va nuqsonlar haqida tanqidiy chiqishlar qilishdan qo‘rqmaslik kerak. Shu bilan bir qatorda barcha bo‘g‘inlardagi mansabdorlardan tanqidiy chiqishlarga nisbatan toqat bilan munosabatda bo‘lish va ko‘rsatilgan haqqoniy kamchiliklarni tuzatish yuzasidan o‘z vaqtida samarali choralar ko‘rishni qat’iy talab etmoqda. Bu borada ham o‘zi namuna ko‘rsatmoqda. Hukumat, hatto mamlakat oliy rahbariyati faoliyati haqidagi xolis va konstruktiv tanqidiy mulohazalar inobatga olinmoqda. Hech qanday ta’qib va taqiqlarga yo‘l qo‘yilmayotir.

Albatta, tanqid qilish oson. Bunga yetarlicha asoslar bo‘lsa, qonun doirasida konstruktiv fikr-mulohaza yuritilsa, marhamat, so‘z erkinligi mustahkam qaror topayotgan huquqiy demokratik jamiyatda tanqiddan xoli hudud ham, shaxs ham bo‘lishi mumkin emas. Tanqid – kelajak mevasi, degan ibora bejiz paydo bo‘lmagan. Nafsilamrini aytganda, mamlakatimiz Prezidentining bu borada tutayotgan sobitqadam siyosati, matbuot va so‘z erkinligi qat’iyat bilan kengaytirilayotgani shu sohadagi xalqaro tashkilotlar, qolaversa, butun dunyodagi demokratik jamoatchilik tomonidan ham tan olinmoqda, oshkora e’tirof etilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, dono xalqimizning azaliy rusmlari, an’analari va tamoyillariga ko‘ra, buyuk mutafakkir allomalarimizning mumtoz asarlarida yorqin aks etgani kabi voqelikka, shaxs va uning tarixdagi o‘rniga, ayniqsa, ulkan davlat arboblari faoliyatiga beg‘araz nigoh bilan qarash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon demoq, yutuqlar-u kamchiliklarni xolis baholamoq ham farzdir. Shu munosabat bilan hazrati Alisher Navoiyning buyuk shoh va benazir alloma Mirzo Ulug‘bek haqidagi quyidagi masnaviysini keltirib o‘tish joiz ko‘rinadi:

*«Temurxon naslidan sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek».
Uning abnoi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Vale ul ilm sori topdi chun dast,
Ko‘zi oldida bo‘ldi osmon past.
Rasadkim bog‘lamish zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.
Tuzib bu na‘v ilmi osmoni,
Ki andin tuzdi «Ziji Ko‘ragoni».
Qiyomatga deguncha ahli ayyom,
Yozarlar aning ahkomidin ahkom...»*

Ya'ni bu satrlarda Samarqand saltanati hukmdori va ayni paytda jahon astronomiya fani asoschilaridan biri, Sharq ilmi nujumi asoschisi Mirzo Ulug‘bekning hukmdorlik faoliyati: «ki olam ko‘rmadi sulton aningdek», deya oliy darajada baholanadi. Shu bilan birgalikda, haqiqat talabidan kelib chiqqan holda uning inson sifatidagi fojiali qismati ochiq ko‘rsatiladi. «Uning abnoi jinsi bo‘ldi barbod, ki davr ahli biridan aylamas yod» deya achchiq haqiqat aytiladi. Biroq hukmdorlik saltanati nechog‘lik muvaffaqiyatsiz yakunlanganiga qaramasdan, u ilm-u fan, bunyodkorlik, el farovonligi borasida amalga oshirgan olamshumul ishlar minnatdor avlodlar xotirasida mangu qolgani bag‘oyat xolislik bilan ifodalab berilgan. Aynan ezgulik yo‘lidagi, ilm-u fan bobidagi ishlari tufayli ham «ki olam ko‘rmadi sulton aningdek» degan eng oliy baho berilmoqda. Bu shohona baytlardan kelib chiqadigan ma’no, fikrimizcha, har qanday saltanat-u davlat rahbari abadiyatining, tarixi imtihonidan oladigan bahosi yuksak bo‘lishining shart-u kafolati u amalga oshirgan olamshumul bunyodkorliklar-u ezgu ishlardir va bular haqida asrlar osha muqarrar ravishda minnatdorlik, faxr-u g‘urur bilan eslanajak.

Zero, besh yuz yildan keyin ajoyib shoirimiz Muhammad Yusufning mana bu misralari maydonga kelishi ham bu azaliy va abadiy haqiqatning tarix ko‘zgidagi munavvar in’ikosidir:

*«Samarqandga borsam men agar,
Ulug‘bekni ko‘rib qaytaman...»*

Kitobxon bilan g‘oyibona muloqotimni ana shu tarixiy-falsafiy jihatlarni e’tiborga olgan holda davom ettirsam, maqsadga muvofiq bo‘lar, deb o‘ylayman. Ya’ni hamonki, men amaldagi davlat rahbarini yoshlik yillaridanoq yaqindan bilgan, uning porloq istiqboliga ishongan, bu yo‘lda imkon qadar qo‘llab-quvvatlagan ekanman, u kishining bugungi faoliyati haqida ham ustozga xos xolis-u talabchanlik bilan fikr bildirishim shart.

Chunki boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas. Ustozlardagi sog‘lom fikr, mening nazarimda, shogirdlarning mavqe-martabasi darajasiga qarab o‘zgarishi, ya’ni kechagi talabchanlik bugun mahliyolikka, haybarakallachilikka aylanishi fazilat emas, xavfli illat. Unaqa kimsalar ustoz degan sharafli unvonga nomunosib. Hamisha, har qanday sharoitda o‘zining haq so‘ziga ega, vijdoni-yu iymon-e’tiqodiga sodiq ustozgina nafaqat shogirdlari, balki butun jamoatchilik, el-u xalq tomonidan e’zozlanadi. Buyuk bobomiz sohibqiron Amir Temur onhazratning o‘z ustozlari komili va mehribon murabbiysi Mirsaid Baraka janoblariga nisbatan umrboqiy ehtiromi bunga yorqin misoldir. Sababi, ul ustoz dunyoning yarmini zabt etgan, sohibqiron degan oliy rutbaga ega hukmdorlar hukmdoriga ham hamisha to‘g‘ri so‘zni aytganlar.

Shu ma’noda fikr yuritadigan bo‘lsam, mamlakatimizning bugungi rahbari qishloqda, oddiy mehnatkash ziyoli oilasida tug‘ilib o‘sgan, yaxshi tarbiya ko‘rgan, qunt bilan bilim olish, o‘qish-o‘rganish yo‘lini tanlagan, ilm-u fan zamiridan yetishib chiqqan, siyosatga o‘z bilim va

tafakkuri, halol mehnati, adolatli ijtimoiy faolligi orqali kirib kelgan, rahbarlikning quyidan yuqorigacha bo'lgan barcha bo'g'inlarida o'zini har taraflama ko'rsata olgan, zamonlar sinovida chiniqqan barkamol, tajribali davlat arbobidir. Shuning uchun uning faoliyatiga baho bermoqchi bo'lgan har bir inson ana shuni hisobga olgan holda, aqlidrok bilan haqqoniylik va adolat nuqtai nazaridan mushohada qilishi lozim, albatta.

Mamlakatimiz demokratiya tamoyillari ustuvor bo'lgan erkin va farovon jamiyat qurish yo'lidan bormoqda. Leninizm-stalinizm davrlaridagi singari rahbarlarga ko'r-ko'rona sig'inish aholida qullik kayfiyatini, ikkiyuzlamachilik va soxta madhiyabozlikni shakllantirishi, mute va boqimanda qilib qo'yishini, bu esa xalqdagi ijodiy tashabbuskorlik xususiyatini so'ndirishi, azm-u irodasini sindirishi mumkinligini tarix, hattoki yaqin o'tmishimiz yaqqol ko'rsatdi. Bugungi davr kishilari o'z yo'l boshchilariga qo'rqqanlari, unga tobe va mute bo'lganliklari uchun emas, xalqparvarligi bois chin yurakdan mehr qo'yganlari tufayligina hurmat ko'rsatishlari, e'zozlashlari va ulug'lashlari mumkin. Zakovatli va fasohatli xalqlarning o'z zamonlari qahramonlarini, yetuk yo'l boshchilarini o'zi belgilab olishga qurbi yetadi. Shuning uchun yuksak texnologiyalar erasi boshlanayotgan yigirma birinchi asrda «qo'l bola dohiylar» yaratishning zarurati ham, hojati ham yo'q. Ayni paytda, men tobora kengayib borayotgan demokratik islohotlar, matbuot va so'z erkinligini suiiste'mol qilishga, ming mashaqqat-u metin iroda bilan amalga oshirilayotgan ezgu ishlardan ko'r-ko'rona ko'z yumib, faqat qoralovchilik va tanqidbozlikka, ilmiy til bilan aytganda, nigilizmga berilishga ham keskin qarshiman. «Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt», «O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir» deydi dono xalqimiz.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, yaxshilik, el-yurt ravnaqi yo'lidagi olamshumul ishlar o'zining xolis va haqqoniy bahosini olishi, bu haqda keng xalq ommasiga ochiq-oshkora aytilishi shart va zarur, deb o'ylay-

man. Chunki bu e’tirof ana shu yo‘lda kamarbasta bo‘lgan Prezidentni ham katta-yu kichik rahbarlardan tortib, oddiy mehnatkashgacha, yaxlit qilib aytganda, buyuk o‘zgarishlar sari bel bog‘lagan butun xalqimizni ruhlantiradi, yanada ilhom, g‘ayrat-shijoat bilan ishlashga undaydi va o‘z ishtiyoq-u intilishlarining to‘g‘riligiga ishontiradi.

Yuqorida mufassal so‘zlab berilgan misolga yana bir marta qaytadigan bo‘lsam, men Shavkat Miromonovichning yoshlikdagi xislatlari haqida bugun uning hozirgi martabasidan kelib chiqib, qo‘shib-chatib aytayotganim yo‘q. Aynan xuddi shu fikrlar u hali endigina 25 yoshga kirgan, shunga qaramasdan ulkan bir institutning 15 ming nafardan ziyod yoshlari yetakchisi bo‘lib ishlab yurgan chog‘larda – oliy daroghimizning yarim asrlik to‘yiga bag‘ishlab 1984-yilda, ya’ni bundan qariyb 50 yil oldin chop etilgan «Mehnat qizil bayroq ordenli Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti» nomli salmoqli kitobda ko‘p sonli mualliflar jamoasi tomonidan xolisona e’tirof etilgan. U paytlarda bu yigit vaqti kelib ulkan davlat arbobiga aylanajagini hech kim bilmagan albatta. Lekin bor gap aytilgan. Shunisi aniq haqiqatki, undagi o‘sha paytlardagi aql-zakovat, hayratomuz darajadagi bitmas-tuganmas g‘ayrat-shijoat, betakror insoniy xususiyatlar bu yigitdan kelajakda va yorqin siymoli ulkan Shaxs yetishib chiqishi muqarrar ekanini ko‘rsatib turardi. Bu misolda yana bir sharqona haqiqat – hech bir inson shu darajadagi yuksak martabaga tasodifan kelib qolishi mumkin emasligi, dono xalqimiz iborasi bilan ifodalasak, buning uchun unga avvalboshdan Alloh nazari tushgan bo‘lishi lozimligi ravshan ko‘rinadi. Albatta, bu munavvar taqdir real ro‘yobga chiqishi uchun benazir aql-zakovat, beqiyos mehnatsevarlik, o‘z Vatani va ona xalqiga cheksiz muhabbat va mislsiz fidoyilik talab etiladi. Yana bir bor takrorlayman, xuddi ana shu xislatlarni men endigina yigirma yosh ostonasiga qadam qo‘ygan Shavkat Mirziyoyev siymosida aniq ko‘rgan edim. Uni uchratishim, nomzodiga to‘xtalishim ham albatta,

Yaratganning irodasi edi. Omadni Xudo beradi. Bandasi sababchi bo'ladi, xolos. Demoqchimanki, o'sha intiluvchan, tinib-tinchimas yigitda ham ilmiy salohiyat hamda boshqaruvchilik iqtidori mujassam edi. Mabodo siyosat sahnasiga kirmasdan fan yo'lidan ketgan taqdirida ham muqarrar katta olim, professor, akademik bo'lishi tayin edi. Bu haqda ham o'sha paytlari u bilan ko'p suhbatlashganmiz. Uning bu boradagi maqsadi aniq va yuksak, marrasi juda baland, ya'ni mamlakatimiz qishloq xo'jaligi rivoji, qolaversa, butun xalqimiz istiqboliga aloqador rejalar bilan chambarchas bog'liq edi.

Binobarin, o'shanda uning yoshlar yetakchiligi lavozimini ko'ngildagidek uddalash bilan birga ilmiy ishga bo'lgan qiziqishini ham aslo susaytirmasdan dolzarb mavzuda tadqiqot olib borgani, nomzodlik dissertatsiyasini o'z vaqtida muvaffaqiyatli himoya qilgani, darhol doktorlik dissertatsiyasi ustida ish boshlagani bejiz emasdi. Shu bilan birgalikda undagi bitmas-tuganmas shijoat, keng miqyosli fikrlash xususiyati faqat bir yo'nalish bilan kifoyalanmasdan mudom olg'a intilishga ilhomlantirardi uni. Demak ilmni va jamoat ishlaridagi faoliyatini uyg'un va mushtarak olib borgani, shuning natijasi o'laroq keyinroq institut partiya qo'mitasi kotibi, prorektor, birinchi prorektor, rektor vazifasini bajaruvchi vazifalariga loyiq ko'rilgani, bu lavozimlarda ham bildirilgan ishonchni sharaf bilan uddalab, ulkan jamoada katta obro'-e'tibor qozongani ana shu shijoatning amaldagi ifodasi, hosilasi, deb o'ylayman. Bu esa hayot qonunlariga ko'ra unga katta siyosat maydoni eshiklarini ochdi. Nafsilamrini aytganda, siyosat bilan shug'ullanish, xalq-u millat, mamlakat-u davlat taqdiriga mas'ullik ham uning nomai a'moli, qismati, Alloh tomonidan belgilangan sarbaland toleidir. Bas, shunday ekan, saksoninchi yillar oxiri, to'qsoninchi yillar boshidagi ilk demokratik saylovlarda muvaffaqiyatli qatnashib, birinchi chaqiriq respublika Oliy Kengashi deputatligiga saylangani, parlamentning ilk majlisidayoq undagi mas'uliyatli komissiyalardan

biriga yetakchilikka tanlangani, shu tariqa siyosat maydonida ham o‘z zakovat va fasohati, mustahkam irodasi, qat’iyatini ko‘rsatib, poytaxtdagi yetakchi tuman, ikki viloyat hokimliklarini, mamlakat hukumatini boshqargani va nihoyat oliy martaba – Prezidentlikka munosib ko‘rilgani tasodif emas, deb hisoblayman.

Ilm va ishlab chiqarishni, qolaversa, el-u yurt hayotini ichkaridan, eng quyi qatlamlardan boshlab chuqur o‘rgangan, uni o‘zgartirish, rivojlantirishning eng maqbul yo‘llarini yaqqol tasavvur eta oladigan bunday ziyoli va zahmatkash inson, ulkan shaxsning hokimiyat tepasiga kelishi – xalqimizning baxti, yurtimizning saodati deyishga to‘la haquq asosimiz bor. Ayni paytda davlat rahbarining faoliyati naqadar muvaffaqiyatli kechishi uning o‘zi sevgan va cheksiz sodiq bo‘lgan ona xalqiga qanchalik yaqin bo‘lishi, uni qanchalik keng va chuqur tushunishi, unga qanchalik tayanishiga muqarrar va chambarchas bog‘liqdir. Komil ishonch bilan aytishim mumkin: bu haqiqat muhtaram Prezidentimiz qalbidan chuqur joy olgan. Shuning uchun ham u o‘zi mamlakat ahli oldiga juda yuqori marralarni qo‘ymoqda. Dono va fidoyi xalqimiz bu yuksak marralarni egallashga qodir ekanligiga qat’iy ishonmoqda. Uning Prezidentlik rutbasiga kelganidan keyingi ilk shiorlaridan biri ham buyuk kelajakni mard va fidoyi xalq bilan birga quramiz degan ulug‘ niyat, oliy maqsadni ifodalagani tasodif emas. Bu jangovar shior uning qalbida yillar davomida shakllanib, sayqallanib kelgan.

«Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi va ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi» deydi Forobiy.

Bas shunday ekan, davlatimiz rahbarining Yangi O‘zbekiston ahli oldiga bu qadar yuksak marralarni qo‘yayotgani, xususan, jamiyat hayotida Uchinchi Renessans, ya’ni yangi Uyg‘onish davrini boshlashga azm-u shijoat etayotgani bejiz emas.

Uchinchi renessans poydevorini qurish borasidagi ezgu maqsad va bu yo'lda qilinayotgan ulug'vor ishlar haqida o'ylar ekanman, birinchi galda O'zbekiston davlatining ilmiy salohiyatini tubdan qayta qurish, uni buyuk ajdodlarimiz erishgan jahonshumul yuksaklik darajasiga ko'tarish bobida ko'rilyotgan chora-tadbirlar ko'z oldimga keladi.

Bularning eng asosiylaridan biri, shubhasiz, respublika Fanlar Akademiyasi faoliyatining qayta jonlantirilishidir.

Ilm-fanga, ta'lim-tarbiyaga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarгани haqida alohida, soatlab, aniq-ravshan misollar bilan so'zlash mumkin. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining bamisoli qayta tug'ilganini e'tirof etmaslik mumkinmi? Buning natijasida olimlarimiz zo'r ko'tarinkilik, g'ayrat-shijoat, jo'shqin ilhom bilan ishlamoqdalar. O'zbekiston endilikda ilmiy salohiyati jihatidan jahondagi eng peshqadam davlatlar qatoriga chiqmoqda, deya bemalol aytish mumkin. Bir zamonlar bizning yurt farzandlariga dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim dargohlari – Kembrij, Oksford, Sorbonna universitetlarida o'qish ushalmas orzu hisoblangan bo'lsa, endilikda bu oddiy voqelikka aylandi. O'zbek yigit-qizlari shu yerda, o'z uyida turib bunday ilmgohlarning murakkab imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirmoqda. Bir yo'la bir necha dorilfunun va institutlar talabasiga aylanmoqda. Bundan tashqari mamlakatimiz poytaxtida, qolaversa, boshqa yetakchi shaharlarimizda jahondagi eng yirik ilm-fan maskanlarining filiallari ishlab turibdi. O'zimizning oliy ta'lim dargohlarimizning bugungi darajasi ham jahon bilan bemalol bellasha oladi.

Axir boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Biz kimlarning avlodlarimiz? Sharq ma'naviy taraqqiyotining «Oltin asri»ni yaratgan Beruniy, Imom Buxoriy, Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'beklarni ulg'aytirgan bu aziz el va tabarruk yurt yer yuzida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi lozim. Shu o'rinda takror bo'lsa ham yana bir karra ta'kidlamoqchiman: Mamlakatimiz

Prezidentning Uchinchi renessans tamal toshini qo‘yishga jazm-u jur‘at etayotgani bejiz emas. Bunga hamma asoslar bor. Xalqimiz ham tarixan, ham bugungi kunlar shiddatiga tayangan holda bunga to‘la haqli va munosibdir.

Keyingi yillarda xalq xo‘jaligining boshqa ko‘plab sohalarida, madaniyat-u ma‘naviyatda, adabiyot va san‘atda, sportda sezilarli yutuqlarga erishildi. Yaqindagina o‘z yakuniga yetgan Tokio olimpiadasi O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda chin ma‘noda ilg‘or va peshqadam ekanligini butun dunyoga yaqqol namoyish qildi.

Xullas, hayotimizning barcha jabhalarida jonlanish, o‘shis-o‘zgarish yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Buni e‘tirof etmaslik, tan olmaslik haqiqatdan ko‘z yumish bo‘ladi. Tashqi siyosat haqida gapirib o‘tirmayman. Yangi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzi bugun qanchalik ortib borayotganini xalqimiz ham, jahon afkor ommasi ham yaqqol ko‘rib turibdi.

Bularning hammasi respublika boshqaruvi ishonchli qo‘llarda ekanini, xalqimiz o‘z yo‘lboshchisiga naqadar mehr-u sadoqat, izzat-hurmat bilan qarayotganini, uni chin yurakdan qo‘llab-quvvatlayotganining isbotidir. Albatta bular haqida ko‘p va xo‘p gapirish mumkin. Lekin shu yerda Prezidentga xos yana bir betakror va muhim xususiyatni yana bir karra eslatishni va alohida ta‘kidlashni istardim. Bu – uning kamtarligi, erishilayotgan natijalar bilan aslo qoniqmasligi, muvaffaqiyatlarga mahliyo bo‘lmasligi, mavjud ahvolni haqqoniy, ishlarni muntazam tanqidiy baholashga, o‘zi va komandasi oldiga mudom biri-biridan murakkab vazifalar qo‘yishga, marrani baland olishga harakat qilishi, o‘zi ham tinib-tinchimasligi va boshqalarni ham bir daqiqa tinchitmasligidir. Bunday xislat oliy rahbarlardan kamdan-kamiga nasib etadi.

Xuddi shu o‘rinda O‘zbekiston ahlini, ayniqsa, qishloqlar aholisi xalqini uzoq yillar qiynab kelgan o‘ta o‘tkir bir muammoning naqadar

hozirjavoblik va tezkorlik bilan oqilona hal etilayotganiga to'xtalib o'tgim keldi. Gap elektr ta'minotidagi tanqislik va uzilishlar haqida.

Shavkat Mirziyoyevning azm-u irodasi bilan bu muammo nisbatan qisqa muddatda muvaffaqiyatli hal qilinmoqda. Shunisi quvonarliki, eskicha uslubda, ya'ni ekstensiv asosda emas. Tamoman yangicha, fan-texnika yutuqlariga tayangan va ulardan unumli foydalangan, xorijiy sheriklar investitsiyalarini faol jalb etgan holda. Navoiy va Samarqand viloyatlarida super zamonaviy quyosh elektr stansiyalari barpo etilgani, Qashqadaryo va yana bir necha viloyatlarda bu xayrli yumush davom ettirilishi aniq vazifa qilib qo'yilgani, undan tashqari qulay hududlarda shamol elektr stansiyalari bunyod qilish ustida ish olib borilayotgani shuningdek, katta-kichik daryolarimizning barchasida son-sanoqsiz mo'jaz gidroelektr stansiyalari qad rostlayotgani bu fikrning tasdig'i bo'la oladi. Bu hali hammasi emas. Respublikamiz hududida super zamonaviy, texnologik jihatdan mukammal va atrof-muhit uchun xavfsiz qudratli atom elektr stansiyasi barpo etish borasida izlanishlar olib borilmoqda.

Bu ishlarning barchasi el-u xalqimiz bilan bamaslahat, uning istak-orzulari, fikr-mulohazalari inobatga olingan holda, yetti o'lchab-bir kesib amalga oshirilayotgani ham adolatli haqiqatdir. Prezident Mirziyoyev umummilliy, umumdavlat ahamiyatiga ega yangicha ulug'vor vazifalar haqida gapirar ekan, hamisha ularning ijrosi aholimiz fikri inobatga olinishini aytib, shunga qat'iy amal qilib kelmoqda. Ana shunday o'ta muhim masalalarga oid farmon-qarorlar loyihalari umum-xalq muhokamasiga chiqarilmoqda, bildirilgan fikr-mulohazalar esa albatta hisobga olinmoqda.

Goh-goh o'ylab qolaman. Bunday tinib-tinchimaslik, yillab dam olmasdan ishlash, ulkan mamlakatning u burchidan bu burchiga qadar qadam-baqadam kezish, erishilgan natijalar bilan qoniqib xotirjamlikka berilib qolmaslik sabablari nimada? Bunday shijoatning manbasi, ildizlari qayerda?

Javobim shundayki, buning eng birinchi sababi, mamlakatning bugungi rahbari mamlakatdagi uzoq yillar davomida yuzaga kelgan ayanchli holatni ich-ichidan chuqur bilgani, yillar davomida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning og‘riq azoblarini yurak-yuragidan o‘tkazgani, ana shu nuqsonlar uchun o‘zini ham mas’ul, deb bilgani va eng muhimi, bu haqdagi haqiqatni xalqning ko‘ziga tik qarab mardonavorlik bilan oshkora gapira olgani, ana shu ahvolni tuzatishga fidokorona bel bog‘lab, ommani o‘z jahd-u shiddatiga inontira olgani, ishontira olgani ortidan ergashtira olganidir. Binobarin, u shiddatli vaqtning har bir kuni, soatidan oqilona, unumli foydalanishni, yillar davomida boy berilgan imkoniyatlarni mumkin qadar tezroq yuzaga chiqarishni, ko‘zlangan marralarga tezroq yetib borishni istaydi. Meni sevintiradigan o‘ta muhim bir jihat bor: xalqimiz o‘z Prezidentiga faqat saroyda o‘tirib farmoni oliy imzolaydigan hukmdor yoki huv balandda – qandaydir qo‘l yetmas joydagi oliymaqom amaldor deb emas, istagan paytda har qanday xonadonga kirib kelishi, poygakka tuflisini yechib, oddiy bir dehqon yoxud ishchi, quruvchi yoki o‘qituvchi oilasi bilan bir dasturxon atrofiga, bir piyola choy ustida yurakdan muloqot qilib, turmushning turfa tashvishlarini yengishda beminnat amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yaqin odami, jigarbandidek qaramoqda. Unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri dadil murojaat etmoqda. Chunki shu murojaat izsiz ketmasligiga, e‘tiborsiz qolmasligiga ishonchi komil bo‘lmoqda. Bunday tole har qanday davlat boshlig‘iga ham nasib etavermaydi. Buning uchun muhtaram Prezidentimizning o‘z ta‘biri bilan aytganda, odam o‘z xalqini yurakdan sevishi, kecha-yu kunduz uning tashvishi bilan yashashi, unga darmon bo‘lishi, muammolarini yechish yo‘lida o‘zini muttasil qiynashi kerak. Hech ikkilanmasdan, komil ishonch bilan aytamanki, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning xarakterida xuddi shunday xislat-fazilatlar o‘z tajassumini topgan. O‘ylaymanki, bu xarakter, bunday azm-u iroda uning nasli pok, yetti ajdodi halol mehnatdan obro‘

topgan serg'ayrat sulolaga mansubligi, o'zi ham bolalik, o'smirlik va ayniqsa, yoshlikdan zahmatlarda, izlanishlar-u mashaqqatlarda, murakkab sinovlarda chiniqishi natijasidir.

Hamonki, shiddat-shijoat, tinimsiz mehnat, erishilgan natijalar bilan qoniqmasdan mudom olg'a intilish haqida gap ketdi, shu munosabat bilan fikrlarimning xulosasi sifatida bitta istakmi, tilakmi, talabmi, qanday atash sizlarga havola, bildirmoqchiman: mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovichga yovqur yoshlik yillaridan buyon xos, ayni kunlarda ham yorqin namoyon bo'layotgan nodir xislat – bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat, shiddatu shijoat, ilmiyroq qilib aytsam, so'nmas energiya uni hech qachon tark etmasin!

Bunday shijoatkorlik esa mamlakatimizda yashovchi har bir inson, ayniqsa yoshlar uchun Vatan taraqqiyoti, xalq-u millat istiqboli, baxt-u iqboli yo'lidagi fidokorlikning oliy namunasi bo'la oladi.

Yana bir muhim masala haqida to'xtalib o'tish mavridi keldi chamasini. Gap keksa avlod vakillarining jamiyat hayotidagi ishtiroki haqida.

Yaqin-yaqingacha pensiya yoshiga yetgan kishilarning aksariyati faol mehnatdan chetlashar va bundan mamlakat ishlab chiqarishi, madaniy hayoti va ilm-fani katta zarar ko'rar edi. O'zingiz o'ylab ko'ring, bir insonning har jihatdan kamolotga erishuvi, mehnatda, ilm-u ijodda yuksak mahorat egallashi, katta tajriba orttirish uchun bir necha o'n yillar kerak bo'ladi. U ana shunday darajaga yetgan chog'da banogoh keraksiz bo'lib qolishi juda achinarli holdir. Bundan hech kim yutmaydi, aksincha, bebaho ma'naviy boylikdan mahrum bo'linadi, ayniqsa taraqqiyot sari intilayotgan yosh mustaqil mamlakatlar uchun bu o'ta salbiy oqibatlarga olib boradigan hodisa.

Bu haqiqat mutlaqo inkor etib kelindi, deyish to'g'ri bo'lmasdi, albatta. Aksar sohalarda o'ta muhim kasbdagi mutaxassislar mehnatidan foydalanilgan, chunonchi, oliy ta'lim dargohlarida ham yuqori ilmiy salohiyatni saqlash nazarda tutilib, nafaqa yoshiga yetgan ancha-muncha

akademiklar, professorlar ishlashgan. Biroq ular buning evaziga maoshlari yoki nafaqalarining teng yarmidan voz kechishlari, eng haqoratlisi, soliq miqdori haddan ortiq baland bo‘lgani bois ilmiy yoki ijodiy ishlari uchun to‘lanadigan gonorar, ya’ni qalam haqining bahridan o‘tishlariga to‘g‘ri kelar edi. Ana shunday nohaqliklarga barham berilishi, minglab, o‘n minglab yetuk mutaxassislar, olimlar, ijodkorlar jo‘shqin mehnat va ilmiy-ijodiy faoliyat quchog‘iga qaytishi, maosh bilan birgalikda nafaqalari, ilm va ijod mahsulotlari haqini to‘liq olishi ta’minlanishi mamlakatimiz Prezidentining oqilona va adolatli qarorlaridan biri bo‘ldi.

Pir-u badavlat qariyalarimizning faol mehnatga keng jalb etilishi ushbu sohalarida ishlayotgan barcha xodimlar va ayniqsa, ular safiga endigina kirib kelayotgan yoshlar hayotida chinakam burilish yasadi, deb bemalol ayta olaman. Zero, biror bir soha yo‘qki, undagi mukammal ish maromini ustoz va shogirdlarning o‘zaro bamaslahat, baqamti faoliyatsiz tasavvur etish mumkin bo‘lsa. Tajriba va shijoat uyg‘unlashgan joyda esa hamisha yuksak natijalarga erishilishi muqarrar. Bu – hayotning tarixan isbotlangan haqiqati. Dono xalqimizning «qarisi bor uyning parisi bor» degan hikmatli naqli bejiz yuzaga kelmagan.

Respublikamizda ilmga, olimlar faoliyatiga bo‘lgan munosabatning tubdan ijobiy tomonga o‘zgarishi, bu sohaga qaratilayotgan diqqat-e’tibor darajasi va ajratilayotgan mablag‘lar miqdori respublika rahbariyatining mamlakatda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi nechog‘lik jiddiy ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Sirasini aytganda, davlatimiz yetakchisining akademiklar bilan o‘tkazgan uchrashuvlarida qatnashgan barcha olim-u olimalar buni bevosita o‘z sohalari, qolaversa, shaxsiy faoliyatlari misolida his etdilar.

Kamina ana shunday izzat-ikromga sazovor bo‘lgan keksa olimlardan biriman. Bu e’zozning, bunday mehr va hurmatning, bu qadar samimiy g‘amxo‘rlikning ahli ilm uchun qanchalar hayotbaxsh, ilhom-

baxsh ta'sirga ega ekanligini so'z bilan ifodalab berishim qiyin. Fanning turli yo'nalishlarida izlanishlar olib borayotgan, tadqiqot va tajribalar o'tkazayotgan keksa-yu yosh hamkasblarim bilan qilgan suhbatlarim davomida ularning barchasida yangicha ilhom, hozirgi zamon ta'biri bilan aytsak, o'ta kuchli motivatsiya, beqiyos g'ayrat-shijoat muhiti paydo bo'lganligi haqida to'liqinlanib gapirishadi. Albatta...

Ilm-fanning har bir yo'nalishida olib borilayotgan izlanishlar, tadqiqotlar, eksperimentlar qadr-qimmatini ularning amaliyotdagi samarasi bilan o'lchanadi. Bu – aksioma. Zotan, ilm bilan shug'ullanishdan maqsadning o'zi ham insoniyat hayotini salgina bo'lsa-da, yaxshilash, yangilash, yanada samaraliroq, qulayroq qilishga erishishdan iboratdir. Hikoyamning ayrim o'rinlarida men va kitobim qahramonini ilm-u fanning mashaqqatli yo'liga boshlagan maqsad, orzu-niyat xususida, bu haqdagi suhbatlarimiz haqida mavridi bilan qisqacha to'xtalib o'tgandim, agar esingizda qolgan bo'lsa. Inchunin...

Xalqimiz ta'biri bilan aytganda, olim bo'lish – igna bilan quduq qazish. Barcha yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlar ham qisqa fursatlarda ko'zlangan natijani berishi qiyin. Ba'zan buning uchun bir necha o'n yillar talab etilishi mumkin. Bu esa ayrim fanlar mohiyatini teran tushunmaydigan, shoshqaloqlik bilan yuzaki fikrlovchi nodon arboblarda «bunaqa serxarajat va kamsamara ilmiy tadqiqotlarning kimga keragi bor?» degan mutlaqo g'ayri ilmiy va halokatli xulosani keltirib chiqarishi va oqibatda ilm-fanga o'gay ko'z bilan qaralishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Yashirib o'tirishning ne hojati bor, yaqin o'tmishda o'zimizda ham shunday munosabat shakllana boshlagan, qancha-qancha olimlarning ishdan qo'li sovib, tushkunlikka tushgan, ancha-munchasi xorijiy mamlakatlarga ketib qolgan ham edi.

Bil'aks, o'zi ilm-fan quchog'idan chiqqan olim Prezidentimiz o'zining chet el safarlari davomida ana shunday hamyurtlarimizni qidirib topishga, shaxsan suhbatlashib, ularni yurtga qaytish va o'z ilmiy faoli-

yatini jonajon Vatan ravnaqi yo‘lida sarflashga undashga vaqt-u imkon ajratdi. Shuning samarasi o‘laroq, AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropaning qator mutaraqiy mamlakatlarida ishlab yurgan qanchadan-qancha yuksak iqtidorli olimlarimiz yurtga qaytdilar.

Bunday ibratli, savob, el-u yurtimiz sha‘n-u shavkatini oshirishga qaratilgan ezgu ishlar haqida ko‘p va xo‘b, g‘urur bilan gapirish kerak. Chunki bu qalblarimizda faxr-u iftixor uyg‘otishdan tashqari olim sifatida zimmamizdagi mas‘uliyatni kuchaytiradi. G‘ayratimizga g‘ayrat, ilhomimizga ilhom qo‘shadi. Yangi kashfiyotlar, dadil ilmiy izlanishlar, murakkab eksperimentlar, samarali amaliy tajribalarga undaydi. Kamina buni bevosita o‘z ilmiy va amaliy faoliyatimdan kelib chiqib aytayotirman.

Xuddi shu ma‘noda, mavridi kelganidan istifoda etib bevosita o‘zim olib borgan va olib borayotgan ilmiy-amaliy ishlar, nimalar haqida bosh qotirayotganim, qanday muammolar yechimi ustida tadqiqotlar o‘tkazayotganim xususida ham ikki og‘iz to‘xtalsam.

Yuqorida tarjimai holimning Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti laboratoriya mudiri sifatida olib borgan ishlarim haqida qisqacha gapirib o‘tgan edim. Endi o‘sha va undan keyingi ayrim nuqtalarga mufassalroq to‘xtalish, ayrim izohlar berib o‘tishni joiz ko‘raman.

1987 – 1990-yillarda shu institutdagi paxtachilikni kimyolashtirish laboratoriyasi mudiri sifatida bu yo‘nalishdagi muhim ilmiy tadqiqotlarga rahbarlik qildim. Shu bilan birgalikda o‘zim ilm yo‘liga kirgan dastlabki davrlardan boshlagan izlanishlarni davom ettirdim. Umuman, shuncha yil davomida qayerda, qanday vazifada ishlamayin, hayotimning mazmuni bo‘lgan ilmiy tadqiqotlardan zarracha bo‘lsin chekinganim yoki uzoqlashganim yo‘q. Shuning natijasida soxta kamtarlik qilib o‘tirmasdan chuqur qoniqish bilan ta‘kidlashim mumkinki, ancha-muncha quvonarli, maqtanishga arzigulik natijalarga erishdim. Buning eng

yorqin misoli sifatida bolalik chog'laridagi beg'ubor orzumni amalga oshirganim, padari buzrukvorimga bergan va'dam, ya'ni g'o'za bargini to'kish uchun ishlatiladigan va inson salomatligi uchun zararsiz bo'lgan kimyoviy modda kashf etishga erishganimni faxr bilan aytishim mumkin. Bundan tashqari ana shu yo'nalishda yana bir qancha fan va amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borishda to'xtovsiz davom etdim. Shu bilan bir paytda mustaqil mamlakatimiz rahbariyati tanlovi va tavsiyasi bilan respublikada ilm-fan, oliy ta'lim va tarbiya sohalarini boshqarish hamda jadal rivojlantirish yumushlarida baholi qudrat ishtirok etishdan to'xtaganim yo'q.

Chunonchi, 1991-yildan 2000-yilgacha Toshkent Farmatsevtika instituti rektori, shu bilan bir paytda 1992 – 1993-yillarda «O'zfarm sanoat» DAK boshqaruvi raisi, 2007 – 2017-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti direktori maslahatchisi bo'lib ishladim. Bu davr mobaynida kimyo bo'yicha o'z ilmiy maktabimni yaratish yo'lidagi sa'y-harakatlarimni qunt bilan davom ettirdim. Endilikda ushbu dolzarb va o'ta muhim ahamiyatli soha uchun juda zarur yetuk mutaxassislar, ulkan nazariyotchi olimlar hisoblanuvchi ko'plab shogirdlar yetishtirdim va ustozlar boshlagan qutlug' estafeta ishonchli qo'llarda, deya to'la asos bilan ayta olaman.

Tabiiyki, barcha fanlar singari kimyo sohasidagi pirovard maqsadlar inson baxt-saodati, uning farovonligi va salomatligi yo'lida beminnat xizmat qilishdan iboratdir. Binobarin, mening nazarimda chinakam olim faqat ilmiy-nazariy faoliyat bilan chegaralanmasligi, o'z tadqiqotlari samaralarini amaliyotga tatbiq etish yo'lida ham bevosita jon kuydirishi, kerak bo'lsa, yeng shimarib ishlashi maqsadga muvofiq.

Shu ma'noda fikr yuritadigan bo'lsam, ilmiy faoliyat bilan birgalikda tibbiyot sohasi uchun o'ta zarur yangi, zamonaviy, samarali, nojo'ya ta'sirlari kam bo'lgan dori vositalari ishlab chiqarish maqsadida farmatsevtika korxonasi tashkil etdim. 2017-yilda ochilgan «Navkar Sh» MChJ

farmatsevtika korxonamizda bir qator qattiq dori shakllari (kapsula) va mineral tuzlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Tabiiy ingredientlar, chunonchi, yurtimizda o‘sadigan shifobaxsh o‘simliklar va boshqa moddalardan tarkib topgani va ancha arzonligi tufayli ularga talab katta.

Qishloq xo‘jaligi sohasida paxtachilik, g‘allachilikni rivojlantirish, ular hosildorligini oshirish borasidagi ixtirolarimni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan yana bitta ishlab chiqarish korxonasi ochdim. Unda bug‘doy urug‘i va paxta chigiti zararkunandalariga qarshi polifunksional «Bahor» va «Qalqon» preparatlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu kimyoviy himoya dori vositalari ham respublikada amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Chunki dehqon va fermerlarimiz ularning samaradorligini yaqqol his etishmoqda. Bundan tashqari endilikda ana shunday noyob kimyoviy moddalarni katta xarajatlar va, ayniqsa valyuta hisobiga xorijdan keltirishga hojat qolmayotir.

Mamlakatimiz rahbariyatining, xususan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning diqqat-e‘tibori, g‘amxo‘rliqi va sidqidildan qo‘llab-quvvatlashiga tayangan holda maslakdosh do‘stlar, hamkasblar, shogirdlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan yana boshqa qator ishlar haqida gapirishim mumkin. Ammo...

Harchand xolis bo‘lishga harakat qilma, baribir o‘zing, o‘z ishlarining haqida gapirish, ularni baholash, ahamiyatini ko‘rsatish yoqimli mashg‘ulot emas. Har holda men shunday deb o‘ylayman. Bu haqda boshqalar so‘zlagani, berilgan baholar haqida ishonarli dalil va hujjatli isbotlar keltirgani ma‘qul. Shu bois keling, yaxshisi, Vikipediya sahifalarini varaqlab, uning sahifalaridagi quyidagi ma‘lumotnomaga ko‘z yugurtiraylik:

«Iskandarov Sa‘dulla (1939. 5. 2, Xorazm viloyati Bog‘ot qishlog‘i) – kimyogar olim, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi (2000). O‘zbekiston Qishloq xo‘jalik fanlari akademiyasi akademigi (1991), kimyo fanlari doktori (1973), professor (1980). Toshkent Farmatsevtika

institutini tugatgan (1961). O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida ilmiy xodim (1965 – 73), Xorazm pedagogika institutida prorektor (1973 – 77), O'rta Osiyo neftni qayta ishlash ilmiy-tadqiqot instituti direktori (1977 – 78), Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti rektori va kafedra mudiri (1978 – 86; 2001-yildan), laboratoriya mudiri (1976 – 1991), Toshkent Farmatsevtika instituti rektori (1991 – 2001). Ilmiy ishlari o'simliklar alkaloidlarini o'rganish, kimyoviy tuzilishini aniqlash, strukturaviy tahlil usullari va ularni qishloq xo'jaligida qo'llash masalalariga bag'ishlangan. O'simliklardan 24 yangi alkaloid ajratib olgan. Paxtachilikda qo'llaniladigan biologik stimulyatorlar (A-1, Ketostim), «Optim» defoliantini ixtiro qilgan. Shamol eroziyasiga qarshi kurashda inter polimer kompleks qoplama hosil qilish usulini yaratdi. Tibbiyotda keng ko'lamda ishlatiladigan bir qancha noyob dorilar (levomitsitin, vitamin-E, mumiyo va b.)ni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini taklif etdi. Oliy o'quv yurtlari uchun organik kimyo bo'yicha darsliklar yozgan. Jahon dorishunoslar Kongressi a'zosi (1996)».

Bu ma'lumotnomaga qo'shimcha tariqasida hozirgi paytda mamlakatimizda millionlab gektar maydonlarga ekilayotgan chigit va g'alla urug'larini zararkunanda mikroblar, zamburug'lardan tozalovchi va ekinning durkun o'sib chiqishiga ko'maklashuvchi kimyoviy moddamizni ishlab chiqarishni hamda uni respublikamizning barcha burchaklaridagi fermer xo'jaliklariga yetarli miqdorda yetkazib berishni yanada ko'paytirish bilan shug'ullanayotganimizni takroran ta'kidlashni istar edim. Chunki davlatimiz rahbari yuksak minbarlardan turib qayta-qayta uqtirayotgan o'ta dolzarb vazifa – mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hozirgi murakkab sharoitlarda yurtimizdagi barcha tarmoqlar, ayniqsa biz mas'ul bo'lgan kimyo sohasi xodimlaridan bir g'ayratga o'n g'ayrat qo'shib ishlashni talab etadi.

Bas, shunday ekan, keksalikni pisand etmasdan, butun yil davomida viloyatma-viloyat, tumanma-tuman yurishga, rahbarlar, mutaxassislar, dehqon va fermerlar bilan uchrashib, hamkorligimiz samaralarini muhokama qilib, jonajon Vatan ravnaqiga ular qatorida turib hissa qo‘shishga harakat qilayotirman. Bir men va hamkasb-hamkorlarim emas, respublikadagi barcha ish va ilm kishilariga xuddi mana shunday samarali faoliyat ko‘rsatish uchun yetarli shart-sharoit va keng imkoniyatlar yaratilgan. Ularning ko‘pchiligi Yangi O‘zbekistonda yangicha ilhom, kuch-g‘ayrat bilan ishlashayotir, desam ayni haqiqatni e‘tirof etgan bo‘laman.

Mana shunaqa gaplar. Xullas, ish ko‘p, vaqt tig‘iz, Xudo umr, tinchlik va salomatlik bersa, kelgusidagi rejalarimiz ham bir talay.

Ushbu bobdagi mulohazalarning nihoyasida yuqorida turlicha shakl va ko‘rinishda uch-to‘rt bor aytib o‘tilgan fikrni yana bir marta takrorlashni joiz deb bilaman. Bugungi davr, tubdan yangilanayotgan jonajon O‘zbekistonimiz unda istiqomat qilayotgan barcha kishilarni, keksa-yu yoshni mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligidagi mehnatkash, oqil-u dono, kamtarin va kamsuqum xalqimiz tomonidan yuksak orzu-umidlar bilan olib borilayotgan olamshumul o‘zgarishlarni astoydil ma‘qullash va qo‘llab-quvvatlash bilan birgalikda ularga nafaqat esh va yo‘ldosh bo‘lishga, balki yurtboshimizga yelkadosh bo‘lishga, chinakam fido-yilik ko‘rsatishga, uyg‘oq va sergak bo‘lib yashashga, g‘ayrat-shijoat bilan ishlashga undaydi. Ifodali qilib aytsam, yashnayotgan chamanda gullab-yashnab, barq urib, ijod etib, ya‘ni kimdir olamshumul asarlar yaratib, kimdir loaqal bir imorat qurib, kimdir bog‘iga aqalli bir nihol qadab va uni avaylab parvarishlab, mevasidan bahramand o‘laroq, uzoq va mazmunli umr kechirgisi keladi har bir kishining. Demak, bugungi kundagi faollik birgina menga emas, aksariyat xalqimizga xos, desam adolatdan bo‘ladi.

Yettinchi bob

INSONNI QADRLAGANNI TARIX ULUG'LAYDI

Ulkan shoirlarimizdan biri Omon Matchonning hazrati Alisher Navoiy g'azaliga bog'langan muxammasida shunday bayt bor:

*«Kotibu davru raqam avvalgilarga o'xshamas,
Endi inson qadri ham avvalgilarga o'xshamas...»*

Darhaqiqat, Shavkat Mirziyoyev ichki siyosatining o'zagini inson qadrini ulug'lashga bo'lgan samimiy va sidqidil ishtiyoq tashkil etadi. Buni o'tkir zehni kitobxonlarim astoydil tasdiqlashlariga shubha qilmayman. Chunki muhtaram yurtboshimizning Prezidentlik iqtidoriga kelgan birinchi kunlardan oq bu masalani davlat siyosatining eng asosiy bosh yo'nalishiga aylantirgani hech kimga sir emas.

Amaldagi yilimiz respublikamiz Prezidenti tomonidan mamlakatda «Faol mahalla va inson manfaatlarini himoya qilish yili» deb belgilandi. Bu qaror davlatimiz rahbarining o'z Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq ilgari surgan xalqparvarlik, insonsevarlik siyosatining mantiqiy va mudom rivojlanishda bo'lgan sobitqadam davomidir. Uning o'zi ushbu siyosatning o'zak-negizini mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishdek ulug' maqsad yotganligini qayta-qayta ta'kidlab kelmoqda va buning oddiy shior emas, hayoti mazmuni ekanligini amalda har kun, har soat yorqin misollar bilan namoyon etmoqda.

Ko‘hna tarix guvoh – oddiy insonni qadrlagan, uning farovonligi va baxt-saodati yo‘lida zahmat chekkan, ulug‘ mutafakkirlarimiz ta‘biri bilan aytganda, xalq g‘ami bilan yashagan arboblari, olim-u ijodkorlar, har qanday kasb egalari asrlar osha el ardog‘ida, avlodlar hurmat-e‘tiborida bo‘lib kelganlar.

Kamina adabiyotshunos emasman. Lekin bir ziyoli, qolaversa, o‘zbek olimi sifatida umrim bo‘yi xalqimizning buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodini imkon qadar kengroq va chuqurroq o‘rganishga, uning benazir insonparvarlik ta‘limotidan ilhom olishga intilib kelaman. Ochig‘i, Navoiy ijodiga nisbatan qalbimda so‘nmas muhabbat uyg‘onishi va mudom kuchayib borishida ulug‘ ustozim Sharof Rashidovning bergan maslahatlari, pand-nasihatlari muhim rol o‘ynagan. Zero, Sharof akaning o‘zlari Navoiyni cheksiz va beg‘ubor bir muhabbat bilan ardoqlar, yaqinlari, do‘stlari, shogirdlari bilan suhbatlarda bu haqda mufassal gapirishdan, ularni hayot mazmun-ma‘nosini anglashda buyuk mutafakkir ijodiga murojaat etishga undashdan erinmasdi. Men ham shogirdlarimni mudom shunga chorlayman, hayot sabog‘ini, ilm-u ijod darsini uning bebaho merosidan olishga da‘vat etaman. Bas, shunday ekan, ushbu mulohazalarim asnosida ham buyuk bobomizning hayotbaxsh g‘oyalari, ibratli pandlaridan foydalanishni ma‘qul ko‘ryapman.

Hazrati Alisher Navoiy ilgari surgan buyuk insonparvarlik g‘oyasi ular uchun hayot va faoliyatning eng yuksak mezoni hisoblangan:

*«Odami ersang, demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidan g‘ami».*

Daf‘atan qaraganda juda oddiy va tushunarli ushbu pandni chuqur tahlil qilib ko‘rsak, uning zamirida xalq xizmatiga kamarbasta bo‘lgan ahli siyosat, ahli diyonat va ahli riyozat uchun naqadar zalvorli mas‘uliyat tajassum topganiga, nechog‘lik keskin talab qo‘yilganiga imon keltiramiz.

Va shunga tarixan guvohmizki, buni tushunmagan yoxud tushunsa ham pisand etmagan ne-ne zotlar rutba-yu masnadidan qat'i nazar, nainki jisman, balki ruhan, ma'nan, yo'qlik qa'riga sho'ng'ib ketdilar.

Nafsilamrini aytganda, millatimiz tafakkurining quyoshi hisoblanmish Alisher Navoiy hazratlari hukmdor va raiyat, ya'ni rahbar va xalq mavzusida o'z umri davomida tinimsiz yozgan va ko'plab shoh asarlar yaratgan. Zero, o'zi ham rahbarlik lavozimlarida ishlagan, bu mas'uliyatli jabhani ichdan tadqiq etish imkoniga ega bo'lgan. Uning Bosh vazir sifatida amalga oshirgan ezgu ishlarining son-sanog'i yo'q. Shu bilan birgalikda u rahbar, amaldor shaxsiyatni ulug' ijodkor sifatida ruhiy jihatdan tadqiq etgan va uning bu boradagi xulosalari bashariyat tamaddunining bebaho madaniy boyliklari sirasiga kiradi. Chunonchi, «Hayratul abror», «Saddi Iskandariy» dostonlarini sinchiklab o'qigan kishi hazratning bu borada naqadar haqgo'y bo'lganliklariga yorqin ishonch hosil qiladi.

Sharq Uyg'onish davriga asos solgan barcha benazir allomalarimiz singari Alisher Navoiy ham inson qadrini ulug'lovchi, uning baxt-saodatini ta'minlovchi ideal jamiyat, fozil mamlakat qurishni orzu qilgan va bu borada oqil-u odil hukmdorning o'rni va rolini oldingi o'ringa qo'ygan. Orzusidagi odil podshohlar haqida to'lqinlanib mehr-u hurmat bilan ko'p va xo'b yozgan. Ayni paytda...

U ayrim zamona hukmdorlariga quyidagicha xolis va samimiy pand-u dashnom beradi «Hayratul abror»da:

*«Eyki qaviy ayladi davlat qo'ling,
Zulm sori tushdi va lekin yo'ling.
Zulmung emas erdi xaloyiqqa kam,
Kim qiladursan ani o'zungga ham.
Zulm o'zunga fisqdur ey xush yor,
Gum qil oni bo'lsa sanga xush yor...»¹*

¹ Alisher Navoiy. «Hayratul abror»dan. Toshkent, 1983. 13-b.

Darvoqe, men shaxsiy kutubxonamda e’zozlab keladigan asarlar qatorida ustoz Sharof Rashidovning 1979-yilda Alisher Navoiy haqida yozgan «Shoir, mutafakkir, insonparvar» deb atalgan ajoyib maqolasi saqlanadi. Ushbu asar quyidagi so‘zlar bilan boshlangan:

«Insoniyat va uning ko‘p ming yillik madaniyati tarixi shundan dalolat beradiki, o‘z taqdirini va ijodiyotini xalq taqdiri bilan chambarchas bog‘lagan kishilar asrlar bo‘yi avlodlarning qalbida barhayot yashaydilar...»¹

Maqolada Navoiy ijodining turli yo‘nalishlari, o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan va uning hukmdorlar, davlat boshliqlari faoliyatiga oid qarashlari haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Chunonchi buyuk mutafakkirning «Xamsa»siga kiruvchi «Saddi Iskandariy» dostonidagi mana bunday qat‘iy ogohlantirish keltiriladi:

*«To hirsu havas xirmanı barbod o‘lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas,
To zulmi sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas».*

So‘ngra shunday xulosa qilinadi: «Ideal jamiyat, umumbashariy baxt-saodat haqida barcha xalqlar va ularning Navoiy hamda Pushkin, Nizomiy va Shevchenko, Tolstoy va Tagor singari daho farzandlari orzu qilganlar. Ularning shu ulug‘ orzulari ifodalangan asarlari doimo bizga yo‘ldosh va rahnamo»².

Kitobimning so‘nggi bobini bu tarzdagi muqoyasa va mulohazalardan boshlaganim bejiz emas. Bugungi kunda mamlakatimizda aynan o‘sha buyuk ajdodlarimiz orzu qilgan, fidoyi ustozlarimiz ishonch va umid bilan kutgan davrlar boshlandi. Inson qadrini yuksaklarga ko‘tarish davlat siyosatining bosh masalasiga aylanayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

¹ Sharof Rashidov. «Saylanma». Toshkent, 2017. 179-b.

² Sharof Rashidov. O‘sha asar. 198-b.

Xo'sh, bu siyosat nimalarda ko'rinmoqda?

Men statistika mutaxassisi emasman. Ko'pdan-ko'p raqamlar keltirib, boshingizni qotirish niyatim yo'q. Garchi raqamlar mahobatli, faktlar hayratlanarli darajada mo'l va ayrimlarini keltirib o'tish foydadan xoli bo'lmasdi albatta. Lekin biz hamonki, mavzuning mag'z-mohiyatini raqamlar bilan emas, real voqelikdagi in'ikosi bilan ochishga qaror qilgan ekanmiz, masalaga sal oddiyroq, ya'ni bu natijalar mamlakat, xususan, uning aholi turmushida qanday namoyon bo'layotganini anglash nuqtai nazaridan yondashamiz.

Tabiiyki, inson qadri e'zozlanishi va yanada yuksaltirilishining eng birinchi sharti, avvalo, uning tinch, bexavotir, qo'ni-qo'shnilar bilan ahillikda yashashini ta'minlashdan iboratdir. Bu haqda dono xalqimizning hikmatli naqlari, maqol-u matallari ko'p. «Bir kun janjal bo'lgan joydan qirq kun baraka ketadi», «Qo'shning tinch – sen tinch» va hokazo.

Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari rutbasidagi ilk siyosiy qadamlari yaqin qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni tubdan yaxshilashga, oraliqdagi anglashilmovchiliklarga chek qo'yish, munozarali masalalarni o'zaro manfaatdorlik asosida oqilona yechishga qaratilgani, shuning natijasida chegaralar ochilib, uzoq yillar davomidagi «yopiqlik»ka barham berilishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori keskin oshishiga, shu jumladan, respublikamiz yetakchisining jahon jamoatchiligi tasavvurida dono, tinchliksevar, pragmatik fikrlovchi arbob sifatida taassurot qoldirishiga olib keldi. Bu esa nainki tashqi, balki ichki siyosatda ham o'zining yorqin samaralarini ko'rsata boshladi. O'zbekiston xorijiy mamlakatlar ahli uchun ochilibgina qolmasdan, o'z aholisining dunyo bo'ylab erkin harakat qilishi, o'qishi, ishlashi, biznes yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Valyuta konvertatsiyasi erkinlashtirilishi navbatdagi dadil qadam bo'ldi va moliyaviy munosabatlardagi salkam o'ttiz yildan buyon

davom etib kelgan cheklovlarni bekor qildi. Bu esa nafaqat iqtisodiyot rivojida, tadbirkor va ishbilarmonlar faoliyatida, balki shu bilan bir qatorda aholi barcha qatlamlari tafakkurida ijobiy burilish yasadi, ularning iqtisodiy islohotlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamladi.

Mana shu kabi o‘ta jur‘atli chora-tadbirlar O‘zbekiston rahbarining davlatni tubdan yangilash borasidagi orzu-niyatlari katta va sa‘y-harakatlari jiddiy ekanini nainki yurtimiz aholisi, balki butun dunyo jamoatchiligiga yaqqol ko‘rsatdi. Binobarin, mamlakat Prezidentining mana bu so‘zlari mutlaqo samimiy ekanligiga hech qanday shak-shubha qolmadi:

«Biz bugun o‘z oldimizga katta-katta maqsadlar qo‘yib, marrani baland oldik.

O‘zbekistonda demokratik islohotlar muqarrar tus oldi va hech kim, hech qanday kuch bizni o‘z tanlagan yo‘limizdan qaytara olmaydi»¹.

Bu yo‘ldagi har bir yangi qadam puxta o‘ylangani, binobarin, olg‘a qilinayotgan harakatda o‘ta muhim yangi bir jabhani ochib berganligi bilan xarakterlidir. Aytaylik, Prezident mamlakatni jadal va intensiv rivojlantirishning hal qiluvchi shartlaridan biri sifatida fan-texnika, zamonaviy texnologiyalarga tayanilajagiga urg‘u berar ekan, ilm ahlining qadr-qimmatini beqiyos darajada yuksaltirish vazifasini qo‘ydi va bu borada bir qator amaliy choralar ko‘rdi. Fanlar Akademiyasi tarkibidagi o‘z faoliyatini deyarli to‘xtatgan institutlar ishini qayta tiklash va tubdan o‘zgartirish sohasida muhim qarorlar qabul qilinib, ularda aniq-tiniq va real vazifalar belgilandi. Olimlarimiz marrani baland olishlari, o‘z tadqiqotlarini jahon miqyoslariga ko‘tarishlari zarurligi vazifa qilib qo‘yildi.

«Bugungi keskin raqobat sharoitida iqtisodiyotda ustuvor yo‘nalishlar rivojini ta‘minlovchi ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlan-

¹Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. 126-b.

malarni amalga oshiruvchi tizim ishini samarali tashkil qilish eng asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiritishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi»¹.

Ushbu so'zlarda davlat rahbarining ilm-fan rivojiga nechog'lik katta ahamiyat berayotgani va berajagi, shuningdek, olim shaxsiga, uning jamiyatdagi o'rni, el-u yurt nigohidagi sha'ni va obro'-e'tiboriga nisbatan qay darajada munosabatda bo'layotgani va bo'lajagi ravshan aks etgan.

Shu o'rinda ruxsatingizga binoan bir tarixiy chekinish qilib, ilm-fanga tayanishning qanchalik ulkan ahamiyatiga bir misol keltirsam.

Ikkinchi jahon urushida mag'lub bo'libgina qolmasdan, atom bombardimonlariga duchor etilgan, batamom vayron-u fatarot qilingan Yaponiya o'z iqtisodini tiklash va taraqqiyotda katta sakrashlarga erishish uchun aynan shu yo'lni tanlagandi. Dunyoning qaysi burchagi bo'lmasin, yaratilgan yangi bir texnologiya, kashf etilgan va boshda mutlaqo xom xayol bo'lib tuyulgan yangi ilmiy takliflar va ishlanmalar yoppasiga mamlakatga jalb etilgan, buning uchun davlat g'aznasidagi eng so'nggi chaqalargacha ayalmagan. Zero, dono yapon xalqi bu investitsiyalar erta-indin o'zini yuz, ming baravar oqlashiga ishongan va tarix ular shunday qilib adashmaganini bugun yorqin namoyon etib turibdi.

Bas, shunday ekan, mamlakatimizda ilm-fan kamoloti taraqqiyotning bosh omillaridan biri sifatida belgilangani mutlaqo to'g'ri va

¹ Shavkat Mirziyoyev. «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi». Toshkent: «O'zbekiston», 2022. 239-b.

inshaalloh, biz uning ajoyib samaralarini yaqin kunlarda ko‘ra boshlashimizga hech qanday shubha yo‘q.

Bu borada qalbimizga yorug‘ umidlar baxsh etadigan yana bir voqelik – mamlakatimizda oliy ta‘limning tubdan qayta qurilayotganidir. Bugungi kunda respublikadagi oliy ta‘lim muassasalari soni 160 taga yetgani meni ko‘p yillardan buyon shu sohada ishlagan kishi sifatida sevinchli hayratga soladi. Chunki yaqin yaqingacha bu raqamlar bir necha baravar kam edi. Qisqa muddat ichida mana shunday katta sakrashga erishish jamiyatni erkinlashtirish va ilm-fan rivojiga strategik masala sifatida qaralishining samarasidir.

Tabiiyki, ilm-fan taraqqiyoti samaralarining amaliy ifodasini ishlab chiqarishdagi zakovatli, g‘ayrat-shijoatli mehnat jarayonisiz tasavvur etish mumkin emas. Har qanday benazir g‘oya, ulug‘ kashfiyot real voqelikka aylangan taqdirdagina ko‘zlangan natijani beradi. Binobarin, fan bilan ishlab chiqarish uyg‘unligi va mushtarakligini ta‘minlashni hayotning o‘zi taqozo etadi.

Bu haqiqat bir daqiqa bo‘lsa-da, nazardan qochirilmayotganini biz mamlakatda iqtisodiyotni qat‘iyat bilan diversifikatsiyalash, xalq xo‘jaligi tarmoqlarining mutanosib rivojini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar misolida ko‘ramiz va shu asnoda erishilayotgan olamshumul yutuqlardan cheksiz faxrlanamiz.

Keling, bu borada o‘zim shaxsan mansub bo‘lgan soha – kimyo bilan bog‘liq odamni lol qoldiradigan darajadagi hayratomuz ishlardan gapiray.

Yaqinginda ishga tushirilgan, ulkan va jahonda analogi barmoq bilan sanarli bo‘lgan gazni qayta ishlash majmualari, umuman, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Toshkent va boshqa viloyatlardagi kimyo sanoati korxonalari O‘zbekiston bu sohadagi eksport salohiyati bo‘yicha dunyodagi peshqadam davlatlar qatoriga chiqayotganidan yorqin dalolat beradi. Eng muhimi, bu mamlakat ichkarisida sanoat,

transport, qurilish, qishloq xo'jaligi, qo'yingki, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari jadal va barqaror o'sishiga dastak bo'ladi.

Binobarin, davlatimiz rahbarining mana bu so'zlarida hech qanday mubolag'a yo'q:

«Yangi O'zbekistonni barpo etishning asosiy sharti «Har bir fuqaro boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lsa, mamlakat farovon bo'ladi», degan tamoyilni amalga oshirishdan iborat»¹.

2021-yilda respublikada yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 734,6 trillion so'mni tashkil etgani va bu boradagi o'sish 7,4 foiz bo'lgani, bu esa 2020-yildagidan 5,5 foizga ko'p ekanligi davlatimiz rahbari aytgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanilayotganligini aniq ko'rsatib turibdi. Holbuki, Jahon banki 2021-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti 4,3 foiz o'sishi mumkinligini bashorat qilgan edi. Butun dunyoda pandemiya balosi hukm surgan o'ta og'ir sharoitlarda mana bunday natijalarga erishishni dono va shijoatli Prezidentimizning oqilona rahbarligida xalqimiz ko'rsatayotgan jasorat va matonat hosilasi deb baholasak, chin haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Darvoqe, boylik va farovonlik haqida gapirar ekanman, mamlakat rahbarining kichik va o'rta biznes rivoji bobida olib borayotgan sobitqadam siyosati haqida alohida to'xtalib o'tmasligim mumkin emas.

Zero, bu borada davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imtiyozlar-u qulayliklardan olim va tadbirkor sifatida shaxsan o'zim ham bevosita bahramandman, shu bilan birgalikda ishbilarmonlik bilan shug'ullanuvchi ko'plab do'stlarim, tanishlarim misolida yaxshi xabardorman.

Bu, albatta, o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Davlatimiz rahbari ushbu masalani o'ta keskin qo'ydi va barcha bo'g'inlardagi amaldorlardan,

¹ Shavkat Mirziyoyev. «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi». Toshkent: «O'zbekiston», 2022. 199-b.

mutasaddi tashkilotlardan mazkur sohada tub burilish yasashni qattiq talab qildi.

«Tadbirkorlar ularni qo‘llab-quvvatlash haqidagi chiroyli gaplarni ko‘p eshitgan, endi bu gaplarning amaliy ta’siri va natijasini o‘z kundalik faoliyatida his etishi kerak»¹, dedi Prezident «Yangi O‘zbekiston» gazetasiga bergan intervyusida.

Ana shu qat’iy talab, sergak nazorat va muntazam davom etayotgan amaliy tadbirlar o‘z natijasini berdi. Ahvol ijobiy tomonga tez sur’atlar bilan o‘zgara boshladi.

Buning yorqin dalili sifatida keyingi yillarda mamlakatda salkam ikki yarim million ishchi o‘rni yaratilgani, jumladan, yarim million ayol muntazam ijtimoiy foydali mehnatga jalb etilganini keltirish mumkin. Hamonki xotin-qizlar mehnati haqida gap ochilgan ekan, shu o‘rinda oxirgi yillarda 1,5 ming ayol rahbarlik lavozimlariga tayinlanganini ham chuqur mamnuniyat bilan qayd etmasdan o‘tolmayman.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, xususiyl tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining negizini tashkil etayotgani aholi moddiy ahvolidning kun sayin yaxshilanib borayotganligida ravshan aks etmoqda. Zero, aholi o‘rtasida mahallabay, xonadonbay ish olib borilishi, har bir oila, har bir xonadon tadbirkorlik bilan shug‘ullanishiga erishish, bu borada moddiy jihatdan ko‘maklashish, malaka va tajriba nuqtai nazaridan amaliy yordam ko‘rsatish, ya’ni el orasidagi qanotli iborada aytilganidek, odamlarga baliq tarqatish emas, balki har bir kishining qo‘liga qarmoq berib, baliq tutishni o‘rgatish o‘z natijasini berayotir. Bu, albatta, oson bo‘layotgani yo‘q. Biroq sobitqadamlik, sabr-qanoat, qat’iyat tufayli ko‘zlangan maqsadga erishilyapti. Odamlar qalovini topsa qor ham yonishiga, ozgina qunt qilinsa, hattoki o‘z hovlisidan, uyidan chiqmasdan turib pul ishlash, ro‘zg‘origa baraka kiritibgina qolmasdan tuzukkina daromad

¹ «Yangi O‘zbekiston» gazetasi. 2021-yil 17-avgust.

ko'rish mumkinligiga ishonch hosil qilmoqdalar. Chindan ham elimizda kambag'allik kamayib, boy-badavlat yashayotganlar safi kengaymoqda. Statistika ma'lumotlarida keyingi yillarda aholi daromadlari 2,5 baravar oshgani qayd etilmoqda. Xo'sh, bu amalda qay tarzda namoyon bo'layotir?

Menimcha, bu, eng avvalo, xalqimizning uy-joy, mashina va boshqa normal hayot uchun zarur bo'lgan ashyolar hamda qulayliklarni xarid qilish imkoniyat va salohiyati shiddat bilan ortayotganida ko'rinadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda 140 mingta uy qurilgan bo'lsa-da (bu raqam 2021-yil oxirlarida olingan, ayni kunlarda yanada ortganiga shak-shubha yo'q), aholining turar joyga bo'lgan talabi aslo kamaygan emas. Aksincha, oy sayin, yil sayin ortmoqda. Bu esa nafaqat poytaxtda, balki barcha viloyatlar, tumanlar markazlarida ko'plab ko'pqavatli yangi uylar barpo etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Mamlakatimizning aksar shaharlarida «Yangi O'zbekiston» nomli mavzelar qad rostlayotgani qalbimizga cheksiz sevinch va g'urur bag'ishlaydi. Respublikadagi yengil avtomobillar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar aholi ehtiyojlarini to'lasincha qoplay olmayotir va bu muammoni hal etish maqsadida hukumat xorijdan import qilinadigan mashinalar uchun boj to'lovlarini kamaytirdi.

Xuddi shu nuqtada, mamlakat rahbariyati aholining kundalik eng oddiy muammo-tashvishlaridan boshlab, umummiy, umumdavlat miqyosidagi masalalarni o'z vaqtida sergaklik va hozirjavoblik bilan ilg'ayotgani, kechiktirmasdan hal etishga harakat qilayotganini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Prezident o'z chiqishlarida «Har qanday masalani xalqimiz bilan maslahatlashgan, uning fikrini inobatga olgan holda hal qilamiz» degan gapni ko'p takrorlamoqda va buni amalda ko'rsatmoqda. Uning endilikda juda xayrli an'anaga aylangan viloyatlarga muntazam safarlari chog'idagi aholi vakillari bilan bevosita yuzma-yuz yoxud videoselektor orqali uchrashuvlarida qanchadan-qancha

muammolar hal etilayotgani, mushkulotlar yengillashtirilayotganini butun xalq o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, yuragi bilan his etib turibdi. Bu – ayni haqiqat.

Inson qadr-qimmatini e‘zozlanishi haqida mulohaza yuritar ekanman, Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy g‘oyasi, tashabbus va bevosita rahbarligi ostida amalga oshirilgan yana bir olamshumul tarixiy voqeelik haqida to‘xtalmay o‘tolmayman.

Keyingi bir necha yillar davomida «Mehr» operatsiyasi doirasida bir necha marta ketma-ket o‘tkazilgan maxsus insonparvarlik tadbirlari davomida taqdir taqozosi bilan uzoq muddatlardan buyon o‘zga yurtlarda sargardon bo‘lib yurgan, turli sabablarga ko‘ra Iroq va Suriyadagi urush girdobiga tushgan bir qancha yurtdoshlarimiz Vatanga qaytarildi. Ularning orasida bilib-bilmay o‘z ixtiyoridan tashqari yoxud yot g‘oyalari ta‘siriga tushgan holda xato qilib shu yo‘lga kirgan opa-singillarimiz ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ayrimlari o‘zga davlatlarda bir necha farzand ko‘rib, jigarbandlarini ham o‘zlari singari sarson-u sargardonlikka muhtalo etganlar.

Davlatimiz rahbarining shaxsiy sa‘y-harakatlari va maxsus xizmatlar vakillariga bergan topshirig‘iga ko‘ra, Yaqin Sharqdagi qator mamlakatlar rahbarlari, diplomatik hamda harbiy idora-tashkilotlari bilan uzluksiz va mashaqqatli muzokaralar, amaliy tadbirlar olib borilib, vatandoshlarimiz birma-bir qidirib topildi va o‘z vaqtida tegishli shoshilinch yordamlar ko‘rsatilib, maxsus samolyotlarda O‘zbekiston zaminiga olib kelindi. Ular bir necha muddat xushhavo sanatoriy hamda oromgohlardagi avvaldan tayyorlangan moslashuv muassasalarida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, jismoniy va ruhiy muolajalar vositasida sog‘lomlashtirilib, undan keyingina tug‘ilib o‘sgan maskanlariga qaytarildi, katta yoshdagilariga ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish, maktab yoshdagilariga uzluksiz ta‘lim olish, kichkintoylarga esa bolalar bog‘chalarida tarbiyalanish imkoni yaratildi.

Bunday bag'rikenglik va mehr-oqibat, ochig'i, butun dunyo jamoatchiligi e'tiboridan chetda qolmadi. Xorijdagi ko'plab ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston rahbariyatining ushbu tashabbusi haqida hayrat va ijobiy e'tirof bilan yo'g'rilgan maqolalar bosildi, teleko'rsatuvlar namoyish etildi.

Shu o'rinda nainki yurtimiz, balki chet ellarda ham haqqoniy e'tirof etilgan yana bir voqeani tilga olishni joiz ko'rdim. Gap yaqin yillargacha nomining o'ziyoq odamlar yuragiga vahima va qo'rquv solib kelgan «Jasliq» axloq tuzatish muassasasining yopilishi haqida. Rosti gap, mana shu xayrli ish o'ziga xos bir ramziy ahamiyat kasb etdi. Avvalo, xalqimiz, qolaversa, butun dunyo jamoatchiligi bunda O'zbekiston rahbariyatining yana bir muhim jabhadagi mardligini, jur'at-jasoratini ko'rdi.

Shubhasiz, qonun ustuvor mamlakatda jinoyatga jazo muqarrar bo'lishi shart va bu inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Biroq jinoyatchilikka qarshi kurashning ham turli usul va choralari borki, ulardan har joyda har xil istifoda etiladi. Aytaylik, qayerdadir qonunlarni tobora qattiq, shafqatsiz qilish va jazoni kuchaytirish yo'lidan borilsa, qaydadir rahm-shafqat, kechirimlilik, aybdorlarga o'z gunohlarini tezroq yuvish imkonini berish uslubi tanlanadi.

Endilikda mamlakatimizda prokuratura, militsiya, xavfsizlik, sudlov tizimi ish uslublari ham tubdan o'zgardi. Inson huquqi, uning manfaatlarini himoya qilish haqiqiy ma'noda oldingi o'ringa chiqmoqda. Bu borada sansalorlik, loqaydlik va e'tiborsizlikka yo'l qo'ygan rahbarlarga munosabat qanday bo'layotganiga guvohmiz.

Sakkizinchi bob

UCHINCHI RENESSANS – HAYOTBAXSH G‘OYA

Bugungi kunda bu ibora xalqimiz tilida yangi evrilishlar umidi sifatida alohida mehr, ishonch-ishtiyoq bilan yangramoqda.

«Renessans»¹ so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, uyg‘onish, tiklanish va qayta yuksalish singari ma’nolar majmuasini anglatuvchi bag‘oyat keng, teran hamda ulug‘vor tushunchadir. Yevropaliklarning talqiniga ko‘ra, ushbu ko‘hna qit‘ada ilk renessans, ya’ni ilm-fan, adabiyot va san‘at, xullas, insoniyat taqdiri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan sohalar gurkirab rivojlangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayon o‘n to‘rtinchi asrda Italiyada boshlanib, o‘n besh-o‘n oltinchi asrlarda uning atrofidagi boshqa G‘arb davlatlarida davom etgan. Va buning dalil-isboti sifatida Jordano Bruno, Galileo Galiley, Nikolay Kopernik ilmiy kashfiyotlari, Petrarka, Bokachcho va boshqalarning nazm va nasrdagi ijodi, Mikelanjelo, Rafael, Leonardo da Vinchilarning tasviriy san‘atdagi bebaho asarlari, shuningdek, me’morchilikdagi yangi uslublar ko‘rsatiladi. Holbuki...

Bu davrda Sharqda, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston zamini-da allaqachon Ikkinchi renessans boshlangan, ya’ni Temuriylar davlati deb atalmish ulkan saltanat hududida ijtimoiy-madaniy ravnaqning yangi to‘lqini jo‘sh urayotgan edi. Birinchi ma’rifiy Renessansni esa buyuk

¹Словарь иностранных слов. Москва: «Русский язык», 1988 г. - С. 428.

ajdodlarimiz 9 asrda boshlab, 12 asrgacha qat'iyat bilan davom ettirib kelganlarini, uning hayotbaxsh sarchashmalari boshida Abu Rayhon Beruniy, Xorazmiy, Farg'oniy, Imom Buxoriy, Ibn Sino singari benazir allomalar turganini butun dunyo bilardi. Ularning muborak an'analari Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid, Mansur Al Koshiy, Qozizoda Rumiy, Faqih Abu Lays, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va boshqalar davom ettirganlaridan ahli jahon xabardor edi. Ammo...

Feodal tarqoqlik davrlari, asriy istibdod, mustamlaka va tushkunlik asoratlari xalqimiz erishgan olamshumul yutuqlarga halokatli ta'sir etdi. Ilm-u fani, adabiyoti va san'ati gullab-yashnagan ulug' va beqiyos kishvar mute mamlakatga, arzongarov xom ashyo o'lkasiga aylantirildi. 20-asr boshlarida jadid bobolarimiz, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon-u Abdulla Qodiriylarning asliyatimizdagi yuksaklikni tiklash, yangi hayot qurish borasidagi sa'y-intilishlari yakson qilindi, shafqatsizlarcha qonga botirildi. Shukrki...

Alloh inoyati ila erishilgan istiqloq ko'ksimizni ko'tarish imkonini berdi. Milliy va diniy qadriyatlarimizga qaytish, ularni e'zozlash huquqiga ega bo'ldik.

Biroq asrlar davomida boy berilgan buyuk qadriyatlarimizni, beba'ho ma'naviy mulkimizni tiklash, joy-joyiga qo'yish oson emasdi, albat-ta. Buning uchun qancha muddat kerakligini hech kim aniq aytolmas, shuning uchun baland-u quyi minbarlardan turib, buyuk kelajak haqida orzu va farazlar qilishdan nariga o'tolmadik. Va nihoyat...

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqi uzoq kelajakda emas, ayni shu bugungi kunlarda to'q, farovon va baxtli yashashga haqli, degan g'oyat dadil va o'ta mas'uliyatli vazifani ilgari surdi. Bu mashaqqatli vazifani bajarish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida yuqorida ancha-muncha to'xtalib o'tganim uchun yana takrorlab o'tirmayman. Faqat shuni alohida ta'kidlashni istardimki, mana shu ezgu o'zgarishlar keng xalq ommasi qalbida yorug' va tiniq

aks-sado berdi. Raiyat o‘z qudrati va salohiyatiga yanada kuchliroq ishona boshladi. Madhiyamizda bitilganidek, buyuk xalq qudrati chin ma’noda jo‘sh ura boshladi. Va buni teran ilg‘agan rahbarimiz yangi, yanada ulkan va yuksak marralarni belgilashga jazm etdi.

«Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun «Yangi O‘zbekiston» va «Uchinchi Renessans» so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda», dedi komil ishonch bilan Prezidentimiz «Yangi O‘zbekiston» gazetasiga bergan intervyusida.¹

Shubhasizki, belgilanajak har qanday marra, ko‘zlanajak katta maqsadlar, avvalo, aniq-tiniq, real mohiyatga ega va ularning tarixiy poydevori, zamonaviy tag-zamini bo‘lmog‘i, shuningdek, ularga erishish imkoniyatlari, yo‘l-yo‘riqlari, usul va tarzlari puxta hisob-kitob qilinishi shart. Aks holda bu balandparvoz shior, quruq da‘vatdan iborat bo‘lib qolaveradi.

Aynan shu ma’noda o‘z iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining barqaror yo‘liga tushib, yillik o‘shish sur‘atlari bo‘yicha dunyodagi peshqadam davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallayotgan O‘zbekiston bugun o‘z oldiga har qanday sarbaland va murakkab marralarni qo‘yishga to‘lasincha haqlidir.

«Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir»², deyiladi Prezidentimizning «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi» kitobida.

¹ «Yangi O‘zbekiston» gazetasi. 2021-yil 17-avgust.

² Shavkat Mirziyoyev. «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi», Toshkent: «O‘zbekiston», 2022. 11-b.

Xuddi shunday, Uchinchi renessans poydevorini yaratish va pirovardida uni real voqelikka aylantirish niyati ham hozirgi davrning qonuniy taqozosidir. Unga erishish uchun barcha tarixiy asoslar, zamonaviy imkoniyatlar, kuch va salohiyat mavjud. Hamma gap ahli Vatan, zamondosh birodarlarimizning, ayniqsa, yovqur va shiddatkor yoshlarimizning aql-zakovati, g'ayrat-shijoati, ona yurt va aziz xalqimizga sadoqatiga bog'liq. Zero, aholisining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar tashkil etuvchi O'zbekiston tom ma'noda yoshlar mamlakatidir. Uning porloq kelajagi ana shu ulkan avlod qo'lida ekanligini ta'kidlab o'tirmasak ham bo'ladi.

Buni teran anglagan mamlakatimiz yetakchisi o'z Prezidentlik faoliyatining boshlaridayoq elimiz ahliga shunday da'vat bilan murojaat etgan edi:

«Men buyuk shoirimiz Cho'lpon she'riy satrlari bilan sizlarga, butun xalqimizga murojaat qilmoqchiman: «Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik»¹.

Keyinroq bu otashin da'vat aniq rejaga, jangovar maqsadga, amalga oshirilishi qat'iy shart qilib qo'yilgan muhim vazifaga aylandi.

«Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi, degan ulug' g'oya asosida mamlakatimizda maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqamiz va amalga oshiramiz»,² deb yozildi «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» kitobida.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktab ta'limi tizimi tubdan isloh qilinayotgani hech kimga sir emas. Ixtisosiga ko'ra ilm kishisi

¹Shavkat Mirziyoyev. «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari». 4-jild. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU 2020. 159-b.

²Shavkat Mirziyoyev. «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi». Toshkent: «O'zbekiston» 2022. 224-b.

bo‘lganim uchun, shaxsan menga mana shu islohotlarning oqilona va aniq yo‘nalishlar bo‘yicha maqsadli tarzda amalga oshirilayotganligi, ayniqsa yoqadi. Aytaylik, biz uzoq yillardan buyon katta olimlar, buyuk ijodkorlar-u san’atkorlar, sport ustalarining mahorat maktablari haqida ko‘p gapirib kelganmiz. Biroq bu borada, ochig‘i, nazariy fikrlardan nariga o‘tolmaganmiz. Bugun mana shunday maktablar amalda faoliyat ko‘rsatayotganligi, ular nafaqat poytaxtda, balki har bir viloyatda mavjudligi ayni haqiqat. Ularda alohida qobiliyatga ega bo‘lgan o‘g‘il-qizlar tanlov hamda imtihonlar asosida qabul qilinib, muayyan fanlar ixtisoslashgan tarzda chuqur va keng o‘rgatilmoqda. Binobarin, xuddi Prezidentimiz orzu qilgani va bu haqda ko‘p takrorlayotganidek kelajakda yurtimiz farzandlari orasidan yangi Beruniylar, Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiylar yetishib chiqajagiga shak-shubha bo‘lishi mumkin emas. Uchinchi Renessans poydevori aynan shu qorako‘zlar tomonidan, shu sinflarda, auditoriyalarda, laboratoriya va ijodxonalarda, tajriba-sinov maydonlarida barpo etilajak.

Prezident maktablaridagi ish uslubining jahondagi eng mutaraqqiy mamlakatlar darajasida ekanligi, bu borada xorijiy tajribalarni o‘rganish keng yo‘lga qo‘yilgani, Amerika va Yevropa davlatlaridan yetuk mutaxassis o‘qituvchilar jalb etilgani butun respublikadagi ta‘lim-tarbiya tizimi uchun o‘ziga xos namuna bo‘lmoqda. Ba‘zan: «Bu xildagi yangicha ta‘lim dargohlari shu choqqacha mavjud maktab tizimi ahamiyatini pasaytirmaydimi, ularga bo‘lgan qiziqishni susaytirib qo‘ymaydimi?» degan savollarni eshitib qolaman. Aksincha, yangicha bilim maskanlari mamlakatdagi butun ta‘lim tizimiga ibrat, zamonaviy ta‘bir bilan aytganda, drayver vazifasini bajaradi. Qolaversa, mamlakatimiz rahbariyati qandaydir alohida, saralangan maktablarni emas, barcha bilim dargohlarini birdek mutanosib rivojlantirish choralarini ko‘rmoqda. Yurtimizning eng chekka qishloqlaridagi birorta maktabni ham e‘tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qilmoqda.

Bu fikrning eng oddiy isboti sifatida quyidagi voqeani keltirmoqchiman. Ushbu satrlarni yozayotgan kunlarimda respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi ko'zi ojiz bolalar maktab internatiga tashrif buyurganini, u yerdagi o'quvchilar, o'qituvchilar bilan batafsil suhbatlashgani, bildirilgan har bitta fikr, mulohaza, taklif va istakni diqqat-e'tibor bilan tinglaganini, ayrim muammolarni shu zahotiyoq hal etib berganini televizor orqali tomosha qildim. Zotan...

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Mamlakatimizda Shavkat Mirziyoyev shaxsan bormagan yoxud hali borib ulgurmagan bo'lsa-da, hol-ahvoli va muammolarini bevosita bilmagan birorta ta'lim-tarbiya, salomatlik, mehr-muruvvat maskanlari qolmadi, desam mubolag'a bo'lmas. Oddiy odamlar orasidan chiqqan, ularni yurak-yuragidan sevguvchi, dard-u tashvishlarini yaqindan bilguvchi va teran his etguvchi insonparvar Prezident faoliyatining har bir kuni, har bir soati bugun el ko'z o'ngida va u to'lasincha Vatan, xalq xizmatiga, el-yurt baxt-u saodati yo'lidagi fidokorona mehnatga baxshida etilganini inkor etish mumkinmi? Menimcha, yo'q! Buni haqiqat va adolat haqqi hurmati uni uzoq-yaqindan biladigan har bir inson, hatto unga muxolif kishilar ham xolisona tan oladilar, deya ishonaman.

Maktab ta'limi haqidagi fikrlarimizni muxtasar qilib, bu boradagi yakuniy mulohazalarni aytadigan bo'lsak, muhtaram Prezidentimizning bu boradagi siyosati buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning ushbu soha biz uchun hayot-mamot masalasi ekanligi haqidagi otashin da'vatidan kelib chiqqan holda olib borilayotganligini, bas shunday ekan, bu yo'lda ko'zlangan ezgu va ulug'vor maqsadlarga albatta erishilajagiga qat'iy ishonamiz.

To‘qqizinchi bob

«EMAS OSON BU MAYDON ICHRA TURMOQ»

Sarlavhadagi satrlarni hazrat Mir Alisher Navoiy o‘zining shoh asari – «Xamsa»ni yaratishga kirishish arafasida yozgan ekan.

*«Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq...»*

Ya’ni Sharq poeziyasining gultoji hisoblanmish ulkan epik asarni, turkiy adabiyotdagi ilk mukammal dostonlar beshligini dunyoga keltirishning o‘zi bo‘lmasligini u yaxshi anglar, bu yo‘ldagi qiyinchilik va mashaqqatlarni, to‘siqlar hamda qarama-qarshiliklarni aniq tasavvur etardi. Sir emaski, Alisher Navoiy o‘z «Xamsa»sini turkiy, xususan, o‘zbek tili va adabiyotining haq-huquqlari uchun qattiq kurash ketayotgan bir vaziyatda yaratdi. Ne baxtki, bu sa’y-harakat behuda ketmadi – aynan «Xamsa» ona tilimiz va milliy adabiyotimiz qadri uchun kurashning bayroqdori bo‘lgan buyuk mutafakkirning ijodiy zafari emas, o‘zbek mumtoz adabiyotining olamshumul g‘alabasi o‘laroq tariximiz sahifalariga oltin harflar bilan bitildi.

Umuman, keng miqyosli, ayniqsa, shu choqqacha muayyan tarixiy-jo‘g‘rofiy maydonda mavjud bo‘lmagan, mahalliy shart-sharoitlar uchun tamoman yangi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hodisani vujudga keltirish hech qachon oson bo‘lmagan. Buning ustiga shu

choqqacha shu maqsad va yo'nalishlarda qilingan urinishlar besamar yoxud yetarlicha natijalarga erishilmagan, shuning oqibatida raiyat katta qismining hafsalasi pir bo'lgan va ijtimoiy-siyosiy loqaydlik kayfiyati hukm sura boshlagan sharoitlarda nainki yangilanish, balki olg'a harakatlanishning o'zi uddalab bo'lmaydigan vazifaga aylanadi.

Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka kelgan dastlabki oylar, yillar xronologiyasiga sinchiklab nazar solar ekanman, unga naqadar qiyin bo'lganligini va hozir, ayni damlarda ham zarracha oson emasligini yaqqol tasavvur etaman.

Sardoba suv omboridagi o'pirilish mamlakatimiz tarixidagi yirik texnogen halokatlardan biri bo'ldi.

Keksa olim sifatida darhol izohlab o'tishim lozimki, yer yuzidagi deyarli barcha mamlakatlar, chunonchi, yuksak darajada rivojlangan davlatlar tarixida ham bu singari va bundan necha yuz, ming baravar vayronkor texnogen halokatlar yuz bergan. Ya'ni har qanchalik absurd bo'lib ko'rinmasin, bu singari kulfat-u falokatlar ko'proq taraqqiyot sari jadal intilayotgan jamiyatlarda ko'proq uchraydi. Jaydari qilib tushuntiradigan bo'lsak, ish bor joydagina kamchilik va nuqson bo'lishi mumkin. Misol uchun, sobiq SSSR, hozirgi Ukrainaning Chernobil va Yaponiyaning Fukusima atom elektr stansiyalaridagi voqealarni esga olishimiz mumkin. Xudoga shukr, ko'rilgan zarar va kelib chiqqan oqibatlar nuqtai nazaridan Sardoba toshqinini ularga mutlaqo solishtirib bo'lmaydi. Garchi fojining katta-kichigi yo'q deydilar. Chunki yetti iqlimning boj-xiroji birgina go'dakning ko'z yoshiga arzimaydi, deya ogohlantirishgan mashoyixlar. Binobarin, ushbu hodisa yurtimiz ahli uchun umummiy kulfat, katta sinov bo'ldi. Biroq...

Mamlakatimiz rahbarining ushbu falokat haqidagi bor haqiqatni butun xalqimizga ro'yirost, ochiq aytib, uning asoratlarini bartaraf etish borasidagi chora-tadbirlar rejasini aniq bayon etib, qilinajak ishlarga ilk soatlardan oq shaxsan boshchilik qilishga kirishishi toshqindan zarar

ko‘rgan barcha kishilar, qolaversa, butun el-yurt dardiga malham bo‘ldi, ularning ertangi yorug‘ kunlarga umidini mustahkamladi, hamjihatlikka, yelkama-yelka turib komil ishonch bilan ishlashga undadi. Natijada cho‘l qo‘ynida tamoman yangi, poytaxt shaharlar, dunyodagi eng katta megapolislar darajasidagi shart-sharoitlarga ega bo‘lgan ajoyib shaharcha qad ko‘tardi. Ruslarda: «ne bilo bi schastya, da neschaste pomoglo» degan g‘alati bir maqol bor. O‘zimizning jaydari lahjalarimizda buning muqobalasi taxminan: «har yomon hodisaning bir yaxshi tomoni bor» bo‘lsa kerak. Ammo-lekin ana shu birgina yaxshi jihatni yuzaga chiqarish nechog‘lik murakkab va mashaqqatli yumush ekanligini har kim ham tasavvur etolmasa kerak.

Nima bo‘lganda ham shu narsa yaqqol ayonki, Sardoba toshqini oqibatlarining qisqa fursatda bartaraf etilib, mahalliy aholi vakillarining avvalgidan bir necha barobar yuqori bo‘lgan yashash sharoitlari yaratib berilgani mamlakat rahbarining teran tafakkuri, tashkilotchilik san‘atini butun dunyoga yana bir karra yorqin ko‘rsatib, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga nisbatan ishonchni yanada mustahkamladi.

Kovid-19 pandemiyasi butun dunyo aholisini, ayniqsa yer yuzidagi katta-kichik, rivojlanish darajasi turlicha barcha mamlakatlar xalqlari, shu jumladan, davlatlar rahbariyatlarini o‘ta murakkab imtihondan o‘tkazdi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu ofat qarshisida ne-ne alloma-yu zamonlarga, yuksak darajadagi muolaja xizmat tizimiga, qadim-qadimdan bu sohada katta tajriba va mukammal an‘analarga ega bo‘lgan AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Xitoy, Hindiston tibbiyotlari esankirab, sarosimaga tushib qolganiga, minglab, yuz minglab qurbonlar berilganiga guvohmiz. Har tugul taraqqiyparvar jahon jamoatchiligi bu baloga qarshi bahamjihat kurashga otlandi va uning dahshatli xavfini qadamba-qadam kamaytirib borishga erishdi.

O'zbekiston ana shu kurashning oldingi saflarida bo'lganligini, shuning samarasi o'laroq, boshqa joylardagidan bir necha o'nlab baravar kam talafot ko'rganligini butun dunyo ahli e'tirof etmoqda. Bu ko'nglimizga g'urur bag'ishlaydi va ana shu sohadagi tashkiliy ishlar mamlakatimiz Prezidenti yo'l boshchiligida g'oyat sergaklik bilan oqilona, mahorat bilan olib borilganiga yana bir karra amin bo'lamiz.

Yana shunga amin bo'lamizki, bu murakkab sinovdan muvaffaqiyatli o'tishimizda keyingi yillarda sog'liqni saqlash sohasida o'tkazilgan tub islohotlar, chunonchi, meditsina ilmini, tibbiy xizmatni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlar hal qiluvchi o'rin tutdi.

Albatta, texnogen halokatlardan yoxud koronavirus singari banogoh yopirilib keluvchi ofatlarga qarshi kurash, ularni yengish va asorat-u oqibatlarini bartaraf etish, harchand qiyin bo'lmasin, har tugul qunt, qat'iyat, sabr-u bardosh ila muayyan muddatlarda hal qilish mumkin bo'lgan muammolardir. Buni bugungi hayotning o'zi ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Biroq...

Shunday balo-ofatlar borki, ular bir qarashda ko'zga tashlanmaydi, hatto nigoh-u tasavvurlarimizni shamg'alat qilib, xuddi hayotimizning azaliy qonuniyatlaridek tuyuladi. Nadomatkim, ayrimlar ularsiz yashash, turmushdagi katta-yu kichik muammolarni hal qilib bo'lmaydi, degan tasavvurlarga asir bo'lib yashaydilar.

Holbuki, hayotdagi barcha o'tkir muammolar, fojialar aynan mana shu biz sukutli rizolik bilan ko'nikib qolgan illatlarga borib taqaladi. Ular bamisoli barq urib, gurkirab yashnayotgan daraxt tomiriga tushgan qurtlar misoli jamiyatni ichdan yemiradi, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini tubanlashtiradi.

Shulardan eng dahshatlisi, shubhasiz, korrupsiyadir. Uni jilovlay olmagan mamlakat-u jamiyatdagi taraqqiyot va farovonlik, adolat va

haqqoniylik haqida orzular yillar, asrlar bo‘yi quruq gapligicha qolaveradi. Ayniqsa...

Biz kabi azal-azaldan islomiy mo‘minlik, «kattaga hurmat, kichikka izzat» tamoyili asosida shakllangan, «tepingga bitta cho‘pni tikka qilib qo‘ysa ham itoat et» qabilidagi aqidalar ruhida tarbiyalangan jamiyat ahli bundan ne-ne jabr-u jafolar chekmadik axir!

*«Dodxohim, dodxohlik senga xos,
Porasiz o‘tmas senga yuz iltimos,
Uchrasa ildam movut to‘nlik kishi,
O‘ylashib so‘ng uchrashar yirtiq libos»,*

deya alam va hasrat bilan yozgan edi demokrat shoirimiz Muqimiy. Afsuslar bo‘lsinkim, nomi dodxoh, ya‘ni el-u raiyatning dodini, arz-u holini eshitishga mas‘ul bo‘lgan amaldor, qozi-yu quzzot, mirshab qavmi asrlar davomida zulm va adolatsizlik, poraxo‘rlik, oshna-og‘aynigarchilik, hozirgi istilohlar bilan aytganda, korrupsiya, lobbizm, nepotizm ramzi bo‘lib keldi. Oddiy xalq esa: «onangni qozi so‘ksa, arzingni kimga aytasan», deya iztirobli kinoya qilishdan nariga o‘tolmadi.

Sobiq SSSR davridagi hukmron mafkura uzoq yillar davomida bu illatlarni «kommunistik axloq kodeksi», partiyaviy nazorat hamda qonun asosidagi jazo choralarini haddan ortiq kuchaytirish yo‘li bilan bartaraf etishga chandon urinib kelgan bo‘lsa-da, tag-tomiri bilan yo‘qotilmadi.

Mustaqillikdan keyin milliy, diniy qadriyatlarimiz tiklanib, demokratik erkinliklar joriy etilgani sari bu boradagi sa‘y-harakat va kurashlar samaraliroq bo‘lajagidan, qolaversa, jamiyatimizning barcha qatlam va toifalarida millatimizga xos insof-diyonat, o‘zganing haqini, ayniqsa yetim-yesirlar rizq-u nasibasini yeyishdan qo‘rqish, el-yurtga qayishish singari muqaddas tushunchalar chuqur ildiz otishi, keng

qaror topishidan umid qilgan edik. Biroq «o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas», deganlaridek, ayrim toifa kimsalar o'z bilganlaridan qolmadilar. Buning oqibatida korrupsiya va poraxo'rlik, oshna-og'ayni-garchilik, mahalliychilik to'lasincha barham topmadi. Bu esa Prezident ko'p marta haqqoniy ta'kidlagani singari xalqning haqiqat va adolatga bo'lgan ishonchini susaytirdi.

Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining dastlabki davrlaridanoq ana shu illatlarga qarshi keng jabhadagi kurash boshlangani el ko'nglida so'nib ulgurmagan umidlarni qayta undirdi. Uzoq yillar davomida tanqiddan mutlaqo xoli hisoblanib kelgan, oddiy odamlar uchun, hatto nomining o'zi qo'rqinchli tuyula boshlagan xavfsizlik xizmati xodimlarining mash'um kirdikorlari haqida ochiq-oshkor gapirila boshlangani, bu sohada keskin o'zgarishlar qilingani, jinoyat qilganlar haqqoniy jazoga tortilgani, ochig'i, o'ta hayratlanarli edi. Bu hodisadan ilk bora shunday judayam chuqur hikmatli ma'no kelib chiqdiki, el saylagan davlat boshlig'i, chin ma'nodagi millat sardori o'z hokimiyatining xavfsizligi, barqarorligining kafolati sifatida kuch ishlatar tizimlarga emas, xalq ommasiga tayanmog'i kerak.

Shu o'rinda, ko'pni ko'rgan bir qariya sifatida shunday bir muqoyasani keltirib o'tishni joiz ko'raman. Kimgadir bu misol noo'rin tuyulsa, ma'zur ko'rar. Sharq mamlakatlari tarixi shuni yaqqol ko'rsatadiki, kuch ishlatar tizimlarga xalq nazoratidan xoli qilib qo'yish, ularga haddan ortiq vakolatlar berish, yumshoq qilib aytganda, jamiyat «erkatoylari»ga aylantirish hamisha ayanchli oqibatlarni keltirib chiqargan. Aksar isyon-u fitnalar davlat to'ntarishlari aynan ana shu tizimlardagi nopok mansabparast kimsalar tomonidan uyushtirilgan. Misol uchun, uzoqqa borib o'tirmasdan, Turkiyada 2016-yilda bo'lgan voqealarni keltirish mumkin. Uzoq yillar davomida alohida maqomlarga ega bo'lib kelgan va keyingi paytlarda o'tkazilgan demokratik islohotlar oqibatida bu imtiyozlardan mahrum bo'lgan bir hovuch isyonchi harbiylarning

davlat to‘ntarishi qilishga bo‘lgan urinishi o‘z Prezidentiga cheksiz hurmat-e‘tiqodli, mehr-muhabbatli va sadoqatli xalq ommasi tomonidan chippakka chiqarildi. Darhaqiqat, elparvar va dono yo‘lboshchilar hamisha, har vaqt-u zamonlarda ona xalqqa qayishgan va shu tufayli uning mustahkam sadoqatidan, ko‘magi-yu madadidan bahramand bo‘lib kelishgan.

Shavkat Mirziyoyev qat‘iy ilgari surayotgan talablardan biri – qonun oldida hamma teng bo‘lmog‘i, hech qanday soha, tizim uchun alohida imtiyozlar yaratilishi mumkin emasligiga jamiyat a‘zolarida chuqur ishonch bo‘lishi shart.

Prezidentning mana shu yo‘nalishdagi dadil va qattiqqo‘l siyosati aholining islohotlar natijasiga va qolaversa, yangi O‘zbekistonni yaratish borasidagi sa‘y-harakatlarga ishonchi va ishtirokini kuchaytirdi.

Qonun muhofazasiga mas‘ul idoralarning eng baland martabali amaldorlarning jinoiy kirdikorlari fosh etilib, haqqoniy javobgarlikka tortilishi endilikda korrupsiyaga qarshi kurash o‘ta jiddiy, haqqoniy va barqaror bo‘lajagidan yaqqol nishona sifatida namoyon bo‘ldi. Buning amaliy isboti esa, o‘tgan yillar davomida katta-kichik amaldorlardan o‘nlab, yuzlab nafari jinoyat ustida qo‘lga olinib, qonuniy jazoga tortilayotganida yaqqol ko‘rinmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida yangi farmon-u qarorlar imzolanishi, shu sohaga mas‘ul yangi tuzilmalar vujudga kelishi, albatta, yaxshi. Biroq bu o‘ta xavfli va yashovchan illatga qarshi kurash chinakam umumxalq harakatiga, keksa-yu yosh, xullas, jamiyatning har bir a‘zosi uchun or-nomus ishiga aylanmas ekan, ko‘zlangan najjaga erishish qiyin kechadi. Umid qilamizki, bu yo‘lda Prezident rahbarligida olib borilayotgan ishlar ko‘lami yanada kengayadi, jamiyatimizni poklash yo‘lidagi kurash aslo susaymaydi.

Ushbu poklanish jarayoni, shubhasiz, barcha jabhalarni, ayniqsa, qonun muhofazasiga mas‘ul huquq-tartibot idora-tashkilotlarini nopok unsurlardan qat‘iyat bilan tozalash, yangi, yosh va prinsipial kadrlar

bilan ta'minlash va shu asosda ularning jamiyat hayotidagi o'ta muhim rolini aslo susaytirmasdan, balki aksincha, qat'iyat bilan kuchaytirish, bu zarur ishni mazkur sohalar vakillari bilan xalq ommasi o'rtasidagi o'zaro samimiy munosabatni qaror toptirish, yakdillikni mustahkamlash bilan qo'shib olib borishni taqozo etadi. Zero, jamiyat hayotidagi osoyishtalik, ishchan va serg'ayrat muhitni huquq-tartibotdagi barqarorlik-siz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shunisi quvonchliki, davlat rahbarining mana shu masalaga alohida muhim ahamiyat berayotgani, ushbu sohalar xodimlari faoliyatini dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardagi singari darajalarga ko'tarish, eng zamonaviy jihozlar, asbob-uskunalar bilan ta'minlash dolzarb vazifa qilib qo'yilgani endilikda bu borada yuksak natijalarga erishilajagidan dalolat beradi.

Davlat rahbarining shaxsan o'zi, uning komandasidagi yangicha fikrlovchi, yosh va zamonaviy kadrlarning mudom xalq orasida yurib, o'tkir muammolar, dolzarb masalalarni diqqat-e'tibor bilan o'rganishdan erinmasligi, Prezident xalq qabulxonalariga oqib kelayotgan ariza-shikoyatlar, taklif-mulohazalarning nomiga, xo'jako'rsinga emas, balki sinchiklab tekshirilayotgani, tobora erkinlashib, dadillashib borayotgan matbuot va ommaviy axborot vositalarining chiqishlariga sergaklik bilan quloq tutilayotganligi jamiyat taraqqiyotiga tushov bo'layotgan jamiki illatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda yo'qotish choralari ko'rishga imkon bermoqda. Endilikda hukumat matbuot yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali muammo ko'targan, muayyan masalada tanqidiy fikr bildirayotgan jurnalist, blogger yoiniki o'zi va o'z qishloqdoshi, yurtdoshi haq-huquqini himoya qilishni so'rab murojaat etayotgan oddiy bir fuqaro ovozini bajonidil tobtotqat bilan eshitmoqda. Qo'yilayotgan masalalarning qonuniy tarzda hal etilishiga astoydil qo'l urmoqda.

Uzoq va yaqin xorijdagi turli huquqiy tashkilotlar O'zbekistonga uzoq yillar davomida qo'yib kelgan talablari bajarilganini e'tirof etayot-

gani, bildirib kelgan e’tirozlarini bekor qilayotganliklarining o‘zi mamlakatimizda qonuniylik, inson huquqlari ta’minlanishi borasida tan olarli natijalarga erishilganining yorqin dalilidir. Ushbu satrlarni yozayotgan kunlarimda O‘zbekiston paxta tolasini G‘arb mamlakatlariga eksport qilish bo‘yicha ancha yillar davomida hukm surgan taqiqlar bekor qilingani haqida xabar tarqaldi. Bu ezgu mujda, shubhasiz, eksport imkoniyatlarimiz yanada oshajagi, iqtisodiy taraqqiyotimiz yanada jadallashajagidan nishonadir.

O‘zbekiston uchun alohida muhim ahamiyatga ega o‘tkir muam-molardan biri, shubhasiz, mehnatga layoqatli aholining anchagina qismi uzoq va yaqin xorijdagi mamlakatlarda muhojirlikda yurganidir. Albatta, ularni hech kim ona yurtidan haydagan yoki ularning o‘zlari begona o‘lkalarga «o‘ynagani» ketgan emas. Tirikchilik g‘ami, ro‘zg‘or va bola-chaqa boqish tashvishi shu ko‘yga solgan. Aksariyati o‘ta qiyin sharoitlarda, xorlig-u zorliklar, fojeiy voqealarga duchor bo‘lib, topgan pulini oilasiga jo‘natib, shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga bilvosita baholi qudrat hissa qo‘shib kelmoqdalar. Afsuski, shu haqiqat-larni ko‘ra-bila turib, yaqin-yaqingacha ular taqdiriga befarq, hatto haqoratomuz qarab kelindi. Shavkat Mirziyoyev ana shu adolatsizlikka keskin chek qo‘ydi. Xorijda ishlab yurgan vatandoshlarimizga jon-jigarlarimiz sifatida munosabatda bo‘lish tashabbusini boshlab berdi. Bu borada butun xalq tomonidan behad xursandchilik, minnatdorchilik bilan kutib olingan aniq amaliy tadbirlarni amalga oshirdi. Musofirlikda baxtsiz hodisalarga duchor bo‘lgan vatandoshlarimizni zudlik bilan oilalari bag‘riga qaytarish maqsadida maxsus samolyotlar, butun-butun poezd eshelonlarini safarbar etdi. Eng muhimi...

O‘zbekiston farzandlari o‘zga yurtlarda sargardon bo‘lishining bosh sababi – ishsizlik, kambag‘alchilik muammolari haqida asl haqiqatni xalqning ko‘ziga tik qarab, ochiq-oshkor aytdi va ana shu muammolarni yechishni o‘z siyosatining bosh masalalaridan biri qilib belgiladi. Shu

yo'lda o'zi ham tinim bilmay, jamiki mas'ullarni tindirmasdan kecha-yu kunduz mehnat qilmoqda.

Albatta, hali-hanuz muammo va qiyinchiliklar yetarli. Ularni, Prezident ta'biri bilan aytganda, hech kim bir joydan kelib yechib, yengib bermaydi. Barchasini o'zimiz o'z kuchimiz, tafakkurimiz, g'ayrat-shijoatimiz bilan bartaraf etmog'imiz darkor. Bu esa oson emas. Ammo...

Bu hayotda ezgulikka yo'nalgan biror oson ish bormi o'zi? Bani bashariyat hayotining minglab yillarga borib taqaluvchi tarixi ravshan ko'rsatadiki, tiriklikning asl mazmuni qiyinchilik va mashaqqatlarni yengish orqali ma'naviyat yuksakliklari sari intilishdan iboratdir. Dunyodagi mutaraqqiy mamlakatlar, qudratli davlatlar, boy-badavlat va farovon turmush kechirishga erishayotgan el-u xalqlar tajribasidan ma'lum: bu intilishning samarasi albatta ijobiy bo'lajak.

Shu o'rinda mamlakatimiz rahbari alohida ahamiyat berib, hayotimizga qat'iyat bilan joriy etayotgan yangicha mahalla instituti haqida bir-ikki og'iz mulohazalarimni aytib o'tsam. Chunki, jamiyatimiz turmushidagi katta-kichik muammolarni hal qilishda ana shu betakror va bebaho tizimning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatmoqda. Binobarin yurtboshimizning bu yo'nalishdagi ishlarni qunt bilan ilgarilatayotgani bejiz emasligi ayon bo'layotir.

Mahalla o'zbek xalqining azaliy o'zak qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Qadimdan bir ma'lum va mashhur naql borki, har qanday mushkulotning ildizini topmoqchi bo'lsang, uning o'zagiga qara. Prezidentimiz aholi turmush osoyishtaligi, o'zaro ahillikni ta'minlash hamda farovonlikni yuksaltirish masalalari yechimini mahalla tizimini mukammallashtirish va rivojlantirish bilan bog'layotgan ekan, shubhasiz, ana shu azaliy hikmatdan kelib chiqmoqda. Binobarin men ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning muvaffaqiyatiga qat'iy ishonaman.

O‘ninchibob

YANGI O‘ZBEKISTON ME‘MORI

Alqissa, ushbu kitobning shunday nomlanishi va umuman maydonga kelishi sababi va natijalari haqida ikki og‘iz so‘z yuritish mavridi keldi, deb o‘ylayman.

«Qudratimizga shak-shubhangiz bo‘lsa, bunyod etgan imoratlarmizga boqing», degan ekan sohibqiron bobomiz Amir Temur. Kamina ushbu so‘zlardan imkon qadar kengroq ma‘no ko‘rishga harakat qilaman. Nazarimda gap faqat o‘sha davrlarda barpo etilgan va dunyo ahlini hali hanuz hayratga solib kelayotgan tengsiz imorat-u inshootlardagina emas. Avvalo, asrlar bo‘yi mo‘g‘ul istilosi ostida tarqoq va boshboshdoq bo‘lib yotgan buyuk el-yurtni birlashtirib, mustaqil va qudratli davlat bunyod etish aks etadi bu haqqoniy iddaoda. Ikkinchidan, mana shu markazlashgan qudratli davlatda ilm-fan, madaniyat va ma‘naviyat taraqqiyoti yuksak darajaga ko‘tarilgani, natijada butun dunyo tarixida «Temur va temuriylar davri ilm-fani va madaniyati» degan obyektiv e‘tirofning paydo bo‘lishi in‘ikos topgan. Uchinchidan, sohibqiron yaratgan saltanat mangulikka daxldorligi yaqqol ko‘rinib turadi ushbu mag‘rur murojaatnomada.

Shu ma‘noda Amir Temurni Markaziy Osiyo, qolaversa, yer yuzidagi eng ulkan va har jihatdan mukammal saltanat me‘mori sifatida e‘tirof etishga haqlimiz.

Sohibqironning yuqorida keltirilgan so‘zlariga qaytib, «me‘mor» so‘zining bevosita ma‘nosi, ya‘ni bunyodkorlik, binokorlik, qurilish

va obodonlik sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, Amir Temur va temuriylar davri bunyodkorligi tarixi dunyo tamadduni tarixida alohida o'rin tutishi hech kimga sir emas. Nafaqat saltanat poytaxtidagi yer yuziga zeb bag'ishlagan va asrlar osha tillardan-tillarga o'tib kelayotgan ma'lum va mashhur: «Samarqand – yer yuzining sayqali» iborasining tug'ilishiga sabab bo'lgan hayratlanarli imoratlar, qolaversa, Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridagi osori atiqalar hazrati sohibqironning jahon tarixida faqat qudratli sarkarda emas, balki shu bilan birgalikda benazir bunyodkor sifatida qolishiga asos bo'ldi. Ya'ni endilikda faqat O'zbekiston emas, butun dunyoda qurilish va me'morchilik fanlari haqida so'z borar ekan, «Temur davri arxitekturasi, binokorlik tamoyillari» mavzusi muqarrar tilga olinishi, e'tirof etilishi, katta qiziqish bilan o'rganilishi oddiy voqelikka aylandi. Sirasini aytganda, bunday tole tarixda o'tgan kamdan-kam hukmdorlar-gagina nasib etishi mumkin.

Ha, ulkan davlat boshliqlarining muayyan sohalarda mavjud davr, mavjud shart-sharoitlar uchun favqulodda ahamiyatli yangilik bo'lgan bunyodkorlik ishlari tarixga aynan ana shu hukmdor nomi ila egizak bo'lib kiradi va asrlar bo'yi tildan-tilga ko'chaveradi. Zero, xalq barcha davrlarda davlat boshliqlarining aynan qurilish-bunyodkorlik, obodonlashtirish va bog'lar yaratish sohasidagi faoliyatiga alohida diqqat-e'tibor bilan qaraydi. Bu sa'y-harakatlarning haqqoniy bahosini abadiyatga daxldor qilib qo'yadi. Bunga yurtimiz tarixidan qator ibratli misollar keltirish mumkin. Aytaylik, Samarqand va Jizzax viloyati hududlarida Shayboniylar sulolasining vakili bo'lmish ulug' hukmdorlardan biri Abdullaxon Ikkinchi davrida barpo etilgan «Abullaxon to'g'oni», «Xon bandi», «Abdullaxon ko'prigi» singari inshootlar qoldiqlari hozirgacha saqlangan va bugungi kunda ular me'moriy yodgorliklar sifatida qo'riqlanadi. Ayrimlari, hatto qayta tiklangan. Umuman, bu hukmdor davrida xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega yuqorida aytga-

nimiz singari ko‘plab inshootlar – kanallar, suv ayirgichlar, to‘g‘onlar, suv omborlari, ko‘priklar qurilgan. Mutafakkir va muarrix Kamoliddin Binoiyning yozishicha, birgina Zarafshon daryosi bo‘ylab 21 ta ana shunday inshoot barpo qilingan. «Shu holni nazarda tutsak, Ikkinchi Abdullaxonni o‘zbek davlatchiligi tarixida katta o‘rin egallovchi buyuk davlat arboblardan biri, deyishga haqlimiz»¹, deb yozadi taniqli adib va publitsist Abduqahhor Ibrohimov o‘zining «Bizkim, O‘zbeklar» kitobida.

O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrining 1966-yilgi zilziladan so‘ng tamoman qaytadan, ko‘rkam, qulay va zamonaviy qilib qurilishi, unda jahondagi eng katta megapolislargagina xos bo‘lgan, O‘rta Osiyoda birinchi yer osti yo‘li – metro barpo etilishi mamlakatimizning o‘sha davrdagi oliy rahbari Sharof Rashidov nomi bilan bog‘lab esga olinishi ham ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Bu tarixiy misollarni eslashdan maqsad ayni kunlarda nainki tobora kengayib, ko‘kka bo‘y cho‘zib, go‘zallashib borayotgan respublikamiz poytaxti Toshkent, balki ona yurtimizning barcha burchaklarida mazmun-mohiyatiga ko‘ra mutlaqo yangicha inshootlar oy sayin, kun sayin ko‘plab qad rostlayotganiga urg‘u berishdan iboratdir. Inson tabiati shundayki, ba‘zida yonginasida yuz bergan mislsiz tarixiy o‘zgarishlar ahamiyatini ham yetarlicha teran his etmaydi, olamshumul bunyodkorlik ishlariga ham tez ko‘nikadi va ularni oddiy voqeliklar sifatida qabul qila boshlaydi. Dono xalqimizning «Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q» degan naqli bekorga paydo bo‘lmagan shekilli. Holbuki...

Biyday cho‘l qo‘ynida jahondagi eng rivojlangan mamlakatlarning ham uncha-munchasida yo‘q mahobatli kimyo majmuining ishga tushirilishi, o‘nlab, yuzlab gidro elektr stansiyalari birin-ketin faoliyat boshlayotgani, bir necha qudratli issiqlik elektr stansiyalari foydalalanishga topshirilayotgani, Navoiy va Samarqand viloyatlarida bizning

¹ Abduqahhor Ibrohimov. «Bizkim, O‘zbeklar». Toshkent: «Sharq» NMAK. 2019. 54-b.

sharoit uchun batamom yangi zamonaviy quyosh elektr stansiyalari paydo bo'lgani va shunga o'xshash kishi aqlini shoshiradigan yaratuvchilik ko'lamlari haqida har kuni takror-takror gapirish, bu mavzularda tom-tom kitoblar yozish, davomli kinofilmlar yaratish joizdir. Zero...

Bugun qilinayotgan ishlar mamlakatimiz taraqqiyotining munavvar va muzayyan solnomasidan o'zining haqli va munosib o'rnini egallamog'i shart. Kelajak avlod vakillari xuddi ayni damlarda biz buyuk ajdodlarimizning olamshumul tarixiy kashfiyotlari bilan faxrlanib yurganimiz singari bugungi kunda qilinayotgan ishlarning, barpo etilayotgan muazzam bino-yu inshootlarning Bosh me'mori, muhandislari-yu fidoyi binokorlari haqida aniq-tiniq tasavvurga ega bo'lmoqlari lozim.

Darvoqe, «me'mor» so'zining ma'nosi-yu tarixiy ildizlari haqida qisqacha to'xtalmoqchi bo'lsak, avvalo, uning keng miqyosdagi bunyodkor, ya'ni bino va inshootlar loyihasini chizishdan boshlab, qurib bitkazilgunicha mas'ul hisoblanadigan, aniqrog'i, barcha jarayonlarga bevosita rahbarlik qiladigan ijodkor muhandis, mohir usta va yetakchi ishboshi ma'nolarini ifodalashini eslatib o'tishimiz joiz ko'rinadi. Har holda bu tushunchaning mohiyati Yevropadan kirib kelgan «arxitektor» istilohinikidan mengzab bo'lmas darajada keng, chuqur ekanligini alohida ta'kidlash kerak.

Alisher Navoiy hazratlari o'zining ideal davlat rahbari obrazini yaratishga bag'ishlangan benazir ijodiy mahsuli, mukammal «Xamsa» tarkibiga kiruvchi «Saddi Iskandariy», ya'ni «Iskandar devori» dostonida ushbu mavzuni mufassal tahlil etgan.

*«Ne kim bo'lsa me'mori chobukxayol,
Yana dag'i ustodi nozuk xayol»,*

degan talabni ilgari suradi u me'mor oldiga. Ya'ni chin ma'nodagi bunyodkor me'mor, avvalo, teran tafakkurga, chuqur fantaziyaga,

dadillik, jur’at-jasorat singari fazilatlariga ega bo‘lish bilan birgalikda o‘z kasbining haqiqiy ustasi bo‘lishi, uning global masalalaridan tortib, eng nozik qirralarigacha chuqur bilishi zarurligini uqtiradi.

Gapning indallosini aytadigan bo‘lsam, bugungi kunda ulkan qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylangan jonajon O‘zbekistonimizga qadam ranjida etgan har bir mehmon, sayyoh yoki ziyoratchi bu yerdagi mahobatli yaratuvchilik ishlarining miqyos va ko‘lamlari qoshida hayratga tushishi hamda ularning me‘mor-u muhandislari, ishboshi-yu mutavallilariga tasanno aytishi turgan gap. Tabiiyki, mana shu ulkan bunyodkorlik, ijodkorlik, shiddat-u shijoatkorlik g‘oyasining muallifi, bosh me‘mori va muhandisi, asosiy tashabbuskori va tashkilotchisi – Prezident Shavkat Mirziyoyev hisoblanadi. Shu ma’noda, uni Navoiydek benazir mutafakkirlarimiz vasf etgan buyuk zotlarga mengzashga, Yangi O‘zbekistonning Bosh me‘mori, deya alqashga haqqim bor, degan fikrdaman.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida me‘mor, binokor, bunyodkor va muhandis istilohlarini sinonim sifatida ishlatgan. Ya’ni me‘mor muhandisni ko‘chma, obrazli ma’noda, oddiy inson orzularini ro‘yobga chiqarishda ko‘maklashuvchi xaloskor tarzida ham tasavvur etgan.

*«Muhandise topayu egnima qanot yasatay,
Uchub havosida qushlar aro o‘zimni qotay»*,

deb yozadi u «Xazoyin ul-maoniy»da.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonning Bosh me‘mori bugungi davr zamondoshlari, ayniqsa ertangi kun yoshlari orzu-umidlariga qanot bag‘ishlash borasida ham tinimsiz izlanish, intilishda ekanini ko‘rmaslik, his etmaslik mumkin emas.

O‘z navbatida bugungi yoshlarimiz yurtimiz o‘tmishidagi O‘g‘izxon, Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin

Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon va boshqa ko'plab buyuk tarixiy shaxslar hayoti hamda faoliyatini keng va chuqur o'rganish bilan birgalikda ayni zamonda Yangi O'zbekiston tarixini yarata-yotgan donishmand va shijoatli Prezidentimiz faoliyatini mukammal bilishlari, u ilgari surayotgan ilhombaxsh g'oyalarni ong-u shuurlariga singdirishlari, bugungi farovon turmush hamda porloq kelajak uchun olib borilayotgan bunyodkorlik jabhalarining oldingi saflarida bo'lishlari shart, deb o'ylayman.

Shubhasiz, buning uchun avvalo Prezident asarlarini, uning mamlakat hayotining turli jabhalariga taalluqli dolzarb masalalarga oid ma'ruza va nutqlarini qunt bilan, sinchiklab o'rganishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, ularda keyingi yillarda mamlakatimizda o'tkazilgan tub islohotlar, amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar nazariy jihatdan mukammal asoslangan, ko'zlanayotgan yuksak marralarga erishishining eng to'g'ri va real yo'l-yo'riqlari belgilab berilgan.

Shularga asosan, mamlakatimiz rahbarini Yangi O'zbekiston me'mori deyishga barcha asoslar bor. Shu bilan birgalikda, gap har jihatdan yangi jamiyat bunyodkori haqida ketar ekan, nafaqat iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy, madaniy-ma'rifiy sohadagi, balki davlat qurilishining yana ko'plab boshqa tarkibiy qismlarida yuz berayotgan evrilishlar haqida batafsil to'xtalish, aniq misollar bilan tahliliy fikrlar bildirish joiz, albatta. Kamina davlatimiz rahbari siyosiy portretiga baholi qudrat ayrim chizgilarnigina darj etayotganim uchun uning serqirra faoliyatini to'lasincha aks ettirishga da'vo qilmayman. Tishim o'tmagan, qalamim ojizlik qilgan o'rinlarni mazkur sohalarining bilimdon mutaxassislari xolisona yoritib beradilar, degan umiddaman. Ana shunda biz uchun aziz va muhtaram bo'lgan Yurtboshimiz siymosi xalqimiz, shuningdek, butun dunyo ahli ko'z o'ngida yanada mukammal hamda munavvar namoyon bo'ladi. Va imonim komilki, uning nomi, hayoti va faoliyati jahon miqyosida o'rganish, ibrat

olishga loyiq davlat arboblari qatoridan joy oladi. Tariximizning faxr-iftixorga to‘la yorqin sahifalaridan munosib o‘rin egallaydi. Tabiiyki...

Tarixdagi barcha hukmdorlar va davlat boshliqlarini ham me‘mor-u muhandisga muqoyasa etib, bunyodkor-u ma‘rifatparvar sifatida e‘tirof etib bo‘lmaydi. G‘arb-u Sharq yilnomalarida hokimiyatini mustahkamlash va raqiblaridan qasd olish maqsadida nainki boshqa mamlakatlar, balki o‘z saltanati poytaxti Rimga o‘t qo‘ygan Neron, buzuqlik va ishratparastlik bilan «dovruq» taratgan Kaligula, yuzlab, minglab shaharlarni vayron qilib, qonga botirgan, millionlab kishilar yostig‘ini quritgan Chingizxon, Gitler singari ko‘plab nobakorlar qilmishlari ham aks etgan. Ming afsuski, qadim Markaziy Osiyo kechmishi ham bunday mudhish voqeliklardan mustasno emas. O‘z huzur-halovati va maishatidan boshqa narsani o‘ylamagan, G‘arb-u Sharq tarafdin bo‘lgan bosqinchilik urushlari chog‘ida irodasizlik ko‘rsatgan, o‘zaro taxt talashishlar oqibatida Amir Temur saltanatini parokanda qilgan, Shayboniylar sulolasini inqirozga uchratgan, Zahiriddin Muhammad Boburni «hind sori yuzlanish»ga majbur etgan, xudbinlikka, mansabparastlik va manfaatparastlikka berilib, boshboshdoqlik vaziyatini vujudga keltirgan, oqibatda yer yuzining gultoji bo‘lgan o‘lkani istibdod asoratiga tushirgan, asrlar davomida gullab-yashnagan shaharlarimiz mustamlakachilar tomonidan oyoq-osti qilinishiga sabab bo‘lgan, Mashrabni ostirgan, Nodirani so‘ydirgan, Furqat-u Muqimiylarni quvg‘in-u badarg‘a qildirib, jadid bobolarimizni zindonlarda chiritgan nodon-u noshudxonlar-u amirlar yilnomalar sahifasida zolim, ayni paytda qo‘rqoq va irodasiz, buzmakor va vayronkor kimsalar sifatida qoldilar. Ularning alaloqibat ayanchli qismati haqida tarixiy va badiiy asarlarda ko‘p o‘qiganmiz, alhazar, deganmiz. Alamlisi shundaki, barcha davrlarda ham nobakor, noshud-u notavon hukmdorlar qilmishlari asorati el-u

yurt ahvol-u ruhiyasida aks etgan, taraqqiyotga tushov bo'lgan, bir zamonlar yuksak darajada ravnaq topib gullab-yashnagan mamlakatlarni qoloqlik iskanjasi sari uloqtirgan. Tevarak-atrofimizdagi ayrim mamlakatlarda hanuzgacha davom etayotgan notinchliklar misolida bunga yaqqol ishonch hosil qilishimiz mumkin. Yaqinginamizda hamon hukm surayotgan ayanchli vaziyatlardan saboq olib, teran xulosalar qilmog'imiz darkor.

Ming shukrlar bo'lsinki, mana, o'ttiz yildan oshdi, mustaqil, ozod va tobora obod, eli shod yurtda, nainki Markaziy Osiyoda peshqadam, balki butun dunyoda o'zining munosib o'rne va nufuziga ega yuksak obro'-e'tiborli mamlakatda, qudratli davlatda yashayapmiz. Uning bayrog'i ishonchli qo'llarda, bayroqdori jasur va matonatli, biz sidqidildan ishonch bildirgan ulkan Shaxs hisoblanadi. Biroq...

Prezidentimiz takror va takror uqtirayotganidek, hozir butun yer yuzi aholisi o'ta murakkab zamonda yashamoqda, dunyo qalqib turibdi. Bashariyat taqdiriga kuchli xavf soluvchi turli tahdidlar paydo bo'lmoqda. Tevarak-atrofdagi ayrim davlatlarda, shundoqqina chegaralarimiz ortida nimalar bo'layotganidan, jahon miqyosida qanday umumbashariy o'tkir muammolar yuzaga kelayotganidan xabardormiz. Bu esa butun xalqimizdan dono yo'lboshchi atrofida mustahkam jiplashgan holda ahil-u inoq bo'lib, sergak va hushyor bo'lib, g'ayrat-shijoatni, fidoyilikni aslo susaytirmasdan halol va fidokorona mehnat qilish, mamlakatimiz tinchligi va xotirjamligi, ona-Vatanimiz ravnaqi yo'lida komil ishonch bilan olg'a intilishimiz zarurligini taqozo etadi. Jamiyatimiz a'zolarining mutlaq ko'pchiligi mana shu oddiy haqiqatni, muhim zaruratni teran angelayotgani, shubhasiz, ko'nglimizga taskin-u yorqin umidlar bag'ishlaydi.

Ushbu fikrlarni yozar ekanman, yoshlik yillarimda xush ko'rib o'qigan va yod olganim – akademik shoirimiz G'afur G'ulom qalamiga mansub quyidagi bag'oyat hikmatli satrlar yodimga tushdi:

*«Yigit omon bo‘lsa, xavfu xatar yo‘q,
Qalqon bor, qal‘a but, qo‘rg‘on salomat.
Chollar uyqusida jannat farog‘at,
Qizlar kulgusida avju daromad».*

Inshaalloh, abadul abad shunday bo‘lsin!

Ushbu tilakdan so‘ng kitobga so‘nggi nuqtani qo‘yish niyatida edim. Biroq...

Keyingi paytlarda shogirdlarim taklifiga binoan bir necha marta «Uch avlod uchrashuvi» nomli bag‘oyat ibratli tadbirda qatnashishga muassar bo‘ldim. Ana shu e‘zozli davralar to‘rida o‘zimga o‘xshash ko‘plab pir-u badavlat otaxonlar, kayvoni onalar qatorida o‘tirib, respublikamiz Prezidentining mamlakatimizda keksa avlod vakillariga, ustoz-u murabbiylarga munosabatni eng oliy qadriyatlardan biriga aylantirish borasida ilgari surgan g‘oyalar, ularning kutilganidan ham ziyod darajada hayotga tatbiq etilayotgani xususida g‘urur bilan ko‘p o‘yladim va yozayotgan kitobim nihoyasiga shu mavzuda bir bob qo‘shish fikriga keldim. Zero...

Bu qarorimning kitob uchun tanlangan asosiy mavzuda ham salmoqli o‘rni bor ekan. Bir zamonlar yosh va shiddatkor shogird sifatida ustozlar duosini olib, ular yo‘lini tutib, o‘qish-o‘rganish, ilmning mashaqqatli so‘qmoqlaridan sabot bilan ilgarilab, o‘qituvchi murabbiy bo‘lib, so‘ngra siyosat sahnasiga chiqib, uning murakkab sinovlarida chiniqib, halol mehnat qilib, adolat tarozisini mahkam ushlab kamolga yetgan umumjahon miqyosidagi ulkan davlat arbobi maqomiga erishgan shaxs endilikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida el yo‘lboshchisi, millionlab yoshlarning g‘amxo‘r va talabchan ustoz. Va shunga mutlaqo amin bo‘lyapmanki, u ustozlik degan sharafli unvonni jamiyki rutbalardan sarbaland ko‘rayotir. Ana shu bebaho tuyg‘uga izzat-ikrom ramzi o‘laroq quyidagi bob yuzaga keldi.

O'n birinchi bob

SHOGIRD KAMOLATI – USTOZ SAODATI

Qadimul ayyomdan ma'lum haqiqat bor: har bir kishining qanday tarbiya topishi, qay tarzda kamolga yetishi, hayotdagi o'rnini va kelajagini belgilashi, taqdiri azalning turfa yo'llaridan qay birini tanlashi, shubhasiz, u mansub bo'lgan ajdodlar silsilasi hayoti va an'analari, tug'ilib o'sgan muhit, mavjud hayot tarzi, shart-sharoit, nasl-nasab, xonadon, ota-ona, qolaversa, qavmu qarindosh-u mahalla-ko'ygga va, ayniqsa ustoz-u murabbiylarga bevosita bog'liqdir. Binobarin, bugun davlatimiz rahbariyatining irodasi bilan mamlakatimizda ana shu muqaddas qadriyatlarni oldingi o'ringa olib chiqish, ulug'lash davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgani ham bejiz emas. Bas, shunday ekan, ruxsatingiz bilan suhbatimizni, avvalo, o'zim kamol topgan oila, uning olamga mashhur boshchisi, mamlakatimiz tarixida o'zining munosib o'rniga ega inson, hayotdagi ilk ustozim – Sotsialistik Mehnat Qahramoni, dongdor paxtakor, el-yurt oqsoqollaridan bo'lgan muhtaram padari buzrukvorim Iskandar Do'sov haqidagi qisqacha xotiralardan boshlasam. Zero, bu menga cheksiz sevinch va g'urur bag'ishlaydi. Muqaddas dinimiz, azaliy urf-odatlarimizga ko'ra, otalar ruhini shod etmoq har bir inson uchun farzi ayndir. Ayniqsa, mendek muayyan hayot yo'lini bosib o'tib, bugungi kunda baxtiyor keksalik gashtini surayotgan yoshi ulug' kishilar uchun buning alohida zavq-u sururi bor, albatta.

Rahmatli otamiz oddiy dehqon oilasida tug‘ilib, suyagi mehnatda qotgan, o‘z zahmatkashligi orqasidan obro‘-izzat topib, umr bo‘yi paxtakorlik kasbiga sodiq bo‘lib qolgan insonparvar, oilasevar, zakovatli va mustahkam irodali kishi edilar. Ikkinchi jahon urushidan og‘ir yarador bo‘lib qaytgani, shuning oqibatida jismonan qiyinchilik bilan harakatlanishlariga qaramay, yana dalaga otlanganlar va urush jarohatlari azobini qattiq mehnat bilan yengishni o‘z turmush tarziga aylantirganlar. Buni o‘z shogirdlariga, farzandlariga ham qunt bilan singdirgan.

U rahbarlik qilgan xo‘jalik paxtachilik sohasida qator yillar davomida muttasil ravishda yuksak natijalarga erishib, viloyat, respublika va, hatto Ittifoq markazidagi rahbarlar nazariga tushgan. Binobarin o‘sha davrda SSSRning eng yuksak mukofotiga sazovor bo‘lishi tasodifan emasdi. O‘zbekistonning dono va elparvar rahbari Sharof Rashidov esa u bilan yaqin do‘stlashib, tez-tez uchrashib, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish, paxtachilikda ishlarni tashkil etish bobida suhbatlashib, maslahatlashib turganlar.

Elimizning shavkatli solnomasiga nomi zarhal harflar bilan bitilishga arzigulik ustozlardan yana biri, taqdir taqozosi bilan menga qadrdon bo‘lib qolgan ulug‘ inson, Shavkat Mirziyoyevning padari buzrukvori Miromon Mirziyoyevdir. U bilan tanishuv va qisqacha suhbat xususida yuqorida muxtasar to‘xtalib o‘tgan edim. Mana endi mavridi kelgani uchun u bilan bo‘lgan keyingi uchrashuvlarimiz, bu ziyoli, fidoyi insondan hayot hikmatlari haqida tinglagan hikoyalarim to‘g‘risida yana so‘zlasam.

O‘sha dastlabki muloqotdan so‘ng u bilan yana bir necha bor ko‘rishib, zavqli suhbatlar qurdik. O‘z hayotini kishilar salomatligini saqlash sohasiga baxshida etgan bu insonni chin ma’noda fidoyi deyish, o‘z qalbini yondirib kishilar yo‘lini yoritgan Dankoga qiyoslash mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyingi og‘ir yillarda butun mamlakatda

sil kasalligi keng tarqalgan edi. Ildizi ocharchilik, qahatchilikka borib taqaluvchi bu ijtimoiy va o'ta yuqumli xastalikka qarshi kurashga bel bog'lashga, ochig'i, uncha-muncha vrachlar-u hamshiralarning yuragi dov bermasdi. Miromon Mirziyoyev o'z qalbida shunga jur'at-u jasorat topib, nainki o'zi, balki rafiqasini ham yoniga olib, uzoq tog'li tuman-dagi maxsus shifoxonani uzoq yillar mahorat bilan boshqardi. Aynan uning fidoyiligi samarasi o'laroq, nafaqat Zomin tumani, balki teva-rak-atrofdagi ko'plab hududlarda mana shu og'ir dard ustidan g'alaba qozonildi. Miromon Mirziyoyev el sog'lig'ini saqlash yo'lidagi fidoko-rona mehnatlari uchun haqli ravishda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

Miromon Mirziyoyev mana shu mashaqqatli kasbiga ko'plab yoshlarni jalb etib, ajoyib shogirdlar yetishtirdi. Ularning ko'pchiligi hozirga qadar o'z kasblarini ulug'lab, el-u xalqqa beminnat xizmat qilib kelmoqdalar.

«O'z shogirdlariga mehnatdan zavq olishni o'rgata olgan ustoz sharaflarga loyiqdir», deya lutf etgan ekan ingliz adibi Elbert Xabbard.

Bu e'tirofni padari buzrukvorlarimiz Iskandar Do'sov, Miromon Mirziyoyev singari insonlarga nisbatan tatbiq etishga ma'naviy jihatdan to'la haqqim bor, deb o'ylayman. Chunki, avvalo, ularning o'zlari kasbla-rini cheksiz sadoqat bilan sevar, buni kundalik faoliyatida yaqqol isbotlab ko'rsatar hamda boshqalarda shunga beixtiyor hayratli havas uyg'otar edi.

Ayni paytda ular har bir yosh yigit-qiz, har bir shogird fazl-u kamolotga faqat ilm, fan-texnika taraqqiyoti orqali erishishi mumkin-ligini barvaqt anglab yetgan insonlar bo'lishgan. Binobarin, nainki o'z farzandlari, balki qishloqdagi barcha yoshlarni bilim olishga, za-monaviy kasblarni egallashga muntazam undashgan, bu borada qo'lidan keladigan yordamni hech kimdan ayashmagan.

Donishmandlar, «Yoshlikda olingan ilm – toshga o'yilgan naqsh», deganlaridek, bolalikdan quloqqa quyilgan jo'yali pand-nasihatlar, hosil

qilingan ilk tasavvur va ko‘nikmalar inson istiqbolida naqadar muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Padari buzrukvorlarimizni, ilk ustozlarni eslash asnosida hikoyamga jon kirituvchi, chinakam dolzarb va amaliy ruh bag‘ishlovchi g‘oyat hikmatli shohona bayt-u satrlarni xayolimdan o‘tkazdim.

Hazrat Alisher Navoiy demishlarki:

*«Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila».*

Bu bejiz emas, shekilli. Avlodlar uzviyligi, ya’ni ustoz-shogirdlik an’anasi azal-azaldan millatimiz zehniyatining noyob durdonalaridan, ma’naviy kamolotining tayanch nuqtalaridan biri, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, asrlar bo‘yi muqaddas tushunchalarimizdan biriga aylangan, hozirgi paytda, ayniqsa, alohida e’tibor berilayotgan, yuksak darajada e’zozlanayotgan va tamoman yangicha mazmun-mohiyat bilan boyitilayotgan qadriyatlardandir. Bugun bizda o‘qituvchining obro‘si, moddiy va ma’naviy turmush darajasi sabot bilan oshirilayotgani, barcha sohalarda ustoz-u murabbiylar qadri osmon qadar yuksalayotgani ayni haqiqatdir.

Dono xalqimiz tilida: «Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar», degan ajoyib ibora bor. Judayam haqqoniy maqol. Gapning rosti, men umrim bino bo‘lib, hayot yo‘limda nimagaki erishgan bo‘lsam, barchasi, avvalo, samimiy va beg‘araz, mehribon va ayni paytda o‘ta talabchan ustoz hamda murabbiylarimning dono maslahatlari, beminnat ko‘maklari, undan keyin vafodor do‘stlarning qo‘shqanot va shubhasizki, sadoqatli shogirdlarning ruhan madad-u quvvat bo‘lishlari samarasi deb bilaman. Yaratganga behisob shukrlarki, taqdir meni hayotim va faoliyatimning barcha bosqichlarida benazir va buyuk ustozlarga ro‘baro‘ qildi.

Bu haqda soʻzlar ekanman, eng birinchi galda, mamlakatimizga uzoq yillar donishmandlarcha rahbarlik qilgan buyuk siyosat arbobi, ulugʻ ijodkor, bagʻoyat ulkan shaxs va beqiyos inson Sharof Rashidov nomini tilga olishni odamiylik burch, deb bilaman. Albatta, har bir inson uchun maktabda qoʻliga ilk bor kitob-daftar tutqazib, harf oʻrgatib, tasavvurini bilim ziyosi bilan munavvar etgan birinchi oʻqituvchidan boshlab, institutda taʼlim bergan, ilmiy izlanishlarini astoydil qoʻllab-quvvatlagan domlari-yu ilmiy rahbarlarning mehnati qadri benihoya yuksakdir. Ulardan har qaysisining aziz va tabarruk nomi umrimiz kitobining muqaddimasi-yu mundarijasiga alohida zarrin harflar bilan oʻchmas qilib bitilgan. Lekin...

Inson oʻz hayotidagi burilish nuqtalariga sababchi boʻlgan, orzu-umidlarining yorqin yoʻliga boshlagan muhtaram ustozlar siymosiga alohida nozik tuygʻular, hech qachon soʻnmaydigan, hattoki umrbod zarracha kamaymaydigan bir ehtirom bilan qaraydi. Shu maʼnoda Sharof Rashidov mamlakatimizdagi koʻplab kishilar, jumladan, mening taqdirimda alohida, hal qiluvchi rol oʻynagan, desam mubolagʻa boʻlmaydi. Uning Shavkat Mirziyoyev bilan tanishuvi, bu yosh olim yigitning istiqboli haqida astoydil qaygʻurgani haqida yuqorida hikoya qilib oʻtdim.

Shu oʻrinda Sharof Rashidovga xos buyuk bir insoniy fazilatga alohida toʻxtalib oʻtmasam boʻlmaydi.

U kishi respublikaning barcha viloyatlari, shahar-u tumanlari, qishlogʻ-u kentlarini qadam-baqadam kezishni, dalalar-u bogʻlarni, dashtlar-u yaylovlarni aylanishni, shuning asnosida oddiy paxtakor dehqonlar, chorvador-u bogʻbonlar, choʻlquvarlar-u suvchilar bilan dildan suhbatlashishni yaxshi koʻrar edilar. Uning ajoyib asarlarini oʻqigan kishi oʻzbek xalqining xarakterini naqadar chuqur bilganligiga ishonch hosil qilib, samimiy hayratga tushadi. Nazarimda, bu jonajon diyor boʻylab qilingan son-sanoqsiz safarlar, qiziqarli suhbatlarning samarasi boʻlgan.

Ana shunday safarlar chog‘i respublika oqsoqoli yoshlar bilan dillashishga, ularning orzu-intilishlari haqida surishtirishga ham vaqt topar, ularning kelajakdagi rejalari bilan oshno bo‘lib, qimmatli maslahatlar berar, iste’dodi yarq etib ko‘zga tashlanib turgan yigit-qizlarni alohida e’tiborga olib, yodida saqlar, o‘qishi-yu ishi davrida surishtirib, zarur hollarda ko‘maklashar ham edilar.

Hikoya qilishlaricha, bir kuni Samarqandning dashtli tumanlaridan birini aylanib, viloyat rahbari hamrohligida mashinada shaharga qaytayotgan Sharof akaning yo‘l chetida eshakka mingan ko‘yi kitobdan ko‘z uzmay mutolaa qilib ketayotgan bir o‘smirga ko‘zi tushadi. Mashinani to‘xtatirib, o‘sha kitobsevar yigitcha bilan tanishadi, suhbat davomida turli savollar beradi. Zehni o‘tkir ekaniga ishonch hosil qilgach, viloyat rahbariga shu yigitning istiqbolini o‘z nazoratiga olishni iltimos qiladi. O‘sha yigitcha keyinchalik respublikadagi yetakchi matematik olimlardan biri bo‘lib yetishadi.

U Xorazmga ham ko‘p kelardi. Viloyatning taniqli olim-u fuzalolari, shoir-u shuarolari deysizmi, bulbulnafas hofiz-u san’atkorlari, deysizmi, yaxshi bilardi. Ayniqsa usta dehqonlar, paxtakor-u sholikorlar, bog‘bon-u chorvadorlar bilan suhbatlashishni xush ko‘rar, ularning aksariyati bilan shaxsan do‘st-u qadrdon bo‘lib ketgan edi. Jumladan, padari buzrukvorimni ham yaxshi ko‘rar, samimiy hurmat qilardi.

Bunday voqealar, albatta, aksar yosh yigitlar uchun Allohning nogahoniy tuhfasi, baxt-u omadning kulishi bo‘lib ko‘rinadi. Aslida ham shunday. Ya’ni mamlakat rahbarining nazari-yu e’tiboriga tushish har kim uchun porloq kelajak, yulduzli onlar kafolati hisoblanadi axir.

Xalqimizning pir-u badavlat oqsoqollaridan biri, ayni kunlarda salkam bir asr bilan yuzlashay deb turgan benazir inson, yetuk olim va siyosat arbobi, g‘amxo‘r va qattiqqo‘l ustoz Oqil Umrzoqovich Salimov haqida ham alohida to‘xtalib o‘tmasam bo‘lmas. U kishining istiqbolli yoshlarni sinchkovlik bilan aniqlashi va sidqidildan qo‘llab-quvvat-

lashi haqida ushbu e'tibor va ko'makdan bevosita bahramand bo'lgan minglab olimlar-u arboblar minnatdorlik ila guvohlik berishi mumkin.

Esimda u Sharof Rashidovich ko'rsatmasiga binoan kaminani partiya idoralarida ishlatib, mas'ul lavozimlarga tavsiya etishni niyat qilgan edi. «Men siyosatga emas, ilmiy ishga qiziqaman, qolaversa, otamga bergan va'damga binoan, muhim bir kashfiyot yo'lida qattiq izlanishlar olib boryapman, shuning uchun menga tadqiqotlarimni davom ettirishga ruxsat bersalaringiz», dedim. Oqil Umrzoqovich ham otamni yaxshi bilar va juda hurmat qilardi. Fan sohasidagi intilishlarim haqida mufassal suhbatlashgach: «Bu qat'iyating Sharof Rashidovichga ham albatta ma'qul tushadi va, men aminman, seni to'g'ri tushunib qo'llab-quvvatlaydilar», – dedi. Shu tariqa men oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar yo'nalishida faoliyat ko'rsatdim.

Hikoyamning boshida yoshlar yetakchisini tanlash borasidagi sa'y-harakatlarimni o'sha paytda O'zbekiston Kompartiyasi Markazqo'mi kotibi bo'lgan Oqil Umrzoqovich astoydil yordam berganini aytib o'tgandim. Bunga qo'shimcha tariqasida ta'kidlashim shart: keyinroq Oqil aka institutga rektor bo'lib kelgach, yosh olim va rahbar Shavkat Mirziyoyevning unib-o'sishi, siyosat maydoniga yo'l olishida o'zining oqilona maslahatlari, qo'llab-quvvatlashi bilan sidqidildan ishtirok etdi. Undan tashqari yana ko'plab shogirdlarning yo'li oydin, kelajagi porloq bo'lishiga katta hissa qo'shdi.

Ustoz-shogirdlik qadriyati va bu muqaddas udumimizning Shavkat Mirziyoyev hayot yo'li, uning ulkan davlat arbobi bo'lib yetishuvidagi ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimovning bu boradagi o'rni haqida ham alohida to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. Mamlakatimiz tarixida, shubhasiz, o'chmas iz qoldirgan bu ulug' inson o'z vaqtida Shavkat Mirziyoyev siymosida mohir va g'ayrat-shijoatli rahbar, olamshumul-tarixiy ishlar-ga qodir siyosatchi, har jihatdan barkamol davlat arbobi shakllanganini

ko‘ra olgan, dastlab poytaxtdagi eng yirik tumanlardan birini, so‘ngra ikki viloyatni boshqarishni va nihoyat respublikadagi, ta‘bir joiz bo‘lsa, eng qiyin, eng murakkab vazifa – Bosh vazirlikni ishonib topshirgan edi. Bu ishonch naqadar yuksak darajada oqlanganiga xalqimiz, qolaversa, butun dunyo jamoatchiligi guvoh.

Shuning samarasi o‘laroq butun jahon ahli ko‘z o‘ngida, xalqaro demokratik tamoyillar asosida o‘tgan umumxalq Prezident saylovlarida aholining asosiy ko‘pchilik qismi sira ikkilanmasdan o‘zi yaxshi bilgan, sidqidildan ishongan nomzod – Shavkat Mirziyoyevga ikki karra ovoz berdilar. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, el-u xalqning osoyishtaligi va farovonligi, millatlararo totuvlik saqlangan holda iqtisodiy taraqqiyotning tamoman yangicha sur‘atlariga erishilayotgani, bir jumla bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston, deya atalmish ulug‘ va qudratli davlat yaratilayotgani ana shu ishonch ham sharaf bilan oqlanayotganini yorqin namoyon etmoqda.

XULOSA O'RNIDA

Muqaddimada qisman fikr yuritib o'tganimdek, odatda dunyo miqyosidagi ulkan siyosatchilar, davlat arboblari haqida gapirish, yozish, fikr-mulohazalar bildirishga birinchi galda faylasuflar, tarixchilar, siyosatshunoslar aynan ana shu sohalarga yaqin yetuk mutaxassislar, taniqli olimlar haqli hisoblanishadi. Zero, ular bu mavzuni davlat va jamiyat tarixi, uning falsafasi, amaldagi siyosat natijalarini o'zlari bevosita shug'ullanadigan fanlardagi mavjud mezon-u me'yorlarga tayangan, shuningdek, dunyo tamadduni talab va qoidalari, shu bilan birgalikda har bir xalq-u millat, davlat-u mamlakatdagi o'ziga xosliklarni nazardan qochirmagan holda tahlil-u tadqiq etishning hadisini olganlar. Bu borada yetarlicha tajriba to'plaganlar. Aynan shuning uchun ham ularning tahlil miqyoslari keng, mulohazalari chuqur, baholari haqqoniy hisoblanuvchi asarlari har qanday kitobxon tomonidan katta qiziqish bilan o'qiladi. Bu tadqiqotlarning ba'zilari dunyo miqyosida tan olingan bo'lib, jahon tarixi va siyosatshunosligi xazinasidan haqli o'rin egallagan. Kamina ushbu risolani darj etish asnosida dunyo miqyosida ma'lum-u mashhur qator muarrixlar-u siyosatshunoslar, shuningdek, bu sohaga, ayniqsa keyingi paytlarda dadil kirib kelayotgan o'zimizning mahalliy mualliflar asarlarini o'qib, shunga takror-takror ishonch hosil qildim.

Albatta, bashariyat o'ylab topgan, ko'plab avlodlar tomonidan e'tirof etilgan va tan olingan, binobarin, asrlar davomida joriy etgan jamiki

qoidalar ham baribir nisbiy ekanligi hamda ularning barchasida istisno borligini tan olmaslik mumkin emas. Har holda...

Bu iddaoni o‘rtaga tashlayotganimga sabab – «Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin» qabilidagi maqollar har qancha shartli ekanligiga qaramasdan o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmagan va yuksak texnologiyalar tobora keng, chuqur joriy etilayotgan hozirgi zamonda ham yo‘qotmaydi, degan fikrdaman. Lekin...

Nima va qanday bo‘lgan taqdirda ham har bir yumush va ishning samarasi, eng avvalo, niyatning xolisligiga bog‘liq.

Shu ma‘noda ushbu yozuvlarimni o‘z nihoyasiga yetkazar ekanman, bu boradagi ezgu maqsadimga erishdim, ya‘ni ko‘nglimdagi barcha samimiy fikrlarni xolisona bayon qildim, degan ishonchdan taskin-u halovat topaman.

Ikkinchidan, davlat boshliqlarining yurt obodligi-yu el farovonligi yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan yangi-yangi ezgu g‘oyalari, xayrli tashabbuslari, ularning quvonchli natijalari xususida ko‘proq shoir-u yozuvchilar, jurnalistlar qalam tebratishlariga ko‘nikib qolganmiz. Bu – ularning vazifalari. Lekin shu o‘rinda qanchalik achchiq bo‘lmasin, xolis bir fikrni aytib o‘tishni o‘z insoniy burchim deb bilamanki, bu boradagi asarlarning anchaginasini ko‘pincha ortiqcha his-hayajon, balandparvoz, lekin quruq gaplar, yuzaki va mubolag‘ali maqtov, hatto madhiyabozlikdan iborat bo‘lib qoladi. Bu esa sog‘lom fikrli kishilarning g‘ashini keltiradi. Kamina ana shu muhim jihatni ko‘zdan, diqqat-u e‘tibordan qochirmaslikka imkon qadar harakat qildim. Qaysidir o‘rinda quyushqondan chiqib ketgan bo‘lsam, ma‘zur ko‘ring. Bu – juz‘iy hol.

Uchinchidan, tarixan barcha davlat-u mamlakatlarda, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadagi jamiyatlarda mavjud tuzum, uning rahbariyati olib borayotgan siyosatni chetda yoki mamlakat ichkarisida turib mudom tanqid qiluvchi, muttasil badbinlik qiluvchi norozi

kishilar bo'lgan, bor va kelajakda ham bo'lajak. Bunga ajablantirishning hojati yo'q. Ha haqiqat bahslarda tug'iladi, hayot hamisha dunyoqarashlar, fikrlar kurashidan iborat. Taraqqiyot dialektikasi shunday.

Shu ma'noda kitobimning ma'no-maqsadini noto'g'ri qabul qiluvchilar ham bo'lishi mumkinligini tushunaman va ular bilan oldindan munozaraga kirishmoqchi emasman. Faqat yagona istak shuki, har qanday kontekstda ham xolislik va haqiqat mezonlari unutilmasa bas. Zero...

Axborot texnologiyalari mislsiz rivojlanib borayotgan bugungi kunlarda g'oyalar kurashi tobora keskinlashmoqda. Vayronkor kuchlar so'z erkinligi niqobi ostida o'z qarashlarini aholi, ayniqsa yoshlar ongiga zo'ravonlik bilan singdirishga, jamiyatda norozilik kayfiyatlarini, eng yomoni, notinchlik uyg'otishga oshkora va hattoki bezbetlarcha urinayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Ayrim xorijiy mamlakatlarda bu qanday oqibatlariga olib kelganidan xabarimiz bor.

Bas shunday ekan, sog'lom fikr hifz-u himoyati yo'lida mustahkam iroda va qat'iyat ko'rsatilishi lozimligiga ishonch hosil qiladi, kishi. Ana shunday lahzalarda bani bashariyat, shu jumladan, bizning dono xalqimiz, asrlar bo'yi, ne-ne mashaqqatlar bilan bo'lsa-da, tinimsiz takomillashib kelayotgan, ayniqsa keyingi yillarda tub burilish-u evrilishlarga dadil ko'krak ochgan jamiyatimiz erishgan har bir xayrli ishni, ezgu o'zgarishni, yaxshi natijalarni, ozodlig-u obodligimizni ko'z qorachig'iday asrashimiz, bu harakatning oldingi saflarida borayotgan jasur peshqadamlarimizning yonida bo'lishimiz, qanotiga kirishimiz kerakligi hayotiy va tarixiy zarurat. Bu da'vatni eng oddiy, eng insoniy va ayni paytda xolis ishonarli qilib aytsam, baholi qudrat mulohazalarimni bildirsam, ozgina dalda bo'larmikanman, degan o'ylarga borasan, kishi.

Shu ma'noda har qanday jamiyatda siyosatshunoslarning uzoq asrlik tarixiy davrlar tajribasi bilan asoslangan nazariy xulosalari-yu

teran ilmiy ishlanmalari, ilgari surgan qimmatli g‘oyalarini ham, ijod ahlining tom-tom go‘zal mazmunli asarlarini ham rad etmagan holda azaldan ma‘lum oddiy bir haqiqatni aytsam, har qanday tarixiy davr, shaxs haqidagi eng mukammal va to‘g‘ri xulosani eng odil hakam bo‘lmish Vaqt oliy hazratlari belgilaydi. Mazkur yaxlit hamda odilona xulosaning shakllanishida esa faqat va faqat tor manfaat-u tamalardan xoli, mardona, xolis hamda beg‘araz baholarga tayanuvchi barcha fikrlar, ko‘p va xo‘b mulohazalar inobatga olinishi mumkin. Bu bilan nima demoqchiman?

Aytmoqchimanki, bugungi axborot texnologiyalari mislsiz darajada taraqqiy etgan, har bir ongli inson o‘z fikr-u qarashlarini nafaqat choyxonadagi ulfatlari, balki butun dunyo jamoatchiligi hukm-u e‘tiboriga havola etish imkoniyatiga ega bo‘lib turgan bir sharoitda rost va xolis fikr bildirishdan, ularni tahliliy maqolalar, kerak bo‘lsa, keng ko‘lamli asarlarda aks ettirishga istihola etmasligimiz darkor. Bu bilan asl haqiqatni aytgan, sarhadsiz axborot maydonini turli salbiy hodisalardan, chunonchi tuhmat-u bo‘htonlar, soxta ma‘lumotlardan, vayronkor kuchlarning zimdan va oshkora xurujlaridan himoya qilgan, xalqimiz ko‘ngliga ezgulik urug‘larini ekkan, uning, qolaversa, jahon jamoatchiligi idroki va tasavvurini hozirgi paytda «feyk» deb ataluvchi yomg‘irday yog‘ilayotgan yolg‘on axborot xurujlaridan asragan, haqqoniyat va adolatga beminnat xizmat qilgan bo‘lamiz.

Shu bilan birgalikda bu el-yurtimizdagi osoyishtalik, ahillik, bunyodkorlik, ko‘tarinki kayfiyatni bardavom, yuksak ma‘naviy-axloqiy muhitni barqaror saqlashga qo‘shgan hissamiz hisoblanadi. Zotan...

Ahli ilm, oqil-u dono kishilar azal-azaldan keskin bahs-u munozaralardan o‘zlarini chetda, aslan olganda, balandda tutadilar. Arab maqolida ta‘kidlanganidek: «as sumtu hikmatun», ya‘ni hikmat sukutda, deb biladilar. Bu – to‘g‘ri. Bu haqiqatni inkor etib bo‘lmaydi. Biroq jamiyat taraqqiyotining eng nozik, eng muhim ahamiyatga ega

bo'lgan burilish nuqtalarida, xalq-u millat sardor-u sarkorlari bag'oyat yuksak, el-u yurt taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tarihiy va olamshumul, ayni paytda o'ta mashaqqatli va mas'uliyatli g'oyalarni ilgari surib, shu yo'lda o'zlari jonfidolik qilaroq butun raiyatni o'z ortlaridan ergashtirishga jazm-u shijoat etayotgan kezlarda sukut saqlash bilan cheklanish mumkin emas, garchand sukut rizolik alomati hisoblansa ham. Ahli ilm-u ijod, san'at-u madaniyat, qolaversa, barcha sohalarning bilimdonlari, pir-u badavlat oqsoqollarimiz, kayvoni onalarimiz, shiddatli va yovqur yosh avlod vakillari o'zlarining salmoqli so'zlarini aytishlari juda katta ahamiyatga ega, deb o'ylayman.

Endi ruxsatingiz bilan kitobimga uch-to'rt kalima baholi qudrat xulosa qilsam.

Birinchi xulosa shundan iboratki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning chin ma'noda el-u yurt mehrini qozonishiga asos bo'lgan eng muhim va hal qiluvchi omil uning Ona Vatani va jonajon xalqiga bo'lgan cheksiz Muhabbatidir. Zotan, buni u amalda aniq ko'rsatdi va raiyat buning haqiqiyliigi va samimiyligiga yorqin ishonch hosil qildi.

Davlat rahbari sifatidagi ilk qadamlarini xalq istiqboli sari tashlagani, dastlabki kunlardanoq el orasiga tomon yurgani, bevosita uning shahari-yu qishlog'iga, mahallasiga intilgani, uyiga kirib borishdan, tuflisini yechib, kamtarona dasturxonni tevaragiga o'tirib, bir piyola choyini ichishdan, bevosita yaqindan tanishib, arz-u holini tinglashdan erinmagani, fidoyi safdoshlaridan boshlab oddiy kishilarningda azasiga borib, hamdardlik bildirish va duoi fotiha qilishni, texnogen falokat tufayli xonadoni buzilib ko'chada qolgan jabrdiydalarning yonida turib, ko'ziga qarab, bag'riga bosib ko'ngil so'rashni muqaddas burch deb bilgani va ularning muammolarini zudlik bilan hal qilib berish uchun favqulodda jur'at hamda topqirlik ko'rsata olgani, ayrim holatlarda mavjud an'analar-u tartiblardan bir qadar farqli o'laroq istisnoli qarorlar qabul qilishdan-da cho'chimaganiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q.

Esingizda bo‘lsa, Sardoba toshqini tufayli xonadoni suv ostida qolib, bor-yo‘g‘idan ayrilgan, ayniqsa, uzoq yillardan buyon mashaqqat bilan tayyorlab kelayotgan nomzodlik dissertatsiyasi qo‘lyozmasi va boshqa materiallaridan judo bo‘lgan yosh olim ayolning chorasizlikdan javdiragan yoshli ko‘zlariga qaragan Prezident uni o‘sha yerning o‘zida istisno tariqasida fan nomzodi, deya e‘lon qilgandi. Yoki viloyatlarining birida yosh avlod vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvda favqulodda iste‘dod namunasini namoyish etgan navqiron shoir yigitning davlat rahbari tomonidan respublika yozuvchilar uyushmasi a‘zoligiga tavsiya qilinishi va bu tashabbusning nainki o‘sha anjumanda bevosita ishtirok etgan, balki bu uchrashuvni «zangori ekran» orqali tomosha qilib turgan butun mamlakat yoshlari tomonidan zo‘r xursandchilik bilan olqishlanishi, yana shunday bir mashvaratda alohida qobiliyat va shijoatga ega o‘smir yigitchaning «Mard o‘g‘lon» mukofoti bilan taqdirlanishi yodingizda bo‘lsa kerak. Yoinki, endilikda butun mamlakatimiz o‘quvchi yoshlari orasida keng quloch yozgan kitobxonlik harakatiga sabab bo‘lgan da‘vat, ya‘ni davlat rahbarining eng ko‘p kitob o‘qigan yigit-qizlarga Prezident sovg‘asi tariqasida avtomashina taqdim etilishi tashabbusidan hoynahoy xabardorsiz. Bunday voqealarning hayotbaxsh ta‘siri millionlab kishilar qalbida aks-sado beradi. Zamonaviy istiloh bilan aytganda, juda kuchli motivatsiya uyg‘otadi. Davlat rahbarini xalqqa maksimal darajada yaqinlashtiradi, oddiy kishilarning ham unga nisbatan safdoshlik, hamnafaslik hissini, shu bilan birgalikda barchamizniki bo‘lgan shu Vatanga egalik, uning taqdiri, kelajagi uchun javobgarlik tuyg‘ularini kuchaytiradi.

Xo‘sh, bunga qanday erishildi?

Fikrimcha, buning eng birinchi sababi – Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida iqtidorga kelgan dastlabki kunlardayoq o‘zi ilgari surayotgan jangovar shiorlarga, avvalo, shaxsan o‘zi amal qildi. Nazarimda, uning uzoq va yaqin tarixdagi anchagina davlat bosh-

liqlaridan keskin farqi ham, avvalo, xuddi mana shunda. Serg'ayrat va tinib-tinchimas, ulkan miqyosdagi umummilliy, umumdavlat, hatto xalqaro ahamiyatga ega tadbirlarni pishiq-puxta, salobat ila uyushtirish va munosib darajada o'tkazishdan boshlab, kundalik eng oddiy, yelib-yugurish va bevosita boshida turib nazorat qilishni talab etuvchi insoniy muammolarni yechishdan erinmaydigan, nuroniy va ziyobaxsh chehrali, samimiy nigohli oliy rahbarni keng xalq ommasi quchog'ini ochib kutib olmoqda, unga bemalol ko'nglini yormoqda, o'y va tashvishlarini yashirmasdan aytmoqda. Binobarin...

Buyuk shoirimiz bundan yuz yilcha oldin yozgan mana bu o'tli satrlarda naqadar teran haqiqat mujassam ekanligi va ana shu haqiqatga mamlakatimiz bugungi rahbariyati tomonidan qat'iy amal qilinayotgani yaqqol ayon bo'lmoqda:

*«Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!...»¹*

Ikkinchidan, u O'zbekiston Respublikasi degan navqiron mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti, xalqining farovonligi uchun ayni shu bugun, shu soatlarda qilinishi zarur bo'lgan eng birinchi navbatdagi, eng muhim islohotlar va o'zgarishlarni aniq belgilay oldi. Va ana shu islohot va o'zgarishlarni amalga oshirishga zudlik bilan kirishdi. Holbuki, bu o'zgarishlarning ayrimlariga qo'l urish... anchayin jiddiy tavakkalchilik bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emasdi. Ammo ne ajab va hayratki, u o'zida shunga jur'at va jasorat topdi. Shu ma'noda uni sira ikkilanmasdan mamlakatimiz, qolaversa, jahon tarixidagi buyuk islohotchi davlat boshliqlari bilan bir qatorga qo'yish mumkin, deb o'ylayman. Nafsilamrini aytganda, internet sahifalaridagi turfa

¹Cho'lpon. «Yana oldim sozimni». Toshkent: G'afur G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti. 1991. 407-b.

fikrli maqolalar, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy chiqishlarda unda dunyo tarixida yorqin iz qoldirgan bir qator ulkan siyosiy arboblarga o‘xshash jihatlar borligi haqida fikr bildirilibdi. Taniqli bir siyosatshunos esa uni xitoylik ulkan siyosat arbobi Den Syao Pinga o‘xshatibdi. Bunday muqoyasalar shartli va nisbiy, albatta. Mening fikri ojizimga ko‘ra, u, eng avvalo, o‘tmishdagi arboblarning faoliyatini chuqur va atroflicha o‘rganib, siyosatda o‘zining o‘ziga xos yo‘li va uslubini belgilab olgan, shu bilan bir qatorda ushbu uslubni davr, muayyan shart-sharoitlar taqozosiga ko‘ra tinimsiz takomillashtirib, mukammallashtirib borayotgan zamonaviy davlat arbobidir.

Siyosatda samimiyatga qat’iy rioya qilish qiyin, deyishadi va siyosat arboblarni imkonsizlik sharoitidagi san’at sohiblari deb atashadi. Bo‘lsa bordir. Lekin mening nazarimda, O‘zbekistonning bugungi rahbari nisbatan qisqa fursatlarda xuddi ichki siyosatda bo‘lgani kabi, tashqi siyosatda, xalqaro aloqalarda havas qilarli darajadagi yuksak natijalarga erishgani, hatto shu choqqacha eng murakkab hisoblanib kelingan nuqtalarda ham ijobiy munosabatlar o‘rnata olgani aynan ana shu – Samimiyat tufayli desam mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Samimiyat esa hamisha yaxshi niyat, xolis maqsad hosilasi sifatida maydonga keladi. Hozirgi omonat dunyoda, ayniqsa ayrim kelib chiqishi bir, dini-yu tili mushtarak davlatlar, xalqlar o‘rtasida o‘ta fojiali nizolar davom etib turgan bir vaziyatda bunday xolislik, tevarak-atrofga ezgu va do‘stona nazar bilan qarashning qadr-u bahosini ta’riflashga til ojizlik qiladi.

Bunday xolislik zamirida esa, shak-shubhasiz, Yaratganning eng oliy kashfiyoti bo‘lmish Inson qadr-qimmatini aziz tutish, uni do‘st-u birodar bilish his-tuyg‘usi mujassamdir.

Bas, shunday ekan, yakuniy mulohazalarimni yaxlit va muxtasar qilib: Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatining asl mohiyatini Insonga mehr, uni asrash va avaylash, aziz va mukarram tutish, qadrini ko‘tarish

ishtiyoqi tashkil etadi va bu samimiy ishtiyoq yolqini har bir vatandoshimiz qalbiga yetib bormoqda, tasavvuri-yu tafakkurini yoritmoqda, ularda ezgulik chechaklarini undirmoqda, degan xulosa bilan yakunlashni istayman. Inshaalloh, bu ishtiyoq aslo soʻnmagay!

Kitobimga soʻnggi nuqtani qoʻyar ekanman, uni yozishda oʻz maslahatlari bilan yaqindan yordam bergan barcha doʻstlarga, shuningdek, oʻz eʼtiboriga loyiq koʻrib mutolaa etgan kishilarga chuqur minnatdorchilik bildirgan holda men uchun qimmatli fikr-mulohazalarini kutib qolaman.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Амир Темур. Темур тузуклари. Тошкент: «Ўзбекистон», 2015 й.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2016 й.
3. Алишер Навоий. «Ҳайратул-аброр». Тошкент: Ўз. КП. МК, 1983 й.
4. Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. Тошкент: «Чўлпон», 1990 й.
5. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» нашриёти, 2018 й.
6. Кайковус. Қобуснома. Тошкент: «Истиқлол», 1994 й.
7. Низомулмулк. Сиёсатнома. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2014 й.
8. Шароф Рашидов. Сайланма. Тошкент: «Маънавият», 2017 й.
9. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017 й.
10. Шавкат Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018 й.
11. Шавкат Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019 й.
12. Шавкат Мирзиёев. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020 й.
13. Шавкат Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018 й.
14. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент: «Ўзбекистон», 2022 й.
15. Аристотель. Политика. Москва: Издательская группа АСТ, 2016 г.
16. Плутарх. Сайланма. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2020 й.
17. Конфуций. Сухбатлар ва мулоҳазалар. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2014 й.
18. Лев Троцкий. Сталин. Москва: Издательство политической литературы, 1990 г.

19. Жеймс Мак Грегор Бернс. Франклин Рузвельт. Человек и политик. Москва: Центрполиграф, 2004 г.
20. В.Г. Трухановский. Уинстон Черчил. Москва: «Международные отношения», 1982 г.
21. Н. Молчанов. Генерал Де Голь. Москва: «Международные отношения», 1973 г.
22. Никколо Макиавелли. Государь. Москва: «Планета», 1990 г.
23. Арнольд Джозеф Тойнби. Постигание истории. Москва: «Прогресс», 1991 г.
24. Збигнев Бжежинский. Великая шахматная доска. Москва: Издательская группа АСТ, 2017 г.
25. М. Иванин. Икки буюк саркарда. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2019 й.
26. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1990 й.
27. Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтаҳаб ат-таворих. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2010 й.
28. Чўлпон. Яна олдим созимни. Тошкент: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991 й.
29. Абдулла Орипов. Ўзбекистоним. Тошкент: «Адабиёт», 2021 й.
30. Эркин Воҳидов. Инсон. Тошкент: «Ўқитувчи» НМИУ, 2018 й.
31. Неъмат Аминов. Ёлғончи фаришталар. Тошкент, 1986 й.
32. Абдуқаҳҳор Иброҳимов. Бизким, Ўзбеклар. Тошкент: «Шарқ» НМАК, 2019 й.
33. С.Искандаров и другие. Ташкентский ордена Трудового красного знамени институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства. 1934-1984. Ташкент. Узбекистан, 1984 г.
34. Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти. ТИҚХММИ. 1992 (1934)-2020. Тошкент. 2020.
35. Шароф Убайдуллаев, Ҳабиб Темиров. Академик Саъдулла Искандаров: комил инсон ҳақида сўз. Тошкент: «Шарқ» НМАК, 2021 й.
36. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт жилдлик. Тошкент: «ФАН» нашриёти, 1983 й.
37. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-2 т. Москва: «Рус тили», 1981 й.
38. Словарь иностранных слов. Москва: «Русский язык», 1988 г.
39. «Янги Ўзбекистон» газетаси. 2021 йил 17 август сони.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. Toshkent: «O'zbekiston», 2015-y.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2016-y.
3. Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror». Toshkent: O'z. KP. MK, 1983-y.
4. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. Toshkent: «Cho'lpon», 1990-y.
5. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2018-y.
6. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent: «Istiqlol», 1994-y.
7. Nizomulmulik. Siyosatnoma. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014-y.
8. Sharof Rashidov. Saylanma. Toshkent: «Ma'naviyat», 2017-y.
9. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017-y.
10. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018-y.
11. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019-y.
12. Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020-y.
13. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018-y.
14. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: «O'zbekiston». 2022-y.
15. Аристотель. Политика. Москва: Издательская группа АСТ, 2016 г.

16. Plutarx. Saylanma. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2020-y.
17. Konfutsiy. Suhbatlar va mulohazalar. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014-y.
18. Лев Троцкий. Сталин. Москва: Издательство политической литературы, 1990 г.
19. Жеймс Мак Грегор Бернс. Франклин Рузвельт. Человек и политик. Москва: Центрполиграф, 2004 г.
20. В.Г. Трухановский. Уинстон Черчил. Москва: «Международные отношения», 1982 г.
21. Н. Молчанов. Генерал Де Голь. Москва: «Международные отношения», 1973 г.
22. Никколо Макиавелли. Государь. Москва: «Планета», 1990 г.
23. Арнольд Джозеф Тойнби. Постигение истории. Москва: «Прогресс», 1991 г.
24. Збигнев Бжежинский. Великая шахматная доска. Москва: Издательская группа АСТ, 2017 г.
25. М. Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2019-y.
26. Nyerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990-y.
27. Muhammad Hakimxon To‘ra. Muntahab attavorix. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2010-y.
28. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991-y.
29. Abdulla Oripov. O‘zbekistonim. Toshkent: «Adabiyot», 2021-y.
30. Erkin Vohidov. Inson. Toshkent: «O‘qituvchi» NMIU, 2018-y.
31. Ne‘mat Aminov. Yolg‘onchi farishtalar. Toshkent, 1986-y.
32. Abduqahhor Ibrohimov. Bizkim, O‘zbeklar. Toshkent: «Sharq» NMAK, 2019-y.
33. С.Искандаров и другие. Ташкентский ордена Трудового красного знамени институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства. 1934 – 1984. Ташкент: Узбекистан, 1984 г.

34. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti. TIQXMMI. 1992 (1934) – 2020. Toshkent. 2020.
 35. Sharof Ubaydullayev, Habib Temirov. Akademik Sa'dulla Iskandarov. Komil inson haqida so'z. Toshkent: «Sharq» NMAK, 2021-y.
 36. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt jildlik. Toshkent: «FAN» nashriyoti, 1983-y.
 37. O'zbek tilning izohli lug'ati. 1 2 t. Moskva: «Rus tili», 1981-y.
 38. Словарь иностранных слов. Москва: «Русский язык», 1988 г.
 39. «Yangi O'zbekiston» gazetasi. 2021-yil 17-avgust soni.
-

МУНДАРИЖА

МУАЛЛИФДАН	3
<i>Биринчи боб</i>	
ЗАКОВАТ ВА ШИЖОАТ, ЖУРЪАТ ВА ҚАТЪИЯТ.....	13
<i>Иккинчи боб</i>	
ИЛК УЧРАШУВ, ТАНИШУВ, СУХБАТ.....	32
<i>Учинчи боб</i>	
КЎНГИЛ СЕЗГИСИ – ЯРАТГАННИНГ БЕБАҲО ИНЪОМИ.....	53
<i>Тўртинчи боб</i>	
ҚУТЛУҒ ҚАДАМЛАР	79
<i>Бешинчи боб</i>	
ЭРКИНЛИК ҚУДРАТИГА ТАЯНИБ.....	103
<i>Олтинчи боб</i>	
«БИР СЎЗ ДЕГИЛКИ, РОСТ БЎЛСИН...»	108
<i>Еттинчи боб</i>	
ИНСОННИ ҚАДРЛАГАННИ ТАРИХ УЛУҒЛАЙДИ.....	131
<i>Саккизинчи боб</i>	
УЧИНЧИ РЕНЕССАНС – ҲАЁТБАХШ ҒОЯ	146
<i>Тўққизинчи боб</i>	
«ЭМАС ОСОН БУ МАЙДОН ИЧРА ТУРМОҚ».....	153
<i>Ўнинчи боб</i>	
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН МЕЪМОРИ	164
<i>Ўн биринчи боб</i>	
ШОГИРД КАМОЛОТИ – УСТОЗ САОДАТИ.....	174
ХУЛОСА ЎРНИДА.....	183

MUNDARIJA

MUALLIFDAN	203
<i>Birinchi bob</i>	
ZAKOVAT VA SHIJOAT, JUR'AT VA QAT'IYAT	212
<i>Ikkinchi bob</i>	
ILK UCHRASHUV, TANISHUV, SUHBAT	229
<i>Uchinchi bob</i>	
KO'NGIL SEZGISI – YARATGANNING BEBAHO IN'OMI	249
<i>To'rtinchi bob</i>	
QUTLUG' QADAMLAR.....	272
<i>Beshinchi bob</i>	
ERKINLIK QUDRATIGA TAYANIB.....	293
<i>Oltinchi bob</i>	
«BIR SO'Z DEGILKI, ROST BO'LSIN...».....	298
<i>Yettinchi bob</i>	
INSONNI QADRLAGANNI TARIX ULUG'LAYDI	318
<i>Sakkizinchi bob</i>	
UCHINCHI RENESSANS – HAYOTBAXSH G'OYA.....	331
<i>To'qqizinchi bob</i>	
«EMAS OSON BU MAYDON ICHRA TURMOQ»	337
<i>O'ninchi bob</i>	
YANGI O'ZBEKISTON ME'MORI.....	347
<i>O'n birinchi bob</i>	
SHOGIRD KAMOLOTI – USTOZ SAODATI	356
XULOSA O'RNIDA.....	364
Фойдаланилган адабиётлар	374
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	376

Саъдулла
ИСКАНДАРОВ

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН МЕЪМОРИ

Президент Шавкат Мирзиёевнинг
сиёсий портретига чизгилар

Публицистик нашр

Масъул муҳаррир:

Ҳабиб Темиров,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси

Маслаҳатчи:

Лола Искандарова

Муҳаррирлар:

Анвар Намозов, Наврўз Бекмуродов

Бадий муҳаррирлар:

Ўткир Тожибоев, Иномжон Ўсаров

Кичик муҳаррир:

Замира Раҳматова

Техник муҳаррир:

Нодира Шомуродова

Мусахҳиҳлар:

Дилрабо Ашурова, Акбарали Ашуров

Дизайнер ва саҳифаловчи:

Санжар Дониёров



Нашриёт лицензияси:
№1809-895f-8057-9de3-5f63-7964-7342.
Теришга берилди: 21.05.2022.
Босишга берилди: 21.07.2022.
Силлиқ қоғоз. Қоғоз бичими: 70x100 $\frac{1}{16}$.
Тinos гарнитураси. Офсет босма.
Шартли б.т.: 19,8. Ҳисоб-нашриёт т.: 26. Адади: 5 000 нусха.
Буюртма №2295

«Yangi kitob» нашриётида нашрга тайёрланди.
100138, Тошкент шаҳри Учтепа тумани
Чилонзор даҳаси 13-мавзе 45-уй.



COLORPACK

«КолорПак» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
100206, Тошкент, Янгишаҳар кўчаси, 1-А.
